Turarjoy hududlarini ekologik jihatdan rivojlantirish tendentsiyalari:

Shaharsozlik turarjoy tuzilmalarining turlari:

-Turarjoy hududlari- asosan yoki faqat turarjoy uylari qurilishi uchun mo'ljallangan hududlar

Shaharsozlik turarjoy tuzilmalarining asosiy turlari quyidagicha:

Turarjoy uylar guruhi – uylarning bir-biri bilan yaqin joylashgan bir butun guruhni tashkil etishi,ayniqsa hovli qatrofida,guruhlarning ko'cha,to'siqlar bilan ajratilgan chegarasi bo'lmasligi mumkin. (3-rasm)

3-rasm. Turarjoy uylar guruhi

Yashash kvartali mahalla-50%dan ko'proq hududi turarjoy uylari va uy oldi uchastkalardan iborat bo'lgan, yashash ko'chalari bilan qisman o'ralgan hudud (4-rasm)



4-rasm. Yashash kvartali (mahalla)

Kichik tuman/mikrorayon/ - 6 ÷20 ming kiishi yashaydigan aholi punkti, buning hududida turarjoylardan tashqari kundalik, yaqin masofada aholiga xizmat ko'rsatadigan.Muassasa va tashkilotlar joylashgan (5-rasm)

5-rasm. 6-20 ming kishilik kichik tuman (mikrorayon)



6-rasm. 25-80 ming kishilik urarjoy maskani

Turarjoy maskani(rayoni)- 25÷80 ming kishi yashaydigan magistralaro hudud,buning chegarasida kichik tumanlar,kvartallar hamda markaziy aholiga davriy xizmat ko'rsatish muassasalari joylashgan. (6-rasm)

Qoida bo'yicha kichik tumanlar va turarjoy maskanlari katta shaharlarda shakllanadi shaharsozlik turarjoy tuzilmalarining shakllanishining eng muhim shartlari bu turarjoy muhitining majmualligi bo'lib quyidagilarni ta'minlaydi:yetarli o'lchamdagi uy oldi obodonlashtirilgan xududning mavjuligi,hama maishiy jarayonlarga moslashtirilgan, uylarga yaqin tashkil etilgan(bolalar o'yinlari,kattalarni dam olishi, axlatni olib tashlash va boshqalar) ;uylardan aholiga yaqin xizmat muassasalarigacha qulay yurish masofasi; turarjoy tuzilmalarining aholi ish joy, davriy xizmat ko'rsatish markazi dam olish obyektlari bilan qulay transport va piyoda yurish aloqalari.

Kam qavatli turarjoy tuzilmalarining shakllanishi. Kam qavatli turarjoy qurilishi (1,2 qavatli) yuqori darajada ekologik qulay turarjoy muhitini yaratish kriteriyalariga to'g'ri keladi.Shu bilan birga qimmatbaho shahar yerlarini samarali ishlatishga yo'l bermaydi shuning uchun kam qavatli turarjoy tuzilmalari kichik shaharlarda yoki katta shahar atrofi va chegara zonalarida joylashtiriladi.

O'rta qavatli turarjoy tuzilmalarining shakllanishi.O'rta qavatli turarjoylar (3-5 qavatli) shaharsozlik amaliyotida keng qo'llanilmoqda.Bu turdagi uylarda inson keng miqyosda,qulay yashash sharoitlari va sog'lom turmush tarzini shu bilan birga shaharning qimmatbaho yer hududlaridan samarali foydalaniladi. [3]

Yuqoridagi sog'lom va xavfsiz turarjoy mezonlari, yashash muhitining qulay fazilatlari va rivojlanish tendensiyalariga amal qilgan holda quyida turarjoy muhitining ekologik jihatdan rivojlantirish metodlarinini ko'rib chiqamiz. (7-rasm)



7-rasm. Turarjoy muhitini ekologik jihatdan rivojlantirish.

3.5 ming kishiga mo'ljallangan turarjoy majmuasi 15 Ga maydonni egallaydi.Bu majmmuada transport va piyodalar harakatini ajratish tamoili amlaga oshirilgan.Transportsiz turarjoy xovlilarini yaratilishi aholini qulay va xavfsiz yashashi atrof muhit ekologiyasi talablariga yuqori darajada javob beradi.

Turarjoy majmuasi tarkibida 2 turdagi fazalar ajratilgan: yashash hovlilari va jamoa binolari – jamoa savdo markazi, maktab, bolalar bog'chasi, sport maydonchalari, sog'lomlashtirish meditsina majmuasi. Transport va piyodalarning ajratish printsipi qo'llanilgan bo'lib transport xizmati tashqaridan amalga oshiriladi, majmuaning ichki fazosida faqat piyodalar yuradi

1. Energiyatejamkorlik, muqobil va noananaviy energiya manbalaridan foydalanish. Turarjoy tuzilmalarining ekologik rivojlanishining asosiy tamoyillaridan biri bu energiyatejamkor, muqobil va noananaviy energiya manbalaridan foydalanishdir.

Energiyatejamkorlik o'rab turgan tashqi devor tuzilmalarning issiqlik izolyatsiya qiluvchi qoplamalarni samarali ishlatish natijasida, tartibga solish tizimi va xonalarda xarorat rejimini ushlash.Qurilishni oqilona planlashtirish va ko'kalamzorlash, shamol kuchini kamaytirib qulay mikroiqlim muhitini taminlashga erishiladi. [4]

Energiyatejamkorlik uchun kommunal tarmoqlarni markazsizlashtirish (7-rasm)**,** kam quvvatli kichik inshootlar bilan samarali foydalanishi: mahalliy- guruh foydalanuvchilar uchun(kvartal, mahalla) yoki avtonom- bitta foydalanuvchi uchun. Bu tuzilmalar zamonaviy texnologiya va uskunalarni ishlatib tejamkor energiyaresurs va atrof muhit muxofazasini ta'minlash kerak.

Muqobil va noananaviy energiya manbalarni ishlatish, ananaviy energiya manbai(ko'mir, neft, gaz) va atom yoqilg'isini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Muqobil va noananaviy energiya manbalariga- quyosh radiatsiyasi energiyasi, shamol, vodorod, kichik gidroenergetika, yer osti suv va havoni past darajadagi issiqligi va boshqalar, hamda ikkilamchi energiya manbalari(ishlab chiqarish va mayishiy oqova suvlar, shamollatish tizimlari issiqligi va boshqalar)

Energiya ta'minlash tizimida ananaviy va muqobil yashil energiya manbalarni ratsional kombinatsiyalash, energiyani istemolga ishonchli va uzluksiz sifatli ta'minlashga erishiladi

2.Turarjoy hududlarining ekorivojlanish metodlari. Turarjoy hududlarining joylashuvidan foydalanish.Turarjoy tuzilmalarini joylashtirish uchun hududlarni tanlash shaharning bosh planini ishlab chiqish bilan aniqlanadi,bunda shahardagi funksional quyi tizimlarning o'zaro joylashuvi va rivojlanishi- davlat jamoa xizmatlari, ish joyi, dam olish, transport, muhandislik-texnik ta'minlash omillar majmuasini hisobga olish kerak bo'ladi.

Turarjoy muhitining ekologik xarakteristikasini ko'pincha hududga nisbatan ifloslanish zona va manbalari bir tomondan, ikkinchi tomondan ko'kalamzor massivlari va akvatoriyalarning joylashuvini aniqlaydi. **…** Turarjoy muhiti sanoat korxonalariga nisbatan shamol esadigan tomonda va parklarga,shahar, shaharatrofi ko'kalamzor hududlariga akvatoriyalarga yaqin joylashishi afzaldir. Shakllangan shaharlarda turarjoy hududlari joylashuvi aniq va o'zgarmaydi, lekin bu hududlarni o'ziga xosligidan foydalanib, ekologik sifatini yaxshilash mumkin.

3. **Turarjoy tuzilmalarning arxitekturaviy-rejalashning tashkillashtirish metodlari.** Turarjoy muhitining sog'lom, xavfsiz va qulay yaratish yo'nalishida, arxitekturaviy-rejalash metodlariga quyidagilar kiradi:

- Turarjoy muhitinig fizik va psixologik xavfsizligi, estetik jozibadorligi va individualligini taminlaydigan yopiq va yarimyopiq turarjoy fazolarining shakllanishi.
- Kichik turarjoy tuzilmalarning ajralishi(8-10ga), mahalliy ko'chalarning o'tkazish yordamida, bu bilan transport xizmatini turarjoy guruhining hovlisiga nisbatan tashqaridan, yerusti va yerosti garaj va avtoturargohlarga qulay kirish ta'minlanadi.
- Yashash qulayligini oshirish maqsadida uylarning birnichi qavatida xonadonlarda ko'kalamzor maydonlar(bog'cha) tashkil etish

4.Avtotransportning salbiy ta'siridan himoya metodlari. Turarjoy tuzilmalarda transport xizmatlarini quyidagicha tashkil etish kerak, hovli fazalarini transport vositalaridan maksimal ozod etish bu bilan yashovchilarga qulay(komfort) sharoit taminlanadi.

Turarjoy tuzilmalar ichiga transport vositasi kirmasligi yoki kesib o'tishini bartaraf qilish uchun ko'chalar xalqa yoki doirasimon loyihalanadi va undan boshi berk ko'chalar ajralib uylarga, garajlarga va avtoturargohlarga boradi.

Uylar oldi hududlar va turarjoy binolarining avtotransportning shovqini va boshqa salbiy ta'sirini bartaraf qilish maqsadida maxsus usullar ishlatiladi: bino va avtomagistralning bir- biriga nisbatan joylashuvi, ko'kalamzor, relyefni modellashtirish shovqindan himoya maxsus to'siqlar joylashtiriladi (8-rasm)



8-rasm. Avtotransportning salbiy ta'siridan himoya metodlari.

5. Turarjoy hududlarining ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish metodlari. Turarjoy tuzilmasining yashil maydonlari bitta tizim bo'yicha shakllanishi kerek, uning yadrosi park bo'lib hamma yashovchilar uchun iloji boricha bir xil uzoqlikda foydalanishi mumkin bo'lishi kerak. Yashil maydonlar ulushi umumiy maydonning 30% dan kam bo'lmasligi kerek. [5] Park bilan ko'kalamzor yashil hovlilarni tutashtirish-aloqa sifatida yashil piyoda va velosiped yo'laklar ishlatilishi mumkin bo'lib muhitga bular hammasi fazoviy jihatdan birlashadi va atrof muhit ekologik muvozanatini saqlashga olib keladi. Turli yoshdagi bolalar uchun o'yin maydonlari, kattalarning dam olishi, sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish maydonlarining joylashtirishda insolyatsiya, aeratsiya, shovqin va rangdan himoya, psixologik qulaylik talablari ta'minlanishi kerak.

6. Estetik qulay yashash muxitini yaratish metodlari.

Turarjoy tuzilmalari tashqi qiyofaning individualligiga ega bo'lishi kerak. Bunda binolarning xilma-xil joylashuvi,ularning (formasi) shakllari, plandagi konfiguratsiyasi

Balandliklar nisbati ahamiyatlidir. Rangshunoslik(kaloristika),ko'kalamzor texnikasi, kichik arxitektura shakllari muhim ahamiyatga ega. Arxitekturaviy badiiy individual ko'rinish va estetik muhitlar yaratish.

Xulosa

Zamonamizning tez va keskin rivojlanishi natijasida shaharlarimizda paydo bo'layotgan ekologik va yashash sharoitlarining o'zgarishi turarjoy muhitini keskin o'zgartirish yo'llarini aniqlab, ShNQ, QMQ, Shaharsozlik kodeksi va zamonaviy davlat standartlari, sanitariya-gigiena qonun-qoidalari va normalariga asosan renovatsiya loyihalarini talab darajasida bajarib, amaliyotda tadbiq etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Loyihalarda maqolada ko'rsatilgan talab va metodlarga rioya qilgan holda, xalqimizning urf-odatlari va qadriyatlarini hisobga olgan holda bajarish va amalga oshirish davr talabi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Г.А. Потаев «Экологическая реновация городов». БНТУ, Минск, 2009, стр. 19-22.
2. П.Г.Грабов, В.А.Харитонов Реконструкция и обновление сложившейся застройки города. М.; изд-во АВС. 2006. стр. 45
3. Л.В. Кашкина Основы градостроительства: Учеб.пособие для сред. проф. образ. - М.: ВЛАДОС, 2005.- стр. 147
4. Charles Bloszies. Old Buildings, New Design. Architectural transformations. Princeton Architectural Press. New York. 2012. p. 86
5. Л.Н Авдотьин. Градостроительное проектирование. – М.: Стройиздат, 1989. стр. 254
6. Rahimov Laziz Abduazizovich PhD, & Uralov Axtam Sindarovich. (2023). BABUR - THE PRINCE OF GARDENS. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(10), 1–8. Retrieved from
7. Khayitboevich, U. O., & Gulnoza, U. (2023). THE HISTORY OF CERAMIC DECORATIONS APPLIED TO CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(10), 210-215.
8. Marjona, K., & Iroda, S. I. (2023). THE ESSENCE OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX IN OUR CULTURAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 662-665.
9. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). ESTABLISHING AN EXEMPLARY CULTURAL AND RECREATION PARK COMPLEX. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, *2*(11), 50-54.
10. Ruxshona, A., & Muxlisa, N. (2024). RECONSTRUCTION AND RESTORATION WORK CARRIED OUT AT THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, *2*(4), 89-97.

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИССИҚ-ҚУРУҚ ИҚЛИМИ ШАРОИТИДА ШАҲАРЛАРНИ КЎКАЛАМЗОРЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ, АСОСИЙ ТАМОЙИЛЛАР ВА ВАЗИФАЛАР

А.С. Уралов *архитектура фанари доктори, профессор*
Самарқанд давлат архитектура –қурилиш университети (Ўзбекистон) тел. +998973394811

FEATURES, BASIC PRINCIPLES AND TASKS OF CITY GREENING IN THE HOT-DRY CLIMATE OF UZBEKISTAN

A.S. Uralov *- Doctor of Architecture, Professor*
Samarkand State University of Architecture and Construction (Uzbekistan) tel. +998973394811

Аннотация: Мақоланинг махсади иссиқ – қуруқ иқлимнинг шаҳарларни кўкаламзорлаштиришнинг ўзига хос фарқли жиҳатларини очиб беришдан иборатдир. Тадқиқот методи маскур мавзуга ойид адабиётлар ва маълумотларни ўрганиш, уларни таққослаш ҳамда натурал тахлил усулларига асос-ланган. Мақола хулосасида иссиқ – қуруқ иқлимнинг шаҳарларни кўкалам-зорлаштиришга таъсири ва рўлини ҳисобга олиш, иссиқ мамлакатларда очиқ ва ёпиқ яшил кўкаламзорлар муҳитнинг аҳамияти, бундай кўкалам-зорлар муҳити эгаллаган майдонларнинг ўзаро нисбати, улар орасидаги физик ва экологик муносабатлардан табиий тарзда вужудга келадиган – “шабада сама-раси”, ушбу самарадан фойдаланиш асослари, иқлими иссиқ шаҳарлар кўка-ламзорларини лойиҳалашдаги асосий тамойиллар ва вазифалар, иссиқ-қуруқ иқлимли шаҳарларда ҳиёбонларнинг турлари, уларни кўкаламзорлаштириш усуллари очиб берилган. Мақолада шунингдек иссиқ-қуруқ иқлимли шаҳар-ларда кўкаламзорлаштириш учун ўсимликларни танлаш томойиллари баён этилган.

Калит сўзи: Иссиқ – қуруқ иқлим, шаҳарларни кўкаламзорлаштириш томойиллари ва вазифалар, очиқ ва ёпиқ яшил кўкаламзор муҳитлар, "ша-бада самараси", шаҳар ҳудудида кўкаламзорларни жойлаштириш, кўкалам-зорлаштириш учун ўсимликларни танлаш.

Кириш. Дунёда шаҳарларни кўкаламзорлаштириш ҳақида жуда кўп илмий маълумотлар, дарсликлар, ўқув қўлланмалар, спровочниклар, назариялар, ғоялар яратилган бўлсада, иссиқ – қуруқ иқлимли шаҳарларда кўка-ламзорларни ландшафт лойиҳалаштириш, кўкаламзорлар таркибидаги очиқ ва ёпиқ яшил муҳитлар ва улар орасида табиий тарзда юзага келадиган физик ва экологик муносабатларни эътиборга олган ҳолда кўкаламзорлаш-тиришни меъморий - ландшафт ташкиллаштиришга доир маълумотлар жуда кам ва улар етарли даражада тушунарли эмас. Масалан, иқлими ноқулай иссиқ – қуруқ шаҳарларни кўкаламзорлаштириш томойиллари бугунги кунда мутадил иқлимли шаҳарларникидан амалиётда деярли фарқ қилмай қелмоқда. Иссиқ – қуруқ иқлимли, шаҳарларни кўкаламзорлаштиришда очиқ ва ёпиқ яшил кўкаламзор мухитлар орасидаги муносабатлардан ҳосил бўладиган "шабада самараси" эътибордан четда қолган. Шаҳарларни кўкалам-зорлаштиришда тавсия этилган меъёрлар ҳам деярли унут бўлган. Маскур мақола ушбу муаммоларни илмий-назарий жиҳатдан ойдин-лаштиришга ва уни ечишга қаратилган.Биз ана шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, яъни иссиқ – қуруқ иқлимли шаҳарларда кўкаламзорлаштиришда фойдаланиладиган очиқ ва ёпиқ яшил кўкаламзор муҳитлар орасидаги муносабатларни график ва на-зарий ўрганиб чиқдик ва унга асосланган ҳолда қуруқ - иссиқ шаҳарларни кўкаламзорлаштиришга доир тавсия ва таклифларимизни ўртоқлашишга харакат қилдик. Бу эса тадқиқотнинг асосий мақсадини таш-кил қилади, унинг вазифаси эса ўша тавсия ва таклифларнинг, тўғрилигини исботлашдан иборатдиор.

Тадқиқот методи муаммога доир илмий ва махсус адабиётлар, лойиҳа ва ҳужжатларни ўрганишдан тўпланган материалларни таҳлил қилиш, иссиқ – қуруқ иқлимли, шаҳарлар худудини кўкаламзорлаштириш бўйича янгича таклиф ва тавсиялар бериш усулидан иборатдир.

Тадқиқот натижаси. Ўзбекистон кам ўрмонзорли ва серқуёш республ-лика, шунинг учун унинг иқлими ва табиати сунъий яратилган кўкалам-зорлар ва ўсимликларга кўп жиҳатдан боғлиқдир. Бу ўлкада соя ва сув ўта долзарб масаладир. Шунинг учун ҳам шаҳар ва қишлоқларимизда кам сув сарфлаб кўп сояли ва салқин масканларга эга бўлиш жуда муҳимдир. Бунга эришишнинг энг осон ва тезкор йўли бу кўкаламзорлаштиришдир.

Шаҳарлар, туман марказлари ва аҳоли пунктлари ичи кўкаламзорлар тизимининг энг йирик звенолари бу, албатта, маданият ва истироҳат парк-лари ва бошқа махсус паркдир. Шаҳар ичи кўкаламзорлари тизимининг элементларига юқоридагилардан ташқари, яна шаҳар майдонлари, ҳиёбон-лар, скверлар, бульварлар, кўкаламзор пиёда йўллар ва соҳиллар бўйлаб жойлашган боғлар ҳам киради. Бу кўкаламзор элементларнинг бўлиш–бўлмаслиги аҳоли пунктининг катта–кичиклиги ва структуравий тузилишга кўп жиҳатда боғлиқдир.

Кўкаламзорлар тизимини ҳажмий тузилиши ва ташқи кўринишига қараб шартли равишда очиқ ва ёпиқ яшил муҳитларга бўлиш мумкин[1]. Очиқ яшил кўкаламзор муҳитларга манзаравий партер гулзорлар ва майсазорлар, очиқ ҳиёбонлар кирса, ёпиқ яшил муҳитга ёпиқ ҳиёбонлар, дарахт ва баланд буталардан тузилган яшил массивлар, ўрмонзорлар киради. Ёпиқ яшил кўкаламзор муҳит–бу дарахтзорлар ичидаги майсазорлар, йўлаклар, ҳиёбонлардан ва асосан соя ва салқин муҳитлардан ташкил топади. Бундай муҳитда осмон деярли кўринмайди, ҳамма жой соя-салқин бўлади. Очиқ яшил муҳит эса бунинг акси, унда соя бўлмайди, муҳитга қуёш тушади, очиқ муҳитдаги барча ландшафт элементлари ва осмон кўринади[1].

Ёз пайтида кундуз куни очиқ яшил муҳитдаги ҳавонинг ҳарорати ёпиқ яшил муҳит ҳавосига нисбатан иссиқ бўлади. Маълумки, иссиқ ҳаво вазни совуқ ҳавога кўра енгилдир. Бунинг оқибатида ёпиқ яшил муҳитдаги оғир ҳаво очиқ муҳитдаги ўзидан енгил бўлган иссиқ ҳаво томон оқади ва унинг жойини эгаллашга ҳаракат қилади. Бундай ҳаракат ёпиқ яшил муҳитнинг очиқ яшил муҳитдан каттароқ жойни эгаллаганда содир бўлишини такидлаб ўтамиз. Ҳавонинг бундай оқими, яъни ҳаво силжиши оқибатда ёпиқ ва очиқ яшил муҳитлар чегарасида енгилгина шаббода юзага келади. Бу табиий воқеликни биз **"шаббода самараси"** деб атадик. Кечаси эса бунинг акси, яъни очиқ яшил муҳит қуёш ботиши билан ёпиқ яшил муҳитга нисбатан тез совуб кетади ва шаббода тескари томон-ёпиқ яшил муҳитга қараб ҳаракат-ланади.

Очиқ ва ёпиқ яшил муҳитлар доирасида содир бўладиган бундай ижо-бий ҳаво ҳаракатининг қонуниятидан кўкаламзорларни лойиҳалашда Ўз-бекистоннинг иссиқ ва қуруқ иқлими шароитида самарали фойдаланишни, бунинг учун эса шаҳар кўкаламзорлар тизимида ташкил этиладиган ёпиқ ва очиқ яшил муҳитлар майдонининг ўзаро нисбатини 1:0,65 тарзда олишни тавсия киламиз.

Кўкаламзорлар тизимини лойиҳалашга доир мавжуд адабиётлар [2; 3;6] ва меъёрий ҳужжатларни [5] ўрганиш, таҳлил қилиш ва таққослаш асосида иссиқ – қуруқ иқлимли шаҳарлар кўкаламзорлар тизимини лойиҳалаш ва ташкил этишнинг қуйидагича **асосий тамойиллари** ва вазифаларини аниқ-ладик. Кўкаламзорлар тизимини лойиҳалашнинг асосий тамойиллари қуйи-дагилардан иборат:

1) Аҳоли пункти ҳудуди бўйлаб **яшил кўкаламзорларни тенг ма-ромда тақсимлаш ва жойлаштириш.** Мазкур талаб энг аввало умумий фойдаланувчи кўкаламзорларга тааллуқлидир;

2) **Яшил кўкаламзорлар тизимининг аҳоли пункти ҳудуди бўйича узлуксизлиги ва узвийлигини таъминлаш.** Ушбу тамойил шаҳар маркази ва боғ–паркларининг яшил ҳудудларини бир–бирига

кўкаламзор ҳиёбонлар, кўчалар, тротуарлар, сайргоҳлар, майдонлар ва соҳиллар ёрдамида боғлаб, уларнинг яхлит ва узлуксиз кўкаламзорлар тизимини яратиш орқали амалга оширилади;

3) Аҳоли пункти ички ва ташқарисида жойлашган кўкаламзор **яшил ҳудудларни бир–бирига боғлаш ва уларни ягона комплекс ечимга кел-тириш.** Мазкур талабга аҳоли пункти ичидаги яшил ҳудудларни функ-ционал ва композициявий жиҳатлардан шаҳар ташқарисида жойлашган рекреацион объектлар, хўжалик ва манзаравий боғ–роғлар, оромгоҳлар ҳудудига аҳоли пункти селитеб ҳудудининг ичигача кириб борувчи ўзига хос “яшил поналар”ни шакллантириш орқали эришилади.

Кўкаламзорлар тизимини лойиҳалаш ва ташкил этишда қуйидаги уч асосий вазифанинг ҳал этилиши зарурдир:

-функционал вазифа–турли мақсадларга мўлжалланган кўкалам-зор аҳоли пункти ҳудудларини ташкил этиш, шу жумладан аҳолининг қулай дам олиши учун боғ–парклар ва бошқа яшил муҳитлар тизимини яратиш;

-санитария-гигиеник вазифа–аҳоли пункти муҳитининг экологиясини соғломлаштириш ва микроиқлимини яхшилаш;

-меъморий–бадиий вазифа–бадиий жиҳатдан яхлит ва эстетик жози-бадор бўлган аҳоли пункти архитектуравий–ландшафт муҳитини ташкил-лаштириш ва шакллантириш.

Ўзбекистон шароитида **дарахт ва буталарнинг намлик (сув)га бўл-ган эхтиёжи**ни ҳисобга олиш катта аҳамиятга эгадир. Бу жиҳатдан уларни 3 гуруҳга бўлиш мумкин [4;6]:

1) намликка талабчан ўсимликлар (болотный кипарис, ивалар, лапина, топол туранга, ольха чёрная ва бош.);

2) намликка талабчанлиги ўртача ўсимликлар (бархат амурский, бе-рёза пушистая, вяз гладкий, клён явр, клен остролистный, липа мелко-листная, магнолия, ясен обыкновенный, ель колючая, ель серебристая, тис ягодный);

3) намликка кам талабчан ўсимликлар (айва японская, айланд, карагач, акация белая, аморфа, брючина обыкновенная, бояришник, глидичия, бёта, ель колючая, можжевельник виргинский, можжовельник казацкий, сосна кримская, сосна обыкновенная).

Шўрхок тупроқларга чидамли дарахт ва буталар борки, уларни билиш ҳам фойдадан ҳоли эмас. Солянкалар, чингиль, гребенщик, саксаул, мыльное дерево каби ўсимликлар хлорли шўр тупроқда ўса олиш қоби-лиятига эга [4;6].

Ясень, липа, лавр благородный, маслина европейская кабилар ҳатто из-вестли тупроққа талабчан дарахтсимонлардир. Айлант (хитой ясени) эса нефть билан ифлосланган тупроқда ҳам ўса олади. Шундай экан ўсим-ликларни ўтқазишда тупроқни яхшилаш имкони бўлмаса, энг тўғри йўл бу шу тупроққа мос келувчи ўсимликни танлашдир.

Шўрхоқ тупроқларда ўсувчи дарахт ва буталарга юқорида кўрсатил-гандек ясень, липа, лавр благародный, маслина европейская, айланд кабилар киради.

Маълумки, дарахт ва буталар ҳудудларни ташқи экологик таъсирлар-дан ҳимоялаш вазифасини ҳам бажаради. Ана шундай пайтларда [4;6].

Шовқиндан ҳимояланиш учун клен остролист-ний, оддий вяз, майда баргли липа, оддий ель, лиственница сибирская, жимолость татарская, сариқ акация, сибир бояришникларини;

Газлардан ҳимояланиш учун клен пенсильванский, лешина, каштан конский, манжурская, гледичая трёхколючковая, тополь серый ва чёрный, тополь канадский, оқ акация, биота, шелковица белая, можжевельники вир-гинский, казацкий, оддий бирючина, липа войлочная ва бошқаларни[4;6].

Чанглардан ҳимояланиш учун вяз перистоветвистий, ива белая пла-кучая, каштан конский, кулранг клен, клен татарский, полевой, тополь канадский, тополь болле, шелковица белая, ясень зелёный и обыкновенный, акация желтая, оддий бирючина, лох узколистий, спирея Ван–Гутталарни танлаш тавсия этилади.

Шамолни тўсиш ва ҳудудни соялаштириш мақсадида эса шох–шаббалари тиғиз ўсувчи дуб обыкновенный, каштан конский, клен ос-тролистный ва полевой, оддий ель, дуб черешчатий, гледичия, магнолия, майдабаргли липа ва бошқаларни танлаш тавсия этилади.

Аксари шаҳар ва қишлоқларни кўкаламзорлаштириш амалиётига хос бўлган асосий камчилик–бу экилаётган ўсимликларни танлашда ўрнатилган умумий тартиб–тизим ва тамойилларга риоя қилмасликдир. Айрим ҳолларда тамоман бир хилдаги ёки бир нечта ўсимликлар тартибсиз, уларнинг эколо–биологик хусусиятлари ва манзаравий сифатлари эътиборга олинмасдан экилмоқдаки, бу кўкаламлаштириш ишлари сифатининг пасайиб кетишига сабаб бўлмоқда. Шундай экан ҳар қандай яшил муҳитни шакллантириш энг аввало мазкур муҳитнинг функциясига, унинг қаерда ва қандай ҳудудда жойлашганига, маҳаллий табиий иқлим шароитларидан келиб чиққан ҳолда мазкур муҳитга экиладиган ўсимликлар (дарахтлар, буталар, гуллар ва бош-қалар) таркибининг қандай танланишига боғлиқдир.

Дарахтлар ва уларнинг манзаравий–биологик хусусиятларини ўрга-нувчи фан “Дендралогия”дир. Ландшафт архитекторлари ва боғбонлар ўсимликларни тўғри танлаш ва кўкаламзорларни лойиҳалаш ва уларни шакл-лантириш учун дендрологияни яхши билиши ва ўз билимларини амалда қўллай олишлари керак. Архитекторлар ландшафт объектлари ва кўкалам-зорларни лойиҳалашда бу объектларнинг вазифаси ва муайян табиий–иқлим шароитларидан келиб чиқиб, кўкаламларни шакллантириш учун қандай да-рахт ва буталарни ва улардан қанчасини танлаш, уларни лойиҳаланаётган объектнинг қаерига ва қандай режавий ландшафт композициясида экишни билиши ва лойиҳалаши зарур.

Экиладиган ўсимликларнинг барча имкониятларидан тўлиқ ва самара-ли фойдаланиш учун уларни танлашда қуйидаги асосий тамойилларга риоя қилиниши зарур [4].

- **танланаётган ўсимликларнинг кўкаламлаштирилаётган очиқ муҳит–масканнинг функциявий мақсадларига мос келиши.** Масалан, магистрал кўчанинг тротуари бўйлаб экиладиган ўсимликлар энг аввало транспорт шовқини, газ ва чангларга чидамли бўлиши, тротуар бўйлаб соя–салқин ҳосил қилиши ва жозибали манзара бериши шарт. Демак, тротуар учун ташқи кўриниши кенг, шохлари тиғиз жойлашган, газ, чанг ва шовқинга чидамли, айни пайтда кўркам манзарали дарахтлар танланиши шарт. Бирон–бир монумент ёки мемориал ёдгорлик атрофидаги сайргоҳни кўкаламзорлаштириш учун эса аксинча, асосий яшил материал бўлиб, партер типидаги манзарали майса ёки гул ўсимликлари айрим пастқам буталар билан қўшиб танланиши мумкин;

- **ўсимликлар экологик хусусиятларининг улар экиладиган му-ҳит шароитларига мос келиши.** Ўтқазиладиган жойда олдиндан мавжуд бўлган декоратив дарахтларга (агар улар қолдирилса) янги танланадиган ўсимликларнинг мос келиши ёки танланаётган дарахт ва буталарнинг бир–бирига ўзаро биологик ҳамжиҳатлиги, яъни бири иккинчисининг ўсишига зарар етказмаслик масалалари қараб чиқилиши зарур.

Танланаётган ўсимлик (дарахт ёки буталар)нинг мазкур ҳудуд табиий–иқлим шароитларига мос келиши ёки келмаслиги ҳам эътиборга олиниши шарт.

Дарахтсимон ўсимликларнинг гуллаш вақти ва гуллаб туриш да-врини билиш ҳам уларни мақсадга мувофиқ тарзда танлаш ва қўллашга катта ёрдам беради: эрта баҳордан февралнинг охиримартгача форзиция, багряник канадский; баҳорда (апрель–май)–атиргуллилар; ёзда (июнь–август)–аль-битция, брючина блестящая, дибискус каталпа, гортанзия, софора ва бош-қалар; кузда (сентябр–ноябрь)–роза маршинистая, сиперея сирень цветная, гибискус; қишда–камелия, зима цвет [2;4].

Бир ойдан кўп гуллаб турадиган дарахтсимон ўсимликларга: гортензия пониклая–1,5–2; гортензия садовая–1; легестремия индийская–2; камелия японская–6; розы ремонтатные–4–5; ўрта муддатда гуллайдиганларга: айва японская 0,5–1 ой, гортензия деревовитная–1 ойгача, ракетник длин-новет-вистый–3–4 ҳафта, роза многоцветковая–3 ҳафтагача гуллайди.

Кўкаламзорлаштиришда у ёки бу турдан фойдаланиш учун уларнинг ижобий имкониятларидан ташқари уларга хос бўлган салбий ҳолатларни ҳам билиш зарур. Буларга ўсимликларнинг ҳудудни ўз мевалари билан иф-лослаши (тополь, шелковица), игналари ёки барглари билан ифлослаши (платан, гледичия, юкка) ҳамда меваси ва баргларининг заҳарли бўлиши (можжевельник казацский) киради. Ушбу турларни болалар боғчалари, мак-таблар ва болалар паркларига экиш ман этилади.

Маълумки, Ўзбекистон аҳоли пунктлари ҳудуди ўсимликларни ўстириш ва кўкаламларни яратиш шароитига қараб шароити яхши, мураккаб ва ноқулай ҳудудларга бўлинади[2]. Ана шуни эътиборга олиб ўсимликларни ўстириш шароити турлича бўлган аҳоли пунктларида кўкаламларнинг умумий майдонини бир кишига меъёрлаштириш қуйидагича тавсия этилган[2]:

Ўзбекистон аҳоли пунктларини кўкаламлаштириш меъёрлари, м2 /1кишига (ТашЗНИИЭП бўйича, 1972 й.)

Кўкаламзорлар турлари	Турли хил шаҳарлар учун кўкаламзорлар майдони							
	Катта шаҳарлар		Ўрта шаҳарлар			Кичик шаҳарлар		
	Кўкаламзорларни яратиш шароити							
	яхши	мурак-каб	яхши			яхши	мурак-каб	ноқулай
Умумий фойдаланилувчи кўкаламзорлар	17-19	13-15	14-16	11-13	8-10	11-13	8-10	4-6
Фойдаланиши чекланган кўкаламзорлар	35-40	30-35	50-55	45-50	35-40	65-70	55-60	40-54
Кўкаламзорларнинг умумий майдони	50-60	45-50	65-70	55-65	45-50	75-80	65-70	45-50

Ўзбекистонининг иссиқ-қуруқ иқлими шароитида шаҳарлар ва аҳоли пунктлари ҳудудидаги умумий фойдаланилувчи ва фойдаланиши чекланган кўкаламзорлар умумий майдонининг иморатлар эгаллаган майдонига нисбати 1:1 дан кам бўлмаслиги, аҳоли пунктидаги барча кўкаламзорлар эгаллаган умумий майдон эса 1 кишига 50-60 кв.м дан кам бўлмаслиги белгилаб қўйилган [1].

Ўзбекистонда шаҳарларни кўкаламзорлаштиришда соя-салқин ҳосил қилувчи дарахтларни 1 гектарга 350-400 тагача олиш тавсия этилган [1;5]. Ушбу кўрсатгич иқлим шароити мутадил шаҳарлар учун 170-200 та да-рахтни ташкил қилади [1].

Иссиқ – қуруқ иқлимли, шаҳарларда ҳиёбонларни меъморий – ландшафт ташкиллаштириш бўйича ҳам фикримизни баён қиламиз. Маълумки, ҳиё-бонлар шаҳар ҳудудида ориентациявий, яъни уфқ томонларига қараб жой-лашиши бўйича меридионал, горизонтал ва диоганал йўналишлардаги тур-ларга бўлинади. Иқлим шароити иссиқ – қуруқ иқлимли, шаҳарларда бундай турдаги ҳиёбонларни кўкаламлаштириш усули бир-биридан фарқ қилади ва ҳиёбонлар усти очиқ ва ёпиқ ҳиёбонларга бўлинади.

Шарқий-жанубий ёки жанубий- шарқий диоганал йўналишдаги ва жой-лашиши экватор чизиғига параллел бўлган горизонтал ҳиёбонларнинг ус-ти очиқ, қолган йўналишларда, яъни меридионал йўналишларда ҳамда жа-нубий- ғарбий ёки ғарбий-жанубий йўналишларда жойлашган диоганал турдаги ҳиёбонларнинг усти ёпиқ бўлиши талаб қилинади. Бунга сабаб шар-қий-жанубий ёки жанубий-шарқий йўналишда жойлашган диоганал ҳиё-бонларда аҳолининг ҳаракатланиши ва ўтириб дам

олиш учун соя фақат бир томондан, яъни жануб томондан тушаётган қуёш нурларидан ҳимоя-ланиш учун керак бўлади. Шарқ томондан тушаётган қуёш нури эса инсон организми учун ҳавфсиздир. Худди шунингдек, экватор чизиғига параллел горизонтал жойлашган ҳиёбонларни ҳам фақат жанубдан ва жанубий-ғар-бдан тушаёган қуёш нурларидан ҳимоялаш зарур бўлади, чунки шимол тарафдан қуёш нури тушмайди. Демак, бундай ҳиёбон устини очиқ қол-дириш мақсадга мувофиқдир.

Мунозара. Агар биз Ўзбекистонимизнинг иссиқ – қуруқ иқлимли ша-ҳаррлари ҳудудини кўкаламзорлаштиришда мақолада кўрсатиб ўтилган томойиллар ва вазифаларга амал қилсак, айниқса иссиқ – қуруқ иқлимли шаҳарларни кўкаламзорлаштиришда очиқ ва ёпиқ яшил муҳитларни сунъий шакллантириб, улар орасида табиий тарзда содир бўладиган “шабада самараси”дан унимли фойдалансак, уларни кўкаламзорлаштиришда қўл-ласак, ўйлайманки, иссиқ – қуруқ иқлимли, Ўзбекистон шаҳарларини кўка-ламзорлаштиришда нафақат тўғри йўл тутган, балки ҳозирда шаҳарлари-мизда рўй бераётган экологик муаммоларнинг ҳам олдини олишимиз мумкин бўлар эди.

Бундан ташқари, иссиқ – қуруқ иқлим, шаҳарларда ёпиқ яшил кўка-ламзор муҳитларни ва ёпиқ ҳиёбонларни ташкил этиш орқали жазирама иссиқ шароитда шаҳар аҳолисига ўта зарур бўлган соясалқинликни, қулай микро-эко муҳитни шаклланти-риш имкониятга эга бўлар эдик.

Шундай қилиб, Ўзбекистон ҳудудида иссиқ – қуруқ иқлим шаҳарлар-ни кўкаламзорлаштиришда “шабада самараси”дан фойдаланишни ва уни амалда қўллашни нафақат соҳа мутахассисларига, балки “Шаҳар қурили-ши”, “Шаҳарларни кўкаламзорлаштириш ва ободонлаштириш” соҳаларида тахсил олаётган бакалавр ва магистрантларга ҳам таклиф этилса мақсадга мувофиқ иш бўлар эди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Уралов А.С; Адилова Л.А. Ландшафт архитектураси. –Тошкент,2014.

2.Кузьмичев И; Печеницын В. Озеленение городов и сел Узбекистана.-Ташкент,1979.

3. Горбочев В.Н. Архитектурно –художественные компоненты озелене-ния городов.-Москва, 1998.

4. Славкина Т.И.; Подольская О.Ч. Декоративное садоводство. Озеленение населенных мест.-Ташкент ,1987.

5. Рекомендации по нормированию, строительству и эксплуатации зе-леных насаждений Узбекистана.ТашЗ-НИИЭП.-Ташкент, 1972.

6. Қайимов А.Қ. Аҳоли яшаш жойларини кўкаламзорлаштириш.–Тош-кент, 2013.

ИҚЛИМ ШАРОИТИ ЭКСТРЕМАЛ БЎЛГАН ҲУДУДЛАРНИ КЎКАЛАМЛАШТИРИШДАГИ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР ВА ИННОВАЦИОН ТАКЛИФЛАР

С. Пирниязов – мустақил тадқиқотчи
Қорақолпоқ давлат университети (Қорақолпоғистон), Нукус шаҳри

А.С. Уралов – архитектура фанари доктори, профессор
Самарқанд давлат архитектура –қурилиш университети (Ўзбекистон)

FOREIGN EXPERIENCE AND INNOVATIVE PROPOSALS FOR GREENING TERRITORIES WITH EXTREME CLIMATIC CONDITIONS

S. Pirniyazov – independent researcher
Karakalpak State University (Karakalpakstan), Nukus

A.S. Uralov - Doctor of Architecture, Professor

Аннотация: Тадқиқотнинг мақсади Ўзбекистонда иқлим шароити ўсим-ликларни ўстириш бўйича ноқулай ҳисобланган ҳудудларни кўкаламзор-лаштиришдаги инновацион хорижий ва маҳаллий тажрибаларни ўрганиш ва шу асосда Орол бўйи минтақасидаги саҳроликлар ва аҳоли пунктларини кў-каламзорлаштириш ва уларнинг экологик шароитини яхшилаш бўйича так-лиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдир. Мақолада ҳудуди катта қумлик ва саҳ-роларга эга бўлган масканларда ўсимликларни ўстириш ва кўкаламзорлаш-тириш тажрибалари, хусусан Хитой ва Миср, Миср саҳроларида барпо этилаётган Serapium ўрмонзорларини яратиш тажрибалари ўрганилган ва бу тажрибалардан Ўзбекистоннинг ўсимликларни ўстиришга ноқулай ҳудудла-рида, жумладан шўр тупроқли ва саҳроли Орол бўйи аҳоли пунктлари ва ҳудудларида ўсимликларни ўстириш, кўкаламзорлаштириш, Орол бўйи саҳ-ро қумлари кўчкиларининг олдини олиш, саҳроли ва шўр тупроқли ҳудуд-ларни кўкаламзорлаштиришда оқава (канализация) сувларидан фойдаланиш бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзи: Қорақолпоғистон, Орол бўйи, ўсимликларнинг ўсишига ноқулай ҳудудлар, ҳудудларни кўкаламзорлаштириш ишлари, Ўзбекистон ва хорижий мамлакатлар, Миср, Хитой тажрибалари.

Кириш. Ўзбекистоннинг анчагина қисмида ўсимликларнинг ўсишига ноқулай бўлган, иқлими ёзда иссиқ ва қуруқ, қишда совуқ, шўр тупроқли, саҳроли ҳудудлар мавжуд бўлиб, бундай ҳудудларда флора ва фаунани сақлаб қолиш, уларнинг эрозиясига қарши курашиш, аҳоли пунктларини кўкаламзорлаштириш ишларини олиб бориш анча мураккаб ва ташвишли масаладир. Ўзбекистонда ана шундай ҳудудларга биринчи навбатда Қорақолпоғистон, Орол бўйи зонаси ва Қорақолпоғистоннинг шимолий ғарбий минтақасида жойлашган аҳоли пунктлари киради. Ушбу минтақа

ланд-шафти ва табиати Амударё сувининг камайиши, Орол денгизининг қуриб бориш натижасида кучли эрозия ва бузилишга юз тутган.

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати ва бутун жаҳон ҳамжамияти бу ҳолатнинг салбий таъсирини сусайтириш ва уни бартараф этиш бўйича ре-жали ишлар (Орол денгизининг суви қуриган шўр тупроқли ҳудудида саксовул ўсимлигини экиш, Тошкентдаги Қишлоқ хўжалик академияси олимларининг ушбу ҳудудда индигофера ўсимлигини экиш ва этиштириш каби ишлар) ни олиб бораётган бўлсада[1; 6], ушбу минтақа ландшафти ва табиатини жонлантириш, аҳоли пунктларини ва атроф-муҳитни кўкалам-зорлаштириш ишларида янада қониқарли даражага эришиш давлат аҳамиятидаги долзарб муаммога айланган.

Шундай экан, мазкур тадқиқот ўсиликларни ўстириш ноқулай бўлган саҳро зоналари ландшафтининг экология муҳитини ва иқлим шароитини ях-шилашнинг дунёвий тажрибаларини ўрганиб, ушбу тажрибалардан Қора-қолпоғистоннинг Орол бўйи зонасида жойлашган аҳоли пунктларини кўкаламзорлаштириш ишларида фойдаланиш масаласига бағишланган. Ушбу муаммога маҳаллий олимларимиздан А.С.Уралов, А.Н.Гадаев, Б.Ю.Кидирбоевлар ўз эътиборларини қаратганлар[4]. Бироқ, муомманинг ечимига ҳорижий тажрибаларга асосланган ҳолда кенгроқ иновацион илмий ёндошувлар қилинмаган.

Тадқиқот методикаси муаммога комплекс илмий ёндошувга асос-ланган бўлиб, қуйидаги хусусий илмий изланиш усулларини ўз ичига олади: муаммога доир илмий ва махсус адабиётлар, лойиҳа ва ҳужжатларни ўрга-нишдан тўпланган материалларни таққослаш усулида таҳлил қилиш, иссиқ – қуруқ иқлимли шаҳарлар ҳудудини кўкаламзорлаштириш бўйича янгича так-лиф ва тавсиялар беришдан иборатдир.

Тадқиқот натижаси. Маълумки, Ўзбекистон Республикаси таркибида жойлашган Қорақалпоғистоннинг Орол бўйи ҳудудлари ўсимликларни ўс-тириш ва парваришлаш бўйича ўта ноқулай ҳудудлар ҳисобланади, чунки ушбу ҳудудларнинг табиий иқлим ва тупроқ шароитлари ўсимликлар дунё-сини шакллантиришда қатор қийинчиликлар туғдиради. Бу ҳудудларда ўсимликларни ўстириш ва аҳоли пунктларини кўкаламзорлаштириш иш-ларини самарали олиб бориш учун ер ости сувлари сатҳини пасайтириш ва қиш фаслида шўрланган тупроқларни ювиш тадбирларини ўтказиш талаб қилинади. Бу ишларга албатта катта маблағ сарфланади.

Мазкур масалани ечишда Орол бўйи минтақасига ўхшаш саҳро ҳудуд-ларига эга бўлган хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш катта аҳа-мият касб этади. Биз мазкур муаммонинг ечилиш йўлларини Хитой халқ Республикаси ва Африкадаги Миср мамлакати тажрибалари мисолида қараб чиқдик. Жумладан, Хитой қишлоқ хўжалигида фойдаланадиган дашт жой-ларнинг саҳрога айланиб боришига қарши Давлат дастури қабул қилинган бўлиб[5], унга кўра саҳродан дашт ва аҳоли пунктлари устига эсаётган кучли шамоллар кўчираётган қумларни тўхтатиш, саҳро тупроғини мустаҳкамлаш имконини берадиган ўсимликлар ўстириш ва шу йўл билан саҳро ва даштларда жойлашган қишлоқ ва шаҳарлар экологиясини яхшилаш, уларда аҳоли учун иш жойларини ташкил этиш масалалари киритилган[5], Қуйидаги расмларда ушбу дастур вазифаларининг амалга оширилиши қис-ман акс эттирилган (1ва 2-расмлар).

1 – расм.



2 – расм.

Африка мамлакатларида ҳам саҳролардаги кумликларнинг кўчишини тўхтатиш жиддий муаммо ҳисобланади. Мисрда ушбу масалани самарали ечишнинг ўзига хос услуби амалга оширилган бўлиб, у ҳам бўлса саҳро ҳу-дудини ўрмон билан ёпишдир. Бироқ, ёғингарчилик ва табиий сув манбалари кам ёки йўқ бўлган жойларда қандай қилиб дарахтлар ва, айниқса, ўрмонни ўстириш мумкин. Олимлар бунга жуда яхши ечим ўйлаб топишган. Унинг самарали эканлигига Миср саҳросида сунъий тарзда шакллантирилган Serapium (Серапиум) ўрмони энг яхши мисолдир. Серапиум ўрмони Миср саҳросида ташкил этилган бўлиб, уни суғоришда тозаланган оқова (кана-лизация) сувларидан фойданилади[1]. Мисрлик олимлар саҳро қумининг кўчишини тўхтатиш ва у ерларда қулай эко муҳит яратиш мақсадида Қоҳирада ва Мисрнинг бошқа шаҳарларида ҳосил бўладиган оқова сувларни тозалаб, уларни сунъий ўрмонларни суғориш ва ўстиришда қўллаган[2]. Суғоришда оқава сувлар орқали чўл ва саҳро зоналарини ўрмонзорга айлантириб, ноёб дарахтлар ҳисобланган эквалипт ва қизил дарахтларни кўпайтириш йўли би-лан ҳудуд ланшафтининг экологик муҳити ва иқлим шароитини яхшилашга эришган[ ].

Мисрда 1990 йиллардан бошлаб 200 гектардан ортиқ майдонга ман-зарали дарахтлар экила бошланган[3]. Мазкур бетакрор ўрмон Миср саҳросини ҳалигача гуллаб яшнатмоқда. Serapium ўрмони ҳақиқатдан ҳам инновацион лойиҳа ҳисобланиб, у мисрлик ва немис олимлари ҳамкорли-гининг

нати-жасидир. Қуйида лойиҳа бўйича амалга оширилаётган ишлар натижалари ва уни умумий кўринишлари келтирилган (3 – 4 расмлар).

3 – расм.

Лойиҳа табиий ёмғир ва сув заҳираларидан умид қилмай, суғориш учун мослаштирилган оқава (канализация) сувлари тизимидан фойда-ланишга асосланган. Ушбу усулда дарахтлар нафақат намлик билан, балки зарур озуқавий моддалар билан ҳам таъминланади ва улар ўсимликларнинг ўсишига ёрдам беради[1].

4 – расм.

Ушбу усулда суғоришга ишлатиладиган оқова сувлар икки босқичли тозалашдан ўтади: 1- механик филтрлаш; 2-биологик усул ва кислородга тўйинтириш. Бундай усулда тозаланган оқова сувлар фосфатлар ва азотга бой бўлади ва суғориш тизимида ишлатилса экинлар ва ўрмон учун ўта фойдали озуқага айланади[2].

Суғориш учун қўлланиладиган оқова сувлар муайян тозаланишлардан ўтишига қарамай, суғоришнинг бундай усули меваси истеъмол қилинмай-диган декоратив дарахтлар ва ўсимликларни етиштириш учун қўлланилади. Ушбу муқобил вариант Миср шароити учун идеал ҳисобланади: намлик оқова сувларини тозалаш станциясидан юзлаб гектар қумликни қамраган қувур ва шланглар бўйлаб тўғри ўрмонга келади (4-5 – расмлар).

5 – расм.

6-расм.

Лойиҳа муаллифларининг фикрича, “Serapiumдаги дарахтлар Герма-ниядагига қараганда 4 марта тезроқ ўсади. Агар Миср оқова сувларининг 80 %дан фойдаланилса, бу ердаги 650 минг гектар сахрони ўрмонга айлан-тириш мумкин бўлади”, деб ёзади лойиҳа муаллифлари [1;2] (6-расм).

7-расм.

Энди Орол бўйи минтақасига келадиган бўлсак, ушбу усулни Нукус шаҳри атрофидаги саҳро, қумли чўл ва даштли ҳудудларда қўллаб кўриш мумкин. Нукус шаҳридан чиқадиган оқова (канализация) сувларини тоза-лаб, ушбу тизимда қўллаш мумкин. Нукус шаҳри аҳолисининг келажакда ошиб бориши ва шаҳар четида шундай тозалаш иншоотларининг мавжуд-лигидан фойдаланиб, шаҳар атрофидаги саҳрога айланган ерларни ҳамда Орол бўйи зонасидаги Мўйноқ шаҳри атрофидаги саҳроларни Миср услу-бида ўрмонга айлантириш ва минтақанинг экологиясини яхшилаш мумкин.

8-расм.

Бу тизимга Тахиаташ ва саҳро ҳудудига яқин жойлашган шаҳарлардан чиқа-диган оқова сувларини ҳам қўшиш мумкин. Мевасиз, яъни манзарали да-рахт ва экинларни суғоришда тозаланган оқова сувларидан фойдаланиш ти-зимини Орол бўйи саҳро ҳудудини кўкаламзорлаштиришда қўллаш қуйи-дагиларга асосан мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- атроф муҳитга қумларнинг тарқалишини олди олинади;
- дарахтзор ва экинзорлар барпо этилиши атроф муҳит экологик ҳолати-ни яхшилайди;
- дарахтзор – ўрмон ва экинзорларни парваришлаш ҳамда улардан фой-далиниш ҳисобига ишлайдиган хўжаликлар ташкил этилади, яъни бўш иш ўринлари яратилади;
- ҳудуд ландшафтининг яхшиланиши бошқа муҳандислик инфраструк-тураси фаолиятини ташкил этиш имконини беради;
- атрофни ифлосламайдиган тозаланган оқова сувлар суғориш тизимини ва микроиқлимни ҳосил қилишга хизмат қилади.

Бу таклифларни амалда қўллашда маҳаллий, яъни иссиқ ва қуруқ чўл зоналари учун тозаланган оқова сувлардан суғориш тизимида фойдаланишни тартибга соладиган санитар-эпидемиолик талабларга қатъий риоя қилиш на-зоратга олиниши керак.

Ўсимликларни экишда тупроқни яхшилаш имкони бўлмаса, энг тўғри йўл – бу шу тупроққа мос келувчи ўсимликларни танлашдир. Шу муноса-бат билан шўрхоқ тупроқлар шароитида ўса оладиган ўсимлакларни санаб ўтамиз: айлант, гледичия каспийская, аморфа, сумах пушистый, гребенщик, индигофера (7-расм).

Қумлоқ тупроқларга экиш учун эса “пламофитлар” гуруҳига кирувчи ўсимликлар тавсия этилади. Уларга айлант, береза бородовчатая, ива пур-пурная и каспийская, клен ясенелистный, серебристый и татарский, сосна, лох узколистный и серебристый, тополь белый и канадский, смородина зо-лотистая, акация желтая, таволга, снежноягодниклар киради.

Юқорида айтилганлардан ташқари, Орол бўйи минтақасига кирувчи аҳоли пунктларини кўкаламзорлаштиришда контейнер ва тувакларга ўтказилган манзарали бута ва гул ўсимликларини ҳамда сунъий майса тўша-маларини қўллаш, ўсимликларни ўстиришнинг гидропоник ва гидропосев усулларидан фойланишни тавсия этамиз. (8-9-расмлар).

9-расм.

Ушбу йўналишдаги илмий тадқиқот ишлари Самарқанд давлат архи-тектура – қурилиш институти ва Қорақалпоқ давлат университети олимлари ҳамкорлигида амалга оширилмоқда. Илмий тадқиқотлар асосида ишлаб чи-қилган таклифларни амалда қўллаш, уларни техник иқдисодий асосланиши ҳамда ҳудуднинг ўзига хос иқлим шароитларига мослаштириш, яъни тако-миллаштириш бўйича илмий ишлар давом эттирилмоқда.

Мунозара. Ўзбекистнинг атрофи саҳро ва чўллардан иборат бўлган Нукус, Мўйноқ, Навоий, Кармана, Зарафшон, Конимех, Муборак шаҳарлари ва геграфик жойлашуви шуларга ўхшаш бошқа шаҳарларнинг оқова сувларидан фойдаланиб, улар атрофидаги саҳро зоналари ландшафтининг экологик муҳити ва иқлим шароитини яхшилаш имкониятига эришиш мумкин.

Худди шу усулни қўллаб, маҳаллий аҳоли пунктлари: туман марказлари, шаҳарчалар, санаторияларнинг оқова сувларидан фойдаланишни ҳам йўлга қўйиш катта аҳамиятга эга. Хусусан, Қашқадарё вилоятидаги Муборак шаҳарчаси ва саноат зонаси ҳамда Сурхондарёдаги Аққўрғон санито-риясининг оқава сувларидан фойдаланиш тажрибаси амалга кирган.

Иқлим шароити экстремал бўлган Саҳролар Ландшафтини жонланти-ришнинг бундай хорижий ва маҳаллий эко усулларидан масштабли фойда-ланишни йўлга қўйиш учун Ўзбекистонга бу соҳада катта тажрибага эга бўлган Миср, Германия ва Хитой мамлакатлари олимлари ва инвесторларини жалб қилиш давлат ахамиятидаги иқтисодий ва экологик муаммолар ечимига замин яратиш мумкин.

Адабиётлар рўйхати:

1.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 15 фев-ралдаги 132-сон «Орол денгизи тубидаги суви қуриган худудларда «Яшил қопламалар»-химоя урмонзорлари барпо этишни жадаллаштириш чора-тадбирлари туғрисида» қарори.-Тошкент, 2019.

2. Webster G. L. Sapium // The Families and Genera of Vascular Plants : [англ.] : in 15 vol. / ed. K. Kubitzki. — Berlin [etc.] : Springer, 2014. — Vol. 11 : Flowering Plants. Eudicots : Malpighiales / ed. K. Kubitzki. — P. 203—204. — X, 331 p. — ISBN 978-3-642-39416-4. — doi:10.1007/978-3-642-39417-1

3. Andrey Nikonov. Египетские ученые нашли способ вырашивать зеле-ные леса в пустыне // Информациогнные бюллетень Использованые и охрана природных ресурсов в России. –Москва, 1998.-С.6-7.

4. А.С. Уралов, А.Н.Гадаев, Б.Ю. Кидирбаев. Орол бўйи минтақасини кўкаламзорлаштириш бўйича инновацион таклифлар //«Орол бўйи минта-қасида меъморчилик ва шаҳар қурилиши барқарор ривожланиши масала-лари» мавзусида халқаро илмий ва илмий-техник анжуман материаллари тўплами. Нукус, 20-21 июнь 2019 йил. 42-48 бетлар.

5. https://ru.wikipedia.orgМатериал из Википедии — свободной энцик-лопедии

6. https://uza.uz/uz/posts/orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oibat-larini yumsha. “Орол денгизи минтақасидаги экологик офат оқибатларини юмша-тиш бўйича ҳамкорликни ривожлантириш” халқаро конференцияси.9.10.2014.

7. Nigora, S., & Marjona, K. (2023). OZBEKISTON HUDUDIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA QOLLANILGAN ARXITEKTURAVIY ELEMENTI: SHARAFA VA MUQARNASNING QOLLANILISH VA YASALISH BOSQICHLARI. *Miasto Przyszłości*, *42*, 128-132.

8. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). Amir Temur And The Architectural Decorations Of The Timurid Era Of Central Asia And Their Characteristics. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(9), 121-125.

9. Marjona, K., & Iroda, S. I. (2023). THE ESSENCE OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX IN OUR CULTURAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 662-665.

10. Khaitboevich, U. O. (2021). Ancient nurata karizs. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(8), 115-120.

11. Abduazizovich, R. L. (2022). ANALYSIS OF HUMAYUN'S QILA-I-KUHNA MOSQUE. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(10), 269-275.

ХУРОСОННИНГ НАВОИЙ ДАВРИ АРХИТЕКТУРАСИ ВА ШАҲАРСОЗЛИГИГА ХОС ЕТАКЧИ АНЪАНАЛАР

THE LEADING TRADITIONS SPECIFIC TO THE ARCHITECTURE AND CITY OF KHURASON IN THE NAVO PERIOD

А.С. Уралов - архитектура фанари доктори, профессор
Самарқанд давлат архитектура –қурилиш университети (Ўзбекистон)

Д.З. Камолова- архитектура фанлари номзоди, профессор
Самарқанд давлат архитектура –қурилиш университети (Ўзбекистон)

Х.Н. Холдоров- мустақил тадқиқотчи
Самарқанд давлат архитектура –қурилиш университети (Ўзбекистон)

Аннотация: Тадқиқотнинг мақсади Шарқнинг буюк шоири ва давлат ар-боби Алишер Навоийнинг Ҳирот шаҳри ва Хуросонда меъморчилик, ша-ҳарсозлик, боғ-истироҳатчилик ва эл-юрт маъмурчилиги йўлида олиб борган хизматлари, амалга оширган янгиликлари, Навоий даври архитектураси ва ша-ҳарсозлигига хос етакчи анъаналарни аниқлаш ва ёритиб беришдир. Тадқиқот методи мавзуни Навоий даври тарихий манбалари (Хондамир, Муҳаммад Хивақий, Навоий, Бобур асарлари), шунингдек мавзуга доир замонавий адаби-ётларни ва Навоий давридан бизгача сақланган меъморий ва шаҳарсозлик обидаларни илмий асосида кенг ёритиб беришдан иборатдир. Тадқиқот натижасида Навоийнинг эл-юрт маъмурчилиги ва эҳтиёжлари учун масжид, мадраса, шифохона, хонақоҳ, лангархона, (етим-есир ва ғарибларга овқат бериладиган жой), карвонсарой, ҳаммом, работ, ҳовуз, кўприклар қурдиргани, қудуқ ва каналлар қаздиргани ҳақидаги маълумотлар келтирилган. Навоий амалга оширган бунёдкорлик объектлари, улар қурилган шаҳар ва ҳудудлар аниқ мисолларда илк бор жадвал кўринишида ишлаб чиқилган. Навоийнинг нима сабабдан"биное тарҳ қилмоққим ҳамеша" деб ёзгани ва унинг нафақат Шарқнинг буюк шоири, балки улкан бунёдкори, яъни меъмори ҳам бўлганлиги исботлаб берилган.Хуросонинг Навоий даври архитектураси ва шаҳарсозлигига хос етакчи анъаналар аниқланган.

Таянч сўзлар: Алишер Навоий, Ҳирот, Хуросон, меъморчилик, шаҳар-созлик, боғ-истироҳатчилик, эл-юрт маъмурчилиги, Навоийнинг бунёдкорлик географияси, бунёдкорлик ишларининг жадвали, Навоий даври архитек-тураси ва шаҳарсозлигига хос етакчи анъаналар.

Кириш. Хозиргача Амир Темур ва Темурийларнинг давлатчилик, эл-юрт маъмурчилиги, илм-фан, маданият, санъат ва бошқа соҳалардаги хизматлари, саъй-ҳаракатлари ҳақида кўп илмий-тадқиқотлар бажарилган, китоблар ёзилгагн. Г. Пугаченкова, М. Бобохаджаев, А. Беленицкий, М. Массон, Б.Ахмедов, П.Зоҳидов, А. Муҳаммаджонов, А.Уралов, А. Яхяаевлар ана шундай олимлар қаторига киради. Бироқ, тан олиш керакки, Темурийлар билан ёнма-ён тарзда фаолият кўрсатган, хусусан темурий Хусайн Бойқарога елкадош бўлган буюк шоир ва давлат арбоби Алишер Навоийнинг улкан адабий-бадиий мероси, унинг аҳамияти ва долзарблиги ҳақида кўп ва хўп гапирганимиз, ёзганимиз ҳолда унинг шаҳарсозлик, меъморчилик, халқ манфаати ва юрт ободончилиги йўлидаги хизматлари хусусида фақат тор доирада, илмий маъруза ва семинарлар тарзида гапириб, уларни кенг халқ оммасига тўлиғича етказа олган эмасмиз. Ваҳоланки, Темурийларнинг бунёдкорлик фаолияти, меъморчилик, шаҳарсозлик ва боғ-паркчилик соҳасидаги ишлари Хуросонда Алишер Навоий томонидан таҳсинга сазовор тарзда давом эттирилган. Мазкур ишда Навоийнинг ана шундай бунёдкорлик ишлари чуқур ўрганилиб, илк бор ягона жадвал ҳолига келтирилган, Хуросоннинг, Навоий даври архитектураси ва шаҳарсозлигига хос етакчи анъ-аналарни

Тадқиқот методлари. Алишер Навоий даври тарихий ёзма манбалари, Навоийнинг ўз асарлари, Навоий ҳаёти ва фаолиятига қаратилган махсус тарихий ва замонавий илмий адабиётлар, Навоий давридан бизгача сақланиб қолган меъморчилик ва шаҳарсозлик ёдгорликлари, жамоат бинолари, иншоотлар, чар-боғлар, ҳиёбонлар, уларга хос хусусиятлар ўрганилди ва аниқланади. Улар Навоий давридан олдинги Темурийларнинг бунёдкорлик ишлари билан қиёс-ланиб, улар орасидаги фарқлар аниқланди.

Тадқиқот натижалари ва хулоса. Алишер Навоий замонасида Ҳирот шаҳри Хуросоннинг **энг йирик, бой ва маданий** шаҳарлаирдан бирига **айланади. Ўша** даврда **Ҳирот ва Хуросон мамлакатининг** бошқа **вилоятларида 12 мингдан ортик** турли **хил бино ва иншоотлар курилади[9].** Натижада Хирот шахри **Алишер Навоий ва** Ҳусайн Бойқаро замонасида маънавият, санъат ва илм-фан тара-ққиётида Темурийлар фахри бўлган Самарқанддан ҳам ўзиб кетади. Бошқача қилиб айтганда, Алишер Навоий даврига келиб Мовароуннаҳр ва Хуросон мам-лакатларининг маданий маркази Ҳирот шаҳрига кўчади.

Навоий даврида Хуросон архитектураси, айниқса, Ҳирот шаҳри иморат-ларининг меъморий–бадиий, ҳажмий фазовий композицияси, архитектоникаси ва нақшу-нигорларининг савияси ўзининг энг юқори чўққисига эришади**[6].** Буларда албатта, Алишер Навоийнинг бош вазир сифатидаги шахсий ҳиссаси, қури-лишларнинг бош буюртмачиси тарзидаги роли ва ўрни жуда катта эди. Бу даврда Темурийлар саройининг бош меъморлари Қувомуддин Шерозий ва Мирок Наққош бўлса, Алишер Навоий пойтахт Ҳиротнинг ва нафақат Ҳиротнинг, балки бутун Хуросоннинг бош бунёдкори бўлди**[8].** У халқни доиом яратувчанликка, бунёдкорлик ва хайрли ишларни бажаришга йўллади, уларни нафақат маънавий, балки моддий рағбатлантириб турди, бунёдкорлик ишларига ҳомийлиқ қилди.

Навоий даври иморатларининг типологиясига тураржой ва амалдорларнинг саройларидан ташқари жамоат бинолари: масжидлар, мадрасалар, хонақоҳлар, бозор иншоотлари ва савдо бинолари, карвон-саройлар, даволаш ва шифобахш муассасалар (шифохоналар, гармобалар, ҳаммомлар, ошхоналар ва ланганхо-налар) кирган. Ушбу типологияга, шунингдек, муҳандислик ва ирригация иншооатлари (сув омборлари, каналлар, кўприклар, ҳовузлар, сардобалар, ях-донлар) ҳам кирган**[6].**

Хуросон саройлари архитектураси ва ҳудудида иссиқ ва қуруқ иқлимли Ислом шарқи мамлакатлари меъморчилигига хос ички ва ташқи ҳовлилар фе-номени, пешайвонлар, кайвонлар, шийпонлар, кўшк

шакллари, ҳовузлар, фав-воралар, боғлар, сайргоҳлар, гулзорлар, чаманлар ўз аксини топган.

Навоий давридаги масжидлар хизмат кўрсатиш доираси ва мавқейи ҳамда жойлашишига кўра гузар, жума, жоме масжидлари ва намозгоҳлар (мусаллолар) ҳамда зиёрат масжидларига бўлинган. Гузар, жума ва жоме масжидлари шаҳар ҳудуди – (ҳисор)да жойлаштирилса, намозгоҳлар шаҳар ташқарисида, унга яқин кенг майдонли ҳудудларда қурилган**[5].**

Ҳиротда Темурий шаҳзодалар: Шоҳрух Мирзо, Ҳусайн Бойқаро ва вазир Алишер Навоий қурдирган мадрасалар нафақат Хуросонда, балки Ўрта Шарқда ҳам нуфузли олий билим масканлари ҳисобланган. Навоий қурдирган ма-драсаларнинг меъморий-тарҳий тузилиши ҳам XV аср меъморчилигининг бу турдаги иморатлари йўналишида бўлгани шубҳасиздир. Мадрасанинг пештоқ қисми баланд ва ҳашамдор, бош тарзнинг икки ёнидаги миноралар пештоқдан ҳам юқорилаб кетган гулдасталар билан безатилиши бу давр мадрасалари учун анъанавий ҳисобланган**[2].**

Марказий Осиё ҳудудида даволаш, соғломлаштириш-гигиеник муасса-саларининг меьморий шаклланиши X-XI асрлардан бошлангани тарихий ман-балардан маьлум. Жумладан, X асрда Марвда, XI асрда Гурганж ва Самарқанд шаҳарларида жамоат касалхоналари бўлган. XIV аср охири - XV аср бошларида биргина Ҳирот шаҳрининг ўзида бешта жамоат шифохонаси фаолият кўрсат-ган **[8].** Ушбу шифохоналар таркибида дорихона ҳам бўлиб, унда дорипазлар беморлар учун дори-дармонлар тайёрлаб берган. Навоийнинг ўзи ҳам Ҳиротда Инжил канали бўйида катта шифохона қурдириб, унга “Шифоия” деб ном беради**[3].** Темурийлар даврида қурилган барча жамоат шифохоналари архи-тектураси ички ҳовлили, айвонли, тарзий композицияга эга бўлиб, унда бе-морларнинг ҳужралари ҳовли деворига туташ, бир-бирига ёндош ва қатор қилиб жойлаштирилган. Ҳужралар олдига, баъзан, узун айвон–раҳров қурилган. Ҳовли ўртасида ҳовуз, унинг атрофида чорчаман, гулдор буталар ва беморлар учун дам олиш ўриндиқлари шакллантирилган, ички ҳовлида қулай микро иқлим ва ташқи шовқиндан ҳолилашган микро муҳит яратиш имкони бўлган.

Баъзида шифохоналар ёнида мадрасалар қурилиб, мадраса ва шифохона бинолари яхлит бир табобат академияси тарзида фаолият кўрсатган. Бунга мисол қилиб Ҳиротда Навоий қурдирган Шифоия шифохонаси ва унинг ёнидаги Ихлосия мадрасасини кўрсатиш мумкин**[2].**

Навоий даврида бошқа бинолар қаторида ҳаммомлар қурилиши ҳам анча ривожланган, бу эса Темурийларнинг ўз халқи ҳаёти ва турмушига анча юксак маънавий қадриятлар билан ёндошганлигини, ўша давр даволаш ва соғлом-лаштириш-гигиеник муассасалар архитектураси ҳам Навоий даври иморатлари типологиясининг муҳим таркибий қисмига айланганлигини кўрсатади.

Навоий даврида тасаввуф масканлари бўлмиш хонақоҳлар қурилишига ҳам катта эътибор берилган. Аксари хонақоҳлар мадрасалар ва масжидлар қошида, базида хонақоҳ-зиёратгоҳлар тарзида қурилган**[1].** Масалан, Навоийнинг “Ха-лосия” хонақоси Инжил канали мавзесида қурилган “Ихлосия” мадрасаи-олияси қаршисида, у билан бир ҳудудда ансамбль ҳолида қурилган**[7;10].** Хонақоҳлар архитектураси Марказий Осиёда суфизмнинг шаклланиш ва ривожланиш бос-қичлари, жамиятдаги рўли ва ўрни ҳамда хонақоҳларнинг жойлашиш геог-рафиясига боғлиқ ҳолда турлича кўринишларда шакллантирилган. Дастлаб улар ҳовлили композицияда (бир ва кўп ҳовлили тарзда), сўнгра ҳовлили-айвонли композицияда (бир ва кўп ҳовлили кўринишларда), кейинчалик пештоқли гумбазли композиция (ҳовлисиз ва ҳовлили вариантлар)да меъморий жиҳатдан трансформацияланган.

Ўрта Осиё тарихий шаҳарлари ва Буюк ипак йўли бозорларини карвон – саройлар (работлар) сиз тасаввур қилиш қийин. Аксарият карвон-саройлар ва работларнинг тарҳи квадрат, тўғри тўртбурчак шаклларда, деворлари пишиқ ғиштдан ишланган. Айрим карвон-саройлар ва работлар хом ғиштдан қурилиб, тарзи пишиқ ғишт билан пардозланган. Асосий кириш қисми пештоқ билан бўрттирилиб, тарзнинг ён томонлари гулдасталар билан тугалланган. Тарзи ғиштин нақшлар ёки кошинбуррушлик билан пардозланган карвон-саройлар ҳам қурилган.

Хуросон фуқаро меьморчилиги тархида муҳандислик ва иррга-ция иншоот-ларининг ҳам ўрни катта бўлган. Бундай иншоатларга ҳовузлар, сардобалар, сув омборлари, бандлар, каналлар, кўприклар ва яхдонлар кирган. Шахсан Навоийнинг ўзи ўз маблағи ҳисобидан 16 та кўприк, 11 та ҳовуз, бир нечта сув омборлари, каналлар, анҳорлар, ариқлар ва қудуқлар қаздиради**[2].**

Алишер Навоийнинг Ҳуросон меьморчилиги шоҳ асарларини қайта тиклаб, кенгайтириб, тамирлаб, уларни халқ хизматига ва кейинги авлодларга қолдириш бўйича амалга оширган кўплаб хайрли ишларини, унинг Ҳуросон меьморий меросига қўшган улкан ҳиссаси деб баҳолаш мумкин**.**

Навоийнинг ўзи ҳам Ҳирот шаҳри атрофида бир нечта боғ ва манзил-гоҳлар бунёт этган. Боғи Мурғоний, Боғи Сарипули–сангкашон (тош ташувчилар кўприги ёнидаги боғ), Боғчаи Шавқия (Дилкушо боғи), Боғчаи Гузургоҳ, тахти Бобо Сўхта ва Боғи Азизон манзиллари шулар жумласи-дандир**[4;6].**

Темурийларнинг боғ-парк санъатига киритган янгиликларидан бири – бу боғларни ўзаро ва шаҳар дарвозалари билан боғловчи кенг “хиёбон”ларни яратиш бўлган. Ҳирот шаҳри деворларидан бошланган кенг хиёбон бир неча километрга чўзилиб, шаҳарни Парафомуз тоғи этагидаги Гузургоҳда жой-лашган Абдуллоҳ Ансорий ҳазираси билан боғлаган**[3].** Хиёбон бу, одатда, эни 15-30 метр бўлган чўзинчоқ, тарҳи мунтазам, ариқ бўйлаб кўп қаторли дарахтлар экилган тўлиқ соя берувчи чизиқли сайргоҳ боғдир. Хиёбон бир қатор ва кўп қатор қилиб экилган бир турдаги дарахтлар билан шакллантирилган Ҳирот боғларнинг асосий қисми тарҳи мунтазам ҳандасавий шакиллардан тузилган “чорбоғ” услубидаги боғлар бўлган.

Чорбоғ услубидаги тарихий боғларнинг меъморий-режавий ва ландшафт ечимларига хос асосий тамойиллар қуйидагилардан иборат: боғ ҳудудини атроф-муҳитдан дарвоза ва деворлар орқали ҳолилаштириш; боғларнинг меъморий-режавий ва ландшафт ечимини жой рельефига мос тарзда шакллантириш: текис ҳудудларда мунтазам режали симметрик композицияли боғлар яратиш; қия-ликларда эса мунтазам режани эркин табиат кўринишдаги режавий ечимлар билан узвий боғлаш ва ҳудудини поғоналарга бўлиб чиқиш; ҳар иккала режавий ечимда мунтазам тартибли симметрик чорбоғ, чорчаман ва хиёбон компо-зицияларини қўллаш; боғларни кўкаламзорлаштиришда манзарали ва мевали дарахтларни қўллаш, бунда меъморий боғни хўжалик боғи билан муво-фиқлаштириш, суғориш шахобчаларининг мунтазам ва тежамли тартибини белгилаш; боғлардаги "яшил дунё"ни "сув дунё"си ва "ҳайвонот дунё"си билан уйғунлаштириш, ҳар бир дунёнинг экзотик турлари ва шаклларидан фойдаланиш; боғнинг бош биноси (сарой ёки кўшк)ни табиий ёки сунъий ишланган тагкурси, платформа ёки стилобатга жойлаштириш; боғ хиёбонларининг боши ва охири, кесишган жойларини гўзал меъморий композициялар (ҳовуз, фаввора, кўшк, войиш ва шу кабилар) билан безаш; хиёбонларни қуёш нурини эътиборга олиб уфқ томонларига мос ҳолда кўкаламзорлаштириш, кўпроқ соя салқин муҳитларни ташкил этиш**[6;5;8].**

"Хуросоннинг Навоий даври архитектураси ва шаҳарсозлигига хос етакчи анъаналар" мавзусида бажарилган тақиқотлар натижасида қуйидаги хулоса-ларга келинди:

1.Хуросоннинг Навоий даври архитектураси ва шаҳарсозлиги ўзида Наво-ийдан олдин ўтган Темурийлар архитектурасининг энг илғор анъаналарини давом эттирибгина қолмай, уларни ривожлантирди, такомиллаштириб, пойтахт Ҳирот шаҳри архитектураси мисолида уларга янгича авж ва йўналиш ба-ғишлади.

2.Хуросон архитектураси Навоийгача Мовароуннаҳрда шаклланган "Амир Темур меъморий стили"га хос бўлган анъаналар: иморатларнинг режавий ва ҳажм – фазовий ечимларидаги ички ҳовлилик, мунаққашлик, бино тарзи, иморат курсиси, остонаси ва бадиий тугаллик композицияларининг бўрттирилиши, бино қисмларининг иморат тарҳи бўйлама ўқига нисбатан аксли симметрия-лилиги, композициявий тузилишидаги яхлитлик, меъморий ўлчамлар ва шакллар уйғунлиги, нақшунигорлар рангидаги мутаносиблилик каби анъаналарни ўзида акс эттирди. Алишер Навоийнинг Инжил канали бўйида бунёд эттирган ну-фузли жамоат бинолари: Ихлосия, Халосия, Шифоия, Сафоия ва Унсия уй–саройи ва боғи, Ҳусайн Бойқаронинг Ҳирот шаҳридаги жоме масжиди ва мадрасаси, Ҳирот шаҳри эски жоме масжидининг кенгайтирилиб қайта тикла-ниши, таъмирланиши ва бошқа қурилишлар бунга мисолдир.

3.Алишер Навоий ўзининг бунёдкорлик фаолиятини шаҳарсозлик ансам-бллари, меъморчилик, боғ-истироҳатчилик, қисман бузилган таъмир талаб иморатларни қайта тиклаш ва меъморий таъмирлаш, даволаш ва шифобахш му-ассасалар (шифохона, хаммомлар), ибодат ва хайрия иншооатлари (масжидлар, карвон-саройлар, хонақоҳлар, бозорлар) қуриш, ариқ ва каналлар қазиш, ҳовузлар, кўприклар яратиш ва ҳатто тасвирий санъат ва нақкошлик каби ишларда, хуллас ўзи яшаган давр ижтимоий ҳаётининг барча соҳаларини қам-раган ҳолда, ўта кенг кўламда олиб борди. Навоий бу ишларни нафақат пойтахт Ҳиротда, балки Машҳадда, Марфда, Астроботда, Мозори Шарифда, Исфизор ва Сарахс каби шаҳарларда, Гузургоҳ каби мавзеларда олиб бориб, айни пайтда, эл-юрт маьмурчилиги ва фаровонлигига авж берди.

4. Хуросоннинг Навоий даври шаҳарсозлигида бинолардан туркум шакл-лантириш, яъни уларни шунчаки алоҳида қурилган бинолар тарзида эмас, балки улардан меъморий уйғунлаштирилган "гулдасталар" – меьморий мажмуа (ансамбллар) тузиш ривожлантирилди, қурилишларга ҳомийлик қилиш анъа-налари шакллантирилди;

5. Бинолар ҳажмий композициясини бўрттиришда нафақат гумбаз ва пеш-тоқларга, балки миноораларга ҳам катта эътибор берилди, миноораларнинг меъ-морий композицияларидаги доминант, яъни етакчилик роли оширилди.

6. Биноларнинг маҳобатлилиги ва нақшу-нигорларига, эстетик жозиба-дорлигига алоҳида эътибор қаратилди. Нақшу-нигорлар ичида ислимий ва эпиграфик кошин нақшлар ҳамда муқарнаслар етакчилик қилди. Муқарнас нафақат ички гумбаз шиплари ва равоқчаларда, балки ташқи равоқларда ҳам кенг қўлланилди, Навоий таклифи билан баъзи боёна уйлар ва саройлар де-разалари рангли ойналар ва панжаралар билан безатилди;

7. Ҳирот шаҳри қурилишида кўкаламзорлар экологияси ва ландшаф-ти, боғ-паркчилик санъати услубларидан кенг фойдаланилди. Бу йўналишларда анъанавий "Чорбоғ" ва "Хиёбон" усуллари кенг қўлланилди. Боғлар ичидаги кўшк саройлар деворларига ҳаётий мавзулардаги ранг тасвирлар ишлашни давом эттириш каби янгиликлар шаклланди.

8. Ҳиротнинг бош хиёбони ҳисордан то Гузургоҳ ҳазирасигача чўзи-либ, Самарқанднинг Кўчаи Хиёбонидан фарқли ўлароқ, кенг бульвар, яъни шаҳар аҳолисининг кўнгил очар яшил сайргоҳ кўчаси сифатини олди ва ўзига бир қатор меьморий ансамбл ва мажмуалар (жумладан, Гавҳаршод бегимнинг мадрасаси ва мусаллоси, Ҳусайн Бойқаронинг жоме масжиди ва мадрасаси, Навоийнинг Шифоия, Ихлосия, Халосия, Сафоия иморатлари)ни, савдо дўконлари ва расталарини бириктириб, Ҳирот шаҳрининг бир неча километрга чўзилган кенг яшил хиёбонини шакллантирди. Бу хиёбон Темурийлар даври шаҳарларининг бошқа хиёбонларидан фарқ килиб, ўзида қатор ижтимоий функцияларни: томоша, кўнгил очар, савдо, сайргоҳ, истироҳат, шаҳарнинг нуфузли жамоат марказлари, меьморий ансамбл ва мажмуаларини боғловчи серсоя кенг яшил йўл ҳисобланган.

Ҳиротда Темурийлар меьморий меросини сақлаб қолиш мақсадида, бузилган, талофат кўрган маҳобатли иншоотларни қайта тиклаш ва таъмирлаш ишлари ҳам амалга оширилди. Навоийнинг

меъморчилик ва таъмирчилик фаолияти фақат пойтахт Ҳиротдагини эмас, балки чекка ҳудудларда Астробод, Марв, Машҳад, Балх каби шаҳарларда ҳам олиб борилди.

9. Буларнинг барчасига бир томондан Алишер Навоийнинг Хуросон равнақи йўлидаги кенг бунёдкорлик шижоати сабаб бўлган бўлса, бошқа томондан, пойтахтда Ҳирот ёҳуд Хуросон меъморлик миллий мактабининг шаклланган, унинг бошида эса Қувомуддин Шерозий ва Мирак Наққошдек забардаст меъмор–муҳандис ва наққошларнинг тургани сабаб бўлган. Қу-вомуддин Шерозий ва Мирак Наққош ижодига изланувчанлик, бирини бошқа иморатда такрорламаслик, меъморий жозибадорлик, давр меъмор-чилигига янгиликлар киритиш, ички ва ташқи меъморий шакллар, нақшлар гармониясига эришиш каби фазилатлар хос бўлган. Бу мактаб архитектурасининг типологияси ўша давр ҳаётининг ижтимоий заруратлари ва Темурийлар давлатчилигининг талабларига мос ҳолда шаклланган. Ушбу меъморий мактаб фаолияти Хуросонда доимо бир зайлда ривожланиб ёки такомиллашиб бормаган бўлсада, темурий Ҳусайн Бойқаро ва бош вазир Алишер Навоий даврида яхлит бир ғоявий эстетик тизимга эга бўла олган.

10. Темурийлар давридаги меъморий типология Ҳирот шаҳри ва Хуро-сонда янада кенгайтирилиб, ўша давр иморатлари сафига алоҳида бино тарзида қурилган фуқаро шифохоналари (Шифоия, Ала уд-Давла), ҳазира зиёратгоҳи (Гузургоҳ ҳазираси), гармобалар, сардобалар, яхдонлар қўшилди. Таъкидлаш лозимки, пдаги алоҳида бино тарзида қурилган иншоат ва бинолар (гармобалар, Гузургоҳ ҳазирасидек зиёратгоҳлар) ўша даврда Мовароуннаҳр шаҳарларида ҳали қурилмаган эди.

11.Алишер Навоий даври архитектураси ундан олдинги Темурийлар хоадони, хусусан Шоҳрух Мирзо, Абу Саид Мирзо ва бошқа темурийлар даври иморатларига кўра сезиларли даражада фуқоровий бўлган. Навоий даври архитектураси кўринишларида маҳобатлилик, тантанаворлик ва улуғворлик ҳиссиётларидан чекиниб, бир мунча гуманистик фуқоравий руҳиятга яқин келингани сезилиб турган. Навоий даври биноларининг меъморий – бадиий тузилишида нақш турлари, улардаги рангнинг кучи, ранг-баранглиги ҳам аҳамиятлидир. Ислимий, гириҳ, ёзувий безакларда ритм, симметрия ҳамда муқарнас нақшлар қуёш нури билан товланиб, ўзига ҳос жозибадорлик касб этган.

12. Мазкур тадқиқотда Навоийнинг шаҳарсозлик, меъморчилик, боғ-парк қурилиши, ободончилик ва эл-юрт маъмурчилиги йўлидаги бунёдкорлик ишларининг географияси аниқ шаҳар ва қишлоқлар ҳамда объектлар мисолида жадвал тарзида ишлаб чиқилиб, ўқувчига тушунарли қилиб яхлит салномага жамланди.

13. Шарқ ислом архитектураси, хусусан Темурийлар ва Навоий даври архитектурасида тарихий шаҳарлар кўчаси ва майдонлари узра юрган киши кўкга бўй чўзган турли-туман миноралар ва мовий гумбазлар шаклларининг ўзаро композициявий контрастини, уларнинг тўғри тўртбурчакли текис юзали баланд пештоқлар шакллари ва ранглари билан гўё рақобатга тушаётганлигини, тўғрироғи улардаги меъморий шакллар ва ранглар жилоси, гармониясини ҳис қилган. Бундай шакллар ва ранглар рақси кишига эстетик таъсир қилмай қолмаган, унинг дилини яйратган. Бу ҳолатни, айниқса, кечқурун кўрганлар турлича меъморий шакллар ва кўринишлар (силуэтлар) ўйинидан завқланган. Бу бир томондан бўлса, иккинчи томондан ўша жонли табиат шаклларига ўхшаган силлиқ юзли турлича гумбазларнинг тўғри чизиқли пештоқлар ва улкан миноралар билан контраст тушиши ва ундан ҳосил бўлган бадиий эстетик самарага ҳозирги замон архитектураси ҳам ҳавас қилса арзийдиган ҳолатдир.

14. Ҳирот боғларининг меъморий-режавий тузилиши “чорбоғ” услубидаги тўғри геометрик шакллардан тузилган симметрик тартибли чорчаманлар, йўлаклар, гулзорлар ва мевазорлардан иборат бўлган. Навоийнинг замондоши Ниёзий Навоийнинг таклифига кўра “Ирошод уз-зироат фи илмил-харосат” (Экин экиш йўриқлари ва деҳқончилик илми) номли асарини ёзиб, унда чор-боғнинг тарҳий тузилиши, унда экиладиган ўсимликлар ва уларнинг экилиш тартиби ҳақидаги маълумотларни келтирган.

Мунозора. Тадқиқот натижаларининг илмий аҳамияти Хуросон ва Мова-роуннаҳр, хусусан Марказий Осиё архитектураси тарихи соҳасидаги билимларни кенгайтириш ва бойитиш билан бирга, архитектура ва қурилиш олий таълим муассасаларидаги Архитектура тарихи ва назарияси, архитектура ёдгорлик-ларини таъмирлаш ва сақлаш, улардан фойдаланишга йўналтирилган ўқув адабиётларини тайёрлаш ва мавзуга доир монографияларни ёзишда кенг имкониятлар яратади.

Тадқиқот натижаларининг амалий аҳамияти эса Ўрта Шарқ мамлакатларида Навоий давридан бизгача сақланиб қолган меъморчилик ва шаҳарсозлик обь-ектларининг мавқеини оширишга, уларни таъмирлаш ва замонавий эҳтиёж-ларга мослаштириш лойиҳаларини ишлаб чиқишга, Темурийлар даври, хусусан Алишер Навойи даври архитектураси обьектларини оммалаштиришга, улардан сақланиб қолганларини таъмирлаш, унумли фойдаланиш, давлат муҳофазасига олиш, уларга зиёрат туризми маршрутларини очиш ва улардан фойдаланиш ишларига хизмат қилади

Тадқиқот натижалари Алишер Навоийнинг нафақат Шарқнинг улкан шо-ири, гуманизм элчиси, балки буюк меъмори, бунёдкори, боғбони, муҳандиси, Хуросондаги яратувчанлик ишларининг забардос ҳомийси эканлигини ҳам исботлаб турибди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ахмедов Б. Хондамир.-Тошкент: Фан, 1965.
2. Хондамир. Хулосат ул-ахбор.-Тошкент, 2001.
3. Алишер Навоий. Вақфия.-Асарлар. 15 томлик, 13-т. – Тошкент, 1996.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент, 1989.
5. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. Тузувчилар: М.М.Хайруллаев, А.Уринбоев, О.Бўриев.-Тошкент, 1997.

6. Пугаченкова Г.А. Из художественной сокровищницы Среднего Востока.-Ташкент, 1987.
7. Ахмедов М. Некоторые особенности формирования архитектурных ансамблей исторических сложившихся городов Средней Азии//Вопросы теории и истории архитектуры Узбекистана. Вып. 210.-Ташкент, 1977.
8. Уралов А., Сувонкулов И. Алломалар олами. – Тошкент, 1991.
9. Абдуазизов А. Минг бир ният//Совет Ўзбекистони, 1991. 22-январь сони.
10. Валихонов О. (Бокир). Навоий ва фан.// Фан ва турмиш, 1991.
11. Abduazizovich, R. L. (2021). Din-panah The City Of Humayun. European Scholar Journal, 2(10), 52-54.
12. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Резьба по дереву в Узбекистане. *Интернаука*, (2-1), 11-13.
13. Ulugbek, T., & Marjona, K. (2024). Revitalizing Old Facades: Innovations in Facade System Installation and Preservation. Indonesian Journal of Innovation Studies, 25(1), 10-21070.
14. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). Amir Temur And The Architectural Decorations Of The Timurid Era Of Central Asia And Their Characteristics. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(9), 121-125.
15. Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). USE OF LOCAL RAW MATERIALS IN THE REPAIR OF PATTERNS AND DECORATIONS OF CENTRAL ASIAN ARCHITECTURAL

ERKIN SANOAT ZONALARI VA ULARNING SHAKLLANISH TARIXI
FREE INDUSTRIAL ZONES AND THE HISTORY OF THEIR FORMATION

Malikov Ulug'bek Erkinovich
SamDAQU Arxietektura kafedrasi DSc tayanch doktoranti

Annotatsiya. Tadqiqotda O'zbekistonning shaharlaridagi sanoat binolari arxitekturasining shakllanish jarayonlari va rivojlanish bosqichlari haqidagi muammolar ko'rilgan. Sanoat binolari arxitekturasini shakllanishidagi muammolar, ularning loyixaviy takomillashtirish yo'llari, sanoat binolariga qoyiladigan asosiy talablar ochib berilgan va ilmiy loyihaviy asoslar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Sanoat binolari va korxonalari, erkin iqtisodiy zonalar, tayyor transport omborlari, konstruktiv yechimlar, texnologik jarayon, texnik talablar.*

Kirish. Jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda mazkur vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy hududlar yetakchi o'ringa ega.

Shu boisdan dunyoning aksariyat davlatlari, xususan, Xitoy, AQSh, Fransiya, Janubiy Koreya, Meksika, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlar misolida hududning geografik va boshqa qulayliklaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish zaruriyat va an'anaga aylangan. Chunki, bunday hududlarni tashkil etishdan asosiy maqsad mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya hamda boshqaruv tajribasini jalb etish orqali uning sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy sohani rivojlantirish barobarida, zamonaviy bozor infratuzilmalarini tashkil etishdan iboratdir. Arxitektura odamlarning maishiy-turmushi va mehnat jarayonlarini fazoviy jihatdan tashkillashtiradi, shuning uchun binolarning shu funksiyalarga va shunday faoliyatlarga mos kelishi ularning asosiy va birlamchi sifatini belgilab beradi. Binolar funksional xarakteristikalarining turli-tumanligi faqatgina inson va jamiyat ehtiyojlarining murakkabligi hamda xilma-xilligini, joyning tabiiy o'ziga xos jihatlarini va ilmiy-texnik rivojini aks ettirishi bilangina belgilanmaydi. Binoning o'z vazifasiga mos kelishi, uning qulayliklari haqidagi tasavvurlar vaqt o'tshi bilan sezilarli darajada o'zgarib boradi, shu sababli binolarning yangi talablarga moslashuvchanlik darajasi ularning eng muhim sifatlaridan biridir. Arxitekturaviy asar nafaqat manfaatdorlikni, balki badiiy go'zallikni ham o'zida mujassamlashtiradi[1]. Arxitektura - bu insonga ta'sir o'tkazishi bo'yicha eng ko'hna va eng ahamiyatli san'at turlaridan biridir. Arxitekturaning shakl-shamoyili inson his-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatadi, arxitektura inson uchun zarur bo'lgan ham moddiy va ham ma'naviy ehtiyojlarning keng spektrini qoniqtiradi. Arxitekturadagi go'zallik va maqsadga muvofiqlik shakl hosil qilishning yagona jarayonida yaratiladi. Arxitekturaviy asarning maqsadga muvofiqligi nafaqat uning texnik talablarga mos kelishi bilan aniqlanadi, balki u jamiyat tomonidan qo'yilgan vazifalarning butun bir kengligini to'la qonli ziddiyatli hal etishni nazarda tutadi. Shunday ekan biz olib borayotgan tadqiqotimizda ham sanoat binolarining badiiy yechimi, texnik talablarga mosligi aniqlangan.

Asosiy qism. Erkin iqtisodiy hududlar hozirga kelib to'xtovsiz rivojlanmoqda. Rivojlanish oddiydan murakkabga, arzon va tez sotiladigan variantdan ko'p tarmoqli va kapital talab qiluvchiga o'tib bormoqda. Zamonaviy jahon tajribasida 30 ga yaqin erkin iqtisodiy hududlarning turlari mavjud bo„lib, ulardan ko'p ulushga ega bo'lganlar bu bojxona hududlari, to'lovlar olib tashlangan hududlar, bojxona erkin hududlari, erkin eksport hududlari, erkin eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish hududlari, erkin ishlab chiqarish hududlari, iqtisodiy barqarorlik hududlari, o'zaro tadbirkorlik hududlari, texnika-iqtisodiy rivoljantirish hududlari, fan-sanoat parklari va boshqalar iqtisodiyotda muhim ahamiyat ega kasb etib kelmoqda.

O'zbekistonda ham iqtisodiyotni yuqori darajada rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar faoliyati 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy zonalar

to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish, ularning faoliyatini kengaytirish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Zero, erkin iqtisodiy hududlar milliy iqtisodiyotni alohda mintaqalar darajasida rivojlantirish bilan birga, ularning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini va xalqaro raqobatbardoshligini ta"minlashda hamda boshqa bir qator dolzarb masalalarning ijobiy hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 – yillar davomida rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilgan va ushbu stategiya beshta ustuvor yo'nalishdan iborat. Mazkur beshta yo'nalish bosqichma – bosqich amalga oshiriladi va har bir bosqichi bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi[2]. Harakatlar strategiyasining to'rtinchi bosqichi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog'ligini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin – qizlarning ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish, arzon uy – joylar barpo etish, yo'l – transport, muhandislik – kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm – fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Arxitektura qadimdan ma'lum bo'lib, funksional vazifalarga xizmat qilishdan tashqari, jamiyatda mavjud g'oyalarni tashkil ettirishga, davlat va jamoat ehtiyojlarini qondirishga intilgan. Bu o'rinda bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temurning "Bizning qudratimizdan shubhang bo'lsa, biz yaratgan binolarga boq", –degan mashhur so'zlarini eslatish kifoya[3]. Yoki Samarqanddagi Registon maydoniga tashrif buyurgan har bir kimsa, kim bo'lishidan qat'iy nazar, osmono'par minora va koshinkor peshtoqlarga tikilganida, hayolidan mazkur obidalarni qurgan me'mor va ustalarning iste'dodi va mahorati, ularni qurishga buyurgan hukmdorlarning qudrati to'g'risidagi fikrlar o'tishi shubhasizdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng boshqa sohalarda bo'lgani kabi me'morlikda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi.

Mustaqillikka erishilgandan keyin tarixda birinchi marotaba 1995 yilda "Arxitektura va shaharsozlik" bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Bu qonun zamirida mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab oshqa sohalar kabi arxitektura va shaharshozligimizga yuksak etibor deb bilaman. Shu boisdan ham shahar aholi punktlari yaqin joylarda sanoat binolarini loyihalash, aholini ish bilan ta'minlashga katta etibor qaratildi. Shaharlarda har xil sanoat binolarini qurish, loyihalash, atrof muhitga moslashtirish tajribalari amalga oshirila boshlandi[4].

Sanoat binolari va inshootlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanishda ularga bir qancha iqtisodiy talablar qo'yilib, ularni qurishga kam mablag' sarflab, ularni arzon, tejamli qilib loyihalash zarurdir. Shu maqsadda, loyihalashda oldindan bir necha variantda reja va konstruktiv yechimlar ishlab chiqilib, ularni solishtirgandan so'ng eng arzon va foydalisi olinadi. Bino va inshootlarning narxlariga ularning joylashish o'rni, mahalliy qurilish buyumlaridan ularni qurishda samarali foydalanish imkoniyatlarini, transport xizmatlariga ketadigan harajatlar singari omillar ta'sir qiladi[5]. Bulardan tashqari industrial, har tomonlama mexanizastiyalashgan usullar bilan yig'ma qurilmalardan binolarni qurish bino narxlarini kamaytirishga va ulardan foydalanish davrida kam chiqimli bo'lishga olib keladi. Bu o'rinda loyihalashda kompyuterlarni ishlatish va ularni yordamida samarali loyihalar takomillashtirildi.

Kichik sanoat hududining arxitekturaviy yechimi

Arxitekturaviy va badiiy loyihalashga binoning ichki va tashqi ko'rinishi, pardoz ishlari hamda binolarni ahamiyatiga ko'ra tashqi va ichki tuzilishlari odamlarning estetik talablariga javob bera olishi tushiniladi. Bu talablarga ko'ra yirik sanoat arxitektura ansambli majmua qurilishi ko'zga yaxshi tashlanuvchi bo'lishi kerak.

Har qanday sanoat binolarining hajmiy-tarhiy, loyihaviy yechimlari binoda joylashgan texnologik jarayon harakteriga bog'liq bo'ladi[6]. Texnologik jarayon ishlab chiqarish–texnologik sxemasiga asosan aniqlanib, unda ma'lum bir ketma–ket tayyor mahsulotni tayyorlashda ko'zda tutilgan dastgoh va ularning joylashish harakteri, ichki ko'tarma transport jihozlari ko'rinishi va yuk ko'tarish qobiliyati, nomenklaturasi, xonalar o'lchami (katta–kichikligi) va ketma–ket joylashganligi, ichki harorat, namlik darajasi va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Texnologik sxema xom materiallarning kelib tushish joylari, ishlab chiqarish chiqindilarini tashlash, muhandislik tarmoqlarini joylashtirish va o'tkazish joylarini ko'rsatadi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda texnologik sxema avtomat yo'llarining joylashishi va buyumlarga ishlov berish va uni yig'ishdagi turli xildagi operastiyalar bajarilishini ko'zda tutadi. Korxona bosh rejasida bino va inshootlarning o'zaro joylashishi, ular orasidagi masofalar va boshqalar butun korxona texnologik sxemasi uzviy bog'langan bo'ladi.

Urgut erkin iqdisodiy zonasidagi tikuchilik korxonasining umumiy ko'rinishi.

Sanoat binolari va inshootlarini loyihalashda to'rtta asosiy masala birgalikda hal qilinadi: 1. Muvofiqligiga ko'ra ko'zda tutilgan texnologik jarayonga ko'proq javob beruvchi bino va inshootlar hajmiy-tarhiy sxemasini yaratish. 2. Muhandislik–konstruktiv yechimlari – hozirgi zamon qurilish materiallari va konstruksiyalarini ko'plab bino va inshshotlarni talab darajasida mustahkamlik va ustuvorligini ta'minlash. 3. Arxitektura–badiiylik darajasi–bino va inshshotlarning va butun korxona ansamblining arxitekturaviy ko'rinishi birgalikda badiiylik talablariga javob berishi. 4. Iqtisodiy masalada–bino va inshootlarni qurish va ishlatish chog'ida chiqimlari minimal miqdorda bo'lishi kerak.

Muvofiqlik talablari –bu binoni o'z vazifasiga mos, muvofiq kelishi va bino ichida texnologik dastgohlarni qulay joylashishi, binoni ekspluatatsiya talablariga javob berishi, xizmat muddati, hajmiy-tarhiy yechimlari va boshqalarni o'z ichigi oladi. Binolarga qo'yilgan texnik talablarda esa bino konstruksiyalarining ustuvorligi, uzoq muddat ishlatilishi, yong'inga qarshi chora va tadbirlar hamda binoni industrial usullar bilan qurish tushuniladi. Arxitektura badiiylik talabiga ko'ra, bino chiroyli, hashamatli ko'rinishga ega bo'lishi va shu bilan birgalikda kishilar talab ehtiyojlarini to'la qondirishi tushiniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki har qanday sanoat binolari vaqt o'tishi bilan talab va taklifga qarab ishlab chiqarish salohiyatini oshirib boradi va shu bilan birga moshlashuvchanlik talablarini ham chetda qoldirmaydi.

Sanoat hududlarining hozirgi kundagi rivojlanish ko'lamiga ko'ra binolarni nisbatan ishlab chiqarish texnologiyasini o'zgartirishga oson moslashadigan yoki arxitektura – qurilish qismini o'zgartirmasdan ichiga har xil ishlab chiqarishni joylashtirishni ta'minlaydigan binolarni ishlatish qulay hisoblanadi. Bunday binolarni nomini universal yoki moslashuvchan deb ataladi. O'zbekistonning sanoatlashgan hududlarida hozirgi kunda bunday komplekslar keyingi o'rinlarda "Erkin iqtisodiy zonalar" deb yuritilib, ularning arxitekturaviy badiiy qiyofasi takomillashtirilib, shaharsozlik tizimidagi oz o'rnini mustahkamlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. –T.: IQTISODIYOT, 2019. – 408 b.
2. S. Sayfiddinov, Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi. Toshkent. 2021.
3. Sindarovich, U. A., & Erkinovich, M. U. (2021). The architecture of the historical palaces of uzbekistan and ways of using them for modern purposes. World Bulletin of Management and Law, 3, 31-33.
4. U Malikov., Hamrayev, S. (2023). O'zbekiston shaharsozligida tarixiy va zamonaviy shaharlarning badiiy uzviyligi. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 4), 85-89.
5. U Malikov., Shodiyeva, M. (2022). Ўзбекистон тарихий шаҳарларида энг қадимги ва илк ўрта аср саройларининг шаклланиши ва ривожланиш эволюцияси. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 243-247
6. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны: Учеб. пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – С. 17.

LIGHT AND COLOR
YOQISH VA RANG

Mukhamadiyev Esan
professor of "Interior design" department SamSACU

Abstract The article talks about the influence of light on colors, concepts and views on it, as well as the existence of specific problems, as well as their place in the visual arts, the organization of space and forms, as well as the fact that light and shadow are expressive means in the implementation of principles expressiveness in painting. In the formation of architectural and design forms, light and color are interpreted as the main means of expression.

Key words: Color theory, form, coloristics, space, modeling, light, elements, graphics. Antipode of shadow. Minerals and dyes. Impressionists, plein air. Light and color, light and shadow, decorator, colorist.

Annotatsiya Maqolada nurning ranglarga ta'siri haqidagi tushuncha va qarashlar va o'ziga xos muammolar mavjudligi, shuningdek tasviriy badiiy ijoddagi ularning o'rni, fazo va shakllarning tashkillashuvida, rangtasvirda ifoda tamoyillarini amalga oshirishda nur va soyaning ifoda vositasi ekanligi haqida so'z yuritiladi. Arxitektura va dizayn formalarini shakllantirishda ham yorug'lik va rang asosiy ifoda vositasi sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Rang ta'limoti, shakl, koloristika, fazo, modellashtirish, yorug'lik, element, grafika. Soyaning antipodi. Minerallar va bo'yoqlar. Impressionistlar, plener. Yorug'lik va rang, yorug'lik va soya, dekorativ, kolorist.

Аннотация. В статье говорится о влиянии света на цвета, понятиях и взглядах на него, а также о существовании конкретных проблем, а также их месте в изобразительном искусстве, организации пространства и форм, а также о том, что свет и тень являются выразительными средствами при реализации принципов выразительности в живописи. В формировании архитектурных и дизайнерских форм свет и цвет трактуются как основные средства выразительности.

Ключевые слова: Теория цвета, форма, колористика, пространство, моделирование, свет, стихия, графика. Антипод тени. Минералы и красители. Импрессионисты, пленэр. Свет и цвет, свет и тень, декоратор, колорист.

Qadimgi olimlar rang ta'limotida yorug'lik va qorong'ulikni, oq va qorani qarama-qarshi qo'yib, ular o'rtasida hamma ranglar mavjudligini payqaganlar. Ammo bu hodisalarning sabablarini ular aniq ayta olmaganlar. Xususan, Aristotel ko'z va jism oralig'idagi "shaffof" muhitning ahamiyati haqida gapirgan edi.

Demokrit jismlar va ularning obrazlarini ko'zda shakllantiruvchi atomlar mavjudligi haqida uqtirgan edi.

Evklid esa ko‘zdan “ko‘rish nurlari” tarqalib, tashqi dunyo jismlarni qamrab olib, ular obrazini aks ettiradi deb tushuntirgan edi. Bir qarashda yorug‘lik va rangning alohida-alohida mavjudligi mutlaqo ravshan va hech qanday shubhasiz ko‘rinadi: rang barcha sirtlarda, doimiy ravishda mavjud bo‘lib kelgan va yorug‘lik esa atrofdagi hamma narsani, shu jumladan rangni ham yoritib, ko‘rish imkonini beradigan ma’lum xususiyatdir deb tushuniladi.

Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan hodisalarning murakkab o‘zaro ta’siri haqida bilmagan holda uzoq vaqt fikrlanib kelingan. Buyuk ingliz olimi I.Nyuton birinchi bo‘lib yorug‘lik va rang o‘rtasidagi murakkab munosabatni ilmiy tajriba asosida, tushuntirib berdi. Uning tajribalaridan ma’lum bo‘ldiki, rang hissi ko‘zga qanday yorug‘lik nurlari ta’sir qilishiga bog‘liq va quyoshning oddiy oq nuri barcha ranglarning yig‘indisiga teng: nurlar, aniqroq qilib ifdalaganda, rangli narsa emas. Ularda u yoki bu rangni qo‘zg‘atuvchi ma’lum bir kuch yoki moyilliklar mavjud xalos. Biroq, yorug‘lik va rangning alohida-alohida mavjudligi haqidagi odatiy g‘oyalar shunchalik qat’iy, katta kuchga ega ediki, hatto Nyutonning kashfiyoti ham hamma tomonidan darhol tan olinmasdan 19-asrda ham ko‘plab yirik olimlar, ayniqsa faylasuflar va rassomlar unga shubha bilan qarashgan. Gegel bunday qarashlarga fikr bildirib “axmaqona va yolg‘on” deb, yorug‘lik turli xil ranglarni qo‘zg‘ovchi narsa degan fikrni inkor etdi. “Yorug‘lik, - deb yozgan edi u, - rangsiz bo‘lib qolaverishi bilan birga, u o‘ziga xoslikning sof noaniqligidir: rang yorug‘lik bilan solishtirganda qandaydir nisbiy qoramtir narsa bo‘lib, yorug‘likdan tubdan farq qiladigan narsaga tegishlidir, bu o‘ziga xos xiramtir xususiyatli va nurning boshlanishi bilan birlikda joylashgan”- deb ta’riflaydi.

Tasviriy san’atda yorug‘lik va rang bir-biridan mustaqil holdagi, estetik kategoriyalar sifatida, xuddi badiiy formalarning elementlari ko‘rinishida faollik ko‘rsatadi. Shuningdek yorug‘lik va rang o‘rtasidagi munosabatlar muammosi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu, birinchi navbatda, tasviriy san’atning grafikaga bo‘linishi bilan tasdiqlanadi. Bu yerda yorug‘lik ifodalilikning asosiy vositasi sifatida, qora va oqning kontrasti ko‘rinishida xizmat qiladi yoki keyingisining yorug‘ va soyaning gradatsiyasida va borliqni o‘z rang-barangligida tasvirlovchi rangtasvirda o‘z ifodasini topadi. Ammo agar qora va oq tasvir chuqurroq tahlil qilinsa, biz qora va oq rang orqali obyektiv borliqdagi rang xususiyatlarini ifodalash mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin va biz bu holni rangtasvir ham nursiz mavjud bo‘laolmasligini, u ham nafaqat rangga, balki yorug‘likka ham muhtojligini anglaymiz. Yorug‘lik va rang, quyida ko‘rinib turganidek, bir-biri bilan turli munosabatlarga kirishadi va ko‘pincha rassomning badiiy vositalari arsenalida asosiy rol o‘ynash huquqi uchun kurashayotganga o‘xshaydi. Shuning uchun rassomlar leksikonida rasm chizish haqida gap ketganda, “yorug‘lik” so‘zi ko‘pincha uning antipodi sifatida “rang” so‘ziga qarama-qarshi qo‘yiladi. Bu yerda rangli yuza har doim nur bilan cho‘lg‘anib odamda turli kayfiyat hosil qiladi, ya’ni biz asarda ularning qaysi biri yetarli bo‘lmasa “rangsiz” yoki “nursiz” deb e’tirof etamiz.

Shu bilan birga, odatda birinchisiga ya’ni nurga obyektlarning uch o‘lchovli shaklini modellashtirish va tasvirlarda ma’lum bir yorug‘lik va fazoviy chuqurlik effektlarini yaratishda asosiy rolt beriladi, ikkinchisi - rang esa, asosan, kartinani jozibadorligini oshirish, unga bezak berish, rassomning ichki tuyg‘u va emotsional yondashuvi kabi “dekorativ” funksiyalar yuklanadi. Batafsilroq tahlil qilinganda, rang shakllarni modellashtirish va makonni qurishda ham ishtirok etishi va nur-soya esa rangsiz bo‘lishi mumkin emasligi ayon bo‘ladi. Tasviriy san’atdagi yorug‘lik hodisasi ko‘p qirrali bo‘lib, uning rangtasvirning ifoda vositalari tizimidagi ahamiyati yorug‘likning inson hayotidagi ahamiyati bilan qiyoslanadi. Bu holat rangtasvirda yorug‘likning an’anaviy tushunchalari bilan bir qatorda yorug‘lik hodisasini rangdan nisbiy ajratilgan holda ko‘rib chiqishga imkon beradi. Ushbu yo‘ldan o‘tib, kartinadagi yorug‘likning turli funksiyalarini aks ettiruvchi bir nechta jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Masalan, yorug‘lik muammosini rang ohangi (rang tonlari primatlari) yoki qaysi bir rangning ustuvorligi to‘g‘risidagi bahslarda uning rangni antipodi sifatida qarashlarda, rassomlarni “koloristlar” va “yoritgichlar”ga bo‘linishida yaqqollashadi. Bu umumiy muammolar qirralarining bir tarafini tashkil etadi. Agar biz yorug‘likni soyaning antipodi deb hisoblaydigan bo‘lsak, savolga biroz boshqacha nuqtai nazardan yondashgan bo‘lamiz.

Shunday qilib, Italiyadagi Uyg‘onish davri rassomlari o‘zlarining syujetli kompozitsiyalari muhitini doimo nur bilan to‘la sug‘orilgan bo‘lishligi haqida o‘ylaganlar. Leonardo da Vinchi o‘zining sfumatosi (kartinaning orqa planini tonal oqartish yo‘li bilan yumshatish, uzoqlashtirish) bilan bu haqiqatni birinchi bo‘lib tushunib olganligini isbotlagan deyish mumkin. Karavadjo va uning izdoshlari yoki Rembrandt yorug‘likni o‘zlaricha talqin qilish borasida Italiya Uyg‘onish davri rassomlari tushunchalariga nisbatan tamoman teskari fikrlab o‘z asarlarida o‘zgacha faollikka erishganlar. Ular katinalarida yorug‘likdan shartli ravishda foydalanib asardagi obrazlar ifodaliligini oshirish maqsadlarida foydalandilar. XIX asrda ijod etgan, rus “lyumenizm” maktabiga mansub manzarachi rus rassomi A.I. Kuindji o‘z asarlarida nur bilan cho‘lg‘angan tabiat manzaralarini mahorat bilan ishlagan. Masalan uning “Dneprda oydin kecha” illyuzionistik asarini nurning alohida o‘zi ifoda vositasi bo‘lishi mumkinligiga misol bo‘lishi mumkin. Shuningdek impressionistlar tomonidan plener so-hasida erishilgan rangtavir asarlari va amaliy va nazariy ishlanmalari ham shular jumlasidandir. Va nihoyat, yorug‘lik tasvirda shakllantiruvchi element yoki badiiy ifoda vositasi sifatida faollashgan bo‘lishi mumkin. Xuddi shunday, tabiatda ham, rasmda ham bular bir-biri bilan chambarchas bog‘langan va bir-biri bilan ustma-ust qatlamga aylanib ketgan yaxlitlikdir.

Arxitekturada yorug‘lik va rang tushunchasi, shuningdek, uni boshqarish va undan foydalanish istagi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi me’morlar bino ko‘rinishini yorug‘likka moslashuvidan keng foy-dalanishgan. Masalan, yunon me’morchiligi quyosh nu-ridan ibodatxona tektonikasini ifodalash vositasi sifatida

foydalangan. Yorug‘lik va soya bino tuzilishini va birinchi navbatda, uning tartibini - yunon iboatxonalari arxitekturasi (ma’badi (xram) konstruktiv va plastik jihatdan ta’minlashda faol foydalanganligini ko‘rish mumkin. Barokko me’morlari uchun quyosh nuri arxitektura uslubiga mos keladigan go‘zal effektlarni yaratish vositasi hisoblangan [1]. Shahar arxitekturasida polixromni faollashtirish bugungi kunda arxitektorlar, shaharsozlar va san’atshunoslar uchun dolzarb kasbiy vazifa hisoblanadi. Binolar, inshootlar va arxitektura majmualarini qurishda rang sohasidagi kompozitsion muammolar o‘z rangi yoki pardozlash materiallaridan foydalanish, bino va inshootlarni qurishda yuzalarni bo‘yash yoki zavodda alohida konstruktiv elementlarni ishlab chiqarishda hal qilinadi. Arxitekturadagi rang muammosi binolar va inshootlarni yoritish masalalari bilan chambarchas bog‘liq. Rang yordamida biz alohida binolarni me’moriy majmuadagi boshqa binolardan ajrata olamiz. Yorug‘lik yordamida biz mavjud rang sxemalarini sozlashimiz va binoning ko‘rinishini qisman yoki to‘liq o‘zgartirishimiz mumkin. Amalda ko‘pincha obyektlarning rangli yoritilishi qo‘llaniladi.

Masofa rang idrokiga ham ta’sir qiladi. U ortib borishi bilan obyektning uch o‘lchamliligi yo‘qoladi - ranglar optik aralashuvga uchraydi, bir-biriga o‘xshash bo‘lib qoladi. Shuningdek, yashil-ko‘k rangga ega bo‘lgan havo sharoiti ta’siriga tushib qoladi. Uzoqdan ko‘rinadigan rang intensivligini yo‘qotadi va uning rangi oq, qora yoki kulrang eng yaqin axromatik rangga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Специфические особенности использования цвета и света в различных архитектурных стилях. - URL: http://www.rusnauka.com/1_NIO_2013/Stroitelstvo/1_124470.doc.htm

2. Яргина З.Н. Эстетика города. М.: Стройиздат, 1991. 366с.

3. Ефимов А.В. Колористика города. - М.: Стройиздат, 1990. - 272с

4. Цойгнер Г. Учение о цвете. М., 1971.

5. Келер В., Лукхардт В., Свет в архитектуре. Свет и цвет, как средства архитектурной выразительности, пер. с нем., М., 1961.

6. Muxamadiyev E. Rangshunoslik. Samarqand.2002 y.79 bet.

7. Лущеко Е.М. Теория цвета. Л., 1980.

SAYYOHLIK MAJMUALARI VA MEHMONXONALARDA «TO‘SIQSIZ MUHIT» YARATISH TAMOYILLARI

Sharipova Y.O. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktorant (PhD)

Yusupova A.I. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktorant (PhD)

IN TOURIST COMPLEXES AND HOTELS THE PRINCIPLES OF CREATING A BARRIERS-FREE ENVIRONMENT

Sharipova Y.O. Samarkand State University of Architecture and Construction,basic doctoral student (PhD).

Yusupova.A.I. Samarkand State University of Architecture and Construction,basic doctoral student (PhD).

Annotatsiya. Maqolada turizm va sayyohlik sohalari bilan bog’liq bo‘lgan inshootlarda, umuman olganda hayotning barcha jabhalarida jismoniy harakati cheklangan va nogironligi bor insonlar, yosh bolalar va qariyalarning erkin harakatlanishlari uchun to‘siqsiz arxitekturaviy muhit yaratish maqsadida, “Inklyuziv turizm”,“Universal arxitektura”, “To‘siqsiz muhit” kabi turistik shaharlarni rivojlantirish konsepsiyasida qulay muhit tamoyillarini o‘rganishga bag’ishlangan. Sayyohlik majmualari va mehmonxonalarning qaysi qismlarda ushbu elementlardan foydalanish kerakligi haqida mulohaza yuritilgan. Bundan tashqari mamlakatimizning turizm rivojlangan shaharlaridan biri bo’lgan Buxoro viloyatidagi eng nufuzli mehmonxonalarida yaratilgan sharoitlar tahlil qilingan. Tahlil natijalari o’rganilib, holat bo’yicha kamchiliklar va yutuqlarga urg’u berilgan. Oqsagan nuqtalarni tuzatish,turizmni yanada rivojlantirish maqsadida kichik tavsiyalar berib o’tilgan.

Kalit so’zlar. Nogironligi bor shaxslar,to’siqsiz muhit,universal dizayn,rampalar,lift,pandus,mehmonxona,sanitar gigienik xonalar.

Kirish. Tahlil va o’rganishlar natijalariga ko’ra, bugungi kunda yer yuzida taxminan 1,3 milliard odam jiddiy nogironlikni boshdan kechirmoqda. Bu dunyo aholisining 16 foizini yoki har 6 kishidan 1 nafarini tashkil qiladi. Ba’zi nogironligi bor shaxslar nogiron bo’lmaganlarga qaraganda 20 yil oldin vafot etadilar. Bu insonlar “ikkinchi darajali” yoki ko’zga ko’rinmas insonlar bo’lib qolmasliklari [1] va bunday shaxslarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlarini ta’minlash juda dolzarb mavzu hisoblanadi. Xalqaro tajribalarni tahlil qiladigan bo’lsak, bugungi kunda imkoniyati cheklangan va nogironligi bor shaxslarning jamiyatning barcha sohalarida ishtiroki faollashmoqda. Bugungi kunda turizm sohasidagi asosiy muammolardan biri, sayyohlik obyektlari, mehmonxonalar, muzey kabi jamoat binolarida jismoniy harakati cheklangan shaxslarning erkin harakatlanishlari uchun arxitekturaviy muhitning mukammal emasligidir. Mamlakatimiz turistik hududlar shaharsozligida ham bunday muammolar talaygina. Bu muammolarga mukammal yechim berish arxitektorlarning oldida katta ma’suliyat va vazifalar yuklaydi.Shu o’rinda biz nega nogironlarni sayohatga jalb qilishimiz kerak? Nega ular uchun sharoit yaratishimiz kerak degan savol tug’iladi. Birinchidan,hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda nogironligi bor shaxslarning katta qismi bu sohaga jalb qilingan. N.V.Belarusova o’zining kichik tadqiqotida dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarda inklyuziv turizmning

rivojlanganlik darajasini tahlil qilgan.1-jadvalda berilgan foizlarga e'tibor beradigan bo'lsak, Buyuk Britaniyada bu ko'rsatkich 100 foizni ko'rsatmoqda.Germaniya va Chexiyada esa to'siqsiz muhit bilan turizm infratuzilmasi 95 foiz jihozlangan(1-jadval)[6].Demak,bizning mamlakatda ham inkluziv turizmga talab ortib bormoqda.

1-jadval.

Davlat nomi	To'siqsiz muhit yaratilganlik darajasi	Turizm turlari
Ispaniya	Turizm infratuzilmasidagi 90% elementlar moslashtirilgan	chang'i uchish, suzish, ilmiy-ta'lim, plyaj
Finlandiya	Turizm infratuzilmasidagi 70% elementlar moslashtirilgan	Reima mamlakati (it bilan sayohat, otlar, to'rt g'ildirakli mototsikllar, qor avtomobillari (qishda) va baliq ovlash, eshkak eshish, suzish rafting va chang'i sporti), golf, curling
Isroil	Turizm infratuzilmasidagi 85% elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, plyaj, diniy
Gretsiya	Turizm infratuzilmasidagi 65% elementlar moslashtirilgan	Madaniy-ma'rifiy (ko'rlar uchun)
Vengriya	Turizm infratuzilmasidagi 65% elementlar moslashtirilgan	Madaniy-kognitiv, plyaj, salomatlikni yaxshilash
Chexiya	Turizm infratuzilmasidagi 95% elementlar moslashtirilgan	Madaniy-ma'rifiy, sog'lomlashtirish, tropik dunyoga sayohat, tadbir sayohatlari (nogironligi bo'lgan odamlar uchun xalqaro festivallarni tashkil etish,), chang'i, skuter, intellektual
Germaniya	Turizm infratuzilmasidagi 95% elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, salomatlikni yaxshilash
Fransiya	Turizm infratuzilmasidagi 85% elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, salomatlikni yaxshilash, chang'i, skuter
Buyuk Britaniya	Turizm infratuzilmasidagi barcha elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, salomatlikni yaxshilash, intellektual
AQSH	Turizm infratuzilmasidagi 80% elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, salomatlikni yaxshilash, Paralimpiya o'yinlari
Avstraliya	Turizm infratuzilmasidagi 75% elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, ekologik, plyaj, suzib yurish, sho'ng'ish

Asosiy qism. Xalqaro sayyohlar tashrif buyurganda aynan jismoniy harakati cheklangan shaxslar uchun yaratilmagan sharoit mamlakatimiz turistik salohiyatini tushurishi mumkin. Ofitserova N. Solnseva O. Tsunaeva J.lar xorijiy tajribalarni tahlil qilishgan. Nogironlarni jamoat hayotiga jalb qilish bo'yicha xorijiy tajribalar o'nlab yillar davomida to'plangan:Buyuk Britaniyada nogironlik to'g'risidagi qonunchilik 1944-yildan beri mavjud va 1961-yilda AQShda nogironlar uchun binolardan foydalanish imkoniyati standarti qabul qilingan. 1975-yilda "Nogironlar to'g'risida"gi qonun qabul qilinganidan keyin Qo'shma Shtatlarda katta o'zgarishlar ro'y bergan[2].Bugungi kunda AQSHda inkluziv turizm juda rivojlangan, turizm infratuzilmasidagi 80% elementlar inkluziv turizmga moslashtirilgan[6].

O'zbekistonda ham bu ishlardan chetda turmagan holda juda ko'p qonun hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib "Nogironlar huquqlari to'g'risida" (Nyu-york,2006-yil,13-dekabr) Konvensiya O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-iyundagi O'RQ-695-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan,2021-yil 28-iyuldan kuchga kirgan[3].Nogironligi bor shaxslarni jamiyat hayotidan uzilib qolmasligini ta'minlash maqsadida dunyo olimlari va mutasaddi tashkilotlar tomonidan juda ko'p islohotlar va loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.Ulardan eng asosiylaridan biri bu Universal dizayn va To'siqsiz muhit yaratish masalasidir. Universal dizayn bu - turli xil binolar, muhitlar, mahsulotlar, aloqa, axborot texnologiyalari va xizmatlarining dizayni va tarkibini iloji boricha mustaqil va tabiiy ravishda hamma uchun ochiq va tushunarli, shuningdek, sog'lom va nosog'lom insonlar uchun moslashuvchan bo'lib, alohida ixtisoslashtirilgan yechimlarga ehtiyoj sezmasdan foydalanish mumkin bo'lgan loyihalash strategiyasidir.[7.73-b.]Umumjahon me'morlarining asosiy maqsadi har kimga ularni moslashtirmasdan to'liq foydalanish imkonini berishdir. Arxitektura va dizayn sohalarga taalluqli konseptsiya sifatida qaraladigan Universal dizayn odamlarga ularning xususiyatlari, yoshi va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda xizmat qiladi.[8]Bu strategiya natijasida jamiyatning barcha sohalarida jismoniy harakati cheklangan insonlarning ishtirokini keng qamrovda ta'minlash mumkin,masalan,turizm sohasida.Belomestnova M.E va Sharikov V.I o'zlarining kichik tadqiqotlarida Germaniya turistik obyektlarida yaratilgan to'siqsiz muhitga alohida urg'u berib o'tishgan.Germaniya tajribasini o'z mamlakatlarida tadbiq etish bo'yicha mulohaza yuritishgan[9].Rus olimlari turizmga asoslangan shaharlarni rivojlantirish bo'yicha mahalliy va xorijiy tajribani tahlil qilish asosida qulay muhit mezoniga muvofiq, turistik shaharni rivojlantirish konsepsiyasida qulay muhitning asosiy tamoyillari belgilab olishgan:

1. Shahar brendini shakllantirish va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.
2. Shaharni funksional rayonlashtirish.
3. Shahar muhitini arxitekturaviy-fazoviy rejalashtirish tashkil etish.
4. Avtomobil transporti tarkibini tashkil etish.
5. Navigatsiya tizimini tashkil etish.
6. Turizm infratuzilmasi va turizm ob'ektlari.
7. Ko'kalamzorlashtirish.[4]

Demak,qulay arxitekturaviy muhit yaratish muammoga kompleks yondashishni talab qiladi. Umuman olganda sayyohlarga xizmat qiladigan binolarda inkluziv arxitekturani shakllantirish bu binolarning kirish joylariga to'siqli panduslar,ko'zi ojizlar uchun g'adir budur yo'lakchalar,ostonasiz eshiklar,nogironlik aravachasidagi insonlar uchun qulayliklar bilan ta'minlanishi kerak[5].Landshaft,eksterer va interer dizaynida

universal muhitni shakllantirish juda muhim hisoblanadi.Bu bilan biz faqatgina nogiron shaxslarga emas jamiyatdagi yosh bolali onalar,bolalar,vaqtincha betob va qariyalar uchun ham erkin harakatlanishlari uchun imkoniyatlar yaratgan bo'lamiz.Barqaror arxitektura kontsepsiyasining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, "universal arxitektura" konseptsiyasi ob'ektlarni inklyuziv ta'limga moslashtirish va "barqaror" turizmni rivojlantirish va barqaror shaharda qulay yashash rejalarini amalga oshiradi. Zamonaviy moslashgan shahar kontekstida "to'siqsiz muhitdan universal arxitekturagacha" yangi paradigmasi tobora kuchayib bormoqda[10].

Sayyohlik majmualarini loyihalashda to'siqsiz muhitni yaratish. Sayyohlik majmualarini loyihalashda to'siqsiz muhit bilan ta'minlashda kompleksni zonalarga bo'lgan holda o'rganib chiqamiz.Turistik majmualarni quyidagi funksional zonalarga maqsadli ajratish mumkin:

- turar joy - mehmonxona,otel,motel
- kirish - turistik majmualar qabulxonasi va ma'muriyati bilan o'zaro bog'langan binolar guruhlari;
- chakana savdo - turistik majmualarga tashrif buyuruvchilar uchun savdo va maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq binolar;
- sanoat - sanoat binolarining turli guruhlari (ovqatlanish, xizmat ko'rsatish, ta'mirlash ustaxonalari, fotostudiyalar va boshqalar). Umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlab chiqarish funktsional zonasi ovqat tayyorlash bilan bog'liq binolar guruhidir: oshxona, ta'minot ustaxonalari, oshxona va idishlarni yuvish va boshqa binolar;
- sport - jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan bog'liq binolar va maydonlar guruhlari, sport zali yoki yordamchi xonalari bo'lgan suzish havzasi;
- madaniy-ishlab chiqarish - madaniy tadbirlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan turli guruhlardagi binolar;
- ma'muriy va idoraviy - turistik kompleksni boshqarish bilan bog'liq binolar guruhlari;
- ombor - mahsulotlar, turli materiallar va inventarlarni saqlash va saqlash bilan bog'liq binolar guruhlari;
- texnik – turistik majmuaga muhandislik-texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xonalar: ventilyatsiya kameralari, konditsionerlar jihozlari bilan jihozlangan mashina xonalari, kommutatorlar, boshqaruv kamerasi va dvigatel xonasiga ega lift vallari va boshqalar.

Zonalar uchun umumiy bo'lgan qismlar mavjud.Ular avtoturargoh,kirish qismi,qabul bo'limi,yo'laklar,lift,rampalar va boshqalar.

Avtoturargoh. Shaxsiy avtotransporti uchun avtoturargohlar bino yoki inshootning kirish qismiga yaqin, ya'ni 100 m dan uzoq bo'lmagan (25 — 50 m bo'lishi tavsiya etiladi) masofada bo'lishi va maxsus belgilar o'rnatilishi lozim(1-rasm).

Kirish qismida to'siqsiz muhitni ta'minlash. Darsy o'zining kitobida kirish qismini 3 xil xarakterdagi nogironligi bor shaxslar uchun moslashtirishni tavsiya qilgan.

1. Jismoniy harakati cheklanganlar uchun kirish-imkoniyati nogironlar aravachasi yoki yurish moslamalaridan foydalanishni talab qiladigan nogironlarni o'z ichiga oladi.Ular yo'llar, rampalar, liftlar, tutqichlar, aniq yo'nalish belgilari, chekkalar, aylanma xona, keng eshiklar, dush kabinetlari, pastga tushirilgan va telefonlar va boshqalar stollar bilan ta'minlashni talab qiladi.. Bu elementlar uzluksiz foydalanish mumkin bo'lgan yo'lga muvofiqlashtirilgan.
2. Sensorli kirish eshitish yoki ko'rish qobiliyatiga ega bo'lmagan odamlarni o'z ichiga oladi. Ular teginish belgilari va teglar, teginish belgilari yoki 2 ta'minlashni talab qiladi.pol qoplamalarining o'zgarishidagi vizual signallar, liftlar va chiroqlar uchun audio signallar va eshitishni kuchaytirish-tinglash tizimlari va boshqalar.
3. Aloqa orqali kirish yozma so'z, ko'rish, nutq yoki eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan yoki boshqa madaniyatlarga mansub odamlarni o'z ichiga oladi.Boshqa madaniyatga mansub kishilarning yozma so'z, ko'rish, nutq va eshitish qobiliyati bilan bog'liq muammolari bo'lgan odamlar[11].Qabulxona bo'limlarida,mehmonxonalarning kirish qismida reception bo'limida nogironlar uchun balandligi 0.80 m dan baland bo'lmagan qismi bo'lsa maqsadga muvofiqdir(2-rasm).

Sanitariya-gigiyena xonalarida nogironligi bo'lgan shaxslar foydalanadigan kabinalarning geometrik ko'rsatkichlari kamida quyidagicha bo'lishi kerak:

yopiq dush kabinalari, yechinish kabinalari uchun — 1,8x1,8 m;

o'zaro ochiq o'tish joyli dush kabinalari uchun — 1,2x0,9 m;

hojatxona kabinalari uchun — 1,65x1,8 m;

ayollarning shaxsiy gigiyena xonasi uchun — 1,8x2,6 m;

yechinib kiyinish xonasidagi yechinish joyi uchun (o'rindiq) — 0,6x1,5 m.

Kabinalar qatorlari orasidagi masofa 1,8 m bo'lishi kerak.Dush xonasi bilan birlashtirilgan sanitariya bo'linmasining o'lchamlari kamida 2,2x2,2 m bo'lishi kerak. Sanitariya bo'linmasida o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslarga qulaylik yaratish uchun maxsus jihozlar (tutqichlar, metall shtangalar, buklanadigan o'rindiqlar) o'rnatilishi lozim.Yechinib kiyinish xonalarining maydoni kamida 12 m² bo'lishi kerak.Poldan 1,2 m dan ortiq bo'lmagan balandlikdagi javonli individual shkaflar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay joylashgan bo'lishi va shkaf oldida o'rindiqli aravacha bemalol harakatlanishi uchun 1,5x1,5m o'lchamdagi zona nazarda tutilishi kerak.Shkaflar o'lchamlari kamida 0,4x0,5 m bo'lishi kerak.Ochiq holda saqlanadigan kiyimlar uchun ilmoqlarning balandligi pol sathidan 1,2 m yuqorida bo'lishi kerak.

Mehmonxonalar nomerlarida to'siqsiz muhit. Mehmonxona muassasalarda o'rinlarning umumiy sonidan 5 — 8 foizi o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslarni joylashtirish uchun mo'ljallanishi lozim.Nogironlar uchun namunali nomer loyihasi 3-rasmda berilgan.

Ovqatlanish muassasalarida to'siqsiz muhit. Ovqatlanish muassasalarida quyidagi elementlarda to'siqsiz muhit yaratilishi zarur.Erkin harakatlanish uchun yo'laklar,stolda erkin o'tirish uchun erkin muhit,yuvinish va sanitar gigienik xonalari,yong'in vaqtida

tezda chiqib ketishni ta'minlash,lift va zinapoyalar(4-rasm)[12].Restoran va kafelarda nogironlar,qariyalar va yosh bolalilar uchun kalyaska yoki aravacha erkin harakatlanishi uchun bo'sh hududlar ajratilishi ularning atrof muhit bilan erkin muloqot qilishida yordam beradi.

Tomosha ko'ngilochar,sport zonasi va suzish havzalarida. Tomosha va sport zallarida hamda ko'ngilochar komplekslarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ajratiladigan o'rinlar bevosita evakuatsiya chiqishiga olib boruvchi yo'laklarga yaqin joylashtirilishi kerak.Nogironligi bo'lgan shaxslar o'rnini joylashtirishda evakuatsiya paytida boshqa tomoshabinlarning evakuatsiya qilish yo'llari bilan to'qnashmasligini nazarda tutish tavsiya etiladi.Tomosha, sport va ko'ngilochar zallaridagi nogironligi bo'lgan shaxslar o'rnidan evakuatsiya chiqishigacha masofa 25 m dan oshmasligi kerak, bunda yo'lakning kengligi 1,2 m dan kam bo'lmasligi kerak. O'rindiqli aravacha yo'lining kengligi 1,5 m dan kam bo'lmasligi lozim[5].

Buxoro mehmonxonalari doirasida to'siqsiz muhit tahlili. Ko'plab adabiyotlar,xorijiy tajribalarni o'rgangan holda Buxoro viloyatidagi nufuzli mehmonxonalarda nogiron shaxslarga yaratilgan sharoitlar o'rganildi.Bu shahar tanlanishidan maqsad shuki,Buxoro viloyati O'zbekistonda turistik salohiyati jihatidan yuqori o'rinni egallagan.Kichik tadqiqot jarayonida hududdagi eng nufuzli,3,4 yulduzli mehmonxonalar tanlab,nogironligi bor shaxslarni qabul qilish imkoniyatlarini o'rganib chiqildi.Shu jumladan,Buxoro shahrida joylashgan "Wydham Bukhara" mehmonxonasi arxitekturaviy muhiti borib o'rganildi.Bu mehmonxona 450 kishilik sig'imga ega bo'lib,212 ta xonalar mavjud.Avtomabil to'xtash joyida maxsus nogironlar uchun joy ajratilgan.Kirish joyi ham nogironlik aravachasi uchun ham moslashtirilgan ostonasiz.

2-jadval.

Mehmonxona nomi	Mehmonxona umumiy xonalar soni	Ajratilgan xonalar soni	Nogiron shaxslar uchun sharoitlar
Wydham Bukhara	212 xona,450 kishi	2 ta,5-etajda	bor
Grand Bukhara	262 xona,300 kishi	1 ta,7-etajda	bor
Sahidi Zarafshon	248 xona,450 kishi	1 ta,2-etajda	bor
Orient Star Varaxsha	204 xona,400 kishi	Yo'q	Yo'q
Turon City Plaza	210 xona,105 kishi	2 ta,2-etajda	bor
Turon plaza	120 kishi	2 ta,1-etajda	bor
Reikartz Bahor Buxoro		Yo'q	Yo'q
Rangrez hotel		Yo'q	Yo'q
Paradise plaza		Yo'q	Yo'q
Ko'k gumbaz		Yo'q	Yo'q

Mehmonxonada 2 ta xona jismoniy harakati cheklanganlar uchun ajratilgan va u 5 etajda joylashtirilgan.Lift mavjud. "Grand Bukhara" mehmonxonasi 300 kishilik sig'imga ega va 262 nomerga ega.Avtomabil to'xtash joyi talabga javob bermaydi va binoga kiraverishda kichik zina bo'lib,tutqichli pandus ham yo'q.Nogironlar uchun 1 ta xona ajratilgan bo'lib,7 etajda joylashgan. "Sahidi Zarafshon" 4 yulduzli mehmonxona umumiy 248 ta xonasi mavjud va u salkam 450 kishiga mo'ljallangan.2 etajda nogironlar uchun 1 ta xona ajratilgan,lift mavjud.Avtomabil to'xtash joyida alohida joy ajratilgan.4 yulduzli mehmonxona "Orient Star Varaxsha" mehmonxonasi 400 kishilik,204 ta xona mavjud. Bu mehmonxonada umuman nogironlar uchun xona ajratilmagan. "Turon City Plaza" mehmonxonasi nufuzli 4 yulduzli mehmonxonalar turiga kiradi.Bu mehmonxona umumiy sig'imi 210 kishilik,105 nomerga ega.Shulardan ikkikchi etajida 2 ta xona nogironlar uchun ajratilgan.Lift mavjud. "Turon plaza" mehmonxonasi umumiy 120 ta sayyohni sig'dira oladi va 1 etajda 2 ta nomer nogironlar uchun ajratilgan. "Reikartz Bahor Buxoro" mehmonxonasi 4 yulduzli mehmonxona.Bu mehmonxonada nogironlar uchun xona ajratilmagan. "Rangrez hotel", "Paradise plaza" va bir qancha 3 va 4 yulduzli mehmonxonalarida umuman nogironlar uchun sharoitlar mavjud emas va xonalar ajratilmagan(2-jadval).

Tadqiqod xulosasi. Holatni o'rganish faqatgina nogironlar aravachasida o'tiradigan sayyohlar doirasida o'rganildi. Kuzatuvlar natijasida bu mehmonxonalarning barchasi (reception) qabul qismi faqatgina sog'lom odamlar uchun mo'ljallangan. Qabulxona qismida balandligi 80 sm dan oshmaydigan joy bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ammo tahlildagi mehmonxonalarda bunga umuman ahamiyat berilmagan.Mavjud sanitariya gigiena xonalarida ham qisqa muammolarga duch kelish mumkin. Binolarning ayrimlarida panduslarni uchratmaslik mumkin. Mehmonxonalar, dam olish muassasalari va tibbiy-ijtimoiy muassasalarda nogironlar uchun ajratilgan xonalar quyidagi talablarni hisobga olib loyihalashtirilishi kerak:

-ustuvor ravishda birinchi qavatda bo'lishi;

-nogironligi bo'lgan shaxslarni turar joyidan evakuatsiya chiqish joyigacha bo'lgan masofa 50 m dan oshmasligi;

-tashrif buyuruvchilarning xonalarga qulay yetib borishini ta'minlash kerak.Loyihalashda o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslarning talablari bilan bir qatorda, ko'rishda va eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning ham talablari hisobga olinib, ma'lumot signalizatsiyalarining turli (tovushli yoki chiroqli) moslamalarining o'rnatilishi hisobga olinishi kerak.Mehmonxonalarda o'rinlarning umumiy sonidan 5–8 foizi o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslarni joylashtirish uchun mo'ljallanishi lozim.Xulosa qilib aytganda inkluziv turizm mamlakatimizning dunyo bo'yicha turistik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Bunda arxitektorlarning hissasi katta hisoblanadi.Tahlil olib borilgan hudud,Buxoro shahri O'zbekistonda juda yaxshi turistik salohiyatga ega bo'lgan shahardir.Shaharda dunyo sayyohlarini jalb qilishga arzigulik turistik resurslar mavjud.Ammo,dunyo bo'yicha tan olinib,qo'llanilib kelinayotgan to'siqsiz muhit yoki inkluziv turizm sohasi

ancha past pog'onada turibdi.Tahlil qilingan mehmonxonalar eng nufuzli mehmonxonalar hisoblanadi.Bu nufuzli mehmonxonalarda ham kamchilik uchrashi bu achinarli holat hisoblanadi.Tahlil natijasida bir qancha tavsiyalar ishlab chiqildi.

- Mehmonxonalar kirish qismidagi qabul bo'limida nogironlar uchun joy ajratish;
- Mehmonxona avtomabil to'xtash joylarida alohida joy ajratish;
- Xojatxona va yuvinish xonalarini loyihalashda talablarni inobatga olish;
- Bino landshaft qismida maxsus qoplamali yo'laklarni tashkil etish;
- Mehmonxona xizmatlarini reklama qilishda aynan nogironlar uchun ajratilgan xonalar haqida ham ma'lumot berish kerak.Chunki,biz sharoitlar yaratganimiz bilan sayyohlarni jalb qilmasak ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi;
- Interer qismini loyihalashda inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladigan ranglar va shakllardan foydalanish.
- Bundan tashqari,turistik majmuaning funksional zonalash jarayonida nogironlar uchun alohida dam olish turlarini hisobga olgan holda loyihalash zarur.Masalan,sport zonasida ular uchun alohida sport turlari uchun yacheykalar tashkil etish mumkin.Chakana savdo bo'limida nogironligi bor shaxslar va boshqalar uchun ham erkin harakatlanish gabaritlarini hisobga olish zarur.

1-rasm.(Manba: ShNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalariga)

2-rasm.(Manba: https://www.malls-71.pw/products.aspx?cname=accessible+reception+desk&cid=10)



3-rasm.(Manba: ShNQ 2.07.02-22 "Qurilish obyektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalariga)



4-rasm.(manba: Shail Pratap Singh.RESTAURANTS : BARRIER FREE DESIGN concepts (comprehensive))

Foydalanilgan adabiyotlar (manbalar) ro'yxati

1. World health organization/Disability/7 March 2023.URL:https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/disability-and health#:~:text=An%20estimated%201.3%20billion%20people%20%E2%80%93%20or%2016%25%20of%20the%20global,experience%20a%20significant%20disability%20today

2. Офицерова Н.А., Солнцева О.Г., Цунаева Ю.О. Формирование безбарьерной среды для развития доступного туризма: отечественный и зарубежный опыт // Вестник ГУУ. 2018. №1. –90-95 bb.

3. Теслер К.И., Стариков А.С., Кузнецов А.А. Принципы доступной среды в концепции развития туристических городов // Вестник МГСУ. 2015. № 9. – 7-15 bb.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat qurilish qo'mitasi.O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi,BMT Taraqqiyot

Dasturi/Nogironlar uchun qulaay muhit yaratish asoslari.-Toshkent, 2010.

5. SHNQ 2.07.02-22 “Qurilish obyektlarini nogironligi bo’lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalarini tasdiqlash to’g’risida.

6. Белоусова Н.В. Зарубежный опыт популяризации инклюзивного реабилитационно-социального туризма // Туризм и гостеприимство. 2019. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-populyarizatsii-inklyuzivnogo-reabilitatsionno-sotsialnogo-turizma (murojaat qilingan sana: 11.06.2023).

7. United Nations Development Group / A Guidance Note for United Nations Country Teams and Implementing Partners, Including the rights of persons with disabilities in United Nations programming at country level (New York, 2011)

8. https://www.archdaily.com/994337/what-is-universal-design

9. Беломестнова М.Е., Шариков В.И. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ БЕЗБАРЬЕРНОЙ СРЕДЫ НА ТУРИСТСКИХ ОБЪЕКТАХ: ОПЫТ ГЕРМАНИИ // Вестник РМАТ. 2021. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnyy-opyt-organizatsii-bezbariernoy-sredy-na-turistskih-obektah-opyt-germanii (murojaat qilingan sana: 11.06.2023).

10. Курбатова Н.В. Универсальная архитектура // Творчество и современность. 2016. №1 (1). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/universalnaya-arhitektura (дата обращения: 11.06.2023).

11. S. Darcy (1998). Anxiety to access: tourism patterns and experiences of NSW people with physical disability. Tourism NSW, Sydney, NSW.

12. Shail Pratap Singh.RESTAURANTS : BARRIER FREE DESIGN concepts (comprehensive)// https://www.academia.edu/29776920/RESTAURANTS_BARRIER_FREE_DESIGN_concepts_comprehensive

ZAMONAVIY ARXITEKTURADA SHAFFOF SHAKLLAR

O.N. Babakandov., A.M. Xakberdiyev., B.R. Toshtemirov.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

TRANSPARENT FORMS IN MODERN ARCHITECTURE

O.N. Babakandov., A.M. Xakberdiyev., B.R. Toshtemirov.
Samarkand State University of Architecture and Construction

Annotatsiya. Maqolada shaffof va atrof muhitni o‘zida aks ettiruvchi shakllar hamda arxitektura va dizayn ob’ektlari haqida gap boradi. Bundan tashqari, maqolada, arxitektura va dizaynda bunday shakllarning maqbulligi haqidagi fikr-mulohazalar ham o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar. Arxitektura, dizayn, shaffof va aks ettiruvchi shakllar, san’at, tabiat, haykaltaroshlik.

Arxitektura va dizaynda shaffoflik (shisha va shu kabi materiallar) tamoyillaridan foydalanish, XIX asrdan faol rivojlana boshlandi. “Sanoat inqilobi” davrida, bu material o‘ziga xos “moda”ga aylandi va metall konstruksiyalarning shisha bilan uyg‘un tarzda loyihalanishi asta-sekin mashhur bo‘la boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmida shaffof tomga ega bo‘lgan ko‘plab savdo binolari, temir yo‘l stansiyalari, ko‘rgazma zallari kabi binolar paydo bo‘ldi va bu, tabiiy yorug‘likdan to‘liq foydalanishga imkon berdi. Ochilib yopiluvchi shaffof geometrik arka va gumbazlar, arxitekturaning xarakterli elementiga aylandi. Keyinchalik ular, bino va inshootlarning fasad qismlarida ham qo‘llanilib, kishini hayratda qoldirdi. Umuman olganda, biz zamonaviy, yuqori texnologiyali deb hisoblagan bu me’moriy materiallar uzoq tarixga ega.

1850-51 yillarda Londonda (Buyuk Britaniya) qurilgan “Xrustal saroy”i muhandis Uilyam Kabit tomonidan loyihalandi va shisha materiali arxitekturada faol foydalanila boshlandi. Arxitektor Mis van der Roening Illinoys shtatidagi “Shishali uy”i bunga mos keladi. Ushbu turar joy binosi ustunlar yordamida erdan bir oz ko‘tarilgan bo‘lib, hamma tomoni shisha materialdan loyihalangan (san uzeldan tashqari) va unda tabiat shaffof tarzda namoyon bo‘lgan (1-2 rasmlar).



1-rasm. Xrustal saroy. London. B. Britaniya

https://i.pinimg.com/originals/5e/63/e0/5e63e09c01895c6fde51fc44d15ffa50.jpg



2-rasm. Shishali uy. Illinoys. AQSH

https://avatars.mds.yandex.net/i?id=2a00000179eb676f551ba0d35b0816108962-3645222-images-thumbs&n=13

Michigan (AQSh) shtatining Flint shahridagi “Mark’s House” (“Mark uyi”) Londonning “Two Islands” studiyasi tomonidan loyihalangan (3-rasm). Ushbu ob’ekt atrof muhitni aks ettiruvchi ko‘zgusimon maxsus material bilan qoplanganligi uchun o‘ziga xos, antiqa yodgorlik monumenti ifodasini eslatadi. Flint shahrida bir paytlar afsonaviy “General Motors” avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyasi o‘zining asosiy faoliyatini yuritgan, keyinchalik, u ishlab chiqarishni boshqa mintaqa va mamlakatlarga ko‘chirishi sababli, ko‘p sonli aholi bu erni tark etadi hamda ular yashagan uylar buzib tashlanadi. Aynan “Mark uyi” nomli ajoyib va g‘ayrioddiy kompozitsiya Flint shahridagi buzilgan minglab uylarga, shaharni tark etishga majbur bo‘lgan aholiga bag‘ishlab yaratilgan “monument” hisoblanadi. Ob’ektning “Mark uyi” deb nomlanishi esa, o‘sha paytda iqtisodiy inqiroz tufayli o‘z uyidan mahrum bo‘lgan Mark Gamilton nomi bilan bog‘liq [5].

Arxitekturada shaffof va aks ettiruvchi shakllar yordamida barpo etilgan ob’ektlarning mashhurligi bugungi kunda tobora o‘sib bormoqda. Yaponiya poytaxti Tokio shahridagi “NA” nomli oynali uy loyihasi, arxitektor Sou Fudjimoto tomonidan ishlab chiqilgan. Binoning umumiy hajmi shishali xonalarga va darajalarga bo‘lingan holda, bitta vizual makonni va kosmik g‘oyani namoyish etadi [6].

Sloveniyaning qadimiy Maribo shahridagi piëdalar ko‘prigi, o‘zining эgri chiziqlari bilan suv to‘lqinlarini эsga soladi va ko‘prikning pastki qismi suvni aks эttirib, ajoyib illyuzion ifodani namoën qiladi. Aslida, bu эski ko‘prik bo‘lib, 2004 yilda uni qayta rekonstrukцiya qilish natijasida, butunlay boshqacha, zamonaviy qiëfaga эga bo‘ldi [1].

3-rasm. Мичиган (AQSh) shtatining Flint shahridagi “Mark’s House” (“Mark uyi”)

https://avatars.mds.yandex.net/i?id=f8a28e8748ee54727071d5c019f15df3-4120962-images-thumbs&n=13
https://i.pinimg.com/originals/92/1e/bf/921ebfab32a2e40571fe5f4ed7703054.jpg

Mashhur britaniyalik dizayner Ross Lavgrouv (1958), o‘z asarlarida tabiatni sevishga, u bilan uyg‘unlikda bo‘lishga va ortiqcha narsalardan voz kechishga chaqiradi. Ko‘pchilik u yaratgan asarlarni “XXI asrning yangi эstetikasini aks эttirish” deb baholashadi. U yaratgan chiroyli va эrgonomik ob’ektlar - bu mujassamlashgan hissiy organik dizayn mahsulotlaridir.

R.Lavgrouv o‘zining dizaynerlik studiyasini biologik-ilmiy laboratoriya bilan taqqoslaydi. “Men kuchli olim эmasman, shunchaki intuitiv tarzda, histuyg‘ular asosida ishlayman, xolos. Dizayn, tabiat va san’at-bu uch yo‘nalish mening borlig‘im va haëtim”, - deydi u [2].

Uning loyihasiga tegishli bo‘lgan, yagona “Alpian Capsule” (“Alpinistlar uchun kapsula”) nomli ajoyib dizayn mahsuloti shaffoflik va atrof muhitni aks эttiruvchi innovatsion ob’ekt, koinotdan Er yuziga tushgan meteoritni эslatadi.

Bundan tashqari, Bryussel shahridagi “Atomium” (1958), Chexiya poytaxti Pragadagi “Hlava Franze Kafky” (Franц boshi) (2015), AQShning Illinoys shtatidagi “Cloud Gate” (“Bulutli darvoza”) (2006) kabi fazoviy kompoziцiyalar ajoyib va g‘aroyib shaffof, aks эttiruvchi ob’ektlar sifatida tan olingan (4-5-6-расмлар).

4-pasm. “Alpian Capsule” (“Alpinistlar uchun kapsula”)

https://avatars.mds.yandex.net/i?id=308397383b9b5372f585e01ad0d7eb12aaf90283-8497195-images-thumbs&n=13

5-rasm. “Cloud Gate” (“Bulutli darvoza”)

https://img.welt.de/img/lifestyle/mobile101563076/3042505307-ci102l-w1024/Loveg-alpine-1-BM-Lifestyle-BERLIN-jpg.jpg

6-rasm. “Atomium”. Bryussel

https://avatars.mds.yandex.net/i?id=b6e05357e464c158cc79026e67fc3b322697c366-10122687-images-thumbs&n=13

Bu kabi hajmiy-fazoviy kompozisiyalar, asosan, Hindistonlik haykaltarosh Anish Kapur (1954) hamda Amerikalik haykaltarosh Richard Serra (1939) ijodlarida kuzatiladi. Ular, monumental haykaltaroshlik ob’ektlari bilan tajribalar o‘tkazib, ularni me’moriy darajaga ko‘targan rassomlar hisoblanadi. Ular yaratgan asarlarning mazmun-mohiyatini anglab etish uchun shunchaki tomosha qilish kifoya emas. Bu ijodiy ishlardagi o‘ziga xos falsafiy talqinlarni ham tushunib etmoq lozim.

Zamonaviy arxitektura obyektlarini shaffof qurilish materiallarisiz tasavvur qilish qiyin. Turar joy va jamoat bino-inshootlari uchun hajmiy-fazoviy rejalashtirish echimlarini ishlab chiqishda choksiz shisha qoplamalaridan foydalanish eng dolzarb yo‘nalish hisoblanadi. Ikki qavatli maxsus oyna (steklopaket)lar binoga jozibali ko‘rinish beradi va uni yanada ravshanroq qiladi, bu esa, o‘z navbatida savdo markazlari kabi inshootlarga quyosh nurlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushishini ma’lum darajada kamaytirgani sababli, qo‘shimcha foyda ham keltiradi. Tabiiy yorug‘likdan samarali foydalanish tufayli, elektr energiyasini tejash ham nazarda tutilgan.

Maxsus ikki qavatli oynalarni ishlatishda xorijiy tajribalarning eng yorqin namunalaridan biri, Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari) sohillarida joylashgan “AlDar HQ” osmono‘par binosi hisoblanadi (7-rasm). Bino atrof-muhit bilan uyg‘un ravishda, dengiz chig‘anog‘i obraziga egadir va tabiiy yorug‘likdan samarali foydalanib, energiya tejamkor osmono‘par binolar tanlovining kumush sertifikatiga ega bo‘lgan [3].

Londonning “RMJM” arxitektura byurosi tomonidan loyihalangan Abu Dabi shahridagi yana bir ajoyib osmono‘par “Capital Gate” binosi poytaxt darvozasi degan ma’noni beradi va shuning uchun shaharga kiraverish qismida joylashgan. Osmono‘par bino, umumiy holda 13 mingdan ortiq maxsus oynalar bilan qoplangan bo‘lib, sun’iy yoritishga ketgan harajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Ikki qavatli oynalar turli ranglarda ham ishlab chiqariladi. Ular: emallangan, bir tomoni ranglangan, vitraj kompozisiyali, mozaikali va quyosh nuridan himoya qiluvchi xususiyatlarga ega. Hech kimga sir emaski, XXI asr - raqamli, nano, bio, kompyuter texnologiyalari asri hisoblanadi. Bugungi avlodni oddiy, bir-biriga o‘xshash shakldagi arxitektura ob’ektlari bilan hayratda qoldirish va ularni estetik zavqlantirish qiyin masala, shuning uchun arxitektura va dizayn ob’ektlarini yaratishdagi bugungi zamonaviy bioarxitektura uslubi, o‘sha “bir xillik” tushunchasiga qarshi chiqishga asoslanadi.

7-rasm. Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari) sohillarida joylashgan “AlDar HQ” osmono‘par binosi

https://royaldesign.ua/file/495/cc/t3/c9/14.B6Mk.jpg

Sobiq ittifoq davri arxitekturasida ana shunday yangi yo‘nalishlarga e’tibor berilmaganligi oqibatida, binolarning namunaviy (tipovoy) loyihalari barcha respublikalarga majburan tarqatildi, natijada, Moskva yoki Toshkentda qurilgan binolar bir-biriga o‘xshash tarzda qurilardi. Har yili yangi yil oqshomida beriladigan mashhur “Qushdek engil bo‘ling” filmini eslang. Unda Moskva va Leningradda qurilgan uylarning arxitekturasi nafaqat bir-biriga o‘xshash, balki, ular ichidagi mebel-jihozlar, eshik qulf va kalitlar ham bir-birga mos keladi. Kinoning yaratilishidan asosiy maqsad ham aynan ana shu – arxitekturadagi tipovoy loyihalar gegamonligiga qarshi chiqish edi [4].

Jonli tabiat shakllariga taqlid qilingan yoki tabiat bilan uyg‘unlikda yaratilgan arxitektura ob’ektlarining insoniylik darajasi haqida turli xil fikrlar bildirilmoqda. Arxitektura va dizaynda bunday shakllarning maqbulligi haqidagi munozaralar to‘xtamaydi. Shunga ko‘ra, dunyo bo‘ylab kishini lol qoldiradigan ajoyib binolar yaratilmoqda. Arxitektorlar har doim o‘zlarining maqsadlarini nafaqat insoniy muhitni tashkil etish, balki ham zamonaviy, ham kelajak avlodlarni hayratda qoldirishga va xursand qilishga harakat qilishgan. Ular o‘z asarlarida sehrli tuyg‘ularni uyg‘otishga, voqelik ko‘lamini kengaytirishga urinishgan. Bugungi zamon kishisi o‘z hayotining muhim qismini, hatti-harakatlar va his-tuyg‘ularni xabardor qiladigan turli xil vizual tasvirlar muhitida o‘tkazadi.

Demak, arxitektura va dizaynda shaffof hamda atrof muhitni o‘zida aks ettiruvchi shakllar yordamida yaratilgan obyektlar, qisqacha tahlil qilinishi natijasida, ularning bir-biriga o‘xshashlik tomonlari va ayni paytda, muayyan farqlari borligi ham aniqlandi. Ammo, ularning umumiy yo‘nalishi – tomoshabinni ajoyib haykaltaroshlik va atrofdagi makon bilan faol tarzda aloqada bo‘lish jarayonini ta’minlashdir. Ross Lavgrouv, Richard Serra, Anish Kapur kabi dizayner-haykaltaroshlar yorqin ijodiy shaxslar bo‘lib, o‘z asarlari orqali zamonaviy arxitektura, dizayn va san’at xazinasiga bebaho hissa qo‘shmoqdalar.

Adabiyotlar.

1. Markelj V. Footbridge Studenci over the Drava River in Maribor, Slovenia //Structural Engineering International. – 2010. – Т. 20. – №. 4. – S. 454-457.
2. Панкина М. В., Захарова С. В. ОПЫТ ВКЛЮЧЕНИЯ В СОДЕРЖАНИЕ ДИЗАЙН-ОБРАЗОВАНИЯ ВОПРОСОВ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ //Материалы ежегодной научно-практической конференции Экологическое образование в интересах устойчивого развития. – Образовательное частное учреждение высшего образования" Академия МНЕПУ", 2015. – Т. 2. – С. 700-704.
3. Кононов С. А., Максимова М. В. Многофункционалност архитектурных стеклопакетов //Н34 Наука XXИ века: опыт прошлого–взгляд в будущее [Електронный ресурс]. – 2017.
4. A.S.Uralov. Arxitekturada sinergetika: me'moriy dunyoqarashning yangi imkoniyatlari. Arxitektura qurilish dizayn. Ilmiy-amaliy jurnal. 3-4, 2017., 2-bet
5. https://tursputnik.com/2014/04/neobychnaya-arhitektura-mira.html
6. Прозрачный дом в Японии: оригиналное сооружение японских архитекторов [Електронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.etoday.ru/2012/05/dom-na-v-tokio.php
7. BABAKANDOV, O. N. (2021). Bionics and patterns in architecture. In *Молодежь и наука: шаг к успеху* (pp. 330-331).
8. Babakandov, O. N. (2023). ARXITEKTURA VA TABIAT O 'RTASIDAGI HAMOHANGLIK. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 15-18.

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДОСТУПНОСТИ ДЛЯ ИНВАЛИДОВ АРХИТЕКТУРНЫХ ОБЪЕКТОВ НА РАЗНЫХ ЭТАПАХ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ.

Исакова Мукаддас Бадировна доцент
Национальный институт художеств и дизайна им. Камолиддина Бехзода, г. Ташкент.

Аннотация: в данной статье анализируются вопросы организации применительно к строительным стандартам зон отдыха на архитектурных объектах для людей с ограниченными возможностями.
Ключевые слова: жизнедеятельности,маломобильных граждан, полноценного существования, периодичность, инфраструктуры.

BASIC PRINCIPLES OF ENSURING ARCHITECTURAL OBJECTS ACCESSIBILITY FOR DISABLED PEOPLE AT DIFFERENT STAGES OF THE LIFE CYCLE OF BUILDINGS AND STRUCTURES.

Isakova Muqaddas Badirovna Associate Professor
National Institute of Art and Design them. Kamoliddin Bekhzoda, Tashkent.

Abstract: this article analyzes the issues of organization in relation to the construction standards of recreation areas on architectural objects for people with disabilities.
Keywords: vital activity,low-mobility citizens, full-fledged existence, periodicity, infrastructure.

Введение. Создание доступной для инвалидов среды жизнедеятельности является составной частью социальной политики любого государства, практические результаты которой призваны обеспечить инвалидам равные с другими гражданами возможности во всех сферах жизни. Международные договоренности и национальные законодательства диктуют необходимость создания условий, при которых возможно наиболее полное развитие способностей своих граждан имеющих инвалидность и их максимальная интеграция в общество. Критерием оценки такой политики является доступность для инвалида физической среды, включая жилье, транспорт, образование, работу и культуру, и доступность информации и каналов коммуникации. Реабилитация людей с ограниченными возможностями является не только актуальной проблемой для общества, но и приоритетным направлением государственной социальной политики. По самым скромным оценкам, в Узбекистане более 2,41% населения относятся к категории маломобильных граждан, только инвалиды составляют примерно 15% населения, это значительная категория людей, интересы которой надо обязательно учитывать.

Основная часть.

Беспрепятственная среда включает элементы окружающей среды, которые обеспечивают свободное передвижение и использование людьми с различными типами (физическими, эмоциональными или интеллектуальными) нарушений. Работа в таких условиях даёт возможность людям, обладающим особыми оздоровительными навыками, вести совершенно самостоятельную жизнедеятельность. В настоящее время существует множество барьеров для людей с ограниченными возможностями в городах, на улицах, проспектах, в жилых домах и общественных центрах. Свободное передвижение в инвалидномкресле по улице затрудняется различными препятствиями, ступенями, перепадами высот и многими другими. Для большинства людей даже низкая граница незаметного пути может стать серьёзным препятствием для передвижения в инвалидном кресле. Люди с ограниченными возможностями передвижения, по общему мнению, граждане инвалиды-категории граждан с ограниченными возможностями характеризуются различными видами физических и иных ограничений. Естественно, для них беспрепятственная среда должна отвечать конкретным потребностям их жизни.[1] Это требование рас-

пространяется и на другие категории граждан, которые в той или иной мере не отличаются от физических ограничений, например:

лица старше 60 лет также могут стать временно нетрудоспособными по той или иной причине. Даже в этих случаях мы можем сказать, что передвижение состоит из ограничений, и что, хотя это и временно, для этой категории людей благоприятная среда должна быть исключена из каких-либо препятствий. Для женщин очень важна среда, создаваемая в жилых помещениях, большинство узбекских женщин с ограниченными возможностями также заняты определёнными видами деятельности с целью улучшения своего образа жизни, такими как шитьё, уборка урожая или кондитерские изделия.

Маломобильные группы населения (МГН) – это люди, испытывающие затруднения при самостоятельном передвижении, получении услуги, необходимой информации или при ориентировании в пространстве. К ним относятся: инвалиды, люди с временным нарушением здоровья, беременные женщины, люди старших возрастов, люди с детскими колясками и т.п. Инвалид - человек, имеющий нарушения здоровья со стойким расстройством функций организма, в том числе с поражением опорно-двигательного аппарата, недостатками зрения, приводящими к ограничению жизнедеятельности и вызывающими необходимость его социальной защиты.[2]

Мероприятия по обеспечению доступа инвалидов выполняются на всехэтапах жизненного цикла здания комплекса зданий или сооружений:

- при разработке Задания на проектирование определяются требования к разделу «Мероприятия по обеспечению доступа инвалидов» (далее - МОДИ), обязательные к исполнению в ходе проектирования и реализации решений данного проекта;

- в проектной документации раздела МОДИ (стадия Проект), содержится обоснование архитектурных, инженерных и конструктивных решений, обеспечивающих доступность объекта для инвалидов, безопасность инвалидов в ходе эвакуации и разрабатывается схема размещения информационного обеспечения доступных зон в здании;

- в ПД стадии Рабочая документация прорабатываются вопросы конкретизации марок оборудования (сантехники, вызывных устройств, подъемных платформ для инвалидов, тактильных средств навигации и пр.), указываются геометрические привязки оборудования на схемах; - в процессе строительства осуществляется контроль над соответствием выполняемых работ утвержденному проекту в части соблюдения требований по доступности здания для инвалидов; [3]

- в ходе эксплуатации объекта определяются ответственные за обеспечение доступности объекта, поддержание оборудования в работоспособном состоянии; определяется минимальная периодичность осуществления проверок, осмотров и освидетельствования состояния оборудования, предназначенного для использования инвалидами; организуется служба сопровождения инвалидов по объекту; разрабатывается и реализуется в рамках текущих и капитальных ремонтов план мероприятий по дальнейшему совершенствованию ББС на объекте с соблюдением принципов «универсального дизайна» (дорожная карта); разрабатывается и согласуется с общественными организациями инвалидов. «Паспорт доступности для инвалидов объектов и услуг»; - при реконструкции/реставрации здания/сооружения, на данный момент недоступного для инвалидов, выполняются все возможные меры (мероприятия), обеспечивающие минимальное удовлетворение потребностей инвалидов в рамках «разумного приспособления».

При капитальном ремонте, а в отдельных случаях и при реконструкции, допускается удовлетворять потребности инвалидов не в полном объеме, если это объективно невозможно, а в объеме минимального удовлетворения потребностей. Такой подход соответствует принципу «разумного приспособления», введенного Конвенцией О правах инвалидов. «Разумное приспособление» означает «внесение, когда это нужно в конкретном случае, необходимых и подходящих модификаций и корректив, не становящихся несоразмерным или неоправданным бременем, в целях обеспечения реализации или осуществления инвалидами наравне с другими членами общества всех прав человека и основных свобод». При капитальном ремонте или реконструкции часто невозможно выполнить перепланировку или реконструкцию входной группы, не выход за границу красных линий, установить лифты, расширить пути движения (коридоры, лестницы), расширить тамбур в капитальных стенах, установить пандус на внутренней лестнице, обеспечить на каждом этаже зоны безопасности, обеспечить нормативные габариты туалетных кабин для инвалидов, и т.п. Как правило, в таком случае целесообразно выделить вблизи доступного входа помещение зону, которую возможно приспособить для обслуживания инвалидов, т.е. в которой обеспечивается получение инвалидом всех видов услуг, имеющихся в данном здании. При наличии в здании санузла для посетителей должна быть предусмотрена универсальная или доступная кабина санузла для инвалидов.[4]

При «разумном приспособлении» существующих объектов, особенно это касается объектов культурного наследия, возможны незначительные отклонения от нормативов ШНК 2.07.02-22 при соблюдении следующих условий:

создание инвалиду возможности иметь доступ ко всем функциям, предоставляемым в здании, в уровне, например, только первого этажа; организация оказания инвалиду помощи в преодолении существующих на объекте барьеров, затрудняющих пользование объектом;

- подробное описание всех принимаемых решений в ЗнП;

-согласование принятых проектных решений в ходе реализации «разумного приспособления» общественными организациями инвалидов.

развития в информационно-телекоммуникационной сети «Интернет» интернет ресурса об объекте культурного наследия.

При проектировании автостоянок манежного типа, технологией ихпользования предполагается что машины паркуются самими владельцамимашин. В этом случае необходимо предусматривать не менее 10%машиномест для транспорта инвалидов. Если применена встроеннаямеханизированная парковочная система (парковка без участия водителя), тотребуется устройство площадки расширенных габаритов для высадки водителей или пассажиров с инвалидностью, а расширенные местапарковки не требуются.

В отдельных случаях допустимо для парковкиавтомобилей инвалидов предусматривать услугу парковщика собоснованием соответствующей технологии оказания услуги парковкитранспорта инвалидов с ручным приводом (обозначенное информационнымзнаком место остановки инвалида на автомобиле для передачи ключей парковщику и место получения инвалидом автомобиля у парковщика). Пешеходные пути движения на автостоянке не требуется приспосабливатьдля передвижения инвалидов с нарушениями зрения (обустройствотактильных указателей, дублирование информации по Брайлю). При проведении ремонта фасадов зданий предусматриваютсямероприятия только на входной группе, при капитальном ремонте отдельных этажей проектные решения по доступности входной группы неразрабатываются. Требования к пешеходным путям движения - на генеральном плане участка проектируемой территории объекта (в границах производства работ) определяются пути движения инвалидов сучетом допустимых уклонов: не более 5% продольный, не более 2% поперечный. На участках со сложным рельефом разрабатываются доступные для инвалидов (в основном для инвалидов на кресле-коляске) пути движения, которые затем указываются на информационном щите сосхемой территории, установленном при входе на территорию, исоответствующими информационными указателями на путях движения. Пешеходные пути по территории (прохожая часть) должны иметьширину:

- основные пути движения не менее 2,0 м, для возможности встречногодвижения инвалидов на кресле-коляске,

- дорожки, находящиеся вне основных маршрутов движения инвалидов- не менее 1,5 м, так как при такой ширине может разойтись пешеход иинвалид на кресле-коляске.

На отдельных участках возможно сужение пешеходных путей до 1,2 м если они не длиннее 25 м и на них на расстоянии прямой видимости расположены площадки размером 1,8×1,5 м, достаточные по габаритам для разворота или разъезда двух колясочников.



Рисунок 1. Минимальная ширина путей движения по территории

Рисунок 2. Устройство зоны уширения пешеходного пути «карманы»



Рисунок 3. Устройство «карманов» для разъезда инвалидов в стесненных городских условиях

Недопустимы на путях передвижения инвалидов на кресле- коляске даже небольшие участки шириной менее 1,0 м, которые могут образоваться при установке на тротуаре ограничительных столбиков и полусфер, опор освещения, информационных указателей и другого оборудования.[5]

В любых общественных зданиях при расчетной численности посетителей 50 человек и более или

при расчетной продолжительности нахождения посетителя в здании 60 минут и более следует предусматривать уборную с универсальной кабиной. Универсальная кабина уборной общего пользования должна иметь размеры в плане не менее, м: ширина - 1,65, глубина - 1,8. В кабине рядом с унитазом следует предусматривать пространство для размещения кресла-коляски, а также крючки для одежды, костылей и других принадлежностей. В универсальной кабине и других санитарно-гигиенических помещениях, предназначенных для пользования всеми категориями граждан, в том числе инвалидов, следует предусматривать возможность установки в случае необходимости поручней, штанг, поворотных или откидных сидений.

Вывод. Применяемые в проектах материалы, оснащение, оборудование, изделия, приборы, используемые инвалидами или контактирующие с ними, должны иметь гигиенические сертификаты органов государственной санитарно-эпидемиологической службы.

Вышеперечисленные факты, если их учесть при реконструкции и строительстве зданий должны сделать архитектурно-строительную среду современной и демократичной, доступной для всех категорий граждан. Поскольку сегодня очень важным является приспособление среды жизнедеятельности, зданий и сооружений с учетом потребностей маломобильных групп населения, создание средств информации, обеспечивающих для них своевременное ориентирование в пространстве, способствующих безопасности и удобству передвижения.

Список литературы

1. ШНК 2.07.02-22 «Проектирование строительных объектов с учетом потребностей лиц с инвалидности и пожилых людей» ”.

2. Жгунова , Г.В. Состояние городской среды для людей с инвалидностью: региональный аспекти, Мурмунск «Ресурсные возможности социальной среды в контексте обеспечения независимой жизни людей с инвалидностью (на примере Мурманской области)», 2018 , С-25-33,

3. Осиновская В. Б Методические рекомендации по разработке раздела 10 проектной документации «Мероприятия по обеспечению доступа инвалидов». Часть 1. Общественные здания и сооружения. – Москва, 2020.

4. Законодательство законы и кодексы Республики Узбекистан [Электронный ресурс]. URL: https://www.norma.uz.

5. Disability and health, Fact sheet [Электронный ресурс]. URL: http://www.who.int/mediacentre/factsheets/fs352/en.

FORMATION OF COMMUNITY CENTERS OF RURAL POPULATION AREAS AND ORGANIZATION OF A NETWORK OF SERVICE INSTITUTIONS

Assoc. **M. Khudoyarova**, **O'. Mamatkulov, J. Annakulov, A. Takhirov**
Samarkand State Architecture and Construction University

Annotatsiya. Qishloq hududlarini arxitektura loyihaviy tashkil qilishda, uning jamoat markazini shakllantirish madaniy - maishiy xizmat ko’rsatish tarmoqlarining tarkibiga, shaharsozlik normativlari bo’yicha aniqlanadigan hajmiga bevosita bog’liqligi ko’rib chiqilgan. Jamoat markazlarini qishloqlararo, qishloq va mahalla markazlari asosida bosqichma – bosqich, funktsional jihatdan oqilona tashkil etilishida uni aniq belgilangan vazifalarga xizmat qiluvchi ma’muriy, madaniy-ma’rifiy, savdo-maishiy, ta’lim muassasalari, dam olish va sport inshootlari bo’yicha yagona rejaviy-hajmli zona yaratilishi, markazning kompozitsion tizimining uzviy bog’lanishi, xizmat ko’rsatishning qulay va oqilona tashkil etilishi, markaz funktsional vazifalariga muvofiq aniq zonalashtirilishi, hajmlar talqinidagi asimmetriyalik, shakllar, kontur va landshaft tuzilishidagi uyg’unlikka rioya qilinishi, arxitektura, tabiat va san’at sintezidan unumli foydalanishi zarurligi batafsil ko’rib chiqilgan.

Tayanch so’zlar: jamoat markazlari, madaniy – tomosha hududi, ma’muriy hudud, savdo va maishiy hudud, dam olish hududlari, tarmoqlar,kompozitsiya, funktsional zonalar.

Respublikamizda qishloq xo’jaligini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri qishloq xo’jaligini sanoat asosida yuritishga o’tish, transport va aloqa vositalarini, kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, aholiga madaniy maishiy xizmat kursatish sohasidagi ilmiy texnik taraqqiyotning qishloqlararo xizmat ko’rsatishning yagona tizimini yaratishni talab etadi. Qishloq aholi punktlari hududida shakllanayotgan joylashuvning yangi tizimida bunday o’zgarishlarni amalga oshirish real voqelik sifatida qabul qilinmoqda. Joylashuvning bunday tizimi shahar va qishloq uchun yagona joylashuv tizimining tarkibiy kismi hisoblanadi.

Aholiga madaniy-maishiy xizmat ko’rsatish sohasini takomillashtirish qishloq aholi punktlarini o’zgartirishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bunda qishloq jamoat binolarining rejali tuzilmasi va tipologiyasini qishloqlararo xizmat ko’rsatishning yagona tizimi–ijtimoiy, shaharsozlik, kompozitsion nuqtai nazarda ratsional bo’lgan qishloqning jamoat markazini tashkil qilish asosida shakllantirish ko’zda tutiladi.

Zamonaviy sharoitda aholi punktlarining jamoat markazlari aholi o'rtasidagi aloqa, madaniy tadbirlar, savdo korxonalarining joylashuvi, ma'muriy tuzilma, ijtimoiy va maishiy maqsadlar uchun mo'ljallangan arxitektura va rejalashtirish tuzilmasining majburiy elementi hisoblanadi.

Qishloq manzilgohlarining jamoat markazlari tizimini tuman rejalashtirishning sxema va loyihalari, qishloq xo’jalik korxonalari hududlarining me’moriy rejaviy sxemalariga bog’lik holda kuyidagi tarkibda ishlab chikish joiz bo’ladi: qishloqlararo xizmat markazi vazifasini bajaruvchi jamoat markazi; mahalla markazlari.

Qishloq aholi hududining jamoat markazi aholining ijtimoiy va ishbilarmonlik faoliyati jamlanadigan joy va qishloq tashkil etuvchi bosh element hisoblanib, qishloqning me’moriy-hajmiy kompozitsiyasi va konturini

belgilab berishda katta rolь o'ynaydi. Jamoat markazi ma'muriy boshqaruv, savdo-maishiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa funktsiyalarni bajaradi.O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jamoat markazlarini loyihalashda quyidagi holatlarni hisobga olish kerak ekan:

- markazning kompozitsion tizimi uzviy bog'lanishga ega bo'lishiga;
- xizmat ko'rsatishning qulay va oqilona tashkil etilishiga;
- markaz funktsional vazifalariga muvofiq aniq zonalashtirilishi, hajmlar talqinidagi asimmetriyalik, shakllar, kontur va landshaft tuzilishidagi uyg'unlikka rioya qilinishiga;
- arxitektura, tabiat va san'at sintezi;

Jamoat markazi hududining funktsional jihatdan oqilona tashkil etilishida uni aniq belgilangan vazifalar (ma'muriy, madaniy-ma'rifiy, savdo-maishiy, ta'lim muassasalari, dam olish va sport) bo'yicha bo'lingan holda yagona rejaviy-hajmli zona yaratilishiga e'tibor qaratish lozim.

Jamoat markazining madaniy-tomosha hududi tarkibiga, odatda, qishloq yoshlar markazi, kutubxona, choyxona kabi ob'ektlar kiradi. Faoliyat ko'rsatish xususiyatlari va O'zbekistonning issiq iqlimi bunday muassasalarga kechki salqinda tashrif buyurilishini shartlab beradi. Shu sababdan hudud hajmi ham kunning aynan shu vaqtiga mos bo'lishi kerak: uning maydoni ochiq xarakterga ega bo'lib, imkon qadar suvli yuza (hovuz, favvora va hk.) tashkil qilinishi lozim, shoxlari yoyilgan daraxtlar bo'lmasligi darkor, kechki salqinni saqlashi va yaxshi shamollatilishi, yetarli darajada chiroqlar va yoritiladigan reklamaga ega bo'lishi lozim bo'lib bu hudud qishloq tuzilmasida ustuvor mavqega ega bo'lishi zarur.



Qishloq aholi hududlari jamoat markazlari

1-yoshlar markazi, 2- fermerlar uyushmasi 3- QFY, 4-magazin, oshxona, 5-hovuz fontan bilan birgalikda, 6-turar joy uylari, 7-pochta, telegraf, 8-sport zal.

Ma'muriy hudud qishloq fuqarolar yig'ini ma'muriyati binosi, agrofirma birlashmasining boshqaruvi, aloqa bo'limi, omonat kassasi, ATS binolaridan tarkib topib, kundalik mehnat faoliyatining markazi sifatida asosan ertalab va kunduzi ishlaydi. U shoxlari keng daraxtlar, bostirma va galereyalar yordamida quyosh nurlaridan maksimal himoyalangan bo'lishi zarur. Undan tashqari, ma'muriy hududda qulay transport kirish yo'li, avtomobiль turargohi tashkil etilib, bu hudud ishlab chiqarish hududi bilan qulay bog'langan bo'lishi lozim.

Tadqiqot natijasi. Mamlakatimizda, qolaversa butun dunyoda bugungi kunda dolzarb mavzuga aylanayotgan energiya manbalari resurslarini tejash, quyosh energiyasidan foydalanish, energiyaning alternativ variantlarini qo'llash muammolarini nazarda tutgan holda endilikda quriladigan binolarning umumiy energiya sarfini kamaytirishda binoning quyoshga nisbatan oriyentatsiyasini inobatga olgan holda tashqi to'siq konstruksiyasining issiqlik izolyasiyasini oshirish va bu bilan energiya samaradorlikka erishish [3,4].

Muhokama. Energiyani tejash masalalarini hal qilishning kompleks yondashuvi haqida gapiradigan bo'lsak, bu issiqlik yo'qolishiga qo'shimcha ravishda aniq bo'ladi binolar va isitish tizimlarining tuzilmalari, boshqa jihatlarni hisobga olish kerak. Integrasiyalashgan yondashuv barqaror rivojlanishning uchta asosiy va mashhur tamoyillarini qamrab olishi kerak: ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarning muvozanatidir. Har uchala qoida mezonlarini belgilashi kerak binolar baholanadi va solishtiriladi. Ko'rinib turibdiki, energiya isteьmoli juda ko'p mezonlardan biridir.

Binolarning energiya samaradorligini oshirishning kompleks yondashuvi hajmi kabi qo'shimcha jihatlarni o'z ichiga oladi.

- investisiyalar,
- sotish tahlillari,
- ekologik toza materiallardan foydalanish,
- dizayn prinsiplari,
- ichki konfor va boshqalar.
- Endi, ularni batafsil ko'rib chiqaylik.

1. Investisiyalarning hajmi eng muhim jihatlardan biridir energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha qarorlarni qabul qilish. Hech qaysi energiya tejash loyihasi iqtisodiy jihatdan mumkin bo'lmagan hollarda amalga oshirilishi mumkin emas. Shaharlardagi xarajatlar qishloq joylariga qaraganda ancha yuqori mintaqalarda iqtisodiy o'sish va iqtisodiy inqiroz davrida narx darajasida farq mavjud. Umumiy investisiyalarga arxitektura dizayni, texnik loyihalashni, kerakli sifatli bino qurishni, shu jumladan to'liq hajmdagi qurilishni kiritish kerak binoning texnik jihozlari, shuningdek, QQS (Qo'o'imcha qiymat solig'i) [5,6].



2. Binoning rentabelligini uning hayot aylanishi davomida tahlil qilish. Binolarning energiya samaradorligi va qo'llaniladigan choralarning iqtisodiy jihatlari muvozanatlanishi kerak. Iqtisodiy jihatdan maqbul darajani aniqlash kerak binoning butun hayot aylanishini inobatga olgan holda, binoning rentabelligini tahlil qilish orqali. Evropa Ittifoqi dasturi 2010/31 / EC "iqtisodiy jihatdan maqbul darajada" energiya samaradorligi darajasini anglatadi Hisoblangan iqtisodiy davrda eng past narx. Kam mablag' kapitalni hisobga olgan holda belgilanadi. Xarajatlar, texnik va operasion xarajatlar (energetik va jamg'arma xarajatlari, energiya kiritish), agar mavjud bo'lsa, va chiqindilarni yo'qotish, mavjud bo'lgan joylarda amalga oshiriladi.

3. Turar joylarni kompleks rejalashtirish. Integrasiyalashgan rejalashtirishning eng muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

- ularning ixchamligi, shu jumladan yuqoriga va pastga harakatlanish joylariga yoki ish joylariga qisqa yo'llar mavjudligi;
- jamoat transportida qisqa masofa;
- turmushning barqaror sifati;
- issiqlik yo'qotilishini minimallashtirish binolarning ixcham turlarini joriy etish;
- maksimal tabiiy nurdan foydalanish;
- passiv isitish uchun quyosh energiyasidan maksimal foydalanish, hududlarni isitish tizimidan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;
- atrof-muhitga etkazilgan zararni minimallashtirish;

4. Binolardagi qulay iqlim. Har qanday bino kerak Loyihalash va qurish uchun shunday qilish kerak sog'lom, xavfsiz va qulay yopiq iqlim [7,8].

Qurilish rejasi va aniq texnik rejalar milliy qonunchilikda belgilangan binolar uchun iqlimiy talablarga javob berishi kerak. Rejalashtirganda issiqlikni qanday ushlab turish kerakligini hisobga olish kerak binoning holati. Binolar ichki havoning suv bug'usi bo'lmagan tarzda ishlab chiqilishi va qurilishi kerak binolardagi konsentrlangan (derazalar, ramkalar, devorlar, shamollatish tizimlari va boshqalar) va bu zararga olib kelmaydi. Xonada namlik bo'lishi kerak belgilangan qiymatlar ichida qoladi. Qoidalar va ko'rsatmalar, ovoz yutilishi choralarini qabul qilish kerak. Bundan tashqari, bu kerak radon konsentrasiyasini hisobga olish va agar kerak bo'lsa, qabul qilish uni kamaytirish yoki milliy qoidalarning talablariga javob beradigan maxsus choralar.

5. Ekologik materiallar. Qurilish materiallari binoning baholash qismidir va barcha qurilish tizimlarini baholash uchun juda muhimdir. Evropa Ittifoqida hammasi qurilish materiallari yorlig'i bo'lishi kerak. Materiallarning Evropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlatilishi va tarqatilishiga, shuningdek, sinovlar o'tkazilishiga va materiallarning barcha talablarga javob beradiganligini ko'rsatadi. Biroq, bu yorliq materialning atrof muhitga

zarar keltiradigan yoki ekologik jihatdan ashaddiy materialdir, degani emas. “CAPEM” loyihasiga ko‘ra, ekomaterial atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan va sog‘likka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan material / mahsulot hisoblanadi. Masalan, binoni rekonstruksiya qilish yoki modernizasiya qilishda quyidagi zararli moddalarni o‘z ichiga olgan materiallardan foydalanish yoki ularni almashtirishdan ehtiyot bo‘lish lozim: asbest, freonlar; kadmiy tarkibidagi moddalar (masalan, bo‘yoqlar); hal qiluvchi, plastmassa yoki formaldegidlar, qatronlar yuqori bo‘lgan moddalar; O‘rmon xo‘jaligi kengashi tomonidan tasdiqlangan hollar bundan mustasno, sertifikatlanmagan yog‘och, yopishtiruvchi va bitum, tropik yog‘och bo‘yoqlar. Energiya standarti. Uyni qurish qarorini rejalashtirganda yoki qabul qilganda, energiya standarti uning keyingi energiya sarfini belgilaydi. Bundan tashqari, muayyan energiya standartiga erishish uchun zarur bo‘lgan texnik chora-tadbirlar aniqlanadi. Hozirgi kunda ikkita aniq belgilangan standart mavjud: birinchi - har bir mamlakatning milliy qonunchiligi bilan belgilanadi va ikkinchisi "passiv qurilish standarti" deb nomlanadi. Bino energiya standartlarini baholash mezonlari yiliga kvadrat metrga teng bo‘lgan issiqlik energiyasidan foydalanishga asoslangan. Eng yaxshi namunalar qatorida energiya sarflashning nol bo‘lmagan binolari va passiv qurilish standarti ham bor. Dizayn asoslari. Dizayn - yaxshi yuqori energiya standartiga erishishning asosiy bosqichi, shuningdek binoning jozibali ko‘rinishi. Energiya tejamkor binolarni loyihalashda ishlatiladigan bir necha asosiy dizayn prinsiplari mavjud: binoning ixchamligi, optimal rayonlashtirish va joylashish, quyosh nuridan foydalanish, tabiiy yorug‘lik, soyalar va issiqlik muhofazasi. Murakkab fikrlash loyihalashtirish bosqichida va qurilish va boshqaruv jarayonida ham qo‘llanilishi kerak. Bino yoki uning qismlarini ishlatishda moslashuvchanlik ta’minlanishi kerak. Sifatni nazorat qilish. Qurilish loyihasining texnik qo‘llanilishi to‘g‘ri bo‘lmasa, eng yaxshi rejalashtirish hatto foydasizdir. Qurilishdan foydalanishni rejalashtirish, loyihalash va qurilishni tugallash bosqichlarida monitoring va tekshirishga ehtiyoj bor. Sifatni nazorat qilish jarayoni loyihani amalga oshirishni baholash sifatida baholanadi. Odatda loyiha milliy qonunchilik talablariga muvofiq tasdiqlanadi. Keyinchalik monitoring (muntazam ravishda muntazam ravishda) barcha qurilish jarayonida amalga oshiriladi [9,10]. Barcha qurilish jarayonlari tekshirilishi va o‘lchov qilinishi kerak. Turli sertifikatlashtirish sxemalari bo‘yicha taqdim etiladigan mustaqil sertifikatlash va qattiq qoidalar turkumi (masalan, passiv binoning sertifikati) joriy qilinishi mumkin. Tom izolyasiyasi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, tomning yuzasi orqali umumiy issiqlik yo‘qolishining taxminan 10-20% tashkil qilishi mumkin. Iqlim sharoitidan qat’i nazar, izolyasion tom yopish materialini kamida 15-20 sm (issiqlik o‘tkazuvchanligi l = 0040 Vt / mk) qalinligi bilan ishlatish tavsiya etiladi. Markaziy Yevropa iqlimida passiv uy uchun 40 sm energiyani kam sarflaydigan uylar uchun 30 sm qalinlikdagi izolyasiyalash zarur. Fon izolyasiyasi. Ko‘pgina uylarning devorlari energiya yo‘qotishning eng katta qismi bo‘lib, energiya isteьmoliga eng katta ta’sir ko‘rsatadi. Devorlar umumiy issiqlik yo‘qotilishining taxminan 20-30 foizini berishi mumkin. Iqlim sharoitlaridan qat’i nazar, devorlarning minimal tashqi izolyasiyasi 10 sm dan kam (l = 0040 Vt / mK) bo‘lishi tavsiya etiladi. Energiya tejaydigan uylar uchun o‘rtacha 24 sm, Markaziy Yevropa iqlimida passiv uy uchun 35 sm. Zaminni ajratish. Zamin umumiy issiqlik yo‘qotishining 5-10 foiziga ta’sir qilishi mumkin. Konfor uchun katta ahamiyatga ega. Qo‘llaringizni isitishsiz oyoqlaringizni issiq ushlab turishning eng yaxshi usuli, zaminni ajratish yoki tovushini izolyasiya qilishdir. 4 sm (l = 0040 Vt / mK) kichkina qavat izolyasiyalashni tavsiya qilish tavsiya etiladi. Energiya tejaydigan uy uchun 16 smgacha, Markaziy

Yevropa iqlimida passiv uy uchun 30 sm. Derazalarni issiqlik uzatish koeffisiyenti. Quyosh nurini olishdan tashqari, derazalar issiqlik uzatish yo‘li bilan umumiy issiqlik yo‘qotilishi taxminan 15% ni tashkil qiladi. Yo‘qotilgan issiqlik energiyasining miqdori, asosan, derazalar soniga va ramkaning qalinligiga, shuningdek, deraza oynasini “Pena” bilan to‘ldirish darajasiga bog‘liq. Derazalarning energiya sifati ko‘rsatkichi issiqlik uzatish koeffisiyenti (U-qiymati). Barcha oyna (UW) ning Uqiymati shisha U-qiymatini, shisha qoplamasi bo‘ylab issiqlik ko‘prigi orqali ramkalarni va yo‘qotishni o‘z ichiga oladi. Asosan, UW qiymati taxminan 5,6 V / bo‘yicha K bo‘lgan eski derazalar bir ramkaga ega. Ikkita kvadratchalar va tashqi qoplamali oyna UW qiymati 2,3 Vt / santigratgacha bo‘lgan. Zamonaviy uchta shisha chuqurlikda UW qiymati 0,8 Vt / m20S.13 ga etishi mumkin. Binoning yopishqoqligi. Issiqlik yo‘qotilishi binoning ichkarisidan ichki muhiti ichidagi tashqi muhitga chiqadigan issiqlik oqimini anglatadi. Shunday qilib, binoning qobig‘ining germetikligi issiqlik yo‘qotishlarining oldini olishda katta ahamiyatga ega. Qoplama inshootlari oqimi orqali isib ketish 10% ga etishi mumkin. Chidamlilik kuchaygan va nazorat qilingan hollarda zararlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Havo o‘tkazuvchanlik sinovi bilan binoning butunligini o‘lchash va qochqinlarni aniqlash mumkin. Yangi binoning eng kam havo zichligi havo almashinuv kursidan pastroq bo‘lishi kerak - soatiga 3 marta (yaьni <3 h-1). Yaxshi nisbat 1 soatdan kamroq. Passiv uylar uchun yopishqoqlik 0,6 h-1,14dan kam bo‘lishi kerak. Shamollatish. Hozirgi kunda energiya tejamkor qurilish va rekonstruksiya qilish bilan shamollatish masalasi ko‘pincha kam baholanadi. Ko‘pgina hollarda, mavjud binolarda energiyani tejashning asosiy usuli eski derazalarni yangi, yopiq va energiyani tejash bilan almashtirishdir. Bunday harakatlarning boshqa tomoni - toza havo yo‘qligi tufayli havo almashinuvining yo‘qligi. Bu xonada namlikning oshishiga va mog‘or bosishi uchun qulay bo‘lgan iqlim sharoiti yaratilishiga olib keladi. Issiqlikni tiklash bilan jihozlangan shamollatish tizimi binoning energiya samaradorligini oshirish uchun echimdir. Bunday tizimning mavjudligi passiv standartning uyi uchun majburiydir. Isitish va sovutish [11,12]. Odatda bino energiya samaradorligini oshirish uchun isitish va sovutish tizimlari optimallashtirilishi kerak. Ular orasida samarali qozonlardan foydalanish, past haroratli isitish tizimlarini va kondensatli qozonlardan foydalanish, yaxshi optimallashtirilgan isitgichlar (radiatorlar, isitish zonalari va

boshqalar) mavjud. Energiyani tejaydigan yuqori samaradorli nasoslardan foydalanish tavsiya etiladi. Isitish tizimining barcha quvurlarini issiq suv izolasiyasi va issiq suv ta'minoti issiqlik yo'qotilishining pasayishiga olib keladi. Isitish elementlari uchun avtomatik harorat nazorati bilan termostatni o'rnatish harorati nazorat qilish imkonini beradi [13].

Xulosa. Olib borilgan nazariy tadqiqotlar natijasida issiqlikni himoyalash sohasida ustuvor tadqiqotlarni kengaytiruvchi to'siqlarning issiqlikni himoya qilish va tovushni o'tkazmaslik qoldiq xususiyatlari bo'yicha ob'yektiv ma'lumotlarni olishga asoslangan O'zbekiston Respublikasining iqlim sharoilari uchun ekspluatatsiya qilinayotgan yakka tartibda qurilgan turar-joy binolarining tashqi to'suvchi konstruksiyalarining termoyangilanishi va tovush o'tkazmaslik darajasini oshirish muammolari bo'yicha takomillashgan model ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O.J. Shukurov, Designing low-rise energy-efficient buildings in Jizzakh climatic conditions" // J-2019.
2. Yokubov S. DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL CARDS USING ARCGIS AND PANORAMA TECHNOLOGIES //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-107.
3. Abdixoliqovich A. A. Evolution Formation in the Structure of Urban Architecture of Traditional Neighborhood and Residential Buildings //Central asian journal of arts and design. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 41-47.
4. Khakimova K., Yokubov S. CREATION AND MAINTENANCE OF STATE CADASTERS IN THEREPUBLIC OF UZBEKISTAN //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 85-93.
5. Ачилов Ш. Д., Айматов А. А., Сафарова И. А. СОХРАНЕНИЕ КОМПОЗИЦИОННО-ХУДОЖЕСТЕННЫХ КАЧЕСТ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ И ПРИСПОСОБЛЕНИЕ НОВОСТРОЕК К ИСТОРИЧЕСКОМУ ЦЕНТРУ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 18. – №. 8. – С. 101-106.
6. Yokubov S. SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THEDEVELOPMENT OF MAPS OF THE LEGAL STATUS OF STATE LANDCADASTERS IN THE TERRITORY USING GIS TECHNOLOGIES //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 80-84.
7. Abdixoliqovich A. A., Baxtiyorovich A. S. PRESERVATION OF THE COMPOSITIONAL AND ARTISTIC QUALITIES OF ARCHITECTURAL MONUMENTS AND ADAPTATION OF NEW BUILDINGS TO THE HISTORICAL CENTER //JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE. – 2023. – С. 216-221.
8. Yusufovich G. Y. et al. The use of remote sensing technologies in the design of maps of agricultural land //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2023. – Т. 23. – С. 17-21.
9. Yusufovich G. Y. Shavkat o 'g 'li SY CARTOGRAPHIC RESOURCES USED IN THE CREATION OF ELECTRONIC AGRICULTURAL MAPS OF FERGANA REGION //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 1001-1009.
10. Abduvakhabovich A. A. Shavkat o 'g 'li SY IMPROVING THE METHOD OF MAPPING AGRICULTURE USING REMOTE SENSING DATA //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 1093-1100.

АМИР ТЕМУРНИНГ САМАРҚАНДДА БИЗГАЧА САҚЛАНМАГАН УСТИ ЁПИҚ САВДО КЎЧАСИ – "ТИМ"НИНГ ГРАФИК РЕКОНСТРУКЦИЯСИ

GRAPHIC RECONSTRUCTION OF THE TOP CLOSED SHOPPING STREET –"TIM" OF AMIR TEMUR IN SAMARKAND, WHICH HAS NOT BEEN PRESERVED BEFORE US

Б.Ҳ. Элмуродов мустақил тадқиқотчи
А.С.Уралов меъморчилик фанлари доктори, профессор
К.Д.Рахимов меъморчилик фанлари доктори, профессор
Сам ДАҚУ

Аннотоция: Мақолада Амир Темурнинг Самарқандда 1404 йилда бунёд эттирган, бироқ бизгача етиб келмаган усти ёпиқ савдо кўчаси ҳақидаги тарихий маълумотлар келтирилган. Мазкур савдо кўчаси "Бибихоним" жоме масжиди олдидаги майдондан то Регистон ансамбли ёнидаги Чорсу биносигача давом этган ва у ўз даврида Мовароуннаҳрда қурилган илк усти ёпиқ савдо кўчаси ҳисобланган. Кейинчалик ҳудди шундай савдо кўчаси – бозорни Шоҳрух Мирзо Ҳирот шаҳрида қурдиради. Маскур мақолада Амир Темурнинг Самарқанддаги савдо кўчаси архитектурасининг график реконструкциясини амалга ошириш бўйича йиғилган тарихий маълумотлар ва бажарилган ишлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Самарқанд, Амир Темур, усти ёпиқ савдо кўчаси, кўча ҳақидаги тарихий маълумотлар, кўчанинг жойлашиши, архитектураси, график реконструкцияси.

Аннотоция: В статье приведены исторические свединия о закрытой сверху торговой улице, построенной Амиром Темуром в Самарканде в 1404 г., но недошедщей до наших дней. Данная улица начиналась от площади перед саборной мечети Бибиханум до здании Чорсу, которое находиться рядом с ансамблем Регистан. Это улица в свое время била первой закрытой сверху торговой улицой в Мовароуннахре. Затем Шохрух Мирзо построил такую улицу в Гирате. В данной статье проанализораванны собранные нами исторические материалы и выполненные работы для графической реконструкции архитектуры, не сохранившейся до нас тороговой улицы Амира Темура в Самарканде.

Ключевые слова: Самарканд, Амир Темур, закрытой сверху торговая улица, исторические сведения об этой улице, расположение улицы, её архитектура, графическая реконструкция.

Abstract: The article provides historical information about a shopping street closed from above, built by Amir Temur in Samarkand in 1404, but not survived to this day. This street started from the square in front of the Bibikhanum cathedral mosque to the Chorsu building, which is located next to the Registan ensemble. This street at one time beat the first shopping street closed from above in Movarounnahr. Then ShohrukhMirzo built such a street in Girat. This article analyzes the historical materials we have collected and the work performed for the graphic reconstruction of the architecture of the shopping street of Amir Temur in Samarkand that has not survived to us.

Keywords: Samarkand, Amir Temur, shopping street closed from above, historical information about this street, location of the street, its architecture, graphic reconstruction

Кириш. Ўзбекистонда ҳар қайси тарихий шаҳар ўзининг арки ва ҳисоридан ташкил топиб, унинг марказий қисмида, кўчалар кесишган жойда ёпиқ савдо гумбазлари, баъзан эса шунчаки очиқ чорраҳалар, чорсулар қурилган. Бош кўчалар ҳунармандчилик ва савдо расталаридан иборат бўлган.

Ўрта Осиёнинг XIV–XV асрлар архитектурасида жамоат бинолари ичида савдо-сотиқ ва бозорлартим, чорсу, тоқлар, карвон-саройлар муҳим рол ўйнаган. Ёпиқ бозорлар, яъни усти ёпиқ гумбазли бозорларда қимматбаҳо шойи газламалар, тиллатақинчоқлар сотиш учун қаҳратон совуқда ва жазирама иссиқ ҳаво шароитида, ҳам яхши имкониятлар яратилган. Самарқанддаги ана шундай савдо биноларидан бири Амир Темур томонидан қурдирилган усти ёпиқ савдо кўчаси – "тим" эди.

Уни илмий ўрганиш, савдо кўчасининг архитектурасини график қайта тиклаш, ўтмишда бу кўча архитектурасини Самарқанд иқлими шароити ва тарихий муҳитига мослаштирилганини ўрганиш, ушбу кўча ҳақидаги ёзма манбаларни ва Ўрта Осиёнинг ўрта асрлардаги савдо кўчалари – бозорларни илмий тадқиқ қилиш, олинган материалларни бир – бирига илмий таққослаш асосида Амир Темурнинг ушбу бизгача сақланмаган усти ёпиқ савдо кўчаси архитектурасини аниқлаштириш, уни график қайта тиклаш ва оммалаштириш архитектура назарияси ва тарихи фанининг долзарб вазифасидир.

Мазкур мақолада бизгача етиб келмаган ана шу ноёб иншоот тадқиқот остига олиниб, у бўйича мавжуд ёзма тарихий манбалар ва фотографиялар, бизгача сақланган ана шундай типдаги обидаларни Ватанимиз ва хорижий ислом мамлакатлари мисолида ўрганиш асосида график қайта тиклашга ҳаракат қилинган. Кутилган мақсад эса мазкур обидани илмий муомалага киритиш, Ўзбекистон меъморчилиги тарихини типологик ва морфологик нуқтаи назардан бойитиш, халқ ва туристлар орасида оммалаштиришдир.

Асосий қисм. Амир Темурнинг Самарқанддаги савдо кўчаси ҳақидаги мавжуд тарихий маълумотларга асосан Клавихонинг "Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура" асарида келтирилган маълумотлар киради. Қизиғи шундаки, бу ҳақда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг "Бобурнома" асарида Темурбекнинг Самарқандда қурдирган иморатлари ва боғ – саройлари ҳақида гап кетсада, бироқ, унинг усти ёпиқ савдо кўчаси бобида бирор бир маълумот берилмаган. Ҳудди шунингдек, Ибн Арабшоҳ ва Шарофиддин Али Яздийларнинг Темур ҳақидаги машҳур китобларида ҳам Амир Темурнинг Самарқандда бунёд этган ушбу иморати ҳақидаги маълумотларни учратмаймиз. Савол туғилади. Нега? Фикримизча, Самарқанддаги усти ёпиқ савдо кўчаси, яъни "тим" Ибн Арабшоҳ ва Шарофиддин Али Яздийларнинг Темур юришлари ҳақидаги китоби ёзиб тугатилгач анча кечроқ, яъни Темур ҳаётининг сўнгги йилларида, унинг Ғарбга қилган етти йиллик юришлардан қайтиб келгач, 1404 йилда қурилган. Шунинг учун ҳам бу ажойиб иморат ҳақидаги маълумотлар уларнинг китобига кирмай қолган.

Ушбу кўчанинг шаҳарсозликда тутган ўрни ҳақида 1404 йилда Самарқандга Темур ҳузурига ташриф буюрган испан элчиси Клавихо шундай ёзади: "Самарқанд шаҳрига ҳар йили кўплаб турли – туман моллар олиб келинади... Унда ана шу молларни тартиб билан сотиш учун катта бир жой бўлмаганлиги сабабли подшоҳ шаҳар бўйлаб икки тарафида мол сотиладиган дўконлар ҳамда ҳужралар ўрнашган кўча ўтказишни буюради. Шаҳарнинг бир чеккасидан бошланадиган бу кўча уни кесиб ўтиб, нариги чеккасига бориб етиши керак эди... Каттакон кўча очиб, икки томонига ҳужралар қурдилар, ҳар бир ҳужра олдида оқ тош қопланган баланд супачалар бор эди. Ҳамма ҳужралар қўш ошёнли, бутун кўча усти туйнукли қатор гумбазлар билан ёпилган, тепадаги деразалардан ёруғ тушиб турар эди.

Кўчанинг айрим жойларига ҳовузлар қурилган.. Кундузи ишлайдиганлар кеч кириши билан кетиб, кечаси бошқалар ишлагани келадилар. Бировлар иморат бузишса, бошқалари ер текислайди, яна бировлари қурадилар. Йигирма кун ўтганча шунча иш амалга оширилдики, киши ҳайратга тушади" [1].

Кўчанинг Оҳанин дарвозасидан Регистон майдонигача қисми битказилиб, қолган қисми фикримизча ҳарбий сафарлар бошланиши туфайли битмай қолади. Ўшанда Клавихо Самарқанднинг ҳозирги Тошкент кўчасида "Бибихоним" масжидидан Регистон майдонигача ташкил этилган қатор савдо расталари ўрнида қад кўтарган узунлиги тахминан 800 метр бўлган усти ёпиқ савдо кўчасини томоша қилган эди.

Бизнинг замонамизда ушбу қадимий савдо кўчаси қайта тикланилди. Лекин илгари ёпиқ бўлган кўча усти очиқ қолдирилди. Ундан яқин йилларгача жамоа транспортлари қатнагани учун кўчага одатдагидек асфальт ётқизилган. Кўчанинг торлиги учун унинг ёнидаги йўлакларга дарахт ўтказилмади. Шулар сабаб жазирама ёз кунлари пиёдаларга кўча бўйлаб ҳаракат қилиш жуда қийин. Қадимда бобокалонларимизнинг бу муаммони жуда мумтоз услубларда ҳал қилганликларини кўриб қойил қоласан, киши! Салкам бир километрга яқин кўча усти гумбазлар билан ёпилиб, улардан тушган ёруғлик кўчани ёритган. Кўча бўйлаб қўйилган ҳовуз –фав-

воралар (уларнинг ишлаб турганини Клавихо кўрган) савдо расталаридек гавжум жойда қулай микроиқлим ва шинам шарқона муҳит яратган.

Турк адиби Ака Исмоилнинг “Буюк Темур давлати” китобида “Қурилиш ишлари” боби мавжуд бўлиб, унда Амир Темурнинг Самарқандда биз таҳлил қилаётган савдо кўчаси ҳақида шундай ёзилган: “Темур шаҳарнинг у бошидан бу бошигача кесиб ўтган бир кўчанинг икки четига дўконлар қуришни буюрди. Бозорни қуриш харажати Самарқандликларга юклатилди. Клавихонинг ёзишича, кеча – кундуз ишланиб, ариқлар ва ҳовузлари билан бирга бозор жуда қисқа вақтда қуриб битказилган” [2].

Ака Исмоилнинг ушбу ёзганларида Темур қурдирган кўчанинг усти ёпиқ бўлганлигига ишора йўқ. Бироқ, у Клавихонинг ёзганларига таяниб, ушбу кўчадаги бозорнинг ариқлар ва ҳовузлар билан бирга қурилгани ҳақида аниқ айтган. Бундан фахмлаш мумкинки, ўша ариқлар ва ҳовузлар бозор, яъни савдо кўчасининг ичидан, аниқроғи унинг ўртасидан кўча бўйлаб ўтказилган. Бу ерда ўз – ўзидан нима учун шундай, яъни кўчага ариқлар ва ҳовузлар ишланган деган савол туғилади. Бизнинг фикримизча, бу ҳовузлар оддий ҳовузлар бўлмай, улардан тоза оқин сувнинг ўтиб туриши, ариқлар эса ҳовузларни тоза – сув билан таъминлаши зарур бўлган. Бошқача сўз билан айтганда, савдо кўчаси ичида ўзига хос микроиқлим яратилган ва унга ландшафт элементи киритилган. Эҳтимол бу ҳовузлар атрофида одамларнинг бироз ўтириб дам олишлари ҳам ўйлаб қилингандир.

Ўтмишдан бизгача сақланмаган тарихий обидалар сафида нафақат алоҳида олинган меъморий ёдгорликлар, балки улардан тузилган мажмуа ва ансамбллар, бинолар туркуми, ҳатто шаҳар, шаҳристон, арк – қалъалар, узун деворлар ва боғ –саройлар ҳам мавжуд бўлган. Уларнинг айримлари бизгача археологик обидалар тарзида етиб келган бўлса, аксарияти бизгача сақланмаган. Улардан бири Самарқандда Амир Темур қурдирган усти ёпиқ анча узун савдо кўчаси – “тим”дир [3].

Ушбу савдо кўчасининг бизгача сақланмаганлиги, асосан бинонинг асраб қолиш бўйича турли табдирларни амалга оширилмаганлиги ҳамда Амир Темур вафотидан кейин бўлиб ўтган тахт талашиш ва бошқа мамлакатлар босқинчиларининг жангу – жадаллари оқибатидаги бузилишлар сабаб бўлган.

Бу қадар узун усти ёпиқ савдо кўчаси Самарқандда илк бор Амир Темур даврида қурилган. Минг афсуски, унинг архитектуравий – режавий тузилиши ва ечимлари ҳақида Клавихо аниқ маълумот келтирмаган. Бироқ, уни график қайта тиклаш учун Клавихо берган маълумотлар етарлидир.

Усти ёпиқ узун савдо кўчаси Амир Темур ва Темурийлар даврида нафақат Самарқандда, балки Ҳиротда Шоҳрух Мирзо томонидан ҳам бунёд этилади [3].

Ўрта аср бозорларида кўпдан – кўп савдо иншоотлари бунёд этилган. Улардан сақланиб қолганлари: тим, чорсу, тоқлар бугунги кунда ҳам шаҳарларимизнинг меъморий кўринишига кўрк бағишлаб турибди. Ушбу иншоотларни кузатар эканмиз беихтиёр ҳаёлимизни “ Савдо иншоотлари дастлаб қандай меъморий кўринишга эга бўлган, уларнинг тадрижий – тараққиёт жараёни қандай кечган экан?” деган саволлар чулғаб олади. Савдо иншоотларига оид тарихий маълумотларни титкилаб, шу ва шунга ўхшаш саволларга жавоб топишга ҳаракат қиламиз.

Афсуски, қўлимизда эрамизгача ва антик даврга тааллуқли бозорлар, савдо иншоотларига оид маълумотлар йўқ. Кўпгина мутахасислар бу давр бозоргоҳлари меъморий жиҳатдан шаклланмаган очиқ майдон кўринишида бўлган дейишади. Нима бўлганда ҳам бозоргоҳларда илк пайдо бўлган савдо иншооти – айвон ёки каппон бўлса ажаб эмас. Чунки, айвон ва каппонлар тузилиши жиҳатдан оддий, қурилиши осон ва тежамли, зарурат туғилганда бузиб бошқа жойда қайтадан қуриш имконияти мавжуд. Шунинг учун бўлса керак улар ҳозирги кунгача аҳамиятини йўқотмай келмоқда. XIX асрда олинган тасвирларга кўз югуртирсак, бозорларимизнинг асосан каппонлардан иборат эканлигининг гувоҳи бўламиз. Ҳозирги кунда ҳам бозорларимизда кўплаб каппон ва айвонлар қурилаяпди.

Ҳозирги қурилиш ашёларининг турлари хилма – хил, бироқ ўрта асрларда каппонлар оддий ёғоч устунларга тўсинлар ўрнатиб, устига қамиш ёки бўйра ташланиб ёпилган.

Вақт ўтиб каппоннинг орқа ва ён томонларига девор қурилган ва натижада дўкон пайдо бўлган. Ўз навбатида дўконлар қатор жойлашиб расталарни ҳосил қилишган. Расталарни бозоргоҳларда ҳам, марказий кўчалар бўйлаб ҳам учратиш мумкин бўлган. Кейинчалик кўчанинг иккинчи томонидан ҳам савдо дўконлари жой олган ва натижада савдо кўчаларига асос солинган. Савдо кўчалари бозорларнинг таркибий қисми бўлиб, қадимдан шакллана бошлаган.

Тарихий маълумотларда қайд қилинишича, X – XI асрлардаги Самарқанд бозорига туташувчи кўчаларнинг икки томонида дўконлар бўлган [4]. Кейинги йилларда Регистон атрофида шундай иншоотларнинг қолдиқлари топилган. Йиллар оша шаҳарлар катталашди, шаҳарлар билан биргаликда бозорлар ҳам кенгайди. Айниқса савдо кўчаларининг аҳамияти ўсди. XIV – XV асрларда Самарқанднинг энг катта савдо кўчаси Оҳанин дарвозасидан бошланиб, то Чорсу дарвозасигача давом этган.

Сўнгги ўрта асрлардаги Бухоронинг энг гавжум кўчаси Лабиҳовуз ансамблидан Регистон майдонигача чўзилган эди [5]. Маҳаллий ва чет эл моллари сотиладиган минглаб дўконлар, карвон саройлар, тим ва тоқлар ёнма-ён жойлашиб, ушбу кўчаларнинг икки томонини бутунлай банд қилган.

Савдо кўчалари одатда, у бетидан бу бетигача тўсин тиклаб, устига қамиш бўйра ва ҳакозолар тўшаб ёпилган. Айниқса, XVIII – XIX асрларда савдо кўчаларининг устини ёпиш урф бўлган. 1868 йилда юртимизга ташриф буюрган рус олими А.П.Федченко Қўқон бозори ҳақида шундай ёзади: “Қўқон бозори жуда ажойиб... Унинг энг диққатга сазовор томони устининг ёпиқлигидадир. Кўчанинг устига баланд қилиб хода ташланган, ходага эса

қамиш тўшаб ёпилган. Деворлари эса ёғочлар оралиғига лой тўлдирилиб ишланган". Шунингдек, А.П.Федченконинг яна бир гапи диққатимизни тортди. У Қўқон бозори ҳақида ёзар экан, "Марказий Осиёнинг деярли барча бозорларининг тепаси ёзда ёпилади" – деб қўшимча қилиб ўтган [5].

XIX асрнинг охирларидаги Тошкент бозорига тегишли фото ҳужжатни кузатганимизда ҳам шундай ҳолатга дуч келамиз; кўчанинг икки томонида бир ва икки қаватли дўконлар жойлашган. Уларнинг олдида айвонлари ҳам бор. Икки томондан бир – бирига қарама – қарши жойлашган ушбу айвонларга бутун кўча бўйлаб, икки қатор устунлар ўрнатилган. Устунларни уларга маҳкамланган тўсинлар боғлаб турибди. Қизиғи шундаки, айвонларнинг айрим жойларини ҳисобга олмаганда тўсинларга ҳеч нарса ташланмаган, савдо кўчаси деярли очиқ. Демак, савдо кўчаларининг тепаси одатда, ёз ойларида ёпилган, қишда эса очиб қўйилган.

Бу албатта Ўрта Осиё бозорларида сўз доимий усти ёпиқ савдо иншоотлари бўлмаган дегани эмас. Қадимда ёпиқ савдо кўчалари билан бир қаторда ёпиқ маҳобатли савдо иншоотлари ҳам мавжуд бўлган. Тим, чорсу ва тоқлар шулар жумласидандир. Бугунги кунда кўп тилга олинадиган "Тим" сўзи қадимги сўғд ёзувларида ҳам, мусулмон адабиётларида ҳам учраб туради. Сўғдча "tym" дўкон, савдо иншооти маъносини англатган.

Тарихчи Ёқутнинг тушунтиришича, тим сўзини Хуросонликлар "хан", яъни савдогарлар савдо қиладиган ва яшайдиган меҳмонхона дегани экан. Форсий луғатларда қайд қилинишича, тим катта карвонсаройни, ҳар хил газламалар сотиладиган махсус бозорни билдиради. Чиғатой тилида эса тим "равоқли иншоот" ёки усти ёпиқ бозорча дегани. Кўпгина муаллифларнинг асарларида Марказий Осиёдаги қадимий тимлар ҳақида эслатиб ўтилган. Муҳаммад Наршахий ўзининг "Бухоро тарихи"асарида 937 йилда Бухоро бозорида содир бўлган ёнғин ҳақида ҳикоя қилар экан, Самарқанд дарвозаси яқинидаги "... бозорларнинг тимчалари ..., ковушдўзлар тими" нинг ёниб кетганлиги ҳақида маълумот беради. Ушбу иншоотлар асосан, ёғоч ва лойдан ишланган бўлса керак. Чунки, ҳикояда айтилишича, "... унинг ёғочлари тупроқ тагида бир ойгача куйиб турган" [6]. Тимларнинг меъморий кўриниши ҳақида муаллиф ҳеч нарса демаган, нима бўлганда ҳам бозор анча мукаммал кўринишга эга бўлган, чунки уни "... ҳеч қачон илгаридек қилиб қура олмаганлар". Тимлар Нумичкат, Исфижоб, Уштуркат ва Чоғаниён шаҳарларида ҳам мавжуд бўлган [4].

Самарқанд шаҳрида Амир Темур буйруғига биноан бунёд этилган савдо иншооти маҳобатли савдо иншоотлари сирасига кирган. Кейинчалик савдо иншоотларини қуриш анъанаси Ҳирот шаҳрида ҳам давом эттирилади.

1410 – 1411 йилларда Шоҳруҳ Мирзо буйруғига биноан шаҳарнинг тўрт дарвозасини ўзаро боғловчи иккита марказий кўча бутунлай қайтада ободонлаштирилган. Кўча бўйидаги дўконлар икки қаватли қилиб пишиқ ғиштдан ишланган, кўчаларнинг тепаси эса гумбазли қилиб ёпилган Марказий чорраҳада эса Чорсу қад ростлаган [7].

Ўзбекистон тарихий бозорлари–савдо биноларининг меъморий шаҳарсозлик типологияси (А.С. Уралов бўйича)

1-жадвал

№	Бозорларнинг номи	Савдо биноларининг типлари	Савдо биноларининг турлари	Шаҳар ҳудудида жойлашиши
1	**Дўконлар**	Алоҳида турган	Айвон, айвонли хона	Шаҳар кўчалари ва майдонлари бўйлаб
		Туташтирилган	1–2 ошёнли ва 1–2 қаватли туташган кўринишда	Баъзан карвон–саройлар, мадраса ёки усти ёпиқ савдо кўчаларининг деворлари туташган ҳолда
			Ёки а.... равоқли хона	
2	**Расталар**	Савдо расталари	Очиқ, соялашган ёпиқ	Шаҳар кўчалари ва майдонлари бўйлаб Ҳовлилар ёки очиқ бозоргоҳлардаги расталар
		Ҳунармандлар савдо расталари	Галерея кўринишидаги ёпиқ расталар ёки галереясиз (бир ёки икки хонали)	
3	**Усти ёпиқ савдо кўчалари**	Узун кўчанинг икки ёнига қурилган савдо ёки ҳунармандлар савдо расталари	Бир–икки қаватли, секцияли қурилиш кўринишида	Савдо пиёда кўчаларининг тумонот қисмлари, баъзан чорсуларга туташ ҳолда
4	**Чорсу, тоқлар**	Кўп хонали, ихчам тарҳли, гумбазли	Квадрат ёки кўп бурчакли тарҳларда, галереяли ёки галереясиз	Асосий савдо кўчаларининг чорраҳаларида
5	**Тимлар**	Кўп хонали иморат: ихчам ёки узун тарҳли, ҳовлили кўринишларда	Алоҳида турган бино ёки узун тарҳли тузилишда	Шаҳар кўчалари ва майдонлари бўйлаб
6	**Каппонлар**	Алоҳида турган, туташтирилган	Баланд устунли айвон–бостирма ёки бошқа тузилишларда	Очиқ бозор майдонларида
7	**Карвон–саройлар**	Кўп хонали	Марказлашган ичида Т–образли бўлинишлари билан, кўшкнинг ҳовли билан қўшилгани	Савдо кўчалари ва бозоргоҳлар ёнида, шаҳар дарвозаларининг ташқарисига яқин ҳолда
		Бир хонали	Секцияли, галереяли, секцияли–галереяли, галереяли–секцияли	
		Икки хонали	Секцияли: бўйлама ўқли, симметрияли	
		Кўп хонали	Ўртадаги марказий ҳовлили, Т–образли бўлинишлар билан.	

Чорсу ва тоқ типидаги савдо иморатлари Марказий Осиёда қадимдан мавжуд бўлган IX – X асрларда Самарқанднинг Кеш дарвозаси яқинида бозор бўлиб, унинг марказида гумбазли савдо иншооти – Чорсу бўлган. Бизгача эса фақат XVI – XVIII асрларда бунёд этилган чорсу ва тоқлар етиб келган, холос. Бухородаги Тоқи Заргарон, Тоқи Телпакфурушон, Тоқи Саррафон ва Самарқанд, Шаҳрисабз чорсулари шулар жумласидандир. Тоқ ва чорсулар асосан, шаҳарларнинг марказий чорраҳаларида бунёд этилган ва шаҳарларнинг меъморий қиёфасини белгиловчи муҳим объектлар аҳамиятига эга бўлган [3;4].

Ўрта Осиёда савдо иншоотларининг узоқ давом этган тадрижий тараққиёти жараёнини ўрганиш уларнинг қуйидагича шаклланганини кўрсатди:

бозоргоҳларда дастлабки, пайдо бўлган савдо билан боғлиқ иморатлар айвон ёки каппон кўринишида бўлган. Вақт ўтиб айвон ва каппонларнинг такомиллашиши, орқа ва ён томонларига деворлар ишланиши натижасида савдо иморатларининг бозорларда энг кўп учрайдиган тури – дўконлар ва уларнинг қатор тузилмаси –**расталар** пайдо бўлган. Ўз навбатида савдо – сотиқ ривожланиб, бозор шаҳар марказидаги майдонга сиғмай қолгач савдо иморатлари шаҳарларнинг асосий кўчалари бўйлаб кенгая бошлади. Кўчанинг икки томонини расталар банд қилган ва натижада **савдо кўчаларига** асос солинди. XV асрга келиб Марказий Осиёнинг кўпгина шаҳарларида асосий кўчалар савдо кўчаларига айланиб бўлган эди. Савдо кўчалари такомиллашиб, усти ёпиқ савдо кўчаларига айланган. Аввалига савдо кўчаларининг усти енгил ёғоч қурилмалар билан ёпилган бўлса, кейинчалик уларни гумбазли қилиб ёпиш урф бўлган.

Ёпиқ савдо кўчалари ривожлана бориб, маҳобатли савдо иншоотлари Тим, Чорсу ва Тоқлар кўринишидаги иморатлар қурилишига олиб келган. Шундай қилиб, савдо иншоотлари ўрта асрларда оддий айвон кўринишидан, бугунги кунгача сақланиб қолган тарихий тим, чорсу ва тоқлар кўринишигача бўлган узоқ меъморий тадрижий тараққиёт даврини босиб ўтган. Профессор А.С.Ўралов Ўрта Осиё тарихий бозорларининг ана шундай тадрижий ривожланиш эволюциясини ўрганиб Ўрта Осиё савдо бозорларининг меъморий-шаҳарсозлик типологиясини ишлаб чиққан (1- жадвал) [4].

Марказий Осиёда усти ёпиқ савдо кўчалари, тарихий маълумотларга кўра, Самарқанд, Тошкент, Жиззах, Ош ва Ҳирот шаҳарларида барпо этилганлиги маълум [8]. Юқорида қайд этилган шаҳарлар ичида усти ёпиқ савдо кўчаларининг энг биринчи Самарқандда Амир Темур томонидан барпо этилган. Ушбу кўчанинг узунлиги тахминан 700 метрлар атрофида бўлиб, у шаҳарнинг Оханин дарвозаси ёнидаги Амир Темурнинг жоме (“Бибихоним”) масжиди ва Бибихоним мадрасаси ўртасида жойлашган майдондан бошланиб Регистон майдонигача давом эттирилган.

Кўча усти қатор гумбазлар билан ёпилган, одамлар ва арава юрадиган кенг йўл, кўчанинг ҳар икки ёнида эса турна қатор савдо расталари ва дўконлар жойлашган. Кўча баландлиги икки қават бино баландлигида бўлган.

Кўча гумбазлар устидаги ва ёнидаги туйнуклар орқали ёритилган ва шамоллатилган. Кўчанинг ички кўриниши ниҳоятда фуқаровий, инсон масштабига ва савдо функцияларига мос тарзда ишланган.

Ш.Е. Ратия XX асрнинг 30-йилларида Самарқанд шаҳридаги меъморий ёдгорликларни, айниқса Амир Темур барпо этган “Бибихоним” жоме масжиди ва “Бибихоним” мадрасасини ҳамда ушбу улкан бинолар олидаги майдондан, хусусан бу ерда барпо этилган савдо мажмуаси – “тим”дан бошланиб тарихий шаҳар маркази – Регистон майдонидаги Чорсугача чўзилган усти ёпиқ савдо кўчаси ҳақидаги маълумотларни ўрганган архитектор тарихчи олимдир.

У “Соборная мечет Бибихоним” номли илмий рисоласини 1932 йилда Самарқандда чоп эттирган [9]. Ушбу китобчада у “Бибихоним” жоме масжидини ва Самарқандда Амир Темур бунёд эттирган ўша савдо кўчасини график тарзда қайта тиклаш ва уларни меъморий – режавий жиҳатдан талқин этишга ҳаракат қилган (1-расм).

Ш.Е. Ратиянинг чизмасига кўра ушбу савдо кўчасини унинг ён томонларида жойлашган маҳалла ва гузарлар учта кўча билан бирлашган. “Тим”нинг ўрта қисмига келиб туташган 2 та кўчалар тим билан каттароқ майдон ҳосил қилган ва бу майдонларда тимнинг қоқ ўртасида жойлашган энг катта гумбаз остига дарвоза –пештоқи орқали кирилган.



1-расм. Самарқанддаги ёпиқ савдо кўчаси – “тим”нинг Ш.Е. Ратия ишланган реконструкцияси.

Ш.Е. Ратиянинг фикрича, ушбу “тим”нинг боши ва охири ўзига хос дарвозалар билан бўрттирилган, ўртадаги бош гумбаз ости ва ундан ҳар икки томонда кўчалар туташган жойларда ҳам пештоқ кўринишидаги дарвозалар бўлган. Усти ёпиқ савдо кўчаси тарҳи эса тўғри чизиқли, усти ва томи эса

турна қатор гумбазлар билан ёпилган. Савдо кўчаси "тим"нинг фазовий ечими Ш.Е.Ратиянинг чизмасига кўра ритмик жойлашган гумбазлар ва узун кўчанинг 3 жойида эса ушбу монотон метрик ритмга жон кирувчи баландроқ ва кенгроқ гумбазлар орқали ифода этилган (1-расм).

Хуллас, Ш.Е.Ратиянинг мазкур тим бўйича берган илк график реконструкцияси ушбу савдо иншоотини режавий тарзда тасаввур қилишга ёрдам беради. Бироқ, бу реконструкцияда мазкур савдо кўчасининг архитектураси ўз аксини топмаган.

2-расм. Самарқанддаги ёпиқ савдо кўчаси – "тим"нинг ҳозирги Тошкент кўчасида жойлашган ўрни кўриниши.

Ушбу ишни бажариш учун проф. А.С. Уралов-нинг маслаҳати ва у кишининг таклифлари асосида Г.Де Клавихонинг ушбу иморат ҳақида ёзиб қолдирган маълумотларини, сўнгра биз юқорида тўхтаб ўтган Ш.Е. Ратиянинг ишлаган XIX аср охирида шаклланган савдо кўчасига доир тарихий фотосуратларни, Самарқанддаги Регистон майдонида бизгача сақланган савдо биноси – Чорсуни, Бухоро шаҳридаги бизгача сақланган тарихий савдо иншоотлари – тоқ ва тимларни, тарихий бозор иморатларини қуриш ва фойдаланишдаги хорижий тажрибаларни таққослаб маълумотларни умумлаштирган ҳолда ўз реконструкциямизни яратдик (2-расм).



2-расм. Самарқанддаги ёпиқ савдо кўчаси – "тим"нинг ишлаб чиқилган реконструкцияси умумий кўринишлари.





2-расм. Самарқанддаги ёпиқ савдо кўчаси – "тим"нинг ишлаб чиқилган реконструкцияси ички кўринишлари.



2-расм. Самарқанддаги ёпиқ савдо кўчаси – “тим”нинг ишлаб чиқилган реконструкцияси

1-2 қават тархлари.

Ҳулоса. Анъанавий тарихий савдо иморатлари ва усти ёпиқ савдо кўчаларининг архитектурасини график тиклашда биз ушбу иморатларнинг интерьерлари, ушбу иморатлар функцияси ва конструктив тузилишига, яъни уларнинг архитектоникасига таяндик.

Амир Темурнинг Самарқанддаги усти ёпиқ савдо кўчасини график қайта тиклаш бўйича Г.Де Клавихонинг ушбу иморат ҳақида ёзиб қолдирган маълумотлари архитектор – тадқиқотчи Ш.Е. Ратиянинг ғоясини таҳлил қилиб, тўпланган илмий маълумотларга асосланиб, Амир Темурнинг ёпиқ савдо кўчасини график қайта тиклаш бўйича ўзимизнинг лойиҳавий таклифимизни ишлаб чиқдик.

Ишлаб чиқилган ушбу график реконструкцияни “Архитектура” таълим йўналишининг ўқув жараёнига тадбиқ этиш, Ўзбекистон Республикасининг махсус тарихий музейлари учун ундан нусха олиш ҳам таклиф этилган. Бажарилган ушбу график реконструкцияга асосланиб Самарқанд шаҳрида айнан Тошкент пиёда кўчасида замонавий, бироқ Амир Темур даври анъаналарига мос тарзда усти ёпиқ савдо кўчасини ўзининг аслий жойига қайта тиклаш масаласини таклиф этамиз.

Адабиётлар:

1. **Клавихо, Рюи Гонзалес де.** Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). Пер, И. С. Мироковой.–М: Наука, 1990. – 211 с.
2. **Исмоил ака.** Буюк Темур давлати. – Т., 1996
3. **Пугаченкова Г.А.** Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент, 1976.–116с.
4. **Уралов А.С.** Гражданское зодчество средневековой Центральной Азии (общественные здания и сооружения). – Т., 2021.
5. **Ремпель Л.И.** Далекое и близкое. Бухарские записи. – Т., 1982.
6. **Наршахий.** Бухоро тарихи. – Т., 1966.
7. **Абдураззоқ Самарқандий.** Матлаи саъдайн ва мажмаи бахрайн. – Т., 1969
8. **Уралов А.С.** Темур ва Темурийлар даврида бозорлар ва бозор иншоотлари.//В сб.: Тезиси меж.науч.конф. “Амир Темур илм–фан ва маданият ҳомийси.” Т. II. – Самарканд, 1996
9. **Ратия Ш.Е.** Саборная мечет “Бибиханим”. – Самарканд, 1932.
10. **Ardalan N., Bakhtiar L.** sense of unity. The University of Chicago Press, Chicago –London, 1973.

O‘ZBEKISTONDA CHOR ROSSIYASI DAVRIDA QURILGAN BINOLAR INTERYERLARIDA MILLIY AN’ANALARNI QO’LLASH USULLARI.

METHODS OF APPLYING NATIONAL TRADITIONS IN THE INTERIORS OF BUILDINGS BUILT DURING TSARIST RUSSIA IN UZBEKISTAN.

Khudoyarova .M.B.
The Samarkand State Architectural and Civil engineering University, docent.
Chekaeva R.U.
Eurasian National University, Professor. Nursultan City., Kazakhstan
Masaridinova N.A.
The Samarkand State Architectural and Civil engineering University, trainee teacher and independent researcher

Annotasiya. O‘zbekiston Respublikasi hududida Yevropa madaniyatining ta'siri Samarqand, Toshkent va Buxoro xududlarida iqtisodiy va madaniy rivojlanishning yuksalishi bilan bog‘liq holda yangi arxitekturaviy usullar shakllanishi yo‘llari tahlil qilingan. Maqolada Chor Rossiyasi davrida Yevropa usullarida qurilgan bino va inshootlariga milliy arxitektura an'analari va elementlarining kiritilishi va intererlarda ulardan foydalanish yo‘llari misollar yordamida ko‘rib chiqilgan. Binolar arxitekturasining tashqi ko‘rinishi Yevropa usullarida qurilganligining sabablari tahlil qilinib, ularning interyerlarida sharqona monumental-dekorativ elementlarning Yevropa arxitekturasidagi badiiy elementlar bilan uyg‘unlashib ketganligi aniqlash yo‘llari o‘rganilgan.

Tayanch so‘zlar. Evropa arxitekturasi, klassitsizm, modernizm, eklektika, milliy an'analar, dekorativ elementlar, naqshlar, ijtimoiy hayyot .

Kirish. O‘rta Osiyo hududi X1X asrning ikkinchi yarmida Rossiya tarkibiga kiritilgandan so‘ng Yevropa madaniyatining kuchli bosimida bo‘lgan. Bu holat regionning arxitekturasiga o‘z ta'sirini ko‘rsatadi. 1865-yilda Toshkentni va 1868-yilda Samarqandni rus armiyasi bosib oladi. Shu davrda Buxoro emirati va Xorazm xonligi shakllanadi ular Rossiya imperiyasining vassaliga aylanadi. Shu sababli Evropa arxitekturasi uslublari asosan Toshkent va Samarqand xududida qurilgan. Xorazm va Buxoro xonligida bino va inshootlar qurilishi milliy an'analarda davom etdirilgan.

Chor Rossiyasi bosib olgan 1865-yildan boshlab to 1920-yilgacha qurilgan bino va inshootlar arxitekturasida asosan klassisizm, neoklassisizm va postmodernizm uslublari qo‘llanilgan. Shu bosqichda Toshkent va Samarkand hududlarida Rus arxitekturasining klassisizm,post modernizm va eklektika uslubida qurilgan bino va inshootlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan.[4]

Ularning arxitekturasi V.A.Nilsen, Sh.D.Asqarovning, S.O.Xan-magamedovning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan. Ammo shu davrdagi binolarning ichki arxitekturasining shakllanilishi o‘rganilmagan. Bu davrda O‘zbekistonga kirib kelgan Yevropa arxitekturasi usullarini ularning na faqat tashqi ko‘rinishiga balki ichki fazoviy muhitni shakllantirishga ham ta'sirini o‘rganib kelgusidagi rivojlanish yo‘llarini belgilab olish hozirgi kunda o‘rganilishi kerak bo‘lgan muammolardan hisoblanadi.

Izlanish uslubi. O‘zbekiston turar joy va jamoat binolari me'morchiligida Chor Rossiyasi davrida qurilgan bino va inshootlariga milliy arxitektura an'analari, dekorativ elementlarining kiritilishi va intererlarda ulardan foydalanish yo‘llarini misollar yordamida tahlil qilish. Binolar arxitekturasining tashqi ko‘rinishi Yevropa usullarida qurilganligining sabablari tahlil qilish, ularning interyerlarida sharqona monumental - dekorativ elementlarning Yevropa arxitekturasidagi badiiy elementlar bilan uyg‘unlashtirilganini tahlil qilish.

Natijalar. Knyaz N.Romanov ruslarning Xivaga yurishida qatnashgan bo‘lib g‘alabasidan yodgorlik sifatida fasadlarida Xivaning qal’asini eslatuvchi qishki kinoteatrni 1910-yilda qurdirgan (1-rasm). Bu jamoat binosida ilk bor milliy arxitekturaga e’tibor qaratilgan ob’ektlardan biri hisoblanadi. Binoning tashqi ko‘rinishi silliq loyshuvoq bilan bezatilgan. Tomosha zalining karnizlari harbiy qurollar, qilichlar va shtiklar bilan dekorativ elementlar yordamida bezatilgan. Zanavesi rus harbiylarining paradini ko‘rsatib ishlangan. 1917-yilgi yonginda buzilganligi sababli o‘rniga N.Romanovning xotini tomonidan o‘sha tashqi ko‘rinishda g‘ishtdan yangi kinoteatr quriladi.

Ko‘rib chiqilgan bosqichda qurilgan bino va inshootlar ruslarning hayotiy va ijtimoiy talablariga ehtiyoj tug‘ilganligi sababli shakllanadi. Shu sababli bu etapda qurilgan jamoat binolari Yevropaning o‘sha davrida Rossiyada tarqalgan klassisizm, neoklassisizm va modernizm uslublarida qurilgan. Shu davrda turar joy binolari post modernizm uslubida qurilgan bo‘lib ularning interyerlarida milliy an'analarga e'tibor qarata boshlashgan.

1-rasm. Toshkentdagi qishki kinoteatr “Xiva”. Arx. G.M.Svarichevskiy.1910 y. Manba: google.vesti.uz

1889-1891 yillarda Toshkentda knyaz Romanovning arxitektorlar A.P.Benua va V.S. Geynselman loyihasi bilan “modern“ uslubida qurilgan saroyi to‘g‘ri burchaklar va chiziqlardan kechib nozik tabiiy egiluvchan chiziqlar bilan go‘zallik va funksiyani birlashtirilgan. Bino dekorativ elementlar bilan terilgan pishiq g‘ishtdan qurilgan bo‘lib o‘ymakorlik bilan ishlangan panjaralar, o‘ziga xos qurilmalar bilan ishlangan katta derazalar va dekorativ minorachalar bilan bezatilgan. Markaziy kirish qismida bronzadan yasalgan ohular va ovchi kuchuklarning haykallari o‘rnatilgan (2 – rasm).

2 – rasm. Toshkentdagi N.Romanov saroyi. 1889-1891 eil. Manba: google.arxikultura.uz.

Saroyning rejaviy tuzilishida milliy an'analarga xos dekortiv elementlar va ustunlar bilan bezatilgan ayvonlar bilan o‘ralgan ichki hovli tashkil etilgan (5-rasm).

5- rasm. Ichki hovlini ayvoni.Manba: google. Tripster

Interyerning bezaklash detallariga katta ahamiyat berilgan. G‘arbiy qismi Evropa uslubida shakllangan dublar bilan, o‘ymakorlik bilan ishlangan karnizlar va tilla sayqalli rospislar bilan bezatilgan. [1] Saroyning xonalaridan biri poldan potolokgacha ozgina o‘zgartirilgan dekorativ ornamentlar bilan bezatilgan va derazasi

rangli, ornamentli vitrajda ishlatilgan. Uning yonidagi xona oranjereyada Usto Shirin Murodovning texnikasi bilan bezatilgan nozik ganchkorlik o‘ymakorligi 1980-yillarda restavrasiya qilingan (3 a,b,v- rasmlar).

a

b

v

3 a,b - rasmlar. Toshketdagi N.Romanov saroyi intererlari.Manba: google.gazeta.uz.

Samarqandda 1902-1916 yillarda rus imperatorini kelishiga A.Qalantarov Peterbburgdan ruslashib ketgan avstriyalik arxitektorini yollab uy qurdirgan (4-rasm). Ikki qavatli pishiq g‘ishtdan qurilgan bino arxitekturasining umumiy ko‘rinishi “modern” uslubining oxirlaridagi eklektikani eslatsada interyerlari modern va milliy arxitektura elementlari bilan to‘liq birlashtirilib ishlangan. Mehmonxona devorlarining yorqin o‘simliklar ranglari bilan ishlangan rospislari, yog‘ochdan ishlangan shipning ganchda amalga oshirilgan nozik badiiy o‘ymakorlik elementlari bilan, arka shaklidagi derazalarning o‘ziga xos bezaklari bilan birgalikda betakror go‘zallikni yaratadi.

Derazadagi haqiqiy Venesiyaning rangli shishali vitrajlari bilan milliy panjaralar o‘zaro uyg‘unlashib ketgan (6 a,b-rasmlar).

Germaniyada ishlangan keramik plitalar ornamentlari bilan badiiy bezaklangan kaminlar va ikkinchi qavatdagi uchta arkadan iborat galereya mehmonxonani keng va hashamatli qilib ko‘rsatadi (7-rasm).

X1Xasr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda iqtisodiy va madaniy yuksalishlar bo‘ladi. Bu davrda evropa madaniyatiga qiziqish kuchayadi va sharq arxitekturasi bezaklari matolari va farforlaridan o‘zgacha naqshlar paydo bo‘ladi. Bu evropa madaniyatining ta'sirida Yevropa va sharq motivlarining birlashuvi, ayniqsa arxitektura sohasida birlashib ketishi natijasida yangi uslub yaratiladi. Bu ikki madaniyatning sintezi sifatida yaratilgan Sitorai Moxi - Xosa misol bo‘ladi. Saroy qurilishi X1X asrda Abdullaxad-xon davrida boshlanadi. Shu vaqtda eng yaxshi ustalar Peterburg va Yaltaga arxitekturaning yangi shakllari bilan tanishishga jo‘natiladi. Qurilishni 1911-1918 yillarda Mir Sayid Olimxon davom etdiradi. Qurilishga va bezaklashga Buxoro ustalari va rus muxandislari jalb etiladi. Saroyning arxitekturasi joylardagi tarixan shakllangan monumental-dekorativ usul bilan, Yevropa usulini uyg‘unlashtirad (8- rasm).[3]

Saroy an'anaviy ayollar va erkaklar qismiga bo‘linadi. Mehmonlarni an'ana bo‘yicha eng chiroyli bezaklangan xonalarda kutib olinishi ularga katta ahamiyat berishni talab qiladi.Mehmonlarga mo‘ljallangan mashhur “Oq mehmonxona” Usto Shirin Murodov rahbarligida quriladi. Zalni bezaklashda ganchga nozik o‘ymakorlik ishlari, rospislar, hisobi yo‘q oynalar behisob, betakror go‘zallik yaratish imkonini beradi (9- rasm). Choy ichadigan xona boshqa xonalarga nisbatan boshqacha uslubda ishlangan. U turli rangdagi geometrik naqshlar va rangli shishalar bilan bezatilgan, shaffof shishali arka shaklidagi baland siljiydigan devorlar bilan yorug‘likga to‘ldirilgan bo‘lib atrof muhit bilan uyg‘unlashib ketgan (10-rasm).

Ichki zallarda ranglarning birlashuvi, naqshlar, evropa uslubida ishlangan ritm bilan takrorlangan arka shaklidagi elementlar va to’g’ri to’rtburchak shaklidagi sharqona shiplar xonalar fazosini o’ziga xos arxitekturaviy usulda birlashtiradi, kuzatuvchilarning diqqat e'tiborini o‘ziga jalb qiladi. Saroyning dekorativ elementlari o‘sha davrning Yevropa va sharqiy usullarida bajarilgan (11,12-rasmlar)

4-rasm. Samarqanddagi A.Qalantarovning uyi. 1902-1913 yillar. Arx. E.O.Nelle.

a) 

b)

5 -rasmlar. Mehmonxona: intereri va vitraji va shipi.

a 

b

6a,b-rasmlar. Mehmonxona va mysiqiy xona shiplari. Manba:google. Flomastersstory.com

7-rasm. Mehmonxona kaminlari. Manba:google. Flomastersstory.com

8-rasm. Buxorodagi Sitorai Moxi-Xosa saroyi. 1911-1918 yillar

9- rasm. “Oq mehmonxona” interyeri.



10 - rasm. Choyxona interyeri.



11,12 -rasmlar.Ichki zallar.

Munozara. Chor Rossiyasi davrida evropa usullarida qurilgan bino va inshootlarga milliy arxitektura an'analari va elementlarining kiritilishi va interyerlarda ulardan foydalanish yo‘llari misollar yordamida ko‘rib chiqilgan. Bu davrda O‘zbekistonga kirib kelgan Yevropa arxitekturasi usullarini ularning na faqat tashqi ko‘rinishiga balki ichki fazoviy muhitni shakllantirishga ham ta'sirini o‘rganib kelgusidagi rivojlanish yo‘llarini belgilab olish hozirgi kunda o‘rganilishi kerakligi aniqlandi. Bu qurilishlarda qatnashgan injenerlar va arxitektorlar ruslar va chetelliklar bo‘lgani uchun ular milliy an’analarga e’tibor bermaganlar. Shu sababli bu etapda qurilgan jamoat binolari Yevropaning o‘sha davrida Rossiyada tarqalgan klassisizm, neoklassisizm va modernizm uslublarida qurilgan.

Milliy an’analarga turar joy binolari interyerlarida e’tibor qarata boshlashgan. Interyerlarda uslublardan foydalanish uch xil yo‘nalishda amalga oshirilgan. Birinchi yo‘nalishda Toshkentdagi knyaz N.Romanovning modern uslubida kurilgan saroyi interyerlari alohida ishlangan ikki qismga bo‘lingan, g‘arbiy qismi Yevropa uslubida bajarilgan, sharqiy qismida milliy dekorativ elementlar bilan sharqona uslubda bezaklangan. Ikkinchi yo‘nalish Samarqanddagi A.Qalantarovning uyidagi xonalar interyerlarida Yevropa va sharq arxitekturasining an’analari birgalikda qo‘shilib uyg‘un yechilgan. Uchinchi yo‘nalish Mir Sayid Olimxonning yozgi saroyi Sitorai Moxi -Xosada Yevropa madaniyatining ta’sirida Yevropa va sharq motivlarining birlashuvi natijasida yangi uslub yaratiladi [2]. Kelajakda na faqat turar joylar balki jamoat binolari interyerlarida ham ikki madaniyat, evropa va sharqona madaniyat sintezi asosida ichki makonning shakllarini yaratish rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘ladi.

Adabiyotlar

1.Abdullayeva N.D. San’at tarixi.T.2006.

2. Asqarov SH.D. Genezis arxitekturi’ Uzbekistana.T.2014.

4.Nurmuxamedova SH.Z. San’at va madaniyat tarixi. O’quv qollanma.Toshkent.2018.

5..Nilsen V.A.U istokov sovremennogo gradostroitelstva Uzbekistana.Tashkent,1988.
6. Po'latov X.SH. Arxitektura va shaxarsozlik tarixi. O'rta Osiyo arxitektursi tarixi.T.2000.

Internedan olingan materiallar:

1.OrexCA.com https://www.orexsa.com>,bukhara.
2.Dzen https://dzen. Ru.
3.VeseiyuUZ. https://vesti.uz>kino trarskij-podar.
4. GfyauefyuUz https://www.gazeta.uz.

AN'ANAVIY YAPON BOG'-PARK SAN'ATINING RIVOJLANISHIDA DAYMYO BOG'LARINING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF DAIMYO GARDENS IN THE DEVELOPMENT OF TRADITIONAL JAPANESE GARDEN ART

Boboyeva Fotima Sobirjonovna,
doctoral student of Samarkand State architectural civil engineering university named after M. Ulugbek

Annotatsiya: Ushbu maqolada Daymyolar tomonidan barpo etilgan Yaponiyaning 3 ta eng mashhur va yirik bog'lari analiz etilgan. Shuningdek ,Daymyo bog'larining yapon an'anaviy bog'-park san'atining rivojlanishida va yapon bog' modelining shakllanishidagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Daymyo bog'larining asosiy xususiyatlari, elementlari, tarkibiy qismlari atroflicha tahlil etilgan, hamda bog'larning rivojlanishida mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va diniy vaziyatning ta'siri analiz qilingan.

Kalit so'zlar: Yapon bog'lari, Daymyo, yatsuxasu ko'prigi, Kayraku-en, Koraku-en, Okayama Kenroku-en, Kanadzava, Edo davri

Kirish. Butun dunyo bo'ylab yapon bog'-park san'atiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Qadimiy yapon bog'larining kompozitsion usullari, tarkibiy qismlari o'rganilib kelinmoqda. Qadimiy an'anaviy yapon bog'lari yangi yapon bog'lari uchun andoza sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun qadimiy an'anaviy yapon bog'larining asosiy xususiyatlari, tarkibiy qismlari va elementlarini o'rganish, kelajakda yangi yapon bog'larini barpo etishda yordam beradi. Dunyoda ko'plab an'anaviy yapon bog'lari barpo etilmoqda. Mazkur muammoga bag'ishlangan izlanishlar respublikamiz landshaft arxitektura sohasida chuqur tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Biroq, mazkur mavzuni mahalliy olimlarimiz: A.S.Uralov va L. A.Adilovalar, K.D.Raximovlarning va boshqa adabiyotlarda qisman ko'rsatilgan. Rus tilida nashr etilgan adabiyotlarda olimlar va mutaxassislardan L.I.Galkina, N.S.Nikolaeva, L.A.Lebedeva,S.A.Mostovoy va A.S.Pavlova, M.P.Zgurskaya, P.I.Prixodьko, Ye.V.Golosova, A.B.Zaytsev, A.N.Мещеryakov va boshqa adabiyotlarida ko'rsatilgan. G'arb landshaft arxitektorlari va kitobxonlari ilk bor 1893-yilda an'anaviy yapon bog'i haqida batafsil ma'lumotga J.Konder sababli ega bo'lishgan. Uning ilmiy-tadqiqot ishining asosini Edo(1603-1868) davridagi yozma manbalardan biri " Tog'li (tepalikli) bog'larni yaratish bo'yicha qo'llanma"ni tahlil qilish bo'lgan. Shuningdek, g'arb mamlakatlarida yapon bog'larini L. Kuk, M. Bring, G. Nitsshke, M. Kin, K. Chyumi, V. Kautert kabilar o'rgangan.

Tadqiqot uslubi. Muammoga kompleks yondashilgan bo'lib, quyidagi xususiy ilmiy izlanish usullarini o'z ichiga oladi. Muammoga doir ilmiy va maxsus adabiyotlarni o'rganishdan to'plangan materiallarni taqqoslash usulida tahlil qilish, xususan, an'anaviy yapon bog'i modelining shakllanishida Edo davrida barpo etilgan Daymyo bog'larining ta'sirini o'rganishdan va umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqot materiallari. XVI asr boshlarida Yaponiya poytaxti Edo (hozirgi Tokio) shahriga ko'chdi. Yaponiya tarixida Edo (1615-1868) davri boshlandi. Momayama davri o'rnini egallagan Edo davri nisbatan osoyishtalik va farovonlik davri hisoblangan. Daymyolar o'rtasidagi o'zaro urushlarning tugashi va mamlakatning Tokugava syogunati hukmronligi ostida butunlay birlashishi davri edi va hukumat harbiylar qo'liga butunlay o'tdi. Mamlakatning eng yirik harbiy feodal oilalarini Daymyo deb atashgan [7].

Daymyolar qurollarini chetga olishgan bo'lsada, tinch zamonda ham raqobat ruhini yuqotishmadi. Edo davrida, qudratli feodal oilalar ya'ni Daymyolar orasida ham bog' yaratish urfga aylangan. Ular o'zlarining kuch-qudratini va ustunligini shu yo'l bilan namoyish etishgan. O'sha paytda Yaponiyada 300 yaqin feodal oilalar bo'lib, ularning har birida 3 ta qarorgoh mulkga ega bo'lishi lozim edi. Ushbu, qarorgohlarning albatta, bog'lari bor bo'lgan. Daymyolar nafaqat, o'zlarining viloyatlarida balki, syogunatning yangi poytaxtidagi qarorgohlarida ham bog'lar barpo etishdi. Odatda, maydoni kattaroq (2 ga va undan ko'proq) bog'lar Edo shahrining tumanlarida yoki boshqa viloyatlarda qurilgan. Bog'larga bo'lgan talab oshgani sabab, bog'dorchilik kasb sifatida mashhur bo'ldi.[4]

Shuningdek, Edo davrining birinchi syogunati Tokugava tabiatni ayniqsa, gullarni yaxshi ko'rgan inson sifatida tanilgan. Shu sababli, hukumatning katta yordami bilan bog'dorchilik san'ati jadal rivojlandi. Yapon an'anaviy bog'dorchilik san'ati yanada jonlanib, keng tarqaldi [3].

Bu bog'lar o'z egalarining qudratini, dunyo qarashini aks ettirib, dam olish va syogunat rahbarlarini kutib olish uchun mo'ljallangan. Rasmiy tashrif uchun bog'da choy marosimini o'tkazish uchun choy bog'i (rodzi) ,choy uyi va No teatri uchun sahna joylashtirilgan. Xozirda ko'plab Daymyo bog'lari qayta tiklandi, ba'zilari qisman saqlanib qolgan. Biz siz bilan Daymyolar tomonidan barpo etilgan Yaponiyaning 3 ta eng mashhur va katta yapon bog'larini ko'rib chiqamiz.

Shunday bog'lardan biri mahalliy Daymyo Ikedoy Sunamasoy tomonidan qurilgan bo'lib, Okayama shahrida joylashgan Koraku-en bog'idir. Koraku-en bog'i Okayama qasrining qarshisida joylashgan bo'lib, 1702-yilda qurilgan. Bog' hududi 13,3 gektar maydonni egallaydi.Bog' Edo davriga xos holda tekis maydonda joylashganiga qaramay, unda sun'iy tepaliklar, sharshara va hovuzlar mavjud. Bog' dzen-buddizm g'oyalariga asoslanmagan bo'lib, sayr etish uchun mo'ljallangan. Bog'da 2 ta choy uyi va sharqiy tomonda esa choy plantatsiyasi, sholi maydoni mavjud. Bog'ning markazida sun'iy tepalik (tsukiyama) mavjud, unda yulaklar joylashtirilgan. Bu bog'dagi eng yuqori nuqta.

1-rasm Koraku-en bog' tarhi

2-rasm Koraku-en bog' ko'rinishi

Tepalikda ko'plab gullayotgan rododendronlar e'tiboringizni tortadi.(1 va 2-rasmlar)

Tepalik yonbag'rlaridan biri toshbaqalar yashaydigan katta hovuzga olib boradi. Hovuz ortida choy bog'i bo'lib, undan uncha uzoq bo'lmagan joyda turnalar ini ham bor. Shuningdek, bog'da 2 ta sharshara va 2 ta hovuz bo'lib, ular o'zining ohangdor sadosi bilan mashhur [2].

3-rasm. Kayraku-en bog' tarxi

Bog'ning katta qismini ochiq muhit keng maysazorlar tashkil qilgan bo'lib, bu yapon bog'ida noyob xodisa hisoblangan. Ochiq maysazorlar va gullayotgan rododendronlar bog'da o'zgacha kontrast hosil qiladi. Shu bilan birgalikda, bog'da olcha, olxo'ri va chinorzorlar zonasi ham bo'lgan. Shuningdek, bog'da glitsiniya, sakura, kameliya kabi yapon an'anaviy o'simliklar ekilgan bo'lib, tabiiy ravishda shakllangan o'simliklar ham mavjud. Bog'ning barpo etilishiga 14 yil sarflangan. Afsuski, Okayama saroyi 2-jahon urushida vayron holga keldi. Saqlanib qolgan tasvirlar asosida 1966-yilda qayta tiklandi. Bog' ham qisman zarar ko'rgan bo'lib , xalq tomonidan tiklandi[1] .

Yana bir Daymyolar tomonidan barpo etilgan va yapon bog'-park san'ati modelining shakllanishida hissa qo'shgan Mito shahrida(hozirgi Tokio) joylashgagn Kayraku-en bog'idir. U ham Yaponiyaning eng mashhur va yirik bog'laridan biri hisoblanadi. Mito feodal oila a'zosi Tokugava Yerifusa buyrug'i asosida 1629-yil qurila boshlagan bo'lsa, keyinchalik shu oilaning to'qqizinchi avlodi bo'lmish Mitsukuni Tokugava tomonidan 1841-yilda qurilgan. Bog' hududi 7 gektar maydonni egallaydi.(3-rasm)

4-rasm. Sutenke ko'prigi 5-rasm.Yatsuxasu ko'prigi

6-rasm. Tosh ko'prik

7-rasm. Kayraku-en bog'idagi olxo'rizor

Bog'ning har bir qismi yoki kompozitsiyasi yapon tarixi, xitoy mifologiyasi va madaniyatining alohida epizodini o'zida mujassam etgan. Kayraku-en so'zi (okayamadagi koraku-en singari) so'ngida rohatlanish degan ma'noni anglatib, xitoy poemasidan olingan. Bog' sayr

uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy marshrut markaziy hovuz atrofida joylashtirilgan. Bog'ning tarxi xitoy uslubida bo'lib, xitoy va yapon tabiatining diqqatga sazovor joylarini miniatyurada ifodalaydi. Bog'da sholi dalasi mavjud bo'lib, hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Yonida esa botqoqlik bo'lib, unda nilufar va iris gullari o'sadi. Botqoqlikdan o'tish uchun zig-zag tarzda yog'och ko'prigi qurilgan. U yatsuxasu deb nomlanib, boshqa analogga ega emas. Ko'prikning bunday g'ayrioddiy va murakkab shakli Yaponiyada borliqning mohiyatini tushunish, inson hayot yo'lining bir tekis-damasligining ramzidir. U yapon bog'larining an'anaviy elementi hisoblanadi. Bog'da 3 ta hovuz bo'lib, ular 2 ta kichik va 1 ta yirik hovuzlardir. Bog'da 2 ta xitoy uslubida qurilgan ko'priklar bor. Birinchisi tosh ko'prik, u Xitoyda min sulolasi hukmronligi davrida shakllangan ko'prik nusxasi hisoblanadi. Sutenke ko'prigidir. Ko'prik o'zining yorqin qizil rangi bilan e'tiborni jalb etadi.(4,5,6- rasmlar)

8-rasm. Kenroku-en bog' tarhi

Shuningdek,bog' o'zining gullaydigan gilos va olhuri daraxtlari bilan mashhur. Ushbu bog'da va uning atrofida 3000ga yaqin olxo'ri va gilos daraxtlari o'sadi. Ularning 100 ortiq navlari ekilgan. Xozirda kayrakuen bog'ida Xanami milliy bayrami nishonlanadi va turli festivallar o'tkaziladi. (7-rasm)

Edo davrida barpo etilgan mashhur uchinchi bog' Kanadzava shahrida joylashgan Kenroku-en bog'idir. Kenroku-en bog'i 1620-yildan 1840-yilgacha Maeda feodal oila rahbari ya'ni Daymyo tomonidan barpo etilgan. Bog' dastlab, Maeda sulolasining 5-Daymyosi tomonidan qurilgan. Biroq, bog' 1759-yili yong'in sabab vayron bo'lgan.1774-yil Maeda sulolasining 11-daymyosi tomonidan qayta tiklandi. U zumrad sharsharasini va choy bog'larini, Maeda sulolasining12 va 13-Daymyolar esa hovuzni kengaytirdilar va bog' bo'ylab irmoqlarni qo'shishdi [1].

Kenroku-en bog'i Kanadzava saroyining tashqi qismida qurilgan bo'lib, qal'a vazifasini bajargan. Hozirgi kunda bog' 10 ga hududni egallaydi (8-rasm)

Kenroku-en "olti elementli bog' degan ma'noni anglatib,bog'ning yaratilishida asos bo'lgan olti tamoilni (soddalik,sokinlik, panoram ko'rinishga ega bo'lish, qadimiylik, suv oqimiga ega bo'lish va inson qo'lining mahorati) o'zida mujassam etgan. Bog'ning deyarli markazida joylashgan Kasumiga-ike hovuzi okeanning ramzidir.. Bog'da 9 mingdan ortiq daraxtlar va 183 turga mansub gullar va o'simliklar o'sadi. Ularning aksariyatini yapon an'anaviy o'simliklar tashkil etadi. Bog' yilning har qanday faslida ham o'zining go'zalligi bilan hayratga soladi. Qishda daraxtlar qor og'irligidan sinib ketmasligi uchun arqon (kanatlar)bilan o'raladi. Kechqurun esa daraxtlar zamonaviy yoritgichlar yordamida yanada chiroy ochadi. Bahorda gilos va olxo'ri daraxtlari gullab ,yozda bog'dagi mohlar o'zining yashil rangi bilan va kuzda yapon chinorlar to'q qizil tusga kirishi bilan o'zgacha kalorit hosil etadi [6].

Kenrokuen bog'ida boshqa bog'larda uchramaydigan qadimiy favvora mavjud bo'lib, u tabiiy bosim ostida ko'tariladi.Favvora toshdan yasalgan bo'lib, sodda ko'rinishga ega. Shuningdek, bog'da yapon an'anaviy bog'ining barcha atributlari mavjud bo'lib, ularga tosh chiroqlar, tosh ko'prik va yo'laklar, xoray tog'i, choy uyi va pagodi kabilar kiradi[1] .

Daymyo bog'larining shakl-shamoili va xuxusiyati	Daymyo bog'larining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar va bog'larning vazifasi
Kayyusiki uslubida murakkab rejaviy tuzilishga ega ko'pfunksiyali bog'lar shakllangan. Ko'p funksiyali bog'larda hovuzli, irmoqli,quruq peyzajli tekis bog'lar, choy marosimi bog'lari hamda, kayyusiki turidagi bog'lar uyg'unlashadi.	Dzen-buddizm g'oyalariga asoslanmagan bo'lib, sayr uchun mo'ljallangan.
Chinorzor, bambukzor, olxo'rizorlar bog'ning alohida yacheykalarida massiv tarzda ekilgan.	Bog' landshaft dizaynida Xitoyning ta'siri bo'lgan.
Ochiq muhitli keng maysazorlar tashkil etgan.	G'arb mamlakatlarining ta'siri kamayadi.
	Meditatsiya qilish,
Bog'larning hajmi kattalashgan.	Rasmiy tashriflar o'tkazish
Hovuzlar soni 2 va undan ortiq bolgan va ular irmoqlar orqali bog'langan.	Choy marosimi o'tkazish
Bog'da ko'plab gullaydigan o'simliklar ekilgan.	Jang mashg'ulotlari o'tkazish
Bog'da hayvonlar bo'lgan Toshbaqalar oroli. Turna ini, tovuslar	

Natijalar Edo davridagi Daymyo bog'larning hajmi oldingi davrdagi bog'larga qaraganda ancha katta bo'lgan. O'sha paytda Yaponiyada 300 yaqin feodal oilalar bo'lib, ularning har birida 3 ta qarorgoh mulkga ega bo'lishi lozim edi. Ushbu, qarorgohlarning albatta, bog'lari bor bo'lgan. Bog'lar Daymyolar hayoti bilan chambarchas bog'liq edi. Bog'lar ular uchun siyosiy uchrashuvlar , muzokaralar va she'riyat bazmlarini o'tkaziladigan joy, dam olish va choy marosimini tashkillashtiradigan hamda, jang san'ati va meditatsiya qilish joyi sifatida xizmat qilgan. Bu bog'lar o'z egalarining qudratini, dunyo qarashini aks ettirib, dam olish va

syogunat rahbarini kutib olish uchun mo‘ljallangan. Biz yuqorida ko‘rib chiqqan Koraku-en, Kayraku-en va Kenroku-en bog‘larining paydo bo‘lishi yapon bog‘-park san'atining keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatdi, yapon bog‘dorchiligida yangi bosqichni belgiladi. Ushbu yapon bog‘larining durdonalari Bu bog‘larning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sayr etish uchun mo‘ljallangan kayyusiki uslubi asosida murakkab rejaviy tuzilishga egaligidir. Bog‘larda dzen-buddizmning ta'siri kamayadi. Aksariyat bog‘lardagi markaziy guruhdagi inshootlar syoin-dzukuri uslubida qurilishining amaliy sabablari bo‘lgan. Asosan yog‘ochdan qurilgan inshootlar yong‘inga uchraganida, hovuzlarning ularga yaqin joylashishi bunga yechim bo‘lgan. Hovuzlar suv ombori vazifasini ham o‘tashgan. Shuni ta'kidlash mumkinki, Edo davridagi bog‘larning ko‘pchiligi shu qatorda, Daymyo bog‘lari ham mavjud ko‘llarda, tog‘ yonbag‘irlarda qurilgan bo‘lib, bog‘ uchun sun'iy hovuzlar va tepaliklar qurish zaruriyatini bartaraf etgan. Bog‘ sayr uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosiy marshrut markaziy hovuz atrofida joylashtirilgan.Quyidagi jadvalda Daymyo bog’larining shakl-shamoili va xususiyati hamda, bog’larining shakllanishida ta’sir etuvchi omillar va bog’larning vazifasi keltirilgan.

Munozara. Daymyolar tomonidan juda ko‘plab bog‘lar qurilgan. O‘sha davrda 300 yaqin feodal oilalar bo‘lib, barchasining bog‘lari mavjud bo‘lgan. Ularga tegishli bog‘larning ko‘pchiligi saqlanib qolmagan. Faqatgina yiriklari saqlanib qolgan. Shular qatoriga Rakusyuen,Rikugien,Xama-Rikyu va Yusentey kabilarni kiritishimiz mumkin. Ushbu bog‘lar ham sayr etish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, murakkab rejaviy tuzilishga ega. Bog‘ tarkibida choy uyi, quruq bog‘,bir necha havuz va orollar bo‘lgan. Inshootlar sinden-siyon uslubida joylashtirilgan.Bu bog‘lar ham yan'anaviy yapon bog‘ modeliga xos tarzda barpo etilgan. Afsuski, barcha Daymyo bog‘larini chuqur tahlil qilish murakkab. Biz faqatgina, Daymyolar tomonidan barpo etilgan 3 ta eng mashhur va yirik bog‘larni ko‘rib chiqdik.Ushbu bog‘lar Edo davrida yapon bog‘-park san'atining gullab yashnaganidan dalolat beradi. Daymyolarga tegishli ko‘plab bog‘lar Edo davrining qulashi bilan jamoat bog‘lariga aylantirilgan. Hozirgi kunda ular madaniy tarixiy yodgorliklar bo‘lib, davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Xulosa. Edo davridagi Daymyo bog‘lar oldingi davrlardagi bog‘larning barcha o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida mujassam etganligi sabab, ko‘pfunktsional yapon bog‘i deb hisoblanadi.. Qayiqda sayr etish uchun mo‘ljallangan katta hovuzlar Xeyan, aylanma va buramali oqimlar va massiv toshlar Muromati , bog‘ manzarasidan bahramand bo‘lish uchun yopiq pavil'onlar Kamakura va Muromati, orollar va tosh ko‘priklar hamda, choy marosimi bog‘lari Momayama davri bog‘larining xususiyatlarini umumlashtirgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Edo davrida barpo etilgan Daymyo bog‘lari o‘tmishdagi bog‘larning barcha eng yaxshi yutuqlarini o‘zida mujassam etgan. O‘shbu davrda yapon bog‘ining an'anaviy modeli shakllandi. Yapon an'anaviy bog‘dorchilik san'ati yanada jonlanib, mamlakat bo‘ylab keng tarqaldi. Daymyolarning o‘z ustunligini va qudratini ko‘rsatish istagi yapon bog‘dorchiligining misli ko‘rilmagan yuksalishiga olib keldi. Bog‘larga bo‘lgan talab oshgani sabab, bog‘dorchilik kasb sifatida mashhur bo‘lgan. O’sha davrda Yaponiya uchun yangilik hisoblangan Daymyo bog’laridagi landshaft g’oyalar an’anaviy yapon modelini tashkil etib, yangi bog’larda ko’p marotaba takrorlanib kelmoqda.

References

1 Е. В. Голосова.Японский сад. История и искусство. Москва. МГУЛ, 2002

2 А. Б. Зайцев .Садов Японии прекрасные черты. Санкт-Петербург 2021

3 Голосова Е.В.: 1) Японский сад : история и искусство. М. : МГУЛ, 2002. 284 с.; 2) Проблемы формирования и становления восточноазиатских и западноевропейских садов и парков под влиянием садоводческих традиций Китая (на примере Китая, Японии и Великобритании) : автореф. дис. ... доктора сельскохоз. наук / Гл. ботан. сад им. Н.В. Цицина РАН, Моск. гос. ун-т леса. М. : 2011. 47 с

4 Nitschke G. Japanese gardens. Koln : Taschen, 2003. 240 p.

5 Yoshikawa I. Teien shokusai yogojiten. Dictionary of gardening terms. Tokyo: Inoue shoin, 2002. Jap. language

6. sayt.http://www.100roads.com/2021/08/20/kanazawa_kenrokuen

7 М. П. Згурская.Китайский и японский сад. Москва, 2009

8. Marupova, N. S., & Gulmirzaev, U. A. (2023). PRESERVING THEIR CHARACTERISTICS OF HISTORIC TOWNS AND USING THEM FOR MODERN NEEDS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 598-601.

9. Nigora, S. (2023). STUDY AND SCIENTIFIC ANALYSIS OF CONSTRUCTIVE SOLUTION OF ARCHITECTURAL ELEMENTS USED IN CULTURAL HERITAGE OBJECTS IN

10. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). ESTABLISHING AN EXEMPLARY CULTURAL AND RECREATION PARK COMPLEX. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, *2*(11), 50-54.

11. Ulugbek, T., & Marjona, K. (2024). Revitalizing Old Facades: Innovations in Facade System Installation and Preservation. Indonesian Journal of Innovation Studies, 25(1), 10-21070.

12. Khayitboevich, U. O., & Gulnoza, U. (2023). THE HISTORY OF CERAMIC DECORATIONS APPLIED TO CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(10), 210-215.

13. Abduazizovich, R. L. (2022). ANALYZING THE TOMB OF BABUR IN KABUL. American Journal of Applied Science and Technology, 2(11), 01-05.

14. Nargiza, M. (2024). ARCHITECTURE OF SHAHRUKH MIRZA'S PERIOD. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, *2*(4), 518-521.

HARMONY OF ARCHITECTURAL ENVIRONMENTS OF CULTURAL HERITAGE WITH OLD AND NEW FUNCTION

Abduraimov. SH.M.
Doc. of Phil.Architecture. Associate Professor Samarkand State University of Architecture and Construction

Annotasiya: Ushbu maqolada XIX – asr oxirida O'rta Osiyo shaharlarining rejasi o'rta asrlarda shakllangan feodal shaharlarining ark devorlari tashqarisida joylashganligi, shaharlar radial – halqa tarzidagi rus shahri qismining birgalikdagi ko'rinishidan iborat bo'lib, bu kabi shaharlarning rejaviy tuzilishi dastavval Fransiya shaharsozligida Versal misolida shakllanib, so'ngra Sankt-Peterburg, Vashington va qator boshqa shaharlar misolida qaytarilgan «uch nurli» kompozision ko'rinishga ega bo'lganligi, buning natijasida aloxida kompozitsion yadroga ega bo'lgan ikki shahar bo'lagi yuzaga kelganligi o'rganilib tahlil qilingan.

Аннотация: В этой статье план среднеазиатских городов конца XIX в., расположенный за дугообразными стенами средневековых феодальных городов, города представляют собой единый облик части русского города радиально – кольцевого типа, планировочная структура таких городов формировалась сначала во французском градостроительстве на примере Версаля, а затем была возвращена на примере Санкт – Петербурга, Вашингтона и ряда других городов "трех лучевой" было изучено и проанализировано, что композиция имеет вид, в результате чего образовались две городские части с отдельным композиционным ядром.

Abstract: In this article, the Plan of Central Asian cities of the late XIX century, located behind the arc–shaped walls of medieval feudal cities, cities represent a single appearance of a part of the Russian city of a radial –ring type, the planning structure of such cities was formed first in French urban planning using the example of Versailles, and then was returned using the example of St. Petersburg, Washington and a number of other cities "three-ray" it was studied and analyzed that the composition has the form, as a result of which two urban parts with a separate compositional core were formed.

Kalit so'zlar: Shaharsozlik, Rossiya imeriyasi, radial halqa, "eski shahar" va "yangi shahar", rus qism, yevropa uslubi, sho'rolar davri.

Ключевые слова: Градостроительство, Российская империя, радиальное кольцо, "Старый город" и "Новый город", русская часть, европейский стиль, эпоха советов.

Keywords: Urban planning, Russian Empire, radial ring, "Old Town" and "New Town", Russian part, European style, Soviet era.

Kirish. Umumshaharsozlik fani ichida eski shaharlar taraqqiyoti muammosi qadimdan mavjud bo'lib kelgan. Ammo O'rta Osiyoda jumladan, O'zbekistonda bu muammo XIX - asrning ikkinchi yarmida mintaqaning Rossiyasiya imperiyasi tomonidan mustamlaka qilganidan keyin kelib chiqdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Siyosiy, iqtisodiy shu jumladan, mafkuraviy niyatdan tamoman o'zga maqsad va dunyoqarashga ega bo'lgan xalqning kelib joylashuvi, shaharlarning aloxida hududlarida barqarorlashuvni taqozo etdi. Buning natijasida "eski shahar" va "yangi shahar" tushunchalari kelib chiqdi.

Asosiy qism. XIX – asr oxirida shaharlarning rejasi o'rta asrlarda shakllangan feodal shaharlarining ark devorlari tashqarisida joylashgan radial – halqa tarzidagi rus shahri qismining birgalikdagi ko'rinishidan iborat edi. Bulardan birinchisining kelib chiqishi karvon yo'llari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi strategik maqsad asosida shakllangan. XIX – asr oxirida O'rta Osiyo Rossiyasiya imperiyasi tasarrufiga o'tgandan so'ng ko'pchilik shaharlar shunday ikki qismga ajraladi. Bunga misol tariqasida Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona va Namangan shaharlari aynan radial-halqali tarhga ega ekanligini aytishimiz mumkin.*(1- rasm)*

Radial – halqali shahar degan termin keyinroq paydo bo'lib, Moskva shaharsozligiga qilingan muqoyasadan kelib chiqqan. Aslida O'rta Osiyoda tub shaharlar qoshida vujudga kelgan Yevropacha yangi shaharlarning ko'rinishi boshqacharoq bo'lgan.

Ular dastavval Fransiya shaharsozligida Versal misolida ko'rinib, so'ngra Sankt-Peterburg, Vashington va qator boshqa shaharlar misolida qaytarilgan "uch nurli" kompozision ko'rinishga ega bo'lgan shakldan tashkil topgan.*(2-rasm)* Bunda markaziy negizni tashkil etuvchi hukmdor saroyidan kengayib boruvchi nur tariqasidagi uch asosiy ko'cha tarqaladi. So'ngra ularni ko'ndalang tarzda joylashgan ko'chalar bo'laklarga bo'lib kvartallar tashkil topadi [1].



1-rasm. Samarqand shahrining XIX-asr oxiridagi Radial – halqali rejaviy yechimi

O'z – o'zidan ko'rinib turibdiki, aloxida kompozision yadroga ega bo'lgan ikki shahar bo'lagi yuzaga kelgan. Bu ikki mafkuraning namoyon bo'lishi edi. Shuning uchun ular xech qachon yaxlit yechimga kelolmas edi [2].

Rossiyasi imperiyasi hukumati istilo etilgan shaharlarda yangi yevropacha shahar qurish rejalari va loyihalarini ishlab chiqib, ularni o'z armiyalari va mahalliy xalq kuchi yordamida amalga oshirishga kirishadilar. Masalan, Samarqandda buning uchun eng qulay

shaharsozlik rejasi tarzida tarixiy shahardagi mavjud ark-qal'adan boshlab unga nisbatan radial-doira shaklida joylashadigan yangi shahar qurilishi amalga oshiriladi.

Yangi shaharning ko'pgina qismini albatta turar-joy binolari egallagan edi. Uylar oddiy va bir-biriga o'xshash qurilar edi. Bu davr turar-joylarini yuksak me'morchilik namunalari deb ayta olmaymiz. Turar joylar asosan bir qavatli bo'lib, xom g'ishtdan qurilgan, oddiy karniz va pilyastralar bilan bezatilgan. Devorlar qalinligi 70-100 sm. atrofida bo'lib, issiq va sovuqdan yaxshi himoyalanar edi. Issiq iqlimga moslab, uylar baland, ayvonli va yaxshi shamollatiladigan qilib qurilgan.

2-rasm. Sankt-Peterburg shahrining qaytarilgan «uch nurli» kompozision ko'rinishi

XX asr boshiga kelib turarjoy binolarini ko'cha tomondan pishiq g'isht bilan pardoz berish, pilyastr, karniz va arxivoltli ravoq shaklidagi derazalar qo'yish udumga aylandi. Bunday uylar mustahkam va monumental ko'rinishga ega edi. Shu vaqtning o'zida pishiq g'ishtdan ko'tarilgan turar-joy binolari ham paydo bo'la boshladi. Ko'chadan kirish zinopoyasi ustiga o'rnatilgan metal naqshinkorli yengil ayvonchalar binoning bezagi sifatida xizmat qilar edi. Ko'chalar kesishmasida joylashgan turarjoylar alohida bo'rttirilib, qarama-qarshi joylashgan uy bilan o'ziga xos uyg'unlashgan kompozisiyani tashkil qilar edi.

Sotsialistik jamiyat davriga kelib, shaharlar orasidagi qal'a devorlarining axamiyati yo'qoladi. 1960 yildan boshlab, industrial qurilish maydonlari paydo bo'lib, yangi turar joy rayonlari yuzaga keldi. Shaharsozlikdagi asosiy dastur funksionalizm aqidalaridan tashkil topdi. Shahar majburiy tarzda funksional bo'laklarga bo'linishi talab etildi. Bu talablar qator qurilish norma va qoidalari tarzida shakllantirildi. Ularni nazorat etuvchi qator qonun va tashkilotlar yuzaga keldi. Ma'muriy buyruqbozlik g'oyasidan kelib chiqqan davlat tuzumiga mos tushgan qurilishni boshqarish yo'sini yuzaga keldi. Buning tazyiqi ayniqsa tarixiy shaharlarda yaqqol ko'rindi. Chunki 1960 yillar boshida tipovoy loyihalarsiz har qanday qurilish ta'qiqlanishi natijasida, Samarqand Registoni yaqinidagi maktab va o'rta qavatli turarjoy binolari vujudga keldi. Keyinchalik yodgorliklarning "qo'riqlov zonasi", "muntazamlash zonasi" kabi palapartish funsional g'oya tushunchalari kelib chiqib tarixiy obidalar atrofi sayxonlikka aylandi. Samarqandda Registon, Shaxrisabz chorsusi, Buxorodagi Toqi zargarondan, Toqi telpak furushongacha bo'lgan hudud shunday ko'rinishga ega. Ularning oralariga tipovoy bolalar bog'chalari va maktablarni joylashtirishga intilish yuzaga keladi. Buyruqbozlik va dabdababozlik esa dohiylar obrazini barqarorlashtirish g'oyasini avj oldirdi. Dohiylarga haykal qo'yish harakati afsuski, Samarqandda ham keng taraqqiy topgan edi[3].

Sho'rolar davrida bino va inshootlarni bir o'qda joylashtirish tamoyili rivojlandi. Buni poytaxt Toshkent shahrida kuzatish mumkin. Toshkent shahridagi Alisher Navoiy teatri va Toshkent mehmonxonasi bir-biriga qarama – qarshi tarzda yagona kompozision o'qda joylashgan. Teatr oldidagi maydonning o'rtasida katta favvora joylashtirilgan bo'lib, ansamblni yanada to'ldirib, maydonga mikroiqlim yaratadi. Maydonni o'rab olgan daraxtlar ham soya – salqinlik bag'ishlaydi. Binolar uslubi, shakllari va ranglari bilan bir-biriga mos tushgan. Mehmonxona binosi teatr binosiga nisbatan baland bo'lsa ham o'rtadagi maydon, ko'cha va daraxtlar buni neytrallashtirgan.

Poytaxtda Beshyog'och maydonida yana bir o'ziga xos ansambl shakllangan. Bu yerda ikkita jamoat binosi ko'chaning ikki tomonida bir-biriga qaratilgan. Binolar fasadlari ustunlar bilan ishlangan bo'lib, T – shakldagi chorrahani bezab turibdi. Bu usul o'rta asrlarda shakllangan ansamblsozlikning "qo'sh" usuliga o'xshab ketadi.

Me'moriy ansambllarning hozirgi kundagi muammolari bu shaharlar maydonining kengayishi, qurilish hajmlarining oshib ketishi, me'moriy yechimlarning standartlashuvi, shahar rejaviy strukturasining o'zgarishi va odamlar hayot tarzining o'zgarishi va ko'rish tezligining oshganligi bilan belgilanadi.

Ansamblsozlik tamoyili asosida mafkuraviy va obrazli-badiiy vazifalar ham yechiladi. Shaharlar muntazam o'zgaradigan obyekt bo'lganligi uchun uning ansambllarini shakllantirishda har bir davrda muammo paydo bo'ladi. Shahar tizimida ansambllar birlashtiruvchi rolni o'ynaydi. Tabiiyki, bu muammoni yechishda nafaqat obyekt doirasidagi izlanishlar, balki me'morchilik nazariyasining boshqa obyektlarning (jamoat binolari, uslublar, kompozisiya, an'analarning ta'siri, rang, faktura, naqsh va boshqalar) hamda shaharlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari (struktura, zonalashtirish, transport yechimi, xizmat ko'rsatish infrastrukturasi, turarjoy va sanoat komplekslari va shahar markazlarining shakllanishining o'ziga xosligi) kabi muammolarni ham kompleks ravishda o'rganish zarur [4].

XX asrning o'rtalariga kelib dunyo shaharlari aholisi 10 mln va undan ortiqga o'sadi. Bu vaqtga kelib asr boshida 3 mln aholisi bo'lgan London 8,7 mln ga, 1,4 mln aholisi bo'lgan Tokio 9,67 mln ga oshadi. Asr boshida 250 000 kishiga ega bo'lgan Toshkent aholisi ham bu vaqtga kelib 1 mln dan oshib ketgan edi. Aholi sonining ortishi natijasida shaharlar hududi kengaya boradi. Shu tariqa shaharlarda uy va ishxona orasidagi masofa o'sib, ko'cha tirbandligi osha boradi. Shahar-bog'lar, yo'ldosh shaharlarning paydo bo'lishi ham asosiy shaharning kengayishini to'xtata olmadi. Jamoat va

shaxsiy transportlar sonining oshishi natijasida radial-halqasimon rejalangan shaharlardagi markazga qarab intiladigan ko‘chalar ushbu transportlar oqimini ko’tara olmay qoldi. 1 mln gacha aholisi bo‘lgan radial-halqasimon rejalangan shaharlar sxemasi 10 mln lik shaharlar uchun o’zini oqlamay qoldi [5].

XX asrning 1-yarmida Toshkent shahrining diametri 10 km dan 25 km ga oshadi. Shu tariqa o‘rtacha ishga borib kelish vaqti ham me’yordan oshib ketadi.

Toshkent shahrining birinchi qayta qurish loyihasi 1929-1933 yillarda A.Silchenkov tomonidan ishlab chiqiladi. U bu loyihani ishlab chiqishda Le Korbyuzyening Parij shahri uchun 1922 yilda loyihalagan 3 mln kishiga mo‘ljallangan ishiga tayanadi. Bu ikki loyihaning eng katta salbiy jihatlaridan biri asrlar davomida shakllanib kelgan qadimiy shahar qismini to‘liq buzib tashlanishi edi. Silchenkov loyihasida markazda 4-5 qavatli turar joylar kompleksi, Le Korbyuzye loyihasida osmono’par binolar qurilishi rejalashtirilgan. Loyihalar rejasi diagonal ko‘chalarga asoslangan. Ushbu ikki shaharning o‘xshashligi quyidagilarda ko’rinadi:

1 – ishlab chiqarish zonasi va qishloq xo’jaligi zonalarining dunyo tomonlari bo‘ylab joylashtirilganligi;

2 – shahar markazining “P”-simon (Le Korbyuzye) va taqasimon (Silchenkov) tarzda shakllantirilganligi;

3 – rombsimon-diagonal magistrallarning ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi hududini bir-biri bilan shahar markazini kesib o‘tmagan holda qulay bog’lashi [6]. Ushbu ikki loyiha ham amalga oshmagan.

Toshkent shahrida 1966 yildagi kuchli zilziladan so‘ng sobiq sovet davri shaharlari uchun transportlar klassifikasiyasi ishlab chiqiladi. Unda yer usti va yer osti temir yo‘llari, tez yurar va uzluksiz qatnov magistrallari nazarda tutilgan edi. Unda shahar markaziga yaqinroq hududlarda yer osti metrolarining shakllantirilishi, shahar ichki yo‘llarining uzluksiz qatnov magistrali (70 km/soat) sifatida, shaharni o‘rab turuvchi tashqi halqa yo‘llarini esa tez yurar magistrallari (100 km/soat) sifatida foydalanish nazarda tutilgan edi. 1977 yilda Toshkent shahri uchun 3 ta diametr yo‘nalishda metropoliten loyihalanadi. Keyinchalik shaharni Sergeli tumani bilan bog’lovchi “Sergeli” yer usti yo’nalishi ham loyihalanadi. Hozirda ushbu yo’nalishda qurilish ishlari jadal olib borilmoqda.

1943-1954 yillarda Toshkentda eski va yangi shaharlarni bog’lab turuvchi Alisher Navoiy ko’chasini qayta qurish rejasi arxitektorlar M.Bulatov va V.Smirnovlar tomonidan amalga oshiriladi. Ko’chaning eni 66 metr, uzunligi esa 3 km ni tashkil etadi. Ushbu ko’cha shaharni sharq-g’arb yo’nalishida tik kesib o’tgan. Ko’cha bo’ylab 3-qavatli turar joylar quriladi.

Bizning fikrimizcha, radial-halqasimon strukturaga asoslangan shahar markazida bunday keng yo‘lning barpo etilishi hozirgi vaqtga kelib transportga bog’liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shaharning bir chetidan qarama-qarshi tomonga harakatlanish uchun transportlar asosan eng qisqa yo‘l hisoblangan shahar markazidagi yo‘ldan foydalanishadi. Bu holat ushbu hududda tirbandliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. 1933-1937 yillarda N.Semyonova tomonidan amalga oshirilgan Toshkentning ikkinchi qayta qurish loyihasida shahar markazidagi Alisher Navoiy ko’chasi ikki km uzunlikdagi xiyobon tariqasida loyihalangan edi [7]. Lekin ushbu loyiha ham amalga oshirilmagan.

XX asr boshida shaharlarda o‘tkazilgan temir yo‘l sanoat va ishlab chiqarish hududlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu hududlar asosan temir yo‘llar bo‘ylab shakllangan edi.

XX asrning 2-yarmida shaharlarda ko‘p qavatli dominant binolar va ansambllar shakllana boshlaydi. Toshkentning eski shahar qismida Alisher Navoiy ko‘chasini g’arb tomondan yakunlab beruvchi 23-qavatli Chorsu mehmonxonasi (1983 y.) quriladi. Ushbu ko’chaga parallel ravishda o’tgan O’zbekiston ko‘chasini esa yakunlab beruvchi 20-qavatli mehmonxona binosi ham loyihalangan edi. Lekin bu bino qurilmagan. Mustaqillik yillarida uning o‘rnida “Halqaro bank” lar assosiasiyasi binosi qurilgan.

Bu vaqtlarda ko’p qavatli binolarni asosiy ko’chalar bo’ylab kompleks tarzda uyg’unlashtirib joylashtirish misollarini Toshkent shahrida ko‘plab uchratish mumkin. Masalan, O‘zbekiston ko‘chasi bo‘ylab joylashgan 1970-1987 yillar oralig’ida qurilgan 5 ta 16 qavatli ma’muriy binolar; Beruniy ko‘chasida 1971-1975 yillarda qurilgan 5 ta 9 qavatli turar-joy binolari; 1980-1984 yillarga mansub yarim aylana shaklda rejalangan Hamid Olimjon maydoni va boshqalarni aytib o‘tish mumkin. Shuningdek, bu davrda Toshkentda Mustaqillik va Halqlar do‘stligi maydonlari ham shakllanadi.

Xulosa. Shuni aytish mumkinki, o‘rganilayotgan davrda eski va yangi shahar hududlarida ham keng ko‘lamli qurilish ishlari olib boriladi. Shaharlarda ko‘chalar bo’ylab dominant binolar majmualari qad rostlaydi. Ma‘muriy va madaniy maydonlar shakllanadi. Aholi soni oshib boradi va shaharlar hududiy jihatdan kengayadi. XIX asrning 2-yarmida rivojlanishiga unchalik ham e‘tibor berilmagan tarixiy hududlar sekin-astalik bilan taraqqiy eta boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дмитриев В.М. Композиционные особенности Бухарской архитектуры. Материалы по истории и теории архитектуры Узбекистана. – М.: 1950. С. 44.

2. Ташкент (энциклопедия). – Т.: Гл. ред. Уз. Сов. Энц., 1983. – С. 194.

3. Ахмедов М.Қ. Ўзбекистон ўрта асрлар меъморчилигида меъморий ансамбллар шаклланишининг тарихий – назарий асослари. Меъморчилик фанлари докторининг диссертацияси - Т.: ТАҚИ, 1996. – Б. 17-205.

4. Ахмедов М.Қ. Ўзбекистон тарихий шаҳарларининг узвий ривожланиши ҳақида. Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши. – Т, 2007. - № 1. – Б. 8.

5. Аскаров Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. - Т.: 2014. – С. 133.

6. Аскаров Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. - Т.: 2014. – С. 96.

7. Аскаров Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. - Т.: 2014. - С. 116.

8. Nargiza, M., & Rukhshona, A. (2024). DEVELOPMENT OF A PROJECT PROPOSAL FOR RESTORATION OF NURIDDIN BASIR MAUSOLEUM LOCATED IN KOXAROY SQUARE AND INCREASE OF TOURISM POTENTIAL. *Gospodarka i Innowacje.*, *44*, 263-267.

9. Abduazizovich, R. L. (2022). ANALYZING THE TOMB OF BABUR IN KABUL. American Journal of Applied Science and Technology, 2(11), 01-05.

10. Khayitboyevich, U. O., & Dilshoda, B. (2023). ENGINEERING CONSERVATION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 517-520.

11. Ulugbek, T., & Marjona, K. (2024). Revitalizing Old Facades: Innovations in Facade System Installation and Preservation. Indonesian Journal of Innovation Studies, 25(1), 10-21070.

12. Sa'dullayeva Nigora, X. S. (2024). Stages of Formation and Application of" Gothic" Architectural Style. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *3*(2), 1004-1008.

MODERN PROBLEMS OF SAMARKAND MUSEUMS PRESENT AND FUTURE

Yuldasheva Munavar,
Associate professor of the department "Architecture"
Soliev Faridun
Senior lecturer of the department "Architecture"

Aliyev Saadin
Lecturer of the department "Architecture"
SamSACU

Abstract. The construction of New Uzbekistan is a continuation of independent national development at a new stage, with an even deeper study of our ancient and modern history, unique cultural heritage, there was a need to create a modern center of the museum of culture that would meet innovative requirements. The analysis of the existing museums of Samarkand is carried out and an assessment of its current situation is given.

Keywords: museum, culture, national traditions, history, material values, concept. cultural heritage.

With the acquisition of national independence by Uzbekistan and the prospects for further development of the country, scientists are faced with the task of radically breaking old established ideas and developing new theoretical principles for understanding spiritual and material values, searching for fundamentally new ways to update all spheres of society without exception. Historical science will have to play a decisive role in ensuring the tasks of national revival, because "self-awareness begins with knowledge of the history and traditions of the Uzbek people" [1]

As you know, large-scale democratic transformations have been carried out in our country over the past five years. The concept of the "New Uzbekistan" is becoming a reality. As the head of state and the main reformer, who is the initiator and is at the center of all these socio-political processes, what do you see as the essence of such a radical renewal? "First of all, it should be noted that any nation, any nation that has set itself the goal of building a just society, a free and prosperous life in its country, is going through a difficult and thorny path of development," President Sh.Mirziyoyev. [2]

During the period 1991-2000, the state policy towards museums was analyzed, its main priorities aimed at reviving and strengthening the ideology of national independence, the growth of the museum network, the creation of a new type of museums, the improvement of museum activities and the main difficulties that museums face to this day.

It is well known that museums, being the gene pools of culture, occupy and will occupy an important place in the life of the state and society. Since the first days of independence, conditions have been created in Uzbekistan for reliable support of the social sphere, including science, culture, and art. At the same time, the transition to a new political structure of the state, to market relations of cultural institutions, including museums, poses new challenges for them.

As the analysis of world practice shows, museums today should not wait, but actively engage in new social and economic processes. It is well known that until the 1990s, there was a general trend of loss of interest and decrease in attendance in relation to museums. Museums simply "happened" to be ideological institutions, which meant that the functional space of museum activity is, first of all, the sphere of political life.

Museums were given the role of a tool for promoting political doctrines and attitudes. If the museum followed these guidelines, then official recognition and well-being were almost guaranteed. It is no coincidence that Lenin's museums were the most prosperous in the former Soviet Union. With its collapse, the non-viability of this activity of the museum organism became obvious.

Museums are an integral part of UNESCO's cultural program, and therefore UNESCO focuses in its strategy on museums, on museum issues and their collections, which make a significant contribution to the understanding of cultural heritage, to education, as well as to the economic, social, and human development of local communities," said Jorge Espinal, head of the UNESCO Representative Office. "Museums belong to the people. And when we talk about visiting museums, we also mean studying national history and national heritage. We come to the museum not only to learn more about the past, but also to study our current state. We must take care of museums, thus demonstrating that we value history and want it to be interpreted correctly," he said.[3]

One of the main sources reflecting the true history, along with written monuments, are numerous monuments of material culture stored in museums of Uzbekistan – archeology, ethnography, numismatics, material relics of the period of independence, of which there are over one and a half million. Museums will have to play a decisive role in the cultural revival of the nation, the promotion of national ideology, strengthening national

pride and dignity in the minds of the people, strengthening the sense of loyalty to the idea of independence. The museum, as a social institution, is an effective means of historical reinterpretation of the past, analysis of the present, and reflection on the future. That is why Uzbekistan pays such great attention to the Decrees of the President and the Resolutions of the Government of Uzbekistan.

There are museums in Samarkand that were built at the end of the 18th and 19th centuries.

Figure 1. The Museum of Local Lore in Samarkand in 1981. The Archaeological Museum in Samarkand



Figure 2. Registan Chorsu Museum Samarkand Khovrenko. Winery Museum Samarkand

In different periods, the museum functioned under the following names: 1896-1911 - the Museum of the Samarkand Statistical Committee; 1911-1918 - the Samarkand City Museum; 1918-1930 - the Samarkand Regional Museum; 1930-1937 - the State Central Museum of Uzbekistan; 1937-1945 - the Samarkand Regional Museum of Local Lore; 1945-1955 - the Republican Museum of Culture of the Uzbek People; 1955-1969. - Republican Museum of the History of Culture and Art of Uzbekistan; 1969-1982 - Samarkand State Museum of the History of Culture of Uzbekistan named after A.Ikramov.

In 1982, the Samarkand United Historical, Architectural and Art Museum-Reserve was created on its basis. Today, the museum-reserve includes: Samarkand State Museum of the History of Culture of Uzbekistan; Samarkand Regional Museum of Local Lore; Museum of the History of the founding of the city of Samarkand on Afrasiab; Ulugbek Memorial Museum; Sadriddin Aini Memorial House Museum; Kattakurgan City Museum of Local Lore; Ishtykhan Museum of the History of the district; Pakhtachi Museum of the History of the district; Gur-Emir Ensemble; Bibi-Khanim Mosque; Hazrat-Khizr Mosque; Nodir Devan begi Madrasah; Khoja Daniyar Mausoleum, Abu Mansur Moturudi complex, Chor-chinor complex in Urgut district and Khazrati Dovud shrine in Aksai village of Nurabad district.

Previously, the Samarkand Museum of Culture and History was located next to the Registan, but in 2010 it was demolished, as the museum building, built in 1978 in the former Soviet Union. Therefore, the Soviet museum was moved to a new building, it is located in the railway district of the so-called turn, although no one knows about the museum itself.

The museum is very decent, although small, the collection of ancient artifacts occupies one floor in it. This building belonged to a research institute, it is not designed for the State Museum of the History and Culture of the Uzbek People. Therefore, it is necessary to find a place for a Museum within the city limits and it corresponded to its functional and planning purpose.

Figure 3. A copy of the frieze depicting musicians Buddhist images from the Kuva settlement, VII-VIII centuries. Ferghana region. from the Buddhist temple in Ayrtam, Surkhandarya, II century BC.

Currently, graduate students of the Faculty of Architecture of SamSACU are engaged in this topic.

The purpose of the thesis is to recreate the history of the development of Samarkand museums in the modern period and, against this background, identify patterns and mechanisms of functioning of museum institutions in the system of socio-economic development of territories, in search of effective approaches to using socially significant motives and incentives in the interests of improving the cultural and economic well-being of the population of Samarkand and the Samarkand region.

In the process of work, the formation of the museum business in Samarkand is revealed;

– analysis of the history of the development of Samarkand museums in the Soviet period;

– identification of the features of museum construction and museum activities at the present stage, in conditions of independence;

– identification of the main directions for improving the activities of museums, taking into account the real needs and trends in the development of society in the region;

Figure 4. These are working drawings by the author Shodmonzoda H. Facade and layout.

Conclusion. An analysis of the activities of museums shows that work in this direction needs to be carried out comprehensively, including all aspects of museum business, from the museum management system to its internal activities and external communications. In our opinion, taking into account the experience of museum construction in the advanced countries of the world, the USA, England, etc., as well as the existing domestic experience, it is advisable to develop a scientific concept for the development of museum business in Uzbekistan, as well as a program of museum activities based on the real capabilities of the state and society in its implementation. To do this, it is necessary to take advantage of the scientific and intellectual potential of the country, with the involvement of well-known architects, international experts and consultants. Given that museums in all countries of the world, as social institutions, will play an increasingly important role in the society of the 21st century, the preparation and implementation of such a scientific concept and program is vital for the country. Speaking of international experience, it should be noted that in the USA, back in 1982, a special commission on museums of the future was established, and the mission of museums in the XXI century was determined.

It took the Commission two years to determine the importance of American museums for culture, the quality of human knowledge in the 21st century and to propose recommendations aimed at meeting the current specific needs of museums, social, economic, political and scientific trends in their development that could affect their future.

To improve and create a clear museum management system using existing and accepted international standards so that it meets the requirements of the future. For the construction of museum buildings and their equipment, taking into account international standards in all respects; for the overhaul of museum buildings that need it today. The basis of state guarantees for the development of museums is state funding. [4]

Literature

1. Traditions and customs of Uzbekistan.OrexCA.com © 2003-2024.

2. Sh.M. Mirziyoyev New Uzbekistan is a country of democratic transformations, great opportunities and practical affairs.17.08.2021

3. The museum business of Uzbekistan. 2015 Information is a creative work. Cultural studies

4. Almeev R.R.V. Museums of Uzbekistan and socio-cultural prospects for their development. Abstract Tashkent 2011.

5. Nayimovna, F. N., & Nigora, S. (2023). Researching Ways to Reconstruct the Areas of Historical Objects of Old Cities in Uzbekistan. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, *2*(2), 95-98.

6. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). Amir Temur And The Architectural Decorations Of The Timurid Era Of Central Asia And Their Characteristics. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(9), 121-125.

7. Marjona, K., & Iroda, S. I. (2023). THE ESSENCE OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX IN OUR CULTURAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 662-665.

8. Khayitboevich, U. O., & Gulnoza, U. (2023). THE HISTORY OF CERAMIC DECORATIONS APPLIED TO CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(10), 210-215.

9. Abduazizovich, R. L. (2022). ANALYSIS OF HUMAYUN'S QILA-I-KUHNA MOSQUE. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(10), 269-275.

Yangi texnologiyalar, veb-resurslar, materiallar va multimedia axborot mahsulotlarining keng joriy etilishi dizayn, materialshunoslik, mashinasozlik, qayta ishlash texnologiyasi, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, shuningdek, fundamental ma'lumotga ega bo'lgan yuqori malakali fanlararo mutaxassislarga ehtiyojni yuzaga keltirdi. kasbiy muammolarni hal qilish uchun kompyuter texnologiyalari sohasida bo'lgani kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дизайн. Иллюстрированный словарь справочник / Г. Б. Минервин, В. Т.
2. Шимко, А. В. Ефимов и др.: Под общей редакцией Г. Б. Минервина и В.
3. Т. Шимко. – М.: «Архитектура-С», 2004, 288 с. ISBN 5-9647-0021-7
4. Durdona P. Development of Industrial Design Sector in Uzbekistan //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 10-12.
5. Sultanova M. F. et al. The Effect of architectural design and its dimensions on human psychology //NVEO-natural volatiles & essential oils Journal| NVEO. – 2021. – С. 1601-1610.
6. Marjona, K., & Iroda, S. I. (2023). THE ESSENCE OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX IN OUR CULTURAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 662-665.
7. Nigora, S., & Marjona, K. (2023). OZBEKISTON HUDUDIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA QOLLANILGAN ARXITEKTURAVIY ELEMENTI: SHARAFA VA MUQARNASNING QOLLANILISH VA YASALISH BOSQICHLARI. *Miasto Przyszłości*, *42*, 128-132.
8. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). ESTABLISHING AN EXEMPLARY CULTURAL AND RECREATION PARK COMPLEX. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, *2*(11), 50-54.
9. Yuldasheva, M. K., & Kamilova, M. E. (2023). ANALYSIS OF FOREIGN AND DOMESTIC EXPERIENCE IN DESIGNING HISTORICAL LOW-RISE RESIDENTIAL BUILDINGS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(3), 147-152.
10. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Резьба по дереву в Узбекистане. *Интернаука*, (2-1), 11-13.
11. Nargiza, M., & Rukhshona, A. (2024). DEVELOPMENT OF A PROJECT PROPOSAL FOR RESTORATION OF NURIDDIN BASIR MAUSOLEUM LOCATED IN KOXAROY SQUARE AND INCREASE OF TOURISM POTENTIAL. *Gospodarka i Innowacje.*, *44*, 263-267.

METHODS OF USING GREEN FENCES, CURBES, BASKETS AND ARBORETUMS IN LANDSCAPE ARCHITECTURE AND ITS ROLE IN MODERN ARCHITECTURE

Makhmatkulov Turdimurod
Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering, professor

Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich
Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering, Doctor of Philosophy in Architecture (PhD), docent

Annotatsiya: Maqolada landshaft arzitekturasi obyektlarini ko'kalamzorlashtirish alpinariya, yashil to'siqlar, bordyurlar, bosketlar va dendrariylar haqida ma'lumot berilgan bo'lib, landshaft arxitekturasi obyektining qurilishi va ulardan foydalanish loyihaviy hujjatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yashil to'siq, dekorativ, yo'lak, o'simliklar arxitekturasi, bog'-park, klumba, gulzor, to'shama, yoritgich.

Arxitektura, shaharsozlik va landshaft arxitekturasi o'zaro uzviy aloqada bo'lib, bir–biridan muhitni shakllantirishda qo'llaniladigan materiallari va vositalari bilangina farq qiladi. Har uchala soha ham kishilik jamiyatining rivojlanish tarixida umumiy bir yo'nalish va maqsadlar uchun xizmat qilgan. Landshaft arxitekturasi ham arxitektura va shaharsozlik kabi barcha tarixiy ijtimoiy bosqichlarda jamiyat ehtiyojlarini qondirib kelgan va o'z davrining badiiy madaniy va umuminsoniy yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Landshaft arxitekturasi va uning muhim tarmog'i hisoblangan bog'–parkchilik san'atining o'ziga xos yorqin xususiyati–bu ularni yaratishda qo'llaniladigan tabiiy "qurilish materiallari"dir. Bular safiga eng avvalo

o'simliklar dunyosi, suv dunyosi, yer, toshlar va umuman joy rel`efining barcha xususiyatlari kiradi. Aynan shu materiallar ochiq fazoviy muhitni shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi.

Landshaft arxitekturasi–bu kishilik jamiyatiga xos badiiy va umummadaniy merosning cheksiz va behad keng sohasidir.

Yashil to‘siqlarni asosan turli butalardan va ba’zi holatlarda past bo‘yli daraxtlardan yaratishadi. Shuningdek, dekorativ baland bo‘yli o‘simliklardan ham foydalanish mumkin.

Yashil to‘siqlar bir vaqtning o‘zida maxsus bezatilishi va boshqa o‘simliklar uchun dekorativ fon vazifalarini o‘tashi mumkin. Bu vazifalari bilan yashil to‘siqlar landshaft arxitekturasi obyekti hududlarida chiroyli ko‘rinishlar yaratilishi uchun yordam beribgina qolmay, tashrif buyuruvchilar nigohidan ba’zi bir ko‘rimsiz joylarni yashirishi ham mumkin. Bundan tashqari, yashil to‘siqlarni yo‘l va yo‘laklar yo‘nalishi bo‘yicha joylashtirib, obodonlashtirish to‘sig‘ini yaratish ham mumkin(1-rasm).



1-rasm. Yashil to’siqlarni shakllantirish sxemasi;

I-yaxlit bargli o’simliklarga shakl berilishi; a-ekilgandan keyin mayda shakl berish; b-bir yillik o’simliklarga birinchi shakl berilishi; v-ikkinchi yil ushbu o’simliklarga ikkinchi shakl berilishi; g-uchunchi yil talab qilingan shaklga keltirish; II- o’simliklarni talab qilingan shaklga keltirish.

Bog‘dorchilik san’atining daraxt va butalarga shakl berish usuli Qadimgi Rim davlatida paydo bo‘lib, san’at darajasiga o‘sib etishdi va hozirgi kungacha daraxt va butalarga shakl berilish amaliyotda qo‘llanib kelinmoqda.

O‘simliklardan yaratilgan asarlarning o‘ziga yarasha atamalari (“yashil haykallar”, “o‘simliklar arxitekturasi”) mavjud bo‘lib, Rimliklar uchun o‘z bog‘larini san’at darajasiga ko‘tarib, maqtanish urf bo‘lgan. Hozirgi kunda Yevropa tarixiy parklarida, asosan Angliya va Gollandiyada daraxt va butalarga shakl berish an’anasi davom etmoqda(2-rasm).

2-rasm. Gollandiya qal'alari xududidagi bog’-park o‘simliklar arxitekturasi.

XVIII asrlarda golland bog‘larida (lipa, tis va buk) daraxtlariga shu darajada shakl berishganki, ularning daraxtligi ham bilinmay qolgan. Hozirgi kunda daraxt va butalarga asosan: shar, kub, konus va boshqa shakllar berish urf bo‘lgan (4.12.-rasm).

Bog‘-park hududlarida qo‘llaniladigan daraxt va butalar shakllariga quyidagicha tasnif berish mumkin: baland yashil devorlar, yashil to‘siqlar, bordyurlar va alohida shakl berilgan daraxt va butalar.

Bordyurlar deganda, bu (fransuzcha so‘z) biz, odatda beton, tosh, bordyurlarini yo‘lak yoki yo‘l chetlarini chegaralovchi to‘g‘ri chiziqli, ingichka, pastqam shakllarni tushunamiz. Biroq, bordyurlar o‘simliklardan ham yaratilishi mumkin. Ular partyerlar, klumbalar, gazonlar, favvoralar chetlarini bezovchi, odatda bir-ikki qator qilib, balandligi 30-40 sm dan oshmagan, gullovchi butalar yoki o‘tli o‘simliklardan qator qilib ekilgan, yashil kompozitsiyalardir. Eni 10-50 sm dan oshmagan bordyurlar ramka yoki hoshiya deb ham ataladi. Ular partyer turidagi gulzorlar chetini hoshiya tarzida ajratib turuvchi ko‘zalgan shamshoddan ishlangan yashil shakllardir(3-rasm).



3-rasm. Yashil bordyurlarning ekilish usullari

Miksbordyerlar–aralash bordyur yoki aralash shakl berilgan kompozitsiyalardir. Miksbordyerlar tarxi, ya’ni mumtoz ko‘rinishi bu eni 2 m dan 4 m gacha shakli cho‘zinchoq bo‘lgan klumbadir. Unda o‘simliklar yarussimon shaklda joylashishadi: oldingi, ya’ni birinchi yarusda balandligi 30 sm gacha bo‘lgan o‘simliklar ekilsa, o‘rta yarusga 40 sm dan 70 sm gacha, orqa yarusga esa balandligi 80 sm dan 120-150 sm gacha bo‘lgan o‘simliklar ekiladi. Birinchi yarusi odamlar yuradigan va miksbordyerlarga nigoh tashlaydigan tomonda bo‘lishi, qolgan yaruslar bo‘yi birin-ketin o‘sib borishi kerak.

Keyingi vaqtlarda miksbordyerlarga yerkin tabiiy shakl berila boshlandi. Ayniqsa, ular to‘g‘ri handasaviy yashil shakllardan holi bo‘lishgach, yanada yerkin ko‘rinishlar ola boshladi. Miksbordyerlarni odatda guruhlar yoki maysazor ichidagi ”guldor bog‘” lar tarzida, trapetsiya, assimetrik uchburchak, stillashtirilgan kvadratlar, to‘g‘ri burchaklar yoki ovallar shaklida ekishadi.

Miksbordyerlarga ikkita asosiy talab qo‘yiladi:

- hamma tomondan yaxshi ko‘rinib turish;
- o‘z jozibadorligini va manzaraviyligini iloji boricha uzoq vaqt saqlashi kerak.

Miksbordyerlarga o‘simliklarni to‘g‘ri tanlash, ya’ni ularning gullash davri , shakli , ayniqsa barglari va gul-

larining shakli, rangi va o‘lchamlariga qarab tanlash orqali yerishiladi. Miksbordyerlarga ekish uchun bir va ko‘p yillik o‘simliklar hamda ayrim xona o‘simliklari (masalan: balьzamin, uollyera, xlorofitun xoxlatыy, setkreozit purpurnaya, agava amyerikanskaya, begoniya vechnossvetushaya, koleus gibridniy, pelargoniya plyushelistnaya, fuksiya izyashnaya) qo‘llash mumkin.

Miksbordyerlardan tuzilgan gulzorlarni suv havzalari yoniga, uyga va binolarning kirish joyiga, dam olish maydonchalari oldiga joylashtirish mumkin. Odatda, ular qirqilgan yoki yerkin o‘suvchi maysazorlar, izgorodlar, tabiiy toshlar yoki g‘ishtlardan tyerilgan tirgak devorlar foniga ekilsa, ko‘proq estetik ko‘rinishga ega bo‘ladi. Miksbordyerlar ayniqsa, maysazorlarda daraxtlar guruhi fonida ekilsa yaxshi kompozitsiya aksenti ham bo‘lishi mumkin(4-rasm).

4-rasm. Miksbordyerlardan tuzilgan gulzorlar. Amaliyotdan misol.

Bosketlar tomonlari tig‘iz o‘sgan, tartibli qirtishlangan, daraxt va butalardan shakllantirilgan, devor bilan chegaralangan xandasaviy chiziqli, atrof-muhitdan holi, yopiq yashil fazoviy muhitni tashkil etadi. Bosketlar ichida pavilyonlar, favvoralar, suv havzalari va haykallar joylashishi mumkin. Bosketlar, odatda, me'moriy bog‘ ansambli kompozitsiyasining asosiy ochiq qismlariga va xiyobonlarga yondoshgan bo‘ladi. Ayrim hollarda bosket qurilmalari uchun trelьyajdan foydalanilgan bo‘ladi.

Bosketlarning quyidagi asosiy turlari mavjud:

-yopiq bosketlar, butkul qirqilgan yashil devorlardan shakllanib, ularning ichki muhiti ko‘rinishiga sun'iy shakl berilgan daraxt va butalar joylashtiriladi va bunday muhit, odatda texnik yoki xo‘jalik ehtiyojlariga mo‘ljallanadi;

- pyerimetral tuzilgan yashil devorlardan ishlangan bosketlar, ular ichida daraxtlar joylashib, kirish joyi manzaraviy darvozalar yoki ravoqlar bilan bezatiladi. Bunday bosketlar tinch dam olish, holilashgan tarzda vaqt o‘tqazish, labirint ichida sayr qilish kabi maqsadlarga mo‘ljallanadi.

Bosketlarni shakllantirishda mayda bargli (lipa, tikanli archa, sariq akatsiya, oddiy barbaris, ko‘kimtir jimolost, turli xil boyarishniklar, yaltiroq kizilnik, tatar klyoni, tillarang smorodina) daraxtlardan foydalanish mumkin(5-rasm).

5-rasm. Daraxt va butalardan shakllantirilgan bosketlar.

Dendrariy–botanik bog‘lar yoki pitomniklar, alohida ko‘kalamzorlashtirilgan ob'yekt yoki turli xil o‘simliklar kolleksiyasi, alohida shakllantirilgan hudud. Bunday hudud, ya'ni dendrariy turli xildagi daraxt va butalarni Respublikamiz iqlim-geografik sharoitlariga moslashtirish, o‘stirish va ko‘paytirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun mo‘ljallanadi. Dendrariylar o‘simliklarning geografik, sistematik, biologik yoki ekologik belgilariga ko‘ra tashkil qilinadi, ayrim hollarda dendariylar hududiy tarkibiga sayrgoh, yo‘l-yo‘laklar va xiyobonlar ham kiritiladi(6-rasm).

6-rasm. Sochidagi dendrariy.

Shaharsozlikning biron-bir arxitekturaviy ob'yekti tabiatdan, landshaftdan ajralgan holda mavjud emas. Xulosa qilib aytganda, har bir talaba kelajakda qaysi soha bo‘yicha ishlashidan qat'iy nazar (loyihalashdami, ilmiy tashkilotdami, boshqarish tizimidami yoki pedagogik faoliyatidami) o‘zining landshaft sohasi bo‘yicha bilim darajasini oshirishi kerak.

Landshaft arxitekturasining umumiy vazifalari quyidagicha:

-vazifalariga qarab ochiq havoda odam hayotiy jarayonlari kechadigan fazoviy muhitni tashkillashtirish, tabiiy xususiyatlarini himoyalab qayta tashkillashtirish, obodonlashtirish, tashqi ashyolarning estetik ko‘rinishlarini yaxshilash.

Arxitekturaviy landshaft vazifalarini tartibga solish uchun, birinchidan ularning bosqichma-bosqichligini, bir-biriga bo‘ysunishini aniqlab, keyinchalik bu vazifalarning qonun-qoidalarini aniqlanishini va ularni yechish usullarini aniqlash uchun obyektlarni ilmiy asoslangan tipologiyasini bilishimiz zarurdir. Tipologiya –bu biror bir obyektlarni sinflarga bo‘libgina

qolmay, ularning ilmiy usuli tushunchasini, ob'yektlarning qonuniy ravishda rivojlanishini va yangi turlarining paydo bo'lishini o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Teodoronskiy V.S., Sabo E.D., Frolova V.A. Stroitelьstvo i ekspluatatsiya obyektov landshaftnoy arxitekturы.- Moskva, 2008.
2. Zalesskaya L.S., Mikulina E.M. Landshaftnaya arxitektura.- Moskva,1979.
3. Ojegov S.S., Uralov A.S., Raximov K.D. Landshaft arxiteturasi va dizayni.-Samarqand, 2004.
4. Mahmatqulov, I., & Mavlonov, M. (2023). TURAR-JOYLARNI ME'MORIY–LANDSHAFT TASHKILLASHTIRISH VA LOYIHALASHNING ZAMONAVIY AN'ANALARINI TASHKILLASHTIRISHNING ILG'OR AN'ANALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(1 Part 5), 27-31.
5. Maxmatqulov, I. T., & O'G'Li, F. U. B. (2022). Ko'p tarmoqli sport majmualarini arxitekturaviy loyihaviy yechimlarini zamonaviy shakllari. *Science and Education*, *3*(4), 361-363.
6. MAHMATQULOV, I., & ISMOILOV, B. (2023). LANDSHAFT ARXITEKTURASIDA TIRGAK DEVORLAR, ZINALAR, PANDUSLAR VA QIYALIKLARNI QO 'LLANILISHI USULLARI. *Journal of Research and Innovation*, *1*(7), 13-18.
7. Turdimurodovich, M. I., ShamshidinYalgashevich, K., & Kuchkarovich, N. B. (2023). INNOVATIVE SOLUTIONS FOR ORGANIZING THE CONSTRUCTION OF MULTIFUNCTIONAL SPORTS FACILITIES. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 37-41.
8. Nargiza, M., & Rukhshona, A. (2024). DEVELOPMENT OF A PROJECT PROPOSAL FOR RESTORATION OF NURIDDIN BASIR MAUSOLEUM LOCATED IN KOXAROY SQUARE AND INCREASE OF TOURISM POTENTIAL. *Gospodarka i Innowacje.*, *44*, 263-267.
9. Abduazizovich, R. L. (2021). THE ROLE OF BABUR IN ARCHITECTURE IN INDIA AND THE PRINCIPLES OF THE DEVELOPMENT OF THE ARCHITECTURE OF THE BABURIDS. World Bulletin of Social Sciences, 3(10), 1-3.
10. Khayitboyevich, U. O., & Dilshoda, B. (2023). ENGINEERING CONSERVATION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 517-520.
11. Marjona, K., & Iroda, S. I. (2023). THE ESSENCE OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX IN OUR CULTURAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 662-665.
12. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). Amir Temur And The Architectural Decorations Of The Timurid Era Of Central Asia And Their Characteristics. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(9), 121-125.
13. Nigora, S. (2023). STUDY AND SCIENTIFIC ANALYSIS OF CONSTRUCTIVE SOLUTION OF ARCHITECTURAL ELEMENTS USED IN CULTURAL HERITAGE OBJECTS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 602-605.

TOSHKENT TOMOSHA BINOLARINING SHAKLLANISHIDA SOVET MODERNIZIMI: ILHOM TEATR STUDIYASI VA BINOSI MISOLIDA.

Sultanova Muhayyo Faxriddin qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Toshkentda ilk teatr truppasi 1917 yilda tashkil topganidan so'ng, aynan sahna san'ati asta sekinlik bilan shahar madaniy hayotiga kirib kelishni boshladi. Aynan shu davrdan boshlab to hozirgi kunga qadar teatr san'ati jadal ravishda rivojlandi va o'zida ko'plab mahoratli aktyor va aktrisalarni yetishtirib chiqardi.

Ushbu teatr jamoasi va studiyalari ichida o'zining takrorlanmas repertuarlari bilan ajralib turuvchi, shuningdek ko'plab iqtidorli aktyorlar tarkibiga egaligi bilan o'z mahoratini yuqori darajada ko'rsata olgan Sobiq Ittifoq tarixidagi ilk professional nodavlat teatrlardan biri bu "Ilhom" teatridir.

Kalit so'zlar: *studiya, modernism, arxitektura yodgorligi, madaniy meros, improvizatsiya, inklyuziv.*

SOVIET MODERNISM IN THE FORMATION OF TASHKENT THEATERS: IN THE EXAMPLE OF ILHOM THEATER STUDIO AND BUILDING.

Sultanova. M.F
National art and design institute of named after Kamoliddin Behzod An independent researcher

Annotation. After the first theater troupe was founded in Tashkent in 1917, stage art slowly began to enter the cultural life of the city. From this period to the present day, the art of theater developed rapidly and produced many skilled actors and actresses. The "Ilhom" theater is one of the first professional non-state theaters in the history of the former Soviet Union, which is distinguished by its unique repertoire, as well as by the presence of many talented actors.

Key words: studio, modernism, architectural monument, cultural heritage, improvisation, inclusive.

"Ilhom" teatri 1976-yilda rejissyor Mark Vayl va Toshkent teatr va rassomlik institutining bir guruh bitiruvchilari tomonidan tashkil etilgan. Teatr boshidanoq bir-birini sezgir eshitadigan va tushunadigan erkin improvizatsiya qiluvchi yakkaxonlardan iborat ansambl sifatida shakllandi.

"Ilhom" teatri hamisha o'zini Toshkent teatri – shahardagi teatr sifatida tanitib kelgan, aynan shaharda turli shevalar yangraydi, shuning uchun teatr studiyasi sahnasida ham rus, ham o'zbek nutqi bir vaqtda eshitiladi. Teatr repertuarining "Baxtli tilanchilar" kabi teatr tomoshasi qahramonlari epizodlarni namoyish etishda

kamida to'rt tilda rus, o'zbek, italyan va yahudiy tilida gaplashishganligi buning yaqqol na'munasidir.

Teatr hayotida 2007-yil 7-sentabrdagi fojiali voqea – teatr direktori va asoschisi Mark Yakovlevich Vayl vafotidan so'ng " o'zining ijodiy hayotining to'rtinchi bosqichini boshlandi. Keyinchalik ushbu teatr marhum director va asoschi xotirasiga "Ilhom" Mark Vayl teatri deb atala boshlanib, unga Boris G'ofurov badiiy rahbar etib tayinlandi.

O'zining ajoyib mahorati va repertuari bilan diqqatga tushgan Mark Vayl nomidagi "Ilhom" teatri 2011-yilda Niderlandiya Qirollik jamg'armasining Shahzoda Klaus mukofoti bilan taqdirlandi. Mukofot jamiyatning madaniy va ijtimoiy rivojlanishi sohasidagi ulkan yutuqlari uchun shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga topshiriladi. Xalqaro hay'at "Ilhom" teatriga "Yuqori teatr mahorati, zamonaviy teatr shakllarining klassik teatr maktabi, ko'cha teatri an'analari va improvizatsiyasi bilan noyob uyg'unligi uchun" mukofotini berdi.

O'tgan yillar davomida "Ilhom" teatri spektakllari Avstriya, Bolgariya, Germaniya, Italiya, Gollandiya, Daniya, Norvegiya, Irlandiya, Yugoslaviya, AQSh, Rossiya, Yaponiya kabi 22 davlatda o'tkazilgan 35 dan ortiq xalqaro teatr festivallarida namoyish etildi.

Teatr o'zining bir -biridan ajoyib repertuarlaridan tashqari, teatr studiyasi tashkil etilgan va joylashgan binoning madaniy qiymati ham yuqoriligi bilan ajralib turadi. [1]

Bu Toshkent shahrining madaniy merosi va aynan Toshkent modernizimi haqida ham ma'lumot bera oluvchi sovet modernistik ruhida loyihalangan va davr ruhini aks ettiruvchi bino hamdir. Mark Vayl teatr studiyasini tashkil etgan ushbu bino Sovet modernizmining asosiy me'morlaridan biri ***Richard Bleese*** tomonidan qurilgan, 1960-yillar va 1970-yillarning ajoyib me'moriy yodgorligining barcha belgilariga ega ekanligi bilan ham alohida ahamiyatlidir.

Uzoq vaqt davomida sovet modernizmi G'arbda katta qiziqish uyg'otganiga qaramay, arxitektura tanqidchilari tomonidan tan olinmadi. Buning asosiy sababi qilib binolarning yomon saqlanishi ko'rsatildi.

1-rasm. Richard Bleese tomonidan loyilangan "Ilhom" teatri joylashgan bino.

Toshkentd ***Richard Bleese*** tominidan loyilangan binolardan faqat ikkitasigina saqlanib qolgan va ana shu binolaridan biri ham aynan "Ilhom" teatri joylashgan binodir. Teatr binosining devorlari moddiy madaniyat yodgorligi sifatida Yoshlar uyining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu devorlar 70-yillardan beri sovet, o'zbek va Toshkent madaniyatining o'ziga xos belgisi bo'lib kelgan toshkentliklar, shuningdek, shaharning ko'plab mehmonlarining umumiy xotirasini o'ziga singdiradi. Binolarining o'ziga xosligi bu bino devorlaridagi tarixiy xususiyatini Rim forumlari yoki yunon agoralari qoldiqlari o'zida aks ettirilganligida hamdir. [3]

Teatr studiyasi va u joylashgan bino nomoddiy meros yodgorligidir, chunki ushbu teatr u yerda 45 yildan beri mavjud. Shaharliklarning o'z tashabbusi va qo'llari bilan yaratilgan shahar madaniyatining noyob ijod namunasi sifatida u allaqachon nomoddiy madaniy meros ob'ektiga aylangan bo'lib, uning ahamiyati Yoshlar uyida joylashgani bilan yanada ortib bormoqda.

"Ilhom" tarixi faqat teatr tarixi bilan cheklanib qolmaydi. Teatr joylashgan binoning o'zi va interyeri ham paydo bo'lgan paytdan boshlab, yangi yo'nalishda ekanligini ko'rsatib bera oladi. Binoga asosiy kirish qismidan kassa orqali o'tib borishda, uning foye qismidagi galereya ayniqsa ko'plab san'at ihlosmandlarini e'tiborini tortdi: rassomlar, me'morlar va musiqachilarning ushbu binoga tashrifi kun sayin ortib bordi va ko'rgazmalar o'tkazishga bo'lgan hohish ham paydo bo'la boshladi. Shunigdek teatrning asosiy zaliga uzun yerto'la orqali o'tib borishda va Foye devorlarida bir qancha mashxur insonlar va mehmonlarning yodgorlik imzolari bugungi kungacha saqlanib qolgan.



2-rasm. Teatr studiyaning foye-galereya qismi.

Bino foye qismi interyerida galereyadan tashqari kichik buffet ham joylashgan bo'lib, teatr tomoshasiga kelgan mehmonlarga kutish vaqtida qisqa muddatli tanovul qilishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Bino dizayni sovet modernizimi uslubida deb tan olingan bo'lsada, studiya foyesida bu uslubning faqatgina ma'lum bir elementlarini ko'rish mumkun. Foye qismi dizayni asosan Undegraund va burtualizm uslublari elementlari bilan boyitilgan. Buning misoli sifatida teatr foye qismi shiftlarini ham ko'rish mumkin. Binoda noodatiylikni va uslubning umumiyligini taminlash maqsadida ortiqcha bezaklar bilan boyitilmagan va yorug'likni ta'minlash maqsadida faqatgina mahsus projektr-chiroqlar o'rnatilgan. Shiftning to'q qora rangdaligi esa ana shu chiroqlar ta'sirida ortiqcha noqulaylik tug'dirmaydi. Aksincha shiftdagi to'qlik va chiroqlar kombinatsiyasi devorlarda joylashgan rang tasvir asarlariga yanada e'tibor qaratish uchun hizmat qilmoqda. Bundan tashqari elementlar zamonaviylikni aks ettirmasligi uchun, unga qo'shimcha dekor sifatida foyedan keyingi zalga bog'lovchi kalidorlari devorlarida o'zbek milliy naqshlaridan foydalanib yaratilgan gipsli naqqoshlik pannolari joylashtirilgan. [5]



3-rasm. Teatr zaliga o'tish yo'lagi.

Yuqorida aytib o'tilgan mashxur insonlar va mehmonlarning yodgorlik imzolari ham shu yo'lak qismidagi pardevorlarda saqlanib qolingan.



4-rasm. Teatr zaliga o'tish yo'laklaridagi yozuv va imzolar.

Yo'lakning asosiy devorlari kulrang rangda bo'lsa, undagi pardevorlar asosiy tarkibi betondan va yuzalari marmar bloklar bilan qoplangan. Aynan shu marmar bloklar yozuv va imzolar uchun qog'oz vazifasini o'tagan. Bunday pardevorlar yo'lak bo'ylab har 3 metrda joylashgan va bu orqali yo'laklar mahsus yarim ochiq honalarga bo'lingan. [2]

Teatr joylashgan bino interyeriga kirib borgan har bir mehmon undagi san'at muhitini his qilmay qolmaydi. Foye, undagi galereya va teatr zaliga bog'lovchi yo'lak interyerlari teatr tomoshasiga kelgan mehmonlarni o'zining qiziqarli va noodatiy interyeri bilan ham qiziqtira oladi. Bir vaqtda ham zamonaviy ham sovet muhitini o'zida saqlab qolgan teatr binosi bugungi kunda ham ko'plab me'mor va dizaynerlar diqqat markazidadir. [7,8]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

[1] ":Замечательный ансамбль из Узбекистана, слывший в брежневское время "диссидентским", не идет проторенной дорогой:" (Medien-Spigel, Recklinghauser Zeitung, 24.06.1996).- http://www.silk.org/cgi-bin/russian.pl/ilkhom/digest_k.htm.

[2] Обшественное мнение. №1, 1998, с.97 [3] М.Вайль. Тени прошлого - на сцене и в жизни // Литературная газета. №37, 10.09.1997

[3] Описание этого игрового принципа народного театра я нашел в диссертации театроведа С.Гулямовой "Маска как театральная проблема культуры", рукопись которой находится в библиотеке НИИ Академии Художеств Узбекистана

[4] Sultanova, M., Tabibov, A., Xalilov, I., Valijonov, T., & Abdukarimov, B. . (2023). Principles of the formation of theater buildings and performances of the 15th - 17th centuries. *SPAST Abstracts*, *2*(02). Retrieved from https://spast.org/techrep/article/view/4502

[5] Sultanova Muhayyo Fahriddinovna THE FORMATION OF ART AND ARCHITECTURE OF THE ANCIENT PERIOD // European Journal of Arts. 2023. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/the-formation-of-art-and-architecture-of-the-ancient-period (дата обращения: 29.02.2024).

[6] Sultanova M. F. The Significance of the Stylistic Solution of Tashkent Cultural and Educational Theater Buildings in Modern Design //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress.

[7] Muhayyo S. TOSHKENT MADANIY-MA 'RIFIY TOMOSHA BINOLARI USLUBIY YECHIMINING ZAMONAVIY DIZAYNDAGI AHAMIYATI //PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION (SCIENTIFIC TECHNICAL JOURNAL). – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 731-733.

[8] kizi Sultanova M. F. The role of tour bases in the development of tourism in Uzbekistan //International Scientific and Current Research Conferences. – 2021. – С. 1-5.

SHER TASVIRI MUAMMOSI HAQIDA

Razikberdiyev Murtazo Ismaildjanovich
Kamoliddin Behzod nomli Milliy dizayn va rassomlik instituti, "Dizayn" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Bu maqolada so`z asosan "Sherdor" madrasasidan tashqari yana qaysi shaharda va qaysi madrasaga "Sherdor" nomi qo`yilganligi to`g`risida boradi. Chunki o`sha davrlarda va ayniqsa XIX-XX asrlarda shu haqida gap tarqalgan. Va bu to`g`risida olimlarning o`z ilmiy fikrlari ya`ni bunday Bino borligi to`g`risida aniq fikrlar bo`lganligi so`z boradi.

Kalit so'zlar: Sherdor, me`mor, Samariya, yodgorlik, ohu, tadqiqotchi, ijodkor, san`at, muxarrir.

ABOUT THE LION IMAGE PROBLEM

Razikberdiyev Murtazo Ismaildjanovich
National Institute of art and design Named after Kamoliddin Behzod, Associate professor of the "Design" department

Annotation: In this article, besides the "Sherdar" madrasa, in which city and which madrasa was given the name "Sherdar". Because in those times and especially in the 19th and 20th centuries, it was talked about. And it is said that the scientists had their own scientific opinions, that is, they had clear opinions about the existence of such a building.

Key words: Sherdar, architect, Samaria, monument, ohu, researcher, creator, art, editor.

Bundan bir necha yil muqaddam Samarqandda ikkita Sherdor madrasasi bor desa hech kim ishonmasligi tabiiy hol edi. Chunki bu nomdagi madrasa faqat bitta ekanligi ma`lum edi. Axir shahardagi me`moriy yodgorliklar dovrug`i dunyoga ketgan va ular haqida ko`p kitoblar chop etilgan. Me`morlik va san`at tarixiga oid juda ko`p katta-kichik risolalarda ham mashxur yodgorliklar qatoriga albatta Sherdor madrasasi haqida ham ma`lumotlar topish mumkin. Lekin shaharda yana boshqa Sherdor madrasa bo`lganligi, hatto 90-yillarda ham mavjutligi xabari hayoliy uydirmadek tuyilar edi.

Samarqandlik olim Abu Tohirxo`ja XIX-asrning 30-yillarida yozgan "Samariya" kitobida Sherdor madrasa peshtog`idagi tasvirlarni bir oz boshqacha talqin qiladi. U tasvir mazmunini musulmon astrologiyasida keng tarqalgan osmondagi yulduz burjlari bilan bog`lab ta`riflaydi. Abu Tohirxo`janing aytishicha, xurshid-quyosh shakli sher burji (yulduzlar turkumi) bilan qo`shilib ketgan: ohuni tutmoqchi bo`lgan sher hamlasini quyosh nurlarining tig`i qaytarmoqda. Go`yoki nur-ziyo ofatni daf etmoqda. [1]

Har holda ijodkorlar chuqur goyaviy fikirli ramziy taxlitda berishgani ko`rinib turibdi. lekin hozirda tasvirning talqini haqida boshqa biror aniq tarixiy ma`lumotga ega emasmiz. Xo`sh Sherdor madrasadagi kabi ulkan tasvirlar bashqa imoratlarda ham bo`lganmi? Xa bo`lganligi extimoli bo`lgan.

Endi tadqiqotchilar e`tiboridan chetda qolgan bir Sherdor madrasa borligi haqidagi tarixiy faktlarga e`tiboringizni jalb etamiz.

"Samariya" kitobini rus tiliga tarjima qilgan V.L.Vyatkin, kitobning tojik tilidagi matnini chop ettirgan N.I.Veselovskiy va bu asar haqida tadqiqot olib borgan olimlar Abu Tohirxo`janing uch so`zdan iborat kichik bir izohiga nimagadir e`tibor berishmagan ekan. Muxarrir shahar tashqarisidagi Nodir Devonbegi madrasasi nomi bilan tanilgan imorat (1630-1635) haqida so`z boshlar ekan, uni "Madrasai Sherdori berun", ya`ni "Tashqi Sherdor madrasa" nomi bilan mashhur deb ta`riflaydi. Demak, Samarqand tashqarisida joylashgan Nodir Devonbegi madrasaning ham ikkinchi nomi bo`lgan va bu "Sherdor madrasa" deb atalgan. Nima uchun madrasa bunday nom bilan mashhur bo`lgan va bu haqda ilmiy kitoblarda biror xabar yo`q? Chamasi, bu savolga Abu Tohirxo`janing qisqa izohiga isbot topilmagani, bu haqdagi ma`lumotlar xalq orasida butunlay unit bo`lib ketgani uchun ham biror javob topilmagan.[2]

Abu Tohirxo`ja e`tirof etishicha, u Samarqand yodgorliklari tarixini yozish davomida ko`p tarixiy manbaa va qo`lyozmalarni o`qib, har bir binoni sinchiklab ko`rib chiqqan. Demak u Nodir Devonbegi madrasasini ham o`rgangan, undagi tarixiy yozuvlardan foydalangan. Lekin tarixni nima uchundir binoning tashqi Sherdor madrasa deb atalishi haqida biron-bir ma`lumot bermaydi. Abu Tohirxo`ja davrida bu masala ochiq-oydin bo`lganligiga shubxa yo`q deb o`ylaymiz.

Tashqi Sherdor jumbog`ining javobini faqat bir tarixiy hujjatdan topishga muyassar bo`lindi. U Mirzo Barot Mulla Qosim o`g`lining "Samariya" kitobi asosidagi o`zbekcha maqolasidir.

"Turkiston viloyatining gazeti" ning 1884 yil 26 may sonida "Samarqand firdabcmonandning bayoni" nomi bilan e`lon qilingan maqolada Nodir Devonbegi madrasasi ta`riflanar ekan, mazkur madrasaning binosi, imorati, peshtog`i misli madrasai Sherdori Yalangto`shdayin, den o`xshatiladi. "Mazkur madrasaning peshtog`ida ikki adad kiyikning suvrati va ikki adad sherning suvrati koshin bilan naqshinkor bezatilgan", deb dalolat beradi. Demak, Mirza Barot Nodir Devonbegi madrasasi peshtog`idagi sher kiyik tasvirlarini ko`rgan, o`sha davrda koshinkor bezaklar ancha butun va shakli aniq koringan bo`lishi kerak.[3]

[1] [2] [3] P.SH.Zohidov "Me`mor olami" Qomuslar bosh tahririyati Toshkent

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.SH.Zohidov "Me`mor olami" Qomuslar bosh tahririyati Toshkent
2. МИНИСТЕРСТВО КУЛЬТУРЫ УЗБЕКСКОЙ ССР ОРДЕНА ДРУЖБЫ НАРОДОВ ИНСТИТУТ ИСКУССТВОЗНАНИЯ им. ХАМЗЫ ХАКИМЗАДЕ НИЯЗИ., Л.Ю.Маньковская, ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЗОДЧЕСТВА СРЕДНЕЙ АЗИИ (IX-начало XX в.) Ташкент Издательство "Фан" Узбекской ССР 1980.
3. АКАДЕМИЯ НАУК СССР ОРДЕНА ТРУДОВОГО КРАСНОГО ЗНАМЕНИ ИНСТИТУТ АРХЕОЛОГИИ., А. М. Беленицкий, И. Б. Бентович, О. Г. Большаков., «СРЕДНЕВЕКОВЫЙ ГОРОД СРЕДНЕЙ АЗИИ»., издательство «НАУКА» ленинградское отделение ЛЕНИНГРАД-1973.
4. Ismaildjanovich, R. M. (2021). The place of landscape architecture, traditional landscape and horticulture in urban planning.
5. Razikberdiev, M. (2023). On the Use of Foreign Experiences in Preserving the Historical Parts of Cities. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, *4*(9), 41-46. Retrieved from https://cajad.centralasianstudies.org/index.php/CAJAD/article/view/412
More Citation Formats
6. Mukaddas, I., Nilufar, M., Abduvaris, T., Yashnar, M., & Murtaza, R. (2021). Creating an Architectural Environment for Unemployed People with Disabilities in Uzbekistan. *Design Engineering*, 12165-12172.

ILK RESTORNALARNING PAYDO BO'LISHI VA INTERYERLARDA DIZAYNNING RIVOJLANISHI.

Mannopova Nilufar Ravshanovna
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Dotsent, "Dizayn" kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Bugungi kunda butun dunyo tilidan tushmaydigan va odamlar hayotining ko'plab asosiy qismini o'tkazadigan "restoran" so'zi 1835 yilda Fransiya akademiyasi tomonidan tasdiqlangan. Tarixdan ma'lum-ki, birinchi restoran 1765 yilda Parijda, Rue de Poulis, hozirgi Luvr ko'chasida ochilgan bo'lib ushbu restoran hozirgi kungacha mavjud. Ushbu maqolada ham ilk restoranlar va ularning keyingi rivojlanish tarixi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: taverna, restoran, arxitektura, kompozitsiya, menyu, taom, mehmonxona.

THE EMERGENCE OF THE FIRST RESTAURANTS AND THE DEVELOPMENT OF INTERIOR DESIGN.

Mannopova Nilufar Ravshanovna
Associate Professor of the Kamoliddin Behzod National Institute of Arts and Design, Head of the Department of Design

Abstract: Today, the word "restaurant", which does not leave the language of the whole world and spends most of the main part of people's lives, was approved by the French Academy in 1835. It is known from history that the first restaurant was opened in Paris in 1765, on Rue de Poulis, now Louvre Street, and this restaurant exists to this day. This article also talks about the history of the first restaurants and their further development.

Keywords: tavern, restaurant, architecture, composition, menu, food, hotel.

Luvr ko'chasida ochilgan restoranning kirish qismi jabhasida Injilning Matto Xushxabari oyatining birinchi satrida keltirilgan: "Ey og'ir yuk ko'targanlar, mening oldimga kelinglar, men sizga tinchlik beraman,- degan iboraning restoran uchun moslashtirilgan iborasi lotinchada o'yib yozilgan bo'lib: "Venite ad me omnes qui-omacho labratis, et ego vos Restaurabo" - " Mening oldimga kelinglar, men sizning kuchingizni tiklayman" degan ma'noni anglatgan.

Didro 1767 yilda Sofi Vollandga ushbu restoran haqida yo'llagan maktubida esa shunday eslatib o'tadi: "Sizda restoranning qandayligi va ta'mi haqida tushuncha paydo bo'ldimi? Ha, albatta; cheksiz ta'm. Ular yaxshi xizmat qiladi, biroz qimmat, lekin o'z vaqtida. Bu ajoyib juda.- degan fikrlarni bildirib o'tgan.

Yozuvchi Eduard Furnier 1853-yilda nashr etilgan "Parij Demoli" kitobida restoranning kelib chiqishi haqida shunday hikoya qiladi: "U yerdan sal narida, Rue de Pulis ko'chasida 1765-yilda birinchi restoran ochilgan bo'lib, u keyinchalik Hôtel d'Aligre tomonidan qabul qilingan.

Frantsuz inqilobidan oldingi yillarda Mathurin Rose de Chantoiseau qat'iy jadvalsiz, individual stolda xizmat qilish va narxi oldindan ko'rsatilgan taomlarni tanlashning innovatsion kontseptsiyasini yaratdi. O'sha paytda Frantsiyada uydan uzoqda ovqatlanish mumkin bo'lgan yagona joy taverna yoki mehmonxona bo'lgan bir vaqtda, uning ushbu yangiligi juda tez ommalashdi.

Bunga sabab boshqa ushb u turdagi bunday muassasalar faqat bir martalik stollarni oldindan belgilanmagan narxda taklif qilishdi va odamlar faqat ma'lum vaqtlarda tashrif buyurishdi. Bundan tashqari, sifat har doim ham kafolatlanmagan. Odamlar bu joylarga taomning ta'mini qadrlash uchun emas, balki ovqatlanish uchun borishgan.

Mathurin Rose de Chantoiseau tomonidan taklif qilingan ushbu yangi ovqatlanish usuli tezda mashhurlikka erishdi. Endi odamlar faqat ovqatlanish uchun emas, balki ovqatdan zavqlanish uchun kelishdi. Ushbu taklifning mashhurlikka erishishiga yana bir omil Fransiyada noodatiy taomlar ta'mini ta'tib ko'radigan yagona odamlar Versaldagi saroy a'zolari yoki shaxsiy oshpazlari bo'lgan zodagonlar edi. [1]

Fransuz inqilobi arafasida Parijda yuzga yaqin restoran paydo bo'ldi. Mijozlar endi bu muassasalarga turli xil noodatiy taomlardan tatib ko'rish uchun borishardi.

O'sha paytdagi restoranlardagi eng katta yangilik menyu edi. Ko'pincha restoranlar noodatiy taomlarni taklif qilishardi. Ammo shunga qaramasdan restoranda taomnomani qandaydir tarzda tartibga solish va mijozlarga tanlashni osonlashtirish kerak edi va aynan shu menyuning ixtirosiga turtki berdi.

Biroq, taklif qilinayotgan taomning qisqartirilgan versiyasi bilan ham, ba'zida mijoz uni o'qish uchun uzoq vaqt talab qildi. Bundan tashqari, dastlabki kunlarda undan foydalanish ko'plab mijozlar uchun bir qancha qiyinchiliklar tug'dirdi. Ammo, boshqa tomondan, menyu, shuningdek, taomlarning tavsifi tufayli istaklar va his-tuyg'ularni uyg'otishga, shuningdek ishtahani ochishga imkon berdi. Ushbu omillar hattoki bugungi kunda ham bu funktsiyalarni saqlab qoladi. [2,3]

Antuan Bovilye, Provans grafligining sobiq shaxsiy oshpazi birinchilardan bo'lib Parijda o'z restoranini yaratish uchun saroy oshhonasini tark etdi va u 1782 yilda Pale Royal hududida, Rue ko'chasida "Richelieu" nomli o'z restoranini ochdi. Bu hashamatli muassasa tezda katta muvaffaqiyatga erishdi, chunki u o'z mijozlariga, asosan aristokratlarga Versalda taqdim etilgan taomlarni tatib ko'rishni taklif qildi. U haqiqatan ham ajoyib muhit, benuqson xizmat, go'zal interyer va mahsus idishlarda ehtiyotkorlik bilan taqdim etilgan

nafis taomlarga ega edi. Ko'p yillar davomida uning oshxonasi Parij oliy jamiyatida tengsiz bo'lib qoladi. Bu restoran, shuningdek, birinchi fransuz gastronomik restorani hisoblanadi.

Fransuz inqilobidan oldingi va keyingi yillarda zodagonlar oshhonasida faoliyat yuritgan ko'plab oshpazlar Antuan Bovilyega ergashib, o'zlarining restoranlarini ochdilar. Shunday qilib, retseptlar, marosimlar va ovqatlanish odatlaridan, shuningdek dasturxon tayyorlash san'atidan iborat sifatli oshxona aristokratiyaning shaxsiy oshxonalaridan yuqori jamiyatning umumiy oshxonalariga o'tdi.

Fransuz gastronomik oshxonasi dunyoga mashhur va hashamatli brendlari - Véry, Les Trois Frères Provençaux yoki Restaurant Le Grand Véfour kabi mashhur tarixiy restronlar bugungi kunda ham mavjud. [2]

Restoran mavzusi umuman inqilobdan oldingi Rossiyada, xususan, uning poytaxti Sankt-Peterburgda ilmiy nutqda kundalik hayotning eng kam rivojlangan jihatlaridan biridir. Restoranlar tarixi, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, chuqurroq o'rganilganda, hal qilinmagan muammoga aylandi. Buning izohini o'tmishda tadqiqotchilarga qo'yilgan cheklovlarda va inqilobdan oldingi restoran tarixini ajralmas hodisa sifatida yozishga imkon beradigan manbalarning yo'qligida ko'rish mumkin.

Sankt-Peterburgda restoranlar XVIII-asr oxirida paydo bo'lgan. Sankt-Peterburgdagi birinchi restoran egalari fransuzlar bo'lib, restoran biznesida fransuz yo'nalishining ustunligi XIX-asrning o'rtalariga qadar sezildi. XIX-asrning birinchi o'n yilliklarida restoranlar faqat ertalab va tushdan keyin ishlagan. Restorantlar yo'nalishida kechki tadbir va kechki ovqatlar u davrda mavjud bo'lmagan. Eng Birinchi restoranlarning tashrif buyuruvchilari yosh boylar, ofitserlar, rus oshxonasi va rus xizmatiga hali ko'nikmagan chet ellik sayohatchilar edi.

1821-yil 2-fevralda imperator Aleksandr I "Eng yuqori" "Sankt-Peterburg va Moskvadagi mehmonxonalar, restoranlar, qahvaxonalar, tavernalar to'g'risidagi Nizom" ni tasdiqladi. Aynan shu besh xil turdagi muassasalar Sankt-Peterburgda va tashkil etishga ruxsat berilgan edi. Restoranlar tezda jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'ldi.

1835 yil 6 fevralda Nikolay I yangi "Sankt-Peterburgdagi taverna muassasalari to'g'risidagi Nizom" ni tasdiqladi. Restoranlar, mehmonxonalar, qahvaxonalar maxsus ishlash qoidalari bilan "taverna muassasalari" ga bo'lingan. Intensiv savdo, shubhasiz, savdogarlardan dam olish va sog'lomlashtirishni talab qildi, odamlar pulni zavq bilan sarflash imkoniyatini qidirdilar - bularning barchasiga tavernalar katta hissa qo'shdi. Tavernalar XIX-asrdagi mehmonxona majmualari kabi zarur edi.

Zamonaviy ma'noda restoranlar "qandolat ustasi" Dominik Rits Aportning tashabbusi bilan paydo bo'ldi. Uning takliflariga ko'ra, 1841 yil 11 aprelda Davlat kengashida ko'rib chiqilgan. "Eng oliy" "kafe-restoran nomi bilan" yangi taverna muassasasini tashkil etdi. Ushbu yangi turdagi muassasa tavernalar, restoranlar va qahvaxonalarning o'ziga xos xususiyatlarini birlashtirdi.

Birinchi bunday kafe-restoran Dominik Ritz Aporta Невский проспекти da, Pyotr va Pol Lyuteran cherkovining uyida paydo bo'ldi, u, albatta, "Доминик" deb nomlangan. [5]

Bir qator tadqiqotlarga ko'ra, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sankt-Peterburg restoranlari o'ziga xos biznes va madaniyat markazlari, qiziqish klublari va ko'pincha "aqlli, ma'naviy muloqot orollari, zobitlar, amaldorlar, go'zal ayollar va odobli erkaklar, yozuvchilar, rassomlar, adabiyotshunoslar uchun uchrashuv joyi" bo'lgan. Restoranlar ham bir vaqtning o'zida biznes muhiti sifatida bo'lgan: "Bu yerda restoranlarda ishbilarmonlar o'rtasida millionlab bitimlar amalga oshirilgan - bir stakan shampan vinosi bunday bitimni tezlashtirishi yoki soddalashtirishi mumkin edi".

Bizning zamonamizga nazar tashlasak, shuni ko'rishimiz mumkin: "O'sha davrdagi restoran hayoti bugungidan tubdan farq qiladi. Odamlar restoranlarga - suhbatlashish, bir-birlari bilan ko'rishish, oliy darajadagi oshxona taomlaridan tatib ko'rish uchun borishgan.

Deyarli har bir restoranning o'ziga xos "yo'nalishi", doimiy mijozlari bor edi. Masalan, 1887 yilda Болшая Морскаяда ochilgan "Кюба" eng yuqori aristokratlar va ofitserlarning restorani hisoblangan, unga Buyuk Gertsoglar tashrif buyurishgan. Restoran fransuz taomlari, hashamatli dekoratsiyasi va yaxshi tayyorlangan ofitsiantlari bilan mashhur edi. Eng yirik banklar yaqinida joylashgan restoran elita uchun norasmiy birjaga aylandi. Bu yerda biznes elita vakillari uchrashib, muzokaralar olib borishdi va bitimlar tuzishdi. Ko'proq yoki kamroq tor doiradagi bunday ishbilarmonlik va do'stona uchrashuvlar uchun ko'plab restoranlarda asosiy zallar bilan bir qatorda kabinetlar mavjud edi. Birinchi marta XIX asrning o'rtalarida Sankt-Peterburgda restoranlarda kabinetlar paydo bo'ldi. [4,6]

Poytaxtda "Birja" deb nomlangan bir nechta restoranlar mavjud edi. Bu nom allaqachon uning stollarida nafaqat ovqatlanish uchun, balki savdo muzokaralari uchun ham o'tirganliklarini ko'rsatdi. Bu restoranlar shaharning qizg'in tijorat faoliyati avjida bo'lgan qismlarida joylashgan edi.

Ommalashgan restoranlar orasida "Донон" va "Контан" ham bor edi (ikkalasi ham Moskvada joylashgan). Невский проспекти dagi "Палкин" restoranining kontsert zalida gastrol davomida "JTa Skala" san'atkorlari qo'shiq kuylashdi va 1909 yildan boshlab arfachilar orkestri chiqish qildi. Ko'pgina restoranlarda musiqa yangradi. Dastlab musiqalar mehanik cholg'u asboblari yordamida musiqalar yangragan bo'lsa, keyinchalik "jonli" musiqa mashhur bo'ldi, musiqalarni orkestrlar ijro etdi.

Болшая Конюшенная dagi "Медвед" restoranida doimiy ravishda yubileylar nishonlandi, tantanali kechki ovqatlar - taniqli aktyorlar, yozuvchilar va rassomlar yubileylar sharafiga ziyofatlar uyishtirildi. 1910 yilda yozgi zali va bog'i bo'lgan Европейская mehmonxonasining beshinchi qavatida ochilgan "Криша" nomli zamonaviy restoranlardan biri hisoblangan. U yerdan shaharning go'zal manzarasi ko'rinib turar, kafe bog'ida gulzor o'tqazilib, yo'laklar yasaldi. [7]

Restoranlar orasida yana tadqiqotchilar eng mashhurlaridan biri "Вена" (Malaya Morskaya, 13) deb

atashadi. Restoranlar mehmonlar uchun turli xil o'yin-kulgilarni taklif qildi. Deyarli har birida bilyard, ba'zilarida bouling, lotto, domino, shashka, shaxmat, ba'zi muassasalarda jurnal va gazetalarning katta tanlovi bor edi. Shu bilan bir qatorda restoranlarda Qimor o'yinlari taqiqlangan.

Restoranga tashrif buyurish mijozga maksimal zavq bag'ishlashi, bayramga aylanishi kerak edi. Shu sababli ham ularda hamma narsa o'ylab topilgan - xodimlarning kiyimlari, stol choyshablari, vilkalar pichoqlari, idish-tovoqlar. Agar restoranlarda biron bir imkoniyat bo'lsa, yozda, ochiq havoda ovqatlanish uchun bog' tashkil etilgan.

Albatta, restoran muassasalarida sodir bo'lgan voqealarning ijtimoiy-madaniy kontekstini hisobga olishda davom etish mumkin, ammo ularning arxitektura va badiiy muhitni, xususan, interyerni tahlil qilish ham alohida aham iyatga egadir.

Bir qator funktsional, volumetrik va stilistik xususiyatlarga ko'ra, Sankt-Peterburg restorani muassasalarining barcha interyerlarini ikkita asosiy guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Bular "hususiy" va "eksklyuziv" turdagi muassasalardir.

Restoranlarning muayyan ob’ektlar va ularning tarkibiy qismlari - an'anaviy tarzda belgilangan "hususiy" turdagi restoranlarning interyerlarini tahlil qilish haqida to'xtaladigan bo’lsa, ularning o'ziga xosligidan dalolat beruvchi muhim tarixiy manba XX asr boshlarida nashr etilgan, shuningdek 1910 yildan 1916 yilgacha har oy nashr qilinadigan "Restoran biznesi" jurnalini ishonch bilan ko'rib chiqish mumkin. Bu yerda xizmat ko‘rsatilayotgan taomlar tavsifi, tashrif buyuruvchilarning g‘alati qiziqishlari, soliq yig‘imlari haqidagi ma’lumotlar, reklamaga qarshi kurashga oid maqolalar bilan bir qatorda, yangi ochilgan yoki rekonstruksiya qilingan restoranlar va ularning funksional va fazoviy xususiyatlariga bag‘ishlangan. [10,11]

Misol tariqasida 1912 yilda nashr etilgan "Restoran biznesi" jurnalida e’lon qilingan "hususiy" muassasalardan biri haqida ma’lumot paydo bo'lgan: "24 iyun kuni E.M. Brandin tomonidan birinchi darajali restoranning ochilishi bo'lib o'tdi." Restoran ikki qavatdan iborat bo’lib, birinchi qavat oshxona, shirinlik xonasi, bilyard xonasi va yerto'la, ikkinchi qavat - bufet, ikkita - katta va kichik zallardan iborat, shuningdek, u yerda yettita kabinet va vestibyul joylashgan. Bufet - vestibyul va bufet bilan bog’langan kvadrat xonaning yarmida joylashgan. “Xonaning asosiy rang gammasi oq rangda, shkaf va bufet peshtaxtasi, shuningdek, vestibyul kulrang-yashil rangda. Restoranning asosiy zalida tantanavorlik va nihoyatda nafislik yaqqol sezilib turadi. U "fantaziya" uslubida bezatilgan. Asosiy rang - ochiq qaymoqrang. Hamma joyda tarqalgan yashil va oltin uchqunlar samarali tarzda ajralib turadi. Zalning xonasi uzunligi bo'ylab oq rangdagi ochiq to'siq bilan murakkab naqshli tilla rang bilan ajratilgan. Zalning oxirida deyarli butun devorda orkestr uchun joy bor. Ushbu orkestr joyi zaldan maxsus panjara bilan ajratilgan va nihoyatda chiroyli ko'rinadi... Deraza va eshiklarning bezaklari og'ir peluş va ipak kambrikadan qilingan. Barcha mebellar “modern” uslubda. Butun zal juda qimmatli yangi gullar bilan bezatilgan. Parket polga ikki rangda - yashil va qora rangdagi gilamlar qoplangan. Zal elektr yorug'lik bilan to'la, yoritish moslamalari zal umumiy interyerida juda ham jozibali ko’rinish aks ettirgan. Ikkinchi zal va ofislar o’zining gigiyenik va nafisligi bilan ajralib turadi.

Jurnal tomonidan taqdim etilgan interyerning bunday tavsifi shartli ravishda belgilagan "hususiy" turdagi restoran korxonalari uchun juda xosdir.

Sankt-Peterburg restoranlarini o'z ichiga olgan restoran muassasalarining interyeri nuqtai nazaridan, muhim guruhning ichki muhitining me'moriy, badiiy va stilistik xususiyatlarini tahlil qilish natijasida "Вена" (Малая Морская 13), "Золотая Ветка" (Малоохтинский проспекти, 37), "Oltin langar" (Василевский ороли, 6-қатор, 7), Контан (Моика қирг'ог'и, 58), "Мало-Ярославетс" (Садовая, 36), "Москва" (Невский ва Владимирский проспектлари бурчаги), "Одесса" (Стремянная, 4), "Orol" (Академик ё'лак, 3-9), "Париж" (В. Волф, 11-13), "Ривиера" (Италия, 15), "Элдорадо" (Зеленинская, 45), "Сентрал" mehmonxonasidagi restoran (Гороховая, 73), "Красотка" ошхонаси (Забалканский проспект, 46), "Горсткин" тавернаси (Горсткина, 4), shuni ta'kidlashni o'rinli deb bilamizki, bu yerda tadqiqotchilar tomonidan tez-tez qayd etilgan, bir oz oldingi davrning me'moriy muhitiga xos bo'lgan holat aniq namoyon bo'ladi. Rossiya me'morchiligi tarixi tadqiqotchisi V.I. Pilyavskiy “XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan shaxslarga katta hajmdagi binolar yoqmaydi, devorlarning toza tekisliklari - bo'm-bo'sh ko'rinadi, geometrik shakllar zerikarli” deb to’g’ridan to’g’ri ta'kidlagan edi. [12,13]

Tadqiqotchining so'zlariga ko'ra: shakllarning kichik, kasrli, nafis plastikligi, bezak va naqshlarning "so'zsizligi" va kichik mashtabliligi ko’plab restoranlarga tashrif buyuruvchilar uchun juda ham ma’qul keladi.

Shuningdek tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'sha davr madaniyat tizimida shaxsiy hayot muammosi - "shaxsiy shaxs" hukmronlik qilish tendentsiyasidan dalolat beradi. Va shunga ko'ra, restavratorlarning, birinchi navbatdagi asosiy vazifasi, restoran muassasalariga tashrif buyuruvchilar uchun maksimal qulaylik bilan birga noodatiylikni yaratish istagi bo’lgan.

Hulosa qilib aytganda, Ko'rib chiqilgan binolar ichki dizayn jihatidan eng xarakterli bo'lganligi sababli, uning arxitekturasi va interyerlarini yanada chuqurroq tahlil qilish ayni muddaodir. Shuningdek bunday restoranlar o'zlarining funksional-makoniy yoki majoziy-badiiy parametrlariga ko'ra, umumiy tipologiya doirasida tasniflashga to'g'ri kelmaydi va o'z ijodkorlarining maxsus taomlarga bo'lgan istagini aks ettiradi. Uslubiy yechimlar va funksional - texnik yangiliklarni amalga oshirish, ayniqsa, bu davrda yaratilgan zamonaviylikning estetik qonunlari uchun xarakterlidir. [8,9]

Arxitektura sohasidagi tadqiqotchilar ko'pincha restoran va kafelarni bezash Yevropa me'morchiligi uchun xos bo'lgan Art Nouveau uslubini amalga oshirishning eng sevimli joylaridan biri bo'lganligini ham ta'kidlaydilar.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, restoran muassasalarining interyeri, yaratuvchilarning turli xil badiiy uslublari, o'xshash syujetlari va dekorativ naqshlari bi-

lan xilma-xil bo'lsa-da, har bir holatda ular butunlay individual bo'lib, o'ziga xos qulaylik va o'xshashlik muhitini yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Агеева Е.Ю. Феномен провинциальной культуры России в архитектурной среде середины 19 - начале 20 вв.: автореф. дис. канд. культурол. Наук / Е.Ю. Агеева.-Н-Новгород. 1999.-18с.
2. Аладов В.Н. Архитектура предприятий общественного питания для стабильных социальных структур: автореф. дис. доктора архитектуры / В.Н. Аладов: Белорусская государственная политехническая академия. - Минск. 1998.-31 с.
3. Алешина Л.С. Образы и люди Серебряного века / Л.С. Алешина, Г.Ю. Стернин. М.: Галарт, 2002. - 272 с.
4. Акимова Л.А. Социология досуга / Л.А. Акимова. М.:МГУКИ, 2003 -123 с.
5. Альманах. Памятники Отечества. №25 1992. М. 167 с.
6. Алянский Ю.Л. Увеселительные заведения старого Петербурга / Ю.Л. Алянский СПб.: Аврора, 2003. - 352 с.
7. Анализ архитектурных форм гостиницы «Москва» /А.И. Некрасов (и др.) // Академия архитектуры. 1936, - № 3. - С. 73-78
8. Арнхейм Р. Искусство и визуальное восприятие / Р. Арнхейм. М.: Прогресс, 1974. -392с.
9. Арнхейм Р. Динамика архитектурных форм / Р. Арнхейм. М.: Стройиздат, 1984.-230 с.
10. Архитекторы строители Санкт - Петербурга сер. 19 - нач 20 вв. / Б.М. Кириков (и др.). - СПб.: Пиллигрим, 1996. - 400 с.
11. https://dzen.ru/a/YQBRPx1hxxsqA_6y
I-shahar ko‘rinishidagi ishtehkomli manzilgohlar;
II – qal‘alar va qo‘rg’onlar;
III-istehkomli ibodat inshootlari;
IV-istehkomli binolar yoki harbiy qal‘alar;
V-uzun devorlar.

I. SHahar tipidagi istehkomli inshootlar-maydoni 5 gektardan 70 gektargacha bo‘lgan yirik istehkomli manzilgohlar. Bular-Ko‘zaliqir-25 gektar, Qal‘aliqir1-70 gektar, Oqshaxonqal‘a-56 gektar, Bozorqal‘a-33 gektar, Ichan qal‘a-Xiva -26 gektar, Devkesgan-20 gektar, Xazorasp-10 gektar, Tuproqqal‘a-17 gektar va h.k.

II. Qo‘rg‘onlar uch turga bo‘linadi:1) qo‘shdevorli, o‘tish yo‘lagi devor yuzasida burjlari bo‘lgan qo‘rg‘onlar (Qal‘aliqir 2, Ayozqal‘a 1, Govurqal‘a1, Karapas va h.k.), 2) qo‘shdevorli, biroq burjlari bo‘lmagan qo‘rg‘onlar (Jonbosqal‘a, Qal‘ajiq, Govurqal‘a 2, Burliqal‘a, Qoratepa va h.k.), 3)o‘tish yo‘lagi va burjlari bo‘lmagan qo‘rg‘onlar (Oqchagelin, Oqchungul va h.k.).

III. Istehkomli ibodatxona inshootlariga Qo‘yqirilganqal‘a, Xorazm viloyati Shovot tumanidagi Tuproqqal‘a va Toshxirmon kiradi.

IV. Istehkomli binolar yoki harbiy qal‘alar: Tuproqqal‘aIII, Oqtepa, Anqaqal‘a, Qizilqal‘a, Devkesgan va boshqalar.

V. Uzun devorlar: Devkesgan g‘ovi va Oqshaxonqal‘a tashqi devori uzun devorlar toifasiga kiradi va Xorazm harbiy arxetekturasida o‘ziga xos hodisa hisoblanadi.

Qadimgi Xorazm mudofaa istehkomlarida qal‘a devorlarining mudofaa xususiyatini kuchaytirish uchun boshqa usullar ham qo‘llanilgan, misol uchun devor atrofi qo‘shimcha devor bilan o‘rab olingan. Qal‘alar devorlari ba‘zan tashqaridan bir xil masofada joylashgan plyastrlar bilan beztilgan. Bundan tashqari burjlar mudofaa devorining muhim elementi hisoblangan. Mil.avv. IV-III asrlarda Xorazmda ikki turdagi burjlar keng qo‘llanilgan. Xorazm ilk shaharsozligida Ko‘zaliqir shahrida shinaklar ham mavjud bo‘lib, u paxsada birbiridan 2 metr masofada ochilgan va qavat darajasida shaxmat tartibida joylashgan. Qadimgi Xorazmning ba‘zi qal‘alarida shinakalar va tuynuklardan tashqari toqlar ham saqlanib qolgan. G'ishtlar burchak ostida yotqizilgan. Asosiy printsiplarga ko'ra yarim doira yoki ellipsoid shaklidagi gumbazlar, o'q otish uchun baland boshpanalarga ega mudofaa inshootlari tizimi, kichik boshpana devorlari, darvozalarda himoya qilish uchun "labirintlar", kvadrat yoki to'rtburchaklar minoralar qurilgan. Anqaqal‘ani bunga misol qilishimiz mumkin. 2- rasm



2- rasm

Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари



81-расм. Бурчаклар ҳимояси: a) Жонбосқалъа; b, c, i) Қўрғошинқалъа; d) Бозорқалъа; e) Оқшахонқалъа; f) Тупроққалъа; g) Анқақалъа; h) Хивадаги Туп-роққалъа; j) Катта Қирққизқалъа

3-rasm

Tipologik nuqtai nazardan, Kangyuy davrining mudofaa inshootlarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1-relyef bilan bog'langan tartibsiz tuzilishli inshootlar,

2-to'rtburchaklar

3-yumaloq tuzilishlar.

Burchak minoralari bilan himoyalanmagan mudofaa inshootlarida zaif joylar bo'lmasligi uchun qal'alar ba'zan oval yoki yumaloq shakllarda qurilgan. Ushbu turdagi sxemalar harbiy va diniy vazifalar bilan bog'liq. Masalan, Kichik qal'ada Harbiy vazifa nuqtai nazaridan Qirkkızqal'aning oval sxemasi talab qilingan. Qo‘yqrilg‘alda esa doiraviy tartib ko‘proq diniy vazifa bilan bog‘langan. Shunday qilib, ko'rinib turibdiki, qadimgi Xorazmning gullab-yashnagan davridagi shahar va aholi punktlarini rejalashtirishda ibtidoiy jamoa , qabilaviy tuzum, shuningdek, harbiy (mudofaa) yoki diniy tuzumlarga muvofiqlik belgilari vazifalar saqlanib qolgan.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Ртвеладзе Э.В. О принадлежности Амударьинского клада // Санъат. – Ташкент, 2000. – № 4. – С. 8.

2. www.ziyouz.com kutubxonasi: B ye r u n i y , O‘tgan avlodlarning yodgorliklari. qo‘lyozma, varaq 48-bet.

3. Фрай Р. Наследие Ирана. – М.: Изд-во «Восточная литература» РАН, 2002. – С. 73.

4. O‘zSSR Fanlar akademiyasi akademigi. Yahyo G'ulomov. Xorazmning sug'orilish tarixi qadimgi zamonlardan hozirgacha. 13-bet.

SIGNIFICANCE OF WATER AND IRRIGATION SYSTEM IN ANCIENT KHORAZM ARCHITECTURE.

Yunusov A.SH.
Doctoral student of Samarkand State University of Architecture and Construction (PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqola Qadimgi Xorazmning tarixi, sun'iy sug'orish tizimi, me'morchilikka qanday ta'sir etganligi, shaharlar va qal'alarning paydo bo'lishi, qo'shimcha ta'sir omillari to'g'risida bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье описывается история Древнего Хорезма, как система искусственного орошения повлияла на архитектуру, возникновение городов и крепостей, а также дополнительные факторы влияния.

Abstract: This article describes the history of Ancient Khorezm, how the artificial irrigation system influenced architecture, the emergence of cities and fortresses, as well as additional influencing factors.

Kalit so'zlar: Me'morchilik, Xorazm, sun'iy sug'orish, Amudaryo, o'zanlar, qal'a, to'g'onlar, shaharsozlik, Ko'zaliqir, antik davr.

Ключевые слова: Архитектура, Хорезм, искусственное орошение, Амударья, долины, замок, плотины, градостроительство, Козаликир, древность.

Keywords: Architecture, Khorezm, artificial irrigation, Amu Darya, valleys, castle, dams, urban planning, Kozalikir, antiquity.

Xorazm Markaziy Osiyo Turon pasttekisligi Amudaryo deltasida joylashgan tarixiy va qadimiy o'lka hisoblanadi. «Xorazm» so'zi ilk bor Avestoda uchraydi, qadimiy Eron va Turon o'lkasi o'zining boy tabiiy geografik jarayonlari bayon etilgan.[1] Markaziy Osiyoning boshqa tarixiy-madaniy hududlari orasida Xorazm o'ziga xos rivojlanish yo'li va shunga mos ravishda madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarida asosan "tabiiy sharoit bilan belgilanadigan" ayrim o`ziga xoslik bilan ajralib turadigan hudud sanaladi.[2] Atrofi unumsiz sahrolar bilan qamrab olingan Xorazm «iqlimi va tuproq sharoiti kanal va suv inshootlari yordami bilan sun'iy sug'orish sistemasini Sharq dehqonchiligining asosi qilib qo'ygan[3] ulkan Sharq hududining bir qismidir. Xorazmda dehqonchilikning yuqori madaniyati juda qadim zamonlarda sun'iy sug'orish asosida vujudga kelgan va Misr, Mesopotamiya hamda Sharqning boshqa mamlakatlari singari taraqqiy etgan.[4]

Qadimiy shaharlarning rivojlanishi sug'orish tizimiga bog'liq bo'lib, davlat birlashmalari, chegaralarining yonma-yon va bir davriga to'g'ri keladi, bunda Ahamoniylar davrini misol keltirish mumkin. Agar biz tarixga nazar tashlasak, Miloddan avvalgi IV asrda Xorazm Ahamoniylarga qaram bo`lmagan, mustaqil satraplik, Ahamoniylar shohining munosib ittifoqchisi bo`lgan. Ahamoniylar, o'z navbatida, ular bosib olgan hududlarda sug'orish ishlaridan tashqari, istehkomlar va turar-joy binolari qurish bilan ham shug'ullanganlar.[5]

Qadimgi Xorazm shaharlari daryoni hisobga olgan holda loyihalashtirilgan bo'lib, ularda ko'pincha yillik suv toshqini bilan kurashish uchun mukammal sug'orish tizimlari bo'lgan. Shaharlar me'morchiligi suv sathining davriy ko'tarilishiga moslashishi kerak edi. Amudaryoda bo'ladigan mavsumiy toshqinlarning nomlari hozirgacha saqlanib qolgan bo'lib, Xorazm irrigatorlari taqvimida baliqlarning nomi bilan (masalan, Oq baliq toshuvi), yulduzlar to'plami (Hulkar toshuvi) bog'liq bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy o'z kitobida Amudaryoning suvi iyun oyida ko'payib o'z o'zanidan chiqa boshlashini, va toshqinlar boshlanishini aniq ko'rsatib o'tgan.[7] Toshqin vaqtlarida yuqori delta chegarasida Amudaryo o'zanining kengligi 3, 5 km gacha yetgan, har ikki qirg'og'i ham yotiq toshqin vaqtida suv gorizonti yerga nisbatan 0,6-1,6 m baland ko'tarilgan. Shuning uchun har ikki qirg'oqning yoqasida baland dambalar (qochilar) qurilgan bu dambalar vohani suv bosishidan saqlagan. Hayqirib oqqan daryo suvi astasekin qirg'oqlarni yuvgan, ba'zan esa yangi sayozliklar va orollar hosil qiladi. shaharlar toshqinlar natijasida juda ko'p talofat ko'rgan va qayta tamirga muhtoj bo'lgan ba'zan butun shaharlarni yuvib ketgan, natijasida loyqa qum uyumlari ostida qolib, aholi ko'chishga majbur bo'lgan. Ko'p ming yillar davomida vohalarda yashovchi xalqlar har ikkala daryo bo'ylab bosib kelayotgan ko'chma qumlarga va suv rejimining o'zgarishiga qarshi shiddatli kurash olib borganlar. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Xorazm tarixida aholi punktlarining rivojlanishida, shaharlar harakatida suv ta'minoti va daryo oqimining o'zgarishi muhim hisoblangan. Suv resurslarini boshqarishda, yerlar va shaharlarni suv bilan ta'minlashda magistral kanallar asosiy ro'l o'ynagan, "to'g'on va sun`iy sug'orish kanallarini quruvchi jamiyatning harakatlarini yuqori darajada tashkil etilganligidan dalolat beradi.[8] Bu aholi punktlarining fazoviy tashkil etilishiga va turar-joylarga suv manbalariga yaqinligi ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi aholi punktlari daryo va kanallar yoqasida asosiy suv taqsimlovchi joyda joylashgan bo'lib, ular atrofida bir qancha shaharlar shakllanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Katta shaharlarning soni va hajmi sug'oriladigan yerlarning hajmiga va qishloq xo'jaligi salohiyatiga bog'liq bo'lgan.[9] Xorazm tarixida ko'pdan-ko'p faktorlar borki, bu faktorlar suv tarmoqlarnning zo'rlik quroliga, kuchlilarning kuchsizlar ustidan xukmdorlik qilish quroliga aylanganini ko'rsatadi. Bu haqda Geradotning hikoyalarida ham so'z yuritilgan (Geradot, 1, 202).[10] Katta ko'lamdagi Sun'iy sug'orish tizimi, shaharlar va qal'alar qurilishi ko'p qismi uchun katta xalq kuchini birlashtirishga hissa qo'shgan Markaziy Osiyo quldorligi tizimi tufayli amalga oshirilgan edi. Siyosiy tomondan qaraydigan bo'lsak, Xorazm hukumdorlarining siyosiy va harbiy tomondan asosiy ko'makchilari bu katta qabila boshliqlari va qullar egalari edi, shu tariqa Antik davr qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining gullagan davri hisoblanadi va aynan

shu davrda bu sivilizatsiyaning o‘ziga xos va hayratlanarli jihatlari va monomental binolari paydo bo‘lgan, bu jadal qurilish kuchi, katta kuchni talab qilganligi boisdan Miloddan avvalgi IV asr va Milodiy I asrda Xorazm Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida katta o‘rin egallagan qudratli davlatga aylanadi. Bu to quldorlik jamiyatining tanazzuliga qadar davom etadi. Erta antik davrda ulkan mustahkamlangan "umumiy turar-joylar" qurilmagan. Binolarning asosiy turlari - qal'a shaharlari bo'lib, ular ichida ko'plab turar-joy binolari va alohida qurilgan mustahkam uy-massivlar, qishloq aholisi uchun asosiy turar-joy turlari (Qo'yqirilganqal'a, Janbaskala va boshqalar). Uy-joylar qo‘tanlar (masalan, qo'ralar) o'rnini qishloq uy-massivlari egallagan bo'lib, bu o'sha davrda chorvachilik va dehqonchilikning iqtisodiyotdagi o'rni o'zgarganligi, ya'ni qishloq xo'jaligi yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak butun yer yuzi mintaqalarida aholi yashab rivojlanishida suvning ahamiyati katta suvsiz hayot yo‘q, va shu bilan bir qatorda yashash sharoiti va me’morchilikda ham suvning sug’orish tizimining ahamiyati kattadir. Qadimdan har bir jamoa a’zolari hoh oz bo‘lsin hoh ko‘p bo‘lsin suv va daryolar bo‘yida yashab hayot kechirishni boshlar ekan, unlarga tashqi xavfdan himoya qilish va tabiatning injiqliklaridan saqlanish uchun mustahkam himoya devorlariyu yashash uchun qulay sharoitga muhtoj bo‘lishgan.

Shu boisdan qadimgi Xorazmning ham asosiy qon tomiri bo‘lmish Amudaryo atrofida qadimiy shaharlar vujudga kelgan. Aholining ijtimoiy hayotini, qishloq xo‘jaligi uchun ham suvga bo‘lgan ehtiyoji, uni boshqarish bu yerda me’morchilik rivojlanishi shaharlarning gullab yashnashiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Asosiy o‘zanlarning o‘zgarishi, va toshqinlar natijasida aholi punktlarida hayot yanada yaxshilangan aksincha holatlarda esa bu yerlarda faqatgina eski shahar xarobalarigina qolgan.

Adabiyotlar ro‘yhati

1 http://dsr.nii.ac.jp/khiva/uz/02history.html

2 Rtveladze E.V., Alimova D.A. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi, I jild –Toshkent, 2009 y. 107

3 К. М а р к с , Британское владычество в Индии. Собр. соч., т. IX, 1933, 397-бет.

4 Научно-образовательный портал «Большая российская энциклопедия» Свидетельство о регистрации СМИ ЭЛ № ФС77-84198, выдано Федеральной службой по надзору в сфере связи, информационных технологий и массовых коммуникаций (Роскомнадзор) 15 ноября 2022 года.

5 Ртveладзе Э.В. О принадлежности Амударьинского клада // Санъат. – Ташкент, 2000. – № 4. – С. 8.

6 www.ziyouz.com kutubxonasi: B ye r u n i y , O‘tgan avlodlarning yodgorliklari. qo‘lyozma, varaq 48-bet.

7 Фрай Р. Наследие Ирана. – М.: Изд-во «Восточная литература» РАН, 2002. – С. 73.

8 O‘zSSR Fanlar akademiyasi akademigi. Yahyo G'ulomov. Xorazmning sug'orilish tarixi qadimgi zamonlardan hozirgacha. 13-bet.

9 "Закономерности и стилевые особенности архитектуры Узбекистана античного периода". - Тошкент, 2019 й.

10 https://ancientrome.ru/antlitr/t.htm?a=1269001000, M.B.Abduvaxobova. JOURNAL OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH Toshkent shahridagi Yeoju texnika instituti, 2022.1/4 2-bet

ORGANIZATION OF A MULTIFUNCTIONAL GARDEN

Khamidova Dildora Abdukhakimovna,
Abdullayeva Firuza Timurovna
Samarkand state Architectural Construction University

Анотация. В статье рассматриваются про малые архитектурные форм,которые используется в садово-паркового ландшафта, которые нередко предопределяют композиционные построения, архитектонику, общий характер зрительных впечатлений, в значительной мере функциональную структуру территории.

Anotation. The article discusses the small architectural forms that are used in the landscape landscape, which often determine the compositional structures, architectonics, the general nature of visual impressions, and to a large extent the functional structure of the territory.

Калит сўзлар: - Динамик - Статик , Кичик меъморий шакллар, рельефлар, тўсиқ деворлар, ландшафт композицияси, очиқ ҳудудлар, ландшафт элементлари, ландшафт санъати, сунъий сув ҳавзалари.

Бугунги кунда ҳудуд муҳитини янада қизиқарли, динамикли, қулай қилиш керак ва ҳудуд рекреациясини лойиҳалашда янги тенденцияларни ҳисобга олиш керак. Ҳудудлардаги дам олиш қисқа муддатли, аммо муҳим тадбирлар, масалан, мусиқа, эрталабки машқлар, фестиваллар, инсталляциялар ва бошқалар учун жой бўлади. Ҳар бир фаолият тури учун ихтисослаштирилган жойларни яратишга алтернатива доимий, мавсумий ва қисқа муддатли элементларни ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилган мослаштирилган дам олиш жойи бўлиши мумкин. Ҳозирги вақтда фойда мезони муҳим аҳамият касб этмоқда, шаҳар аҳолиси дам олиш учун фаол фаолиятни афзал кўради. Спорт, сайр, сайёҳлик маршрутлари нафақат спорт, балки янги билим ва ижобий ҳис-туйғуларни олиш воситаси сифатида ҳам кўриб чиқилади [5].

Турли материаллардан фойдаланиш хусусиятлари.

Мўжаз меъморий ва ландшафт шаклларини ишлаб чиқаришда ишлатиладиган материаллар мустаҳкамлиги, чидамлилиги, ёнғинга чидамлилиги, инсон саломатлиги учун хавфсизлиги, ишлаб чиқариш ва эксплуатациядаги меҳнаткашлик ва бошқа хусусиятлар билан сезиларли даражада

фарқланади. 1-жадвалда мўжаз меъморий ва ландшафт шаклларини яратиш учун ишлатиладиган турли материалларнинг хусусиятлари кўрсатилган.

Дизайн объектларининг таркибий қисмлари, мўжаз меъморий шакллар мажмуасини киритиш билан уйғун ҳудуд муҳити шаклланади. Ушбу компонентларнинг малакали комбинацияси ҳудуднинг дам олиш жойларининг юқори сифатли, тушунарли қиёфасини яратишга имкон беради.

Ҳудудлар рекреациясини моделлаштиришнинг асосий тамойилларига асосланиб, мавжуд техникаларни янада таҳлил қилиш, шунингдек, уларни бирлаштириш ва янги ижодий ечимлар вариантларини излаш мумкин. Инсон ҳаётининг турли жабҳаларини бадиий ривожлантириш учун маконни кенгайтиришга, жамиятнинг кўплаб соҳаларида бадиий ва техник ижод маҳсулларини жорий этишга ҳисса қўшган ҳолда, дизайн нафақат моддий, балки одамларнинг маънавий (шу жумладан эстетик) эҳтиёжларини қондиришга хизмат қилади. Шундай қилиб, у инсон маънавий маданиятининг турли жиҳатларини шакллантириш ва юксалтиришга ҳисса қўшади: эстетик қадриятлар йўналишлари, эстетик ва бадиий дид, ижтимоий-маданий муносабатларни инсонпарварлаштириш, услуб қадриятлари ва одамларнинг турмуш тарзи [5].



Мўжаз меъморий ва ландшафт шаклларини ишлаб чиқаришда турли материаллардан фойдаланиш хусусиятлари

Материаллар	Материалларнинг қадр-қиммати	Материалларнинг камчиликлари
Ёғоч	Етарли даражада мустаҳкам, нисбатан паст ўзига хос вазн, ишлов бериш қулайлиги, табиий ландшафтга яхши композицион мувофиқлик	Мўртлик, ишлаб чиқаришдаги меҳнат сарфи юқорилиги, ёнғин хавфи
Табиий тош	Юқори даражада мустаҳкам, табиий ландшафт билан яхши композицион мувофиқлик	Ишлов беришда меҳнат сарфи юқорилиги
Ғишт	Пластик ва эстетик жиҳатдан ифодали шаклларни яратиш қобилияти	Паст совуққа чидамлилиги, нисбатан паст мустаҳкамлиги, ишлаб чиқаришдаги меҳнат сарфи юқорилиги
Бетон	Чидамлилик, пластик ва эстетик жиҳатдан ифодали шаклларни яратиш қобилияти	Юқори материал истеъмоли, ишлаб чиқаришдаги меҳнат сарфи юқорилиги
Темир-бетон	Чидамлилик, пластик ва эстетик жиҳатдан ифодали шаклларни яратиш қобилияти, саноат ишлаб чиқариш усулларидан фойдаланиш имконияти	Юқори материал истеъмоли, ишлаб чиқаришдаги меҳнат сарфи юқорилиги
Пўлат	Юқори мустаҳкамлик, саноат ишлаб чиқариш усулларидан фойдаланиш қобилияти	Нисбатан юқори нарх, коррозияга чидамсизлиги
Алюминий	Юқори мустаҳкамлик, енгиллик, саноат ишлаб чиқариш усулларидан фойдаланиш имконияти	Юқори нарх
Пластмасса	Пластик ва эстетик жиҳатдан ифодали шаклларни яратиш қобилияти, енгиллик, саноат ишлаб чиқариш усулларидан фойдаланиш имконияти	Пластмасса турларининг токсиклиги ва ёнғинга хавфлилиги, нисбатан паст мустаҳкамлик

Хулоса. Шаҳар муҳити одамларга нисбатан тажовузкор. Дизайнерлар ва архитекторларнинг вазифаси мўжаз меъморий шакллар, табиий ва сунъий яшил майдонлардан фойдаланиш орқали шаҳарнинг функционал ва фазовий тизимини мувозанатлашдан иборат бўлиб, бу одамларда улар яшайдиган, ўқийдиган, меҳнат қиладиган жойларга қизиқиш уйғотади. Диссертацияда кўриб чиқилган йўналишлар ва тенденциялар дизайнерлар ҳудудда дам олишни ташкил қилишда ҳал қиладиган масалаларнинг албатта тўлиқ рўйхати эмас.

Адабиётлар руйхати

1. Хамидова Дилдора Абдухакимовна, Мустаев Бахром Баходирович
Риф парковой, ки отдыха
Харьковский автомобильно-дорожный национальный университет, 2015201

2. Развитие исторического формирования парковой культуры и отдыха
Д.А Хамидова, Б.Б Мустаев
Поколение будущего: взгляд молодых ученых-2015, 202-204

3. туристско-рекреационные системы и их роль в социально-экономическом развитии государства
Д.А. Хамидова, М.М. Хайдарова, Н. Сафарова
Будущее науки-2017, 253-275

4. Сычева, а.в. Ландшафтная архитектура : учеб. Пособие а.в. Сычева. – м., 2004. – 87 с.

5. Рахимов К.Д. Боғ–паркларни лойиҳалашнинг замонавий йўналишлари // ўқув қўлланма. –тошкент: мчж "машур пресс нашриёти", 2015. – 384б.

6. Теодоронский, в.с. Ландшафтная архитектура: учеб. Пособие / в.с. Теодоронский, и.о. Боговая. – м.: форум, 2010. – 304 с.

7. Теодоронский, в.с. Садово-парковое строительство: учебник / в.с. Теодоронский. – м.: мгул, 2008. – 336 с.

8. Nayimovna, F. N., & Nigora, S. (2023). Researching Ways to Reconstruct the Areas of Historical Objects of Old Cities in Uzbekistan. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, *2*(2), 95-98.

9. Dilrabo, K. (2023). PROBLEMS IN THE RECONSTRUCTION OF DECOR ELEMENTS OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *JOURNAL OF*

ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 633-637.

10. Ulugbek, T., & Marjona, K. (2024). Revitalizing Old Facades: Innovations in Facade System Installation and Preservation. Indonesian Journal of Innovation Studies, 25(1), 10-21070.

11. Khayitboevich, U. O., & Gulnoza, U. (2023). THE HISTORY OF CERAMIC DECORATIONS APPLIED TO CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(10), 210-215

12. Abduazizovich, R. L. (2022). ANALYZING THE TOMB OF BABUR IN KABUL. American Journal of Applied Science and Technology, 2(11), 01-05.

13. Nargiza, M. (2024). ARCHITECTURE OF SHAHRUKH MIRZA'S PERIOD. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, *2*(4), 518-521.

ZIYORAT TURIZMI VA DUNYO DINLARIDA ZIYORATNING O‘RNI

Fayzullayeva Nodira Nayimovna
arx. (PhD) dotsent v.b. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Shodiyeva Sitora
201 -ANTAYOT guruh maqistranti Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Maqolada muallif ziyorat o‘zi nima va uning dindagi o‘rni haqida to‘xtalib o‘tgan. Bugungi kunda turizmning keng rivojlangan bir davrda ziyorat turizminung boshqa tur turizmlar ichida o‘z o‘rniga egaligi haqida fikr yuritiladi. Dunyo dinlari ichida ziyoratning farqi va umumiy jihatlari haqida hamda ziyorat turizmining davlar iqtisidiyotiga ta’siri haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, ziyorat, ibodatxona, dunyo dinlari, diniy turizm, diniy makrohudud.

Abstract. In the article, the author talked about what pilgrimage is and its role in religion. Today, it is thought that pilgrimage tourism has its place among other types of tourism in a period of extensive development of tourism. Conclusions are given about the differences and common aspects of pilgrimage among world religions and the impact of pilgrimage tourism on the economy of the times.

Key words: tourism, pilgrimage, synagogue, world religions, religious tourism, religious macro-region.

Ziyorat — bu muqaddas joylarga, geografik hududlar va qabristonlarga borib muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish jarayoni hisoblanadi va bu barcha dunyo dinlarida mavjud. Bunday sayohatni amalga oshiruvchi insonlar ziyoratchi deb ataladi (lotincha “peregrinus” "begona, sargardon" degan ma’noni anglatadi).

Islom dini aqidasiga ko‘ra, aziz avliyolarning maqbaralariga ziyorat qilish uchun borganda ularning ruhlaridan madad so‘rash, hojatlar ravo qilinishi, dardlarga shifo berilishi, farzand ato etilishi kabi iltijolar noto‘g‘ri hisoblanadi. Chunki bu kabi amallarni ro‘yobga chiqarish Islom dinida faqat Allohning ixtiyorida. Ziyorat qilinuvchi shaxs payg‘ambar, avliyo yoki tariqat shayxi bo‘lishi mumkin, ulardan najot so‘rash o‘rniga haqlariga duo-i xayr qilish, sadaqa-ehson savoblarini ularning ruhlariga hadya etish Islom dinida to‘g‘ri amal hisoblanadi. Islomda shaxsga sig‘inish shirk sanaladi. Muhammad (s.a.v.) o‘zlarining bir hadisi shariflarida aytganlar: “Qabristonlarni ziyorat qilib turingizlar, zero u oxiratni eslatadi". Oxiratni eslash esa kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi”. Dunyo dinlarining har birida ziyorat qilish jarayoni bo‘lib, ular bir-biridan bajarilish amali va ziyorat geografiyasi bilan farq qiladi.

Turizm bugungi kunda eng serdaromad sohalardan biri bo’lib, BMT ma’lumotlariga ko‘ra dunyoda 200 millionga yaqin kishi ushbu sohada mehnat qiladi. Jahon iqtisodiyotida xalqaro turizmdan tushayotgan daromad 1 trillion AQSh dollaridan ko‘proqni tashkil qiladi.

Bugungi kunda dunyoda turizmning quyidagi turlari ommalashgan:

1. **Sayohat turizmi**
2. **Ziyorat turizmi**
3. **Sport turizmi**
4. **Eko turizm**
5. **Tibbiyot turim**
6. **Madaniy turizm**

Yil davomida 13 milliondan ortiq kishi Xaj safariga Makka va Madina shaharlariga borishadi. Fransiyadagi Eyfel minorasini tomosha qilish uchun 68 million sayohatchi sayohatga chiqadi. Futbol muxlislari orasida 5 million kishi o‘yinni tomosha qilish uchun boshqa davlatlarga borishadi. Davolanish maqsadida esa1 milliondan ortiq aholi chet davlatlarga chiqishadi. Ko‘rinib turibdiki barcha turizm turlari ichida ziyorat turizmi yetakchi o‘rinni egallaydi. Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab har yili 200 mln dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgohlar va o‘zlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy sayohatlarni amalga oshirmoqdalar. Statistika ma’lumotlariga qaraganda, 1 yilda 150 mln xristianlar, 45 mln musulmonlar, 40 mln buddistlar va sintoistlar, 30 mln induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat qiladilar. Bu esa ziyorat turizmi o‘z navbatida boshqa turdagi turizm turlariga qaraganda ommaviy ekanligi ko‘rsatib turibdi.

Dunyo dinlari orasida ziyorat turizmi maskanlari o‘ziga xos ziyoratgoh makonlari bo‘lib, ularga quyidagi manzillar kiradi:

Buddizm. Buddizmdagi eng muhim ziyoratgohlar Shimoliy Hindiston va Janubiy Nepalning Gang tekisliklarida, Yangi Dehli va Rajgir o‘rtasidagi mintaqada joylashgan. Bu Gautama Budda yashagan va ta’lim bergan joy va uning hayoti bilan bog‘liq asosiy ibodatxonalar. Biroq, bu yerni ziyorat qiluvchilar asosan buddizm dini vakillari va boshqa mamlakatlardan kelgan ziyoratchilarni jalb qiladigan ziyoratgoh manzillar. Qa-

dim zamonlardan beri shahar Gang daryosining muqaddas suvlariga boradigan yirik ziyorat markazi, shuningdek, hind madaniyati, fan va ta'limi markazi bo'lgan. Bu Shivaning yerdagi qarorgohi hisoblangan, u erda xudo rafiqasi Parvati bilan birga Kaylash tog'idan ko'chib o'tgan.

Yapon buddistlari va sintoistlar. Shikoku Henro ziyorat yo'li Yaponiya janubida joylashgan Sikoku orolidagi 88 ta ibodatxonadan o'tadi. Ular orasida eng mashhur ziyoratgohlardan biri bu - Tibet buddistlari - Lxasaga (Tibet) tashrif buyurishadi.

Jokhang ibodatxonasi (Xudoning uyi) Lxasaning eski qismidagi Barxor maydonida joylashgan. Bu tibetlik buddistlar uchun eng muqaddas ziyoratgohdir. Ziyoratchilar ma'bad atrofida yurishadi, bu ziyoratning bir qismidir. Tavof yo'li tibet tilida kora deb ataladi va ma'bad majmuasining burchaklarida tutatqi yoqish uchun to'rtta katta tosh qurbongoh bilan belgilanadi.

Xristian dini. Valaam Spaso-Preobrazhenskiy monastiri. Valaam oroli, Ladoga ko'li X-XI asrlarda tashkil etilgan pravoslav monastiri 1989 yilda qayta tiklangan. Bugungi kunda ziyorat xizmatining ixtiyorida oltita kema mavjud. Mavsum davomida ular 100 000 ga yaqin tashrif buyuruvchilarni o z ichiga oladi, ularning 90 foizi sayyohlardir.

Aparesida bazilikasi (Bazilika de Nossa Senhora Aparecida, Braziliya). Muqaddas Pyotr soboridan (Vatikan) keyin dunyodagi ikkinchi eng katta ibodatxona (bazilika) 1980 yilda Ioann Pavel II tomonidan muqaddas qilingan. Bazilika qadimgi cherkov yonida qurilgan bo'lib, u erda XVIII asrda baliqchilar tomonidan ushlangan Bibi Maryamning haykali saqlangan. Har yili u erga 12 million ziyoratchi boradi.

Endryusdagi Avliyo Endryu sobori xarobalari (Sent-Endryus sobori, Shotlandiya). 1158 yilda tashkil etilganidan to 1561 yilda islohotchilar tomonidan bekor qilinmaguncha, sobor Shotlandiya katolikligi va Havoriy Endryu qoldiqlariga ziyorat qilish markazi bo'lgan.

Islom dini. Musulmonlar o'zlarining asosiy ziyoratgohlari sifatida hurmat qiladigan uchta shaharga ega: Makka, Madina va Quddus. Quddus shahri nafaqat Musulmon dini vakillari balki, u bir vaqtning o'zida uchta din uchun muqaddas shahar hisoblanadi.

Shaharning rasmiy nomi - Nobel Makka. Saudiya Arabistonining g'arbiy qismida, Qizil dengiz yaqinida joylashgan. Makka qachon va kim tomonidan tashkil etilganligini aniq emas, lekin u dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biridir. Ba'zi manbalarga ko'ra, u taxminan 4 ming yil davomida mavjud va uning hujjatlarda birinchi marta faqat Qur'onda qayt etilgan. Taxminan mil.avv. V asrda bu yerda butparast arablar tomonidan hurmat qilinadigan ma'bad bo'lgan. Hududni Muhammad (s.a.v.) payg'ambar va ilk islom davrining boshqa ko'plab taniqli namoyandalari chiqqan.

Ziyoratgohlarning keng va xilma-xil geografiyasini o'rganish uchun rayonlashtirishdan foydalaniladi. Jahonda ziyoratning bir qancha makro hududlar mavjud:

- Xristian Yevropasi. Xristianlik va boshqa ko'psonli dinlar bilan mustahkam o'rin egallovchi Shimoliy Amerika;

- Xristianlik va an'anaviy dinlar bilan bog'langan Lotin Amerikasi;

- Islomni qabul qilgan Shimoliy Afrika;

- Islom dini va alohida xristianlik va an'anaviy dinlar mavjud G'arbiy va Sharqiy Afrika;

- Islom, buddizm, xristianlik va hinduzim dinlari keng tarqalgan Sharqiy Osiyo;

- Islom dini keng yoyilgan O'rta Osiyo;

- G'arbiy Osiyo - islom va xristianlik, iudizm dinlari keng yoyilgan hudud;

- Janubiy Osiyo iudizm va buddizm keng tarqalgan hudud hisoblanadi. Shuningdek xristianlik, jaynizm, sikxizm va islom dinlari mavjud.

Har bir makrohudud eng avvalo ziyoratning jahoniy markazlari bilan mashhur. Ular e'tiqodchilarning xalqaro oqimini qabul, qiladilar va ko'pincha diniy ixtisoslashtirishning ma'muriy, sanoat, madaniy va sayyohlik markazlari funksiyalari bilan qo'shilib ketadi. Bundan tashqari, makrohududlarda milliy va mahalliy ahamiyatga ega diniy sig'inish ob'ektlari mavjud. Masalan, Quddus shahri jahonning eng yirik diniy markazlaridan biri hisoblanadi. Quddus uch din e'tiqodchilari islom, xristianlik, iudizm uchun muqaddas markaz hisoblanadi.

Bu makromintaqalar mavjud diniy ziyoratgohlar salohiyatidan kelib chiqqan holda ajratilgan. Ular ichida eng muhim mintaqa Yevropada Vatikan, G'arbiy Osiyoda Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina va Quddus shaharlari hisoblanadi. O'rta Osiyoda O'zbekistonning qadimiy Buxoro va Samarqand, Toshkent, Termiz, Xiva va boshqa shaharlarida diniy maskanlar mavjud.

Ziyoratlar, odatda, turli dinlarning taniqli namoyandalarining qadamjolariga tashrif buyurishni aks ettiradi. Tashrif buyuriladigan joy muqaddas bo'lganligi sababli, ko'pchilik bu yerda ibodat qilish ibodatning ijobat bo'lish ehtimoli ko'proq ekanligini anglatadi. Ba'zi ziyoratgohlar va joylar o'zlarining daromadlari uchun butunlay turizmning ushbu ta'sirchan kuchiga tayanadilar. Bu o'z navbatida, atrofdagi hududlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Sayyohlar mehmonxona va restoranlarni ijaraga oladi. Gid (yo'lboshlovchi)lar, qo'lda esdalik sovg'alarini yasaydiganlar, fotosuratchilar va boshqalar uchun ish o'rinlari yaratiladi.

Biroq, taniqli olim Vukonichning so'zlariga ko'ra, ziyorat turizmining iqtisodiy jihatlari din - turizm atamasiga nisbatan eng kam o'rganilgan mavzu bo'lib, tadqiqotchilarni faqat bitta muqaddas joy ko'rib chiqilayotganda qiziqtiradi. Diniy ziyorat ziyoratchilar tashrif buyuradigan hududlarda iqtisodiy generator vazifasini bajarib kelgan, chunki xizmatlar ularning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan. Bu bugungi kunda ham xuddi shunday. Chunki ko'p joylarda diniy joylar asosiy turistik diqqatga sazovor joylar bo'lib, ba'zan Santyago-de-Kompostela, Medjugorje, Lourdes va Makka kabilarni o'z ichiga oladi.

Turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish hamda yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi, balki aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, yurt farovonligi va taraqqiyoti yuksalishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, har 30 nafar sayyoh mamlakat turizmi sohasida bitta, unga turdosh tizimlarda esa ikkita yangi ish o'rnini yaratishga turtki beradi. Ko'pgina mamlakatlar va aholi punktlarida turizm qiyin ahvolda bo'lgan iqtisodiyotni

jonlantirish yoki qutqarish yo‘li sifatida ko‘riladi, ayniqsa hozirgi turizm prognozlari, yuqorida aytib o‘tilganidek, yaqin kelajakda diniy turizm kuchayishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nargiza, M., & Rukhshona, A. (2024). DEVELOPMENT OF A PROJECT PROPOSAL FOR RESTORATION OF NURIDDIN BASIR MAUSOLEUM LOCATED IN KOXAROY SQUARE AND INCREASE OF TOURISM POTENTIAL. *Gospodarka i Innowacje.*, *44*, 263-267.
2. Rahimov, L. A. (2018). MOSQUES OF BABUR. In Сборник конференций (pp. 202-206).
3. Xayitboyevich, U. O. (2023). NUROTA VOHASINING TURAR JOYLARNING KOMPOZITSION VA REJAVIY-TARXIY YECHIMI. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 171-174.
4. Marjona, K., & Iroda, S. I. (2023). THE ESSENCE OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX IN OUR CULTURAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 662-665.
5. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). ESTABLISHING AN EXEMPLARY CULTURAL AND RECREATION PARK COMPLEX. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, *2*(11), 50-54.
6. Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). USE OF LOCAL RAW MATERIALS IN THE REPAIR OF PATTERNS AND DECORATIONS OF CENTRAL ASIAN ARCHITECTURAL MONUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(2), 679-683.
1. www.ziyorat.travel.uz.
2. www.world-religion.com
3. www.islom.savol-javob

NAMANGAN GULLAR-SHAHRIDA LANDSHAFT ARXITEKTURASINING SHAKLLANISHI. NAMANGAN FLOWERS-THE FORMATION OF LANDSCAPE ARCHITECTURE IN THE CITY.

A.Abduroxmonov-magistrant TAQU
Ilmiy rahbar dots. **R.Abduraximov**

Annotatsiya. Tashqi ochiq muhitlar: shahar maydonlari, turli-tuman istirohat bog'lari va parklar, xiyobonlar, bulivarlar, piyodalar ko'chalari, sohillar, muhitni ko'kalamzorlashtirish va unga oro berish san'ati namunalari lanshaft arxitekturasining ob'ektlaridir. Bugungi kunda landshaft arxitekturasining ob'ektlariga nafaqat tashqi ochiq muhitlar. Balki ichki yarim ochiq va yopiq muhitlar: binolarning ichkarilari, “qishki bog'lar”, vestibyullar ham kiradi. Landshaft arxitekturasi, shuningdek, mavjud tarixiy bog'larni va ko'kalamzorlarni qayta tiklash va ta'mirlash ishlari bilan ham shug'ullanadi.

Kalit so‘zlar. qishki bog‘lar, xiyobonlar, bulvar, skver, chor-bog‘

Landshaft (nemischa Land-er, Schaft-manzara) muayyan bir geografik hududga xos bo'lgan tabiat manzarasi (er yuzasi, reliefi, tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi, suvi, iqlimi)ni belgilovchi umumiy tushuncha.

Tashqi ochiq muhitlar: shahar maydonlari, turli-tuman istirohat bog'lari va parklar, xiyobonlar, bulivarlar, piyodalar ko'chalari, sohillar, muhitni ko'kalamzorlashtirish va unga oro berish san'ati namunalari lanshaft arxitekturasining ob'ektlaridir. Bugungi kunda landshaft arxitekturasining ob'ektlariga nafaqat tashqi ochiq muhitlar. Balki ichki yarim ochiq va yopiq muhitlar: binolarning ichkarilari, “qishki bog'lar”, vestibyullar ham kiradi. Landshaft arxitekturasi, shuningdek, mavjud tarixiy bog'larni va ko'kalamzorlarni qayta tiklash va ta'mirlash ishlari bilan ham shug'ullanadi.

“Landshaft arxitekturasi” atamasi ilk bor AQShda milliy bog'larning tashkil etilishi munosabati bilan yuz yildan ortiq vaqt ilgari paydo bo'lgan. O'zbekistonda esa landshaft arxitekturasi fani, asosan, mustaqillik yillarida shakllandi va rivojlanib kelmoqda. Yevropaga bu tushuncha ancha kechroq kirib keldi. Ammo bu landshaft arxitekturasining tarixi qisqa ekanini anglatmaydi. Landshaft arxitekturasining taraqqiyot yo'lini yaxlit tushunish uchun ushbu atamaning mohiyatini aniqlash, landshaft arxitektorlarining nimalar bilan shug'ullanishlariva bu sohaning keng arxitektura dunyosidagi o'rnini chuqurroq anglash juda muhimdir.

Hududlarni landshaftli tashkil etishning boshlanishi, o'simliklardan maishiy va davolash maqsadlarida foydalanish va sabzavotchilikning rivojlanishi bilan yaqin bog'liq bo'lib, u antik davrga kelib bog'dorchilik rivojlandi, o'rta asrlarda esa – bog'-park san'ati darajasiga yetdi. XIX va XX asr chegaralarida keng shahar va shahardan tashqaridagi maydonlarning obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish vositalari bilan arxitektura rejalash va estetik tashkil etish faoliyati landshaft arxitektura deb atala boshladi.

Arxitektura vositalari bilan shakllanadigan muhitning boshqa bir turi to'sib turuvchi konstruksiyalar ichiga olinmagan ochiq maydonlar hisoblanadi. Bularga parklar, bog' va skverlar, ko'chalar, xiyobonlar (bulivarlar), umumfoydalanuvchi bog'lar, sohil bo'ylari, kvartal (guzar) ichi fazolari, tarixiy landshaftlar va boshqalar kiradi.

Landshaft arxitekturasining va uning eng muhim shoxobchasi bog'-park san'atining yorqin, o'ziga xosligi maxsus, tabiiy qurilish materiallaring: o'simliklar, suv, yer, joy topografiyasini ham hisobga olgan holda foydalanilganligi va hozir ham foydalanishi hisoblanadi. Aynan ana shu materiallar ochiq fazolar muhitini shakllantirishda landshaft arxitekturasining asosiy ish qurollari hisoblanadi.

Landshaft arxitekturasini umumiy qabul qilingan arxitekturaviy amaliyot bilan taqqoslagandagi o'ziga xos xususiyati estetik va ekologo-insonparvarlik asosining boshchilik qiluvchi ahamiyatidir. Bunda yaratilayotgan muhitning funksional va texnik jihatlari ularning muhimligiga qaramay, bo'ysunuvchi o'rinni egallaydi. Bu sifat landshaft arxitekturasi san'atining bir turi, aynan bog'-park san'ati sifatida tushunilishiga asos bo'ldi.

Zamonaviy globallashuv, tabiiy landshaftlarning qisqarishi va antropogen landshaftlarning muqarrar ortishi natijasida landshaft arxitekturasi arxitektorlarining odatdagi faoliyati chegarasidan tashqariga chiqdi. XX asrning o'rtalarida landshaft arxitekturasi mustaqil yo'nalish bo'lib ajralib chiqdi. Zamonaviy landshaft arxitekturasi faqat bog'lar va parklarni shaullantirish bilangina mashg'ul bo'lmay, balki shahar, qishloq va qishloqlararo maydonlarni ham hisobga olgan holdagi ochiq maydonlarning barcha turlari bilan ish ko'radi.

"Ikkinchi tabiat" – arxitektura landshaftlarining yaratilishi jamiyatning ehtiyojlari o'sishiga proporsional ravishda o'sib boradi. Turli mamlakatlarda landshaft arxitekturasining rivojlanishi bir xil emasligiga qaramay, uning kelajagi aniq – inson tabiatdan qanchalik ko'p foydalansa, landshaft arxitekturasi uchun faoliyat maydoni shuncha kattalashadi.

Geografik tushunchada landshaft bu tabiiy chegaralar bilan o'ralgan bir jinsli quruqlik maydoni bo'lib, bu chegaralarda landshaftning tabiiy elementlari (ob-havo, relief, suv, tuproq, o'simlik va biologik turning vakili hisoblangan odamni ham hisobga olgandagi barcha jonli mavjudotlar) o'zaro bog'liq va o'zaro aloqada bo'lgan yagonalikni tashkil etadi. Zamonaviy landshaft arxitekturasida tabiiy va antropogen landshaft tushunchasi ajratiladi.

Hududlarni o'zlashtirish zarurligi va insonning tabiat ichiga singib borishi landshaftning o'zgarishiga sabab bo'ladi, yo'llar tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, zavodlar, posyolkalar vujudga keladi. Ya'ni insonning aralashuvi bilan landshaft antropogen – inson o'zgartirgan landshaftga aylanadi.

XX asr o'rtalarida landshaft arxitekturasi rivojlanishida keskin burilish yasadi. Birinchi marta insonning atrof-muhit bilan munosabatlarini tartibga solish masalasi qo'yildi. Landshaft arxitekturasi rivojlanishi, avvalo Frederik Olmsted nomi bilan bog'liq. Maxsus bilimga ega bo'lmay turib, u 1858-yili Niyu-York Markaziy parki konkurs loyihasini yutib chiqdi, u o'zini "landshaft arxitektori" deb atadi. Markaziy park loyihasi urbanizasiyalashgan tuman markazida tegilmagan tabiat bo'lagini saqlab qolish g'oyasini amalga oshirdi.

XIX asrning ikkinchi yarmi nafaqat tabiiy landshaftlar qimmatini tushunish bilan, balki shaharlarda bog' va parklar qurilishining anchagina kengayganligi bilan xarakterlanadi. Yangi parklar o'zining ko'rinishi, stilistikasi, vazifasi bo'yicha har xil edi. Bog'larni "fransuz", "ingliz", "italiyan" bog'lariga bo'lish yo'qoldi. Geometrik shakl va to'g'ri chiziqlar suv havzalari va yo'lkalar egri chiziqlari bilan uyg'unlashgan rejalar parklar qurilishida yetakchilik qildi.

Landshaft arxitekturasining eng keng yo'nalishi deb turli vazifali alohida hududlarni loyihalashni hisoblash mumkin. Avvalambor, bu bog' va parklarni loyihalash. Bog' va parklar o'zining funksional vazifasiga qarab farqlanadi (botanika, zoologiya, bolalar, sport, tematik va h.k.). Ular texnik xususiyatlarga ko'ra, masalan: tuproqda, tomda, yopiq makonda, sun'iy xom ashyolardan qurilganiga ko'ra ham ajratiladi. Zamonaviy bog' va parklarning barcha xillarini sanab o'tish qiyin. Bog'larni loyihalash bilan alohida imoratlarning landshaft atrofini va me'moriy komplekslarining landshaft tarkibi ustida ishlash ham uzviy bog'liqdir.

Landshaft dizayni, bu landshaft arxitekturasining eng ommabop zamonaviy yo'nalishlaridan biridir. Kichik hududlar, burchaklar va boshqa lokal hududlar ularni bezatishga sun'iy landshaft dizaynerlik yondashuvini talab qiladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda landshaft arxitekturasi Namangan shahrida o'zining rivojida yangi darajalarda turibdi. U muhim mustaqil me'moriy kasb sifatida tan olindi va unga inson hayotining ochiq muhitini takomillashtirish kabi katta ishlarni qilish va muammolarni yechish talab etiladi.

Landshaft arxitekturasi – bu kishilik jamiyatiga xos badiiy va umummadaniy merosning cheksiz va behad keng sohasidir.

Landshaft arxitekturasini biz an'anaviy me'moriy amaliyot bilan taqqoslasak, hal qiluvchi narsani uning tabiatni jonlantirishda, estetik, ekologik va me'moriy muhitning sog'lomlashtiruvchi roli va insonparvarlikning ibtidosida ko'ramiz. Muhitni shakllantiruvchi odatiy funksional va ayniqsa, texnik tomonlar qanchalik muhim bo'lsada, landshaft arxitekturasida ular yordamchi o'rinni egallaydi. Birinchi o'ringa o'simliklar dunyosi, suv dunyosi, joyning tabiiy reliefi chiqadi. Aynan ushbu holat landshaft arxitekturasining alohida san'at turi mazmunida keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

Landshaft arxitekturasining genezisi deganda, uning yer yuzida dastlab paydo bo'lish shakllari, tarixiy ildizlari, sabablari, yuzaga kelishidagi ob'ektiv va sub'ektiv omillar tushuniladi.

Landshaft arxitekturasining dastlabki ildizlari qadimgi bog'dorchilikka borib taqaladi. Yer yuzida ilk shaharlarning yuzaga kelishi bilan bog'dorchilikning mevali va manzarali turlari shakllandi. Ular kishilik jamiyatining utilitar estetik, xo'jalik va rekreasion ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Bunday bog'lar dastlab jamiyatning amaldorlari, hukmdorlari, ruhoniylar sinfiga mansub bo'lgan. Ular yer yuzining ilk sivilizasiyalari rivojlangan mintaqalarida, insonlarning tabiatga bo'lgan ehtiyojlarining oshishi, suv va sug'orish inshootlari tizimining shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan. Bog'dorchilikning rivojlanishi bilan jamiyatning rekreasion ehtiyojlari asosida bog'-parkchilik san'ati ham yuzaga kelgan. Bog'-parkchilikning ilk vatanlari Qadimgi Misr, Bobiliston, Eron, Qadimgi Yunoniston, Rim, Hindiston va Xitoy, ya'ni iqlimi jihatdan issiq, geografiyasi sersuv daryolarga boy, tropik va subtropik mintaqalar hisoblangan.

Bog'-park madaniyatining turli mamlakatlardagi rivoji turli davrlarda turlicha kechgan bo'lsa-da, ularning shakllanishi hamma vaqt joylardagi muayyan tabiiy iqlim sharoitlariga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, diniy e'tiqodlarga, insonlarning atrof-muhit va tabiatga munosabatiga bog'liq bo'lgan.

Ma'lumki, Namangan shahrida landshaft arxitekturasining vujudga kelishi, ya'ni shakllanishi va rivojlanishining bir qator ijtimoiy sabablari, boshqacha aytganda, tarixiy ildizlari bor bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) insoniyatning tabiat go'zalligi va landshaftga bo'lgan ijobiy munosabati tufayli o'zining yashashi, faoliyat ko'rsatishi hamda dam olish muhitiga tabiat elementlarini kiritishga, ularni o'ziga yaqinlashtirishga, ulardan huzur-halovat olishga intilish ehtiyoji;

2) noqulay tabiiy iqlim sharoitlarining insoniyatga salbiy ta'sirini pasaytirish, ssoya-salqin yaratish va ayni paytda, go'zal manzaraviy landshaft muhitini yaratish imkoniyatlariniizlash ehtiyoji;

3) jamiyatning rivojlanish jarayonida dehqon va bog'bonlar, olim hamda muhandislarning turli-tuman sug'orish inshootlari va qurilmalarini yaratish, suvni bir joyga to'plash, saqlash, uzatish hamda balandlikka ko'tarish texnikasi ilmi va amaliyotiga ega bo'lish tajribalarining oshib borishi;

4) hukmdorlar va mansabdorlarning firdavsmonand bog'-saroylar, yozgi bog'lar, ov qilish bog'lari va istirohat bog'larini yaratishga bo'lgan ehtiyoji va intilishi;

5) inson o'zi yaratgan shaharlar ochiq muhitida tabiat element (suv, o'simlik, tog'-u toshlar va hayvonot dunyosi shakllari va manzara)larining bo'lishligini xush ko'rishi.

Bularning barchasi oxir-oqibatda landshaft arxitekturasi sohasining inson faoliyatining muayyan turi tarzida vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Bularning barchasi oxir-oqibatda landshaft arxitekturasi sohasining inson faoliyatining muayyan turi tarzida vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Namangan shahrida esa, umuman olganda Farg'ona vodiysida bog'dorchilik va bog'-park landshaft san'atining tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonlari quyidagi holatda, ya'ni:

1.Bog'dorchilik san'atining ilk shakllanish davri (eramizgacha 2000-yillardan to eramiz boshlarigacha). Bu davr bog'lari haqida turli yozma manbalar va adabiyotlar va xalq og'zaki ijodidagi ayrim ma'lumotlar saqlanib, bizgacha yetib kelgan.

Bog'chilik san'atining ilk shakllanish davri, asosan, Osiyo hududidagi issiq iqlimli mamlakatlar (Misr, Bobil, Eron, Hindiston) ga to'g'ri kelib, bu davr bog'chilik san'ati insoniyat sivilizasiyasining vujudga kelishi va sug'orish inshootlarining yaratilishi bilan bog'liq. Bu davr bog'lari zodagonlar va hukmdorlarga tegishli bo'lib, ular, asosan, uylar va saroylar, ibodatxonalar qoshidagi manfaatli bog'larni tashkil qilgan. Bu bog'lar muayyan reja va tartib asosida shakllantirilib, me'moriy yechimi muntazam simmetrik kompozisiyalarga asoslangan. Bu davr bog'larining maydoni nisbatan kichik bo'lgan.

2. Bog'-park san'atining qadimgi va o'rta asrlar davri (eramiz boshidan to XIV asrgacha). Ushbu davrga doir bog'lar haqida juda kam ma'lumotlar mavjud. Ularning ayrimlari arxeologik topilmalarda, buyum va gravyuralarda, devoriy surat va naqshlarda, barelieflarda uchraydi.

Bu davr bog'lari Osiyo hududidan chiqib, qadimgi Yunoniston va Rim mintaqalarini qamrab olgan.

Bu davrdagi bog'lar oldingi davr bog'laridan farq qilmasa-da, soni va tipologiyasiga ko'ra ajralib turgan. Turar joylarning ichki hovli bog'lari, saroylar, ibodatxonalar qoshidagi bog'lardan tashqari, shaharlardan tashqaridagi villalar, gimnaziyalar, liseylar, akademiyalar, shahar piyoda ko'chalari bog'larini tashkil qilgan.

Ularning o'lchamlari ham ancha kattalashgan. Bu davrda ilk bor topiar san'ati va labirint shakllantirilgan.

3. Bog'-park san'atining rivojlanish davri (XIV-XVII asrlar).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin ya'ni, bog'lar bunyod etish va ularga oroyish berish san'ati O'rta Osiyoda juda qadim zamonlardan boshlab shakllanib kelgan. Bunga O'rta Osiyoning o'ziga xos iqlimi, serquyoshligi, uzoq issiq yozning o'tkir ta'siridan saqlanishga qaratilgan harakat ham sabab bo'lgan. Badavlat odamlar dastlab mo'jaz oromgohlar bunyod etib, jazirama yoz kunlarida soya-salqin bog'larda, hovuzlar qoshidagi supali shiyponlarda, shabboda joylarda dam olishgan. Bunday oromgohlarda, odatda, sersoya manzarali dov-daraxtlardan tashqari turli-tuman mevali daraxtlar, gullar, xo'jalik uchun toklar va boshqa ekinlar ham ekilgan. Bunday bog'lar ko'pincha shahar atroflarida, yoz kunlari ularga ko'chib o'tilgan.

Ekinlar uchun yer tekislanib, chellar ishlangan, ariqlar olingan, hovuz, shiypon, ayvonlar, supalar, ular oldida mo'jaz gulzorlartashkil qilingan. Hokim va amaldorlarning shahar chetlaridagi bunday oromgohlari atrofi paxsa devorlar bilan aylantirilib, darvozalar ishlangan. Ular yozgi qo'rg'oncha bog'lar ko'rinishini olgan. Bunday bog'lar sahni o'q ariqlar bilan bir necha, odatda, to'rt qismga bo'linib, “chor-bog'” hosil qilingan. Badavlat oilalar o'z chorbog'lari ichiga chiroyli shiyponlar qurib, yoz oylari mehmonlarni shu bog'larga taklif qilishgan. Bunday mo'jaz qo'rg'oncha chorbog'lar suv manbalariga yaqin, nisbatan tekis joylarda bunyod etilgan.

Foydalanilgan adabiyot:

1. A.S.Uralov, L.A.Adilova “Landshaft arxitekturasi”. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi-T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014. 384b.

2. A.S.Uralov, L.A.Adilova “Landshaft arxitekturasi”. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi-T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014. 384b.

3. A.S.Uralov, L.A.Adilova “Landshaft arxitekturasi”. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi-T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014. 384b.

O‘ZBEKISTONNING TOG‘LI HUDUDLARDAGI DAM OLISH MARKAZLARI HAMDA AHOLI PUNKTLARINI ARXITEKTURAVIY SHAKLLANISHI

ARCHITECTURAL FORMATION OF RECREATION CENTERS AND POPULATION POINTS IN THE MOUNTAIN REGIONS OF UZBEKISTAN

Xalikov Sanjar Ravshanovich
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 17.00.05– Dizayn nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo‘yicha Mustaqil tadqiqotchi

Khalikov Sanjar Ravshanovich
National Institute of Painting and Design named after Kamoliddin Behzod 17.00.05 - Independent Researcher in Design Theory and History

Аннотация: Mazkur maqolada O‘zbekiston hududidagi tog‘li dam olish markazlari hamda aholi punktlarini shakllantirishning shaharsozlik, lanshaft dizaynining etakchi kompleks ob‘ektlari sifatida ichki kamerali yopiq makonlarni me’moriy va kompozitsion tashkil etish usullaridan foydalanish tendentsiyalarini rivojlanish, me’moriy dizayn va tabiiy antropogen yashash va rekreatsion tuzilmalar o‘rtasidagi funktsional munosabatlarni tartibga solish nazariyasi va uslubiy yondashuvini tizimini ishlab chiqarish, faol himoya qilish tamoyillari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: funktsional, antropogen, turar-joy, rekreatsion, kurort, tog‘li, shaharsozlik, me’moriy.

Abstract: This article discusses the trends in the use of architectural and compositional techniques of enclosed spaces with internal premises as the leading complex objects of urban planning and landscape design in the formation of mountain recreational bases and settlements on the territory of Uzbekistan, highlights architectural design and environmental theories and methodological approaches to regulating functional relations between anthropogenic residential and recreational structures, the principles of their development, active protection.
Key words: functional, anthropogenic, residential, recreational, resort, mountain, urban planning, architectural.

Kirish: XXI asr haddan tashqari rivojlangan aholi, uning o‘sib borayotgan ehtiyojlari va tabiiy muhit imkoniyatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan tavsiflanadi. Tabiiy resurslar tobora yuqori tovar qiymatiga ega bo‘lmoqda. Bugungi kunda insonning tabiatga nisbatan psixologiyasini o‘zgartirish: tabiiy resursni bitmas - tuganmas va qadrsiz buyum sifatida emas, balki unga uzoq yillar davomida butun jamiyatga tegishli bo‘lgan cheklangan va qimmat zaxira sifatida qarash kerak.

Inson ekologiyasini shakllantirishning pragmatik vazifalari bilan bir qatorda arxitektura-estetik jihati ham kam ahamiyatga ega emas, chunki uning estetik va ifodaviy fazilatlari ekologik jihatdan mukammal muhitning eng muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Yashash joyining go‘zalligi va ta’sirchanligi inson tomonidan yaratilgan antropogen, "sun’iy" tabiatni yaxshilashning muhim omiliga biri bo‘lib qolmoqda.

7.Писарчик А.К. Народная архитектура Самарканда–Душанбе, 1976.

8.Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XV век. Ведущие тенденции и черты. –Т.,1976.

9.Рахимов К.Д. Махаллинские ансамбли: Проблемы формирования. –М., 1996.

10.Uralov A.S., Sultanov A.N. Islom va tasviriy san'at. (Islam i izobrazitelnoe iskusstvo). Monografiya.–Toshkent:Yoshlar matbuoti, 2021.–160 b.

11. Nargiza, M., & Rukhshona, A. (2024). DEVELOPMENT OF A PROJECT PROPOSAL FOR RESTORATION OF NURIDDIN BASIR MAUSOLEUM LOCATED IN KOXAROY SQUARE AND INCREASE OF TOURISM POTENTIAL. *Gospodarka i Innowacje.*, *44*, 263-267.

12. Khaitboevich, U. O. (2021). Ancient nurata karizs. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(8), 115-120.

13. Ulugbek, T., & Marjona, K. (2024). Revitalizing Old Facades: Innovations in Facade System Installation and Preservation. Indonesian Journal of Innovation Studies, 25(1), 10-21070.

14. Sa'dullayeva Nigora, X. S. (2024). Stages of Formation and Application of" Gothic" Architectural Style. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *3*(2), 1004-1008.

IMPROVING ADAPTATION OF "SMART HOUSES" TO THE NATURAL CLIMATIC CONDITIONS OF NAVOI REGION

"AQLLI UYLAR"NI NAVOIY VILOYATI TABIIY IQLIM SHAROITIGA UYG'UNLASHTIRISH QONUNIYATLARI

Aymatov Anvarbek Abduxoliqovich.
Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering, Associate Professor Ph.D

Kuysinova Farangiz Ziyodulloyevna.
Shakarova Laylo Odilovna
Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering,

Shukurova Mehrangiz Sherali qizi.
Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering student

Annotatsiya: Mazkur maqolada Navoiy viloyatida qurilayotgan aqlli uylarni iqlimga moslash ishi va aqlli uylar va ularning dizayni , qurilish materiallar va energiya iste'moli kabi ma'lumotlar, aqlli uylarning afzalliklari, qulayliklari

haqida so'z yuritiladi. Aqlli uylarni Navoiy viloyati tabiiy iqlim sharoitiga uyg'unlashtirilayotganligini bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Aqlli uy, zamonaviy binolar, qulaylik, shaxsiy makon,ko'p funksiyali,intellectual uy, avtomatlashtirish, funksionallik.

Kirish. Bugungi kunga kelib, Navoiy viloyati har tomonlama rivojlangan, obod hududga aylandi. Navoiy viloyati mamlakatimizda hududiy jihatdan eng katta viloyat bo'lib, Qoraqalpog`istondan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Uning umumiy hududi 110,99 ming kv. Kmni tashkil etadi. Viloyat shimoldan va shimoli-sharqdan Qozog`iston respublikasi hududi bilan,janubi-sharqdan mamlakatimizning Jizzax, Samarqand, janubdan Qashqadaryo, janubi-g`arbdan esa Buxoro viloyatlari bilan chegaradoshdir.

Navoiy viloyatining hududi tabiiy sharoitiga ko'ra, 3 qismga bo'linadi: viloyatning shimoli-g'arbiy qismini Qizilqum cho'li egallagan bu yerda berk botiqlar (Karaqota, Mo'lali, Mingbuloq), qumli tekisliklar va qoldiq tog'lar (Ovminzatog', Yetimtog', Bo'kantov, Tomditov va h.k.) bor; janubi-sharqiy qismini Nurota tog' tizmalarining g'arbiy qismi past va o'rtacha balandliklardagi tog'lar (Qoratog', Oqtog' va boshqalar) hamda tog'lararo botiqlar(Nurota botig'i va boshqalar) egallagan;Zarafshon daryosi vohasining o'rta qismida viloyatning paxtachilik zonasi o'rnashgan. Navoiy viloyatida mineral shifobaxsh, sho'r va yerosti chuqur suv zahiralari aniqlangan. Chunonchi, Tomdibuloq, Qaraqota,Chingildi atroflaridan topilgan suvlardan xo'jalikda keng foydalanilmoqda. Viloyat seysmik jihatdan 7 balli zilzila zonasiga kiradi.Qizilqum cho'li tufayli iqlimi keskin kontinental cho'li qlimi: yozi uzoq, quruq. issiq, iyulda o'rtacha temperatura 27,2-29,6, qumda oftobda temperatura 60-70° gacha ko'tariladi. Yanvarda o'rtacha temperatura - 1,9° dan -0,6° gacha.Cho'l va yaylovlarda, vohalarda iqlim o'rtacha. Yog'in, asosan, bahor va qishda yog'adi. Yillik yog'in 125-282mm. Vegetatsiya davri 177-212 kun. Navoiy viloyatining asosiy suv manbai-Zarafshon daryosi. Zarafshondan Konimexkanali chiqarilgan. Navoiy viloyatini suv bilan ta'minlashda Quyimozor,To'dako'l suv omborlari,Konimexkanalining ahamiyati katta. Viloyatning shimoliy va g'arbiy katta qismi ko'chma qumbarxanlari, unda-bunda uchraydigan gilli cho'llardan iborat [5].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Navoiy viloyati zaminida shifobaxsh, sho'rvayerosti chuchuk suv zahiralari aniqlangan bo'lib, Tomdibuloq, Qaraqota, Chingildi atroflaridan topilgan suvlardan xalq salomatligini mustahkamlash hamda xo'jalik yumushlarida unumli foydalanilmoqda. Viloyatning asosiy suv manbai Zarafshon daryosi hisoblanadi. Hududda dehqonchilik maydonlari Navoiy, O'rtacho'l, Amu, Sumbul, Mayna tarmoqlari hamda Zarafshondan suv oladigan Konimex, Tos, Shovot, Chovli, o'ng va chap qirg`oq, Navkar kanallari orqali suv bilan ta'minlanadi.

Navoiy (1981-2010) iqlimi												
Ko'rsatkich	Yan	Fev	Mart	Apr	May	Iyun	Iyul	Avg	Sen	Okt	Noy	Dek
O'rtacha maksimal, °C	6,8	10,0	15,8	23,5	29,0	34,7	36,2	35,0	29,6	22,6	15,7	9,1
O'rtacha minimal, °C	−1,2	0,3	4,7	10,5	14,7	18,7	20,4	18,2	12,6	7,2	3,7	0,3
Yog'ingarchilik me'yori, mm	28,1	28,6	40,9	25,9	16,0	1,7	1,8	0,5	1,8	3,6	17,7	27,3
Manba: O'zbekiston gidrometeorologiya xizmati[4]												

1-rasm. Navoiy viloyatining iqlim ko'rsatkichlari(„Average monthly data about air temperature and precipitation in 13 regional centers of the Republic of Uzbekistan over period from 1981 to 2010".

Shuningdek, Quyimozor, To'dako'l suv omborlarida kuz-qish mavsumida kerakli suv zaxiralari hosil qilinadi. Viloyatda 32 tayirik suv chiqarish elektrnasos stansiyalari ishlab turibdi.

Aholining o'sishi		
Yil	Aholi	±% y.o'.s.
2001	138 082	—
2005	125 500	−2.36%
2007	125 800	+0.12%
2015	133 540	+0.75%
2016	133 526	−0.01%
2017	134 113	+0.44%
2018	135 548	+1.07%
2019	136 374	+0.61%

2-rasm. Aholining o'sishi. „Population of Navoiy". Aznations.com (28-avgust 2020).



3-rasm. Official Website of Navoiy Region, 2007- arxivlandi

Ma'lumki aholining turar-joyga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida yildan yilga

turar joy binolari, ijtimoiy soha obektlari soni ortib, ko‘rkam va zamonaviy ko‘rinishda taklanib shahar va qishloqlar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib kelayotganiga guvohmiz. Albatta Prezidentimiz rahbarligida qurilish sohasidagi islohotlar yanada jadal tus olib yangi bosqichga ko‘tarildi.

Arxitektura va qurilish sohasidagi nufuzli mutaxassislarning tadqiqotlariga ko'ra, binolarning energiya ta'minoti tizimidagi eng yuqori yuk, agar derazalar binolarda optimal ravishda taqsimlangan bo'lsa va hayotni qo'llab-quvvatlovchi asosiy tizimlarning ishlashini tuzatsa, samarali ravishda kamaytirilishi mumkin. Bu shamollatish va yoritish uchun energiya sarfini kamaytiradi. Bu kontekstda qulaylik nimani anglatadi? Yoqimli yoritish va ichki havo sifati.

Agar kimdir bir kun kelib so'nggi yillarda eng ko'p ishlatiladigan so'zlarning reytingini tuzishni xayoliga keltirsa, shubhasiz, birinchi o'ntalikda "shaxsiy makon"bo'ladi. Hammamizda shaxsiy joy yo'q. Biz u haqida cheksiz gaplashamiz va uni tinimsiz qidiramiz. Afsuski, biz har doim ham topa olmaymiz, chunki biz bu nima ekanligini va uning chegaralari qayerda ekanligini to'liq tushunmaymiz. Bu o'zgarishi mumkinmi? eng muhimi, biz yashayotgan uyni qanday qilib bu shaxsiy makonga aylantirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Navoiy viloyati hududlarni tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda aholi uchun zamonaviy turar joy binolarini tadbiq qilish uchun mahalliy olimlarning ilmiy ishlari va o‘quv adabiyotlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil va kuzatish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. “*Aqlli uylar” ni zamonaviy binolarda qo’llash:* “Aqlli uy” tizimi butun dunyoda mashhur bo'lib, har yili ushbu tizimning muxlislari ko'payib bormoqda. “Aqlli uy” texnologiyasi mamlakatimizda unchalik keng tarqalmagan, ammo, hozirgi kunda loyihalash tashkilotlarida bir qancha loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunga kelib, binolarni avtomatlashtirishni amalga oshirishda juda ko'p turli xil texnologiyalar mavjud bo'lib, ular yordamida har qanday xonada aqlli tizimni o'rnatish mumkin. Zamonaviy “Aqlli uy” tizimlari nima? Ular oddiy odam uchun qanchalik ochiq?

“Aqlli uy” - bu xavfsizlik, aloqa, ko'ngilochar va hayotni ta'minlash muammolarini hal qiladigan barcha jihozlarni birlashtirgan binolarni boshqarish tizimidir. Tizim turli xil sensorlarni o'z ichiga oladi, ular orqali ma'lumot olinadi.Aqlli binolarning eng muhim afzalligi – bu aholiga yuqori darajadagi qulaylikdir. Masalan, yoritishni boshqarish paneli uy va tashqi yoritishni boshqarish mijozning xohishiga va kun vaqtiga qarab shahar atrofidagi hudud yoki binoning jabhasi uchun turli yorug‘lik sahnalari va yorug‘lik kombinatsiyalarini yaratishni osonlashtiradi. “Iqlim – nazorat” deb nomlangan tizim bir vaqtning o'zida turli xonalarda turli iqlim zonalari uchun sharoit yaratishga imkon beradi, uydagi atmosferani nafaqat xilma-xil, balki eng muhimi–qulaylikni ta’minlaydi.“Aqlli uy”loyihasi ko'pincha xavfsizlik tizimini ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, avtomatlashtirish tizimlari har qanday kutilmagan yoki favqulodda vaziyatlardan himoya qiladi. Avvalo, ular kameralar, eshiklarni avtomatlashtirish, o'g'irlik signallari yordamida bosqinlardan himoya qiladi. Suv yoki gaz sizib chiqsa, tizim nafaqat uy egasini, balki tegishli xizmatlarni ham xabardor qiladi.

Zamonaviy “Aqlli uy” yechimlar juda oddiy (klassik) bo'lishi mumkin va bu holda narx ancha past bo'ladi. Yuqori intellektual tizimga buyurtma berishda uning ko'pfunksiyali ekanligini hisobga olish kerak va uni amalga oshirish uchun juda qimmat turli xil uskunalar kerak bo'ladi va bu holdan ancha yuqori bo'ladi.

Avtomatlashtirilgan yorug'likni boshqarish kvartira yoki uy elektr ta'minoti tizimisiz ishlamaydi. Vakolatli loyiha, yukni hisoblash va kabelnitanlash ushbu tizimning asosidir. Nurni boshqarish tizimi aqlli uy loyihasining elementi bo'lishi mumkin yoki mustaqil bo'lishi mumkin.Integratsiyalashgan boshqaruv tizimi foydalanuvchiga uning atrofidagi yashash maydonini boshqarishda maksimal qulaylikni ta'minlaydi. Muhandislik tizimlari va xavfsizlik tizimlarini monitoring qilishning muntazam funksiyalarini avtomatlashtiradi.

Hozirgi davrda texnologiyalar rivojlanishi asosida ko’plab aholi turar-joy binolari avtomatlashtirilmoqda, ya’ni “Aqlli uylar” bunyod etilmoqda. Bugungi kunda “Aqlli uy»” tizimini yaratishda havo harorati, namlik darajasi, atmosfera bosimi va yoritilganlik darajasi, uy xavfsizligini ta’minlash darajasi kabi ko’rsatkichlarni nazorat qilish texnologiyalaridan keng foydalanib kelinmoqda.

Nazoratni amalga oshirish uchun bir necha turdagi ma’lumot beruvchi qurilmalardan foydalanish talab etiladi. O‘z navbatida, mazkur qurilmalarni birgalikda ishlash jarayonini tashkil etish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari, qurilmalarni ishlash jarayonini nazorat qilish uchun maxsus bilim va ko‘niklarmaga ega xodimlar jamoasi talab etiladi. Ishchi-xodimning ishini nazorat qilish jarayoni boshqaruv subyektlari uchun qo‘shimcha ma’suliyat yuklaydi. Bu esa tabiiyki, qo‘shimcha moddiy, moliyaviy va inson resurslarini talab etadi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida masofaviy qurilmalar tizimi lozim bo‘lib, u to‘liq avtonom tarzda, inson aralashuvisiz belgilangan hududdagi havo parametrlari, xususan:[2].

Havo harorati va nisbiy namligi,atmosferabosimi-vayoritilganliginianiqlashi;

Aniqlangan ko‘rsatkichlarni foydalanuvchi uchun qulay ko‘rinishda va informativlik darajasi o‘ta yuqori bo‘lishi uchun uni vaqt bilan bog‘liqligini grafik ko‘rinishda taqdim qilishi;

ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda qo‘shimcha qurilmalarni avtomatiktarzda, mustaqil ishga tushira olishi hamda elektr manbaidan uzib qo‘yilishini ta’minlashi lozim.

Hozirgi davrda “Aqlli uy”ning zamonaviylashgan, yanada takomillashtirilgan ko‘rinishlari ishlab chiqilmoqda, avtomatlashtirilgan yuqori texnologiya qurilmalari aholi yashashi uchun mo‘ljallangan. Qisqa qilib aytganda, qo‘shimcha hamda maxsus algoritmlar yordamida uyda sodir bo‘lyotgan ishlarni bemalol nazoratga oladi. Bunda shuni ham hisobga olish kerakki, bu o‘zgarishlar insonlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Avtomatlashtirilgan rejimda yashovchilar hamda ulardan foydalanuvchilar tashqi va ichki sharoitga moslashgan holda muhandislik tizimi va elektr qurilmalarining ishlashini kuzatib boradi.

Bu sohada “Benuks” tizimidan keng foydalaniladi. “Benuks” - bu ko‘p funksiyali va protokolli tizim bo‘lib, o‘zining qulayligi uchun nazorat va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Misol uchun, uydan yoki ofisdan uzoqda bo‘lgani bilan E-mail, ICQ yoki sms orqali mobil telefonga datchiklar to‘g‘risidagi ma’lumot olish mumkin. Bundan tashqari, oddiy brauzerda videokamera fotokadrlari, harorat grafigi, turlidatchiklar holati to‘g‘risida ma’lumot beradi va elektr qurilmalarni boshqaradi. Tizimlarni masofaviy boshqarish internet, ICQ yoki sms xabar asosida amalga oshiriladi. Vizual nazorat va boshqarish uchun datchiklar holatini aniqlash tizimidan foydalaniladi. Grafik bo‘limida yuztadan ortiq dizaynlar mavjuddir.

Texnologiyalar taraqqiyoti natijasida kun sayin taqdim etib borilayotgan barcha imkoniyatlar juda katta bilim va mehnat samarasidir. Bu esa biz yoshlardan doimiy izlanish, bilim doirasini kengaytirishga intilishni talab etadi. Xususan, aholi xavfsizligini ta’minlash, insonlar salomatligini yuksak darajaga ko‘tarish masalalari bo‘yicha ham bir qancha qonuniy hujjatlar qabul qilinadi, jumladan, “Aholini vahududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi[18] qonunning asosiy maqsadi – aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda va ziyatlar ro‘y berishi va rivojlani shining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishdan iboratdir.[4].

Bundan tashqari aqlli uylarni loyihalashtirishda butun boshli uyning hajmi va joylashuvini inobatga olish darkor. Navoiy viloyatining iqlimiy hamda geografik sharoitini inobatg aolgan holda loyihalarni tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Navoiy viloyati aqlli uylarni barpo etish uchun juda ham qulay hisoblanadi.

Men taklif qilayotgan loyiha viloyatning sanab o`tilgan geografik jihatlaridan kelib chiqib “aqlli uy”larni lohiyalashtirish ham boshqa hududlarga nisbatan farqalanadi. Bunda avvalambor sun`iy aql, sun`iy intellect vositalarini o`zlashtirish lozim. Insoniyat yana bir katta kashfiyot: inson aqlining andozasi sifatidagi “sun’iy intellekt”-“sun’iy aql”, “sun’iy idrok” yaratish arafasida turibdi. Vaqti kelib “Aqlli uy”larni anu shu - “sun’iy intellekt” boshqarishga o‘tadi. Shunda bizning bugungi “Aqlli uy”larimiz “Aqlli uy” emas, “intellektual uy”larga aylanadi. Bugungikunda biz o‘zimiz bajarayotgan ishlarni, yechayotgan muammolarni uylarning “sun’iy intellekti” yechimini topib, paydo bo‘lgan masala, muammoni insonning aralashuvisiz o‘zi hal qiladi, deyishmoqda mutaxassislar.

“Intellektualuy”ning isitish va sovutish tizimi datchiklar ko‘rsatmasiga qarab, haroratni yo ko‘tarib, yo pasaytirib, uydagi havoni mo‘tadil bir me’yorda ushlab turadi. Yarim kechasi, hamma uxlayotgan paytda uyning biron joyidan mabodo suv oqib qolsa yoki gaz chiqib ketsa bormi, «sun’iy intellekt» shu quvurga kelayotgan suvni yopib «rezerv»da (zaxirada) bo‘lgan boshqa quvurdan yo‘naltirib yuboradi, gazni butunlay yopadi va signal beradi. Uy ichidagi havoda kislorodning, toza havoning miqdoriga qarab derazalar kerakli me’yor, miqdor va muddatga ochilib, yopilib turadi. Bu ishlarning barchasi avtomatik tarzda bitta markazdan turib boshqariladi. Barcha dam olayotgan, uxlayotgan yoki toqqa, suv bo‘yiga “weekend”ga (dam olishga) ketgan paytlarida uyga begona shaxs kirib qolsa bormi, “sun’iyintellekt” zudlik bilan kerakli joyga xabar qiladi [8].

“Aqlli uy” qurilishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

1.Oshxona va hojatxona bir - birining yonida joylashgan bo'lishi kerak bu aloqa tartibini osonlashtiradi.

2.Ko'p odamlar odatda yashash xonasidat o'planishadi, shuning uchun uning maydoni mos bo'lishi kerak.

3.Ikkinchi qavatga zinapoya ham kerak, shuning uchun unga joy toppish kerak.

4.Yashash xonasidan chiqish oila yig'iladigan oshxonaga olib borishi kerak.

Uyning hovlisidan tortib, barcha xonalarni mobil telefonda qayerda bo‘lishdan qat’I nazar, istagan paytda ko‘rib turish mumkin. Bularning barchasi hozirning o‘zidaToshkentning ayrim mahallalaridagi “aqlli” yoki hozircha “yarim, chorak aqlli” uylarda ishlatilib, qulayligi, afzalligi-yusamarasini namoyish etmoqda. Endi shu texnologiyalarni Navoiyda ham tashkil etish lozim.

Yozda quyoshning jazirama nurlari uyni qizita boshlaganda uyning deraza pardalari avtomatik tarzda tortilib, uyning sovutish tizimi ishga tushadi. “Sun’iyintellekt” ayni bir paytda suv, gaz va elektrenergiyasini ham nazorat qilib tejamli sarf qilinishini ta’minlaydi. Vanna, basseynga quyilayotgan suvning ham istagan kerakli haroratni ta’minlanadi. Uydagi muzlatgich qancha oziq-ovqat: sariyog‘, pishloq, sut-qaymoq yoki boshqa zarur mahsulotlar qolganligini mobil telefonga aytib, buyurtma berib ham turadi. Xonalarga yengil shabada berib turuvchi “ventilyatsiya” tizimi istagan xonaga istagan paytda va siz yaxshi ko‘radigan: yalpiz, jiyda, rayhon, tog‘ archasi, atirgul yoki boshqaxushbo‘yhidlarni taratib turadi. “Sun’iy intellect”ni bir qancha rejimda ishlatish mumkin. Uyga mehmon kelganda: “komfor trejimida”, yoki “ertalabki, tushki, kechki rejim”da, yanabiri: “uyda hech kim yo‘q”, bu demak, “ekonom rejim”ga qo‘yib qo‘ysangiz bas, qolganining hammasini sun’iy intellektning o‘zi hal qiladi. Bunday uyga yomon niyatda kelgan "mehmon"ni ham kutilmagan o‘z sovg‘asi qarshi oladi.

Xulosa.qilib aytganda texnika va texnologiyalar rivojlanayotgan bir paytda ,,aqlliuy" larni lohihalash bir qancha qulayliklarga ega bo'lishni ta'minlaydi. Favqulotda holatlardan himoyalaydigan xususiyatlarga ega, ko'p ishlarni tezda bajarishga mo'ljallangan, vaqtni ham tejaydi, ish samaradorligini oshiradi, gaz va elektr energiyasini ham nazorat qilgan holda tejamli sarf qilinishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Sh.M.Mirziyoyev2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi.

2.Asqarov SH. Me’morlik. O’zbekistonsan’ati, T, 2001.

3.Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Y. Menejment: Darslik.Toshkent, “O‘qituvchi”, 2001.

4.Усманов М.С. Досуг молодежи-функции и пространство (социальный анализ и пространственная организация) «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», Ташкент, 2021.

5.O’zbekiston milliy ensiklopediyasi.

6.Blake, 1960: 153-160

7.Fathy, 1973: 183-196

8.Home Automation: From the Basement to the Cloud - Scout Blog,

9.Farangiz, Kuysinova. "WAYS OF FORMING AND DEVELOPING COMMUNITY CENTERS." JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE (2023): 280-284.

10. Farangiz, K., & Siroj, T. (2024). SHAHRISABZ SHAHRINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI. Sinergiya: raqamli tergovning intizomiy jurnali (2995-4827), 2(4), 16-20.

PRINCIPLES OF FORMATION OF PUBLIC CATERING BUILDINGS IN NATIONAL AND MODERN STYLES

MILLIY VA ZAMONAVIY USLUBDAGI UMUMIY OVQATLANISH BINOLARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI.

Aymatov Anvarbek Abdixoliqovich
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti “Arxitektura” kafedrasi dotsenti, a.f.n. (PhD)

Alijanova Matlubaxon Shakirjon qizi
SamDAQU 201-B va IA guruhi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, umumiy ovqatlanish binolarining milliylik va zamonaviylik an`analari tadqiq qilingan. Milliy va zamonaviy uslubdagi umumiy ovqatlanish binolarining shakllantirish tamoyillari aniqlangan. Umumiy ovqatlanish binolarining milliy va zamonaviylik an`analari atroflicha ochib berilgan.

Abstract: In this article, traditions of nationalism and modernity of catering buildings are studied. The principles of the formation of national and modern style catering buildings have been defined. The national and modern traditions of public catering buildings are revealed in detail.

Kalit so‘zlar: umumiy ovqatlanish binolari, tamoyil, milliylik, zamonaviylik, Buse Dastan Architects, choyxona, restoran, kafe.

Umumiy ovqatlanish binolari bugungi kunda ham ijimoiy, ham iqtisodiy ahamiyatga ega. Umumiy ovqatlanish binolari uzoq yillik tarixga ega, shuningdek, bir necha rivojlanish bosqichlaridan o`tgan. Biz bugungi kundagi va kelajakda loyihalanayotgan umumiy ovqatlanish binolarini milliylik va zamonaviylik an`analariga ko`ra 3 turga ajratdik.

Milliy uslubdagi umumiy ovqatlanish muassasalari. Bular, asosan, choyxonalar bo‘lib, azaldan milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettirgan maskan sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday choyxonalarimiz milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, sharq arxitekturasini o‘zida jamlab yanada boyitishga xizmat qiladi.

O‘tkazgan tadqiqotlardan kelib chiqib, milliy an’analarimiz asosida tarixan shakllanib kelgan choyxona modelini yaratishni taklif qilaman. Ushbu model quyidagi nazariy tamoyillar asosida yaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Choyxona binosini loyihalash uchun hudud tanlashda masjid va mahalla markazlarga yaqin bo‘lgan hududlarni tanlash;

- Hududning tarixini o‘rganib, tarixiylik ahamiyatini aniqlash va hududda oldin mavjud bo‘lgan choyxonalar tarixini o‘rganish. Agar tarixiy choyxonalar mavjud bo‘lsa, ularni qayta tiklash choralarini ko‘rish;
- Hududda istiqomat qiluvchi aholining xohish va istaklarini o‘rganish va buning natijasida ushbu hududda choyxona uchun ehtiyoj darajasini aniqlash;
- Aholining milliy urf-odat va an’analarini o‘rganish;
- Hududdagi mavjud jamoat binolari, xususan, masjid va madrasalarning arxitekturaviy-badiiy kompozisiyalarini o‘rganish va ularda qo‘llanilgan milliy arxitektura elementlarini aniqlash;

Yuqoridagi tamoyillar asosida milliy ruhdagi sharq arxitekturasiga xos bo‘lgan choyxona modelini yaratishni maqsad qildik. Bundan asosiy maqsad o‘z ahamiyatini yo‘qotib borayotgan milliy arxitekturamizni targ‘ib qilish, insonlarga ko‘rsatish va ularda faxr tuyg‘usini uyg‘otish. Bundan tashqari sharqona milliy arxitekturamizni bus butunligicha kelajak avlodga yetkazish asosiy yutuqlarimizdan hisoblanadi.

Milliy choyxonalarimizni qayta tiklashdan asosiy maqsad yosh avlodga milliy sharqona arxitekturamizni, milliy qadriyatlarimizni ko‘rsatish, ularning ommaviy madaniyatga qarab ketayotgan tarbiyasi va ma’naviy dunyosini yod tushunchalardan tozalash. O‘zimizning milliy arxitekturamiz naqadar boy, ulug‘vor ekanligini ko‘rsatib, har qanday zamonaviy arxitektura binolari bilan bellasha olishini ko‘rsatish va ularda faxr va vatanparlik tuyg‘ularini shakllantirishdan iborat.

Zamonaviy uslubdagi umumiy ovqatlanish muassasalari. Bularga kafe va barlar, tez ovqatlanishga mo‘ljallangan muassasalarni kiritamiz. Bunday ovqatlanish muassasalarining asosiy vazifasi ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun ularni shahar markazlarida, jamoat binolari oldida, ta’lim muassasalari qoshida va piyodalar kesishmalarida loyihalanadi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib xo‘rrandalarga qulay sharoit yaratish uchun xizmat qiladi. Yarimtayyor ishlab chiqarishga asoslangan bo‘ladi. Shuning uchun ovqatlanish zali umumiy bo‘lib, ishlab chiqarish bo‘limi zalga yaqin va tarqatish bo‘limi bilan bog‘lanadi. Ushbu muassasalarga ko‘proq yoshlar tashrif buyurishadi. Binoning ichki va tashqi muhitida zamonaviy uslublardan foydalaniladi. Bu dunyo bilan hamnafas bo‘lishda asosiy o‘rinni egallaydi. Tashrif buyurgan yosh qatlam zamonaviy an’analardan ilhomlanib, yanaqa yangi g‘oyalar tug‘ilishiga xizmat qilishni nazarda tutadi.

Zamonaviy an’analarga asoslangan ovqatlanish korxonalarini loyihalashdagi asosiy tamoyil bu – maqsadli yaratishdir. Ya’ni qo‘llanilayotgan har bir arxitektura elementi gapirishi kerak. Binoning asosiy fasadlarini yaratishda shunchaki zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanishning o‘zi yetarli emas. Gyotening “Arxitektura bu- qotib qolgan musiqa” nazariyasini keltirish o‘rinli. Ovqatlanish korxonalarida arxitektura elementlari juda muhim. Biz zamonaviy an’analar asosida qurilayotgan ovqatlanish muassasalarimizni yangi bosqichga ko‘tarishimiz kerak. Bunday kafe va oshxonalarimiz soni ortishi natijasida raqobat kuchayib bormoqda. Xo‘rrandalarni diqqatini jalb etish uchun nafaqat taom va xizmat sifatiga e’tibor berishdan tashqari binoning arxitekturasi ham stol servisi va taomlarning taklif qilinishida muhim ahamiyatga ega. Milliy arxitekturamizda sharqona tayyor arxitektura elementlari mavjud. Ammo zamonaviy uslub va an’analar ko‘pligi va bir biriga o‘xshashligi sababli arxitektorlar xatolikka yo‘l qo‘yishadi. Shuning uchun zamonaviy arxitektura shakllaridan maqsadli foydalanish maqsadga muvofiq. Zamonaviy uslubdagi ovqatlanish korxonalarini loyihalash bo‘yicha Yevropa davlatlari katta tajribaga ega. Bu borada Buse Dastan Architects o‘zining restoran dizayni nazariyalari bilan mashhur.

Zamonaviy va milliy uslubni o‘zida uyg‘unlashtirgan umumiy ovqatlanish muassasalari. Yirik ovqatlanish muassasalarini kiritamiz, ya’ni restoranlar. Restoranlar oilaviy yoki jamoaviy ovqatlanishga mo‘ljallanib, zamonaviy talablarga javob beruvchi, shuningdek, milliy sharq arxitektura elementlarini stilizatsiya qilib, qo‘llash orqali tugal arxitekturaviy-badiiy yechimga ega muassasa bo‘lishi nazarda tutiladi. Bunday uslubdagi ovqatlanish muassasalari mavjud, biroq, ularda arxitektura qonuniyatlari qo‘pol ravishda buzilganligini ko‘rishimiz mumkin. Milliy arxitekturamizni stilizatsiya qilishda shaklning asosiy qolipini yo‘qotib qo‘ymaslik kerak. Biz bilamiz, milliy sharq arxitekturasi arxitekturaviy kompozisiya elementlari: ritm, nisbat, simmetriya, assimmetriya, contrast va nyuanslarga asoslanadi. Bulardan to‘g‘ri foydalanish natijasida biz ko‘rib faxrlanib turgan milliy sharqona arxitekturamiz paydo bo‘lgan. Hozirgi kunda arxitektorlarimiz ovqatlanish korxonalarini loyihalashda yoki rekonstruksiya qilishda milliy sharq arxitekturamizga murojaat qilishmoqda. Ammo, ularning bilimi va malakalari yetarli emasligi natijasida kelajak avlodga biz asrlar davomida shakllanib bo‘lgan milliy arxitekturamizni buzib yetkazib berishga xizmat qilomoqda. Shuning uchun binoning old fasadlarida qo‘llanilayotgan ustun va karnizlarning nisbatini to‘g‘ri tanlash, oyna va kirish eshiklarda peshtoq va toqlarning shaklini to‘g‘ri tanlash tugal arxitekturaviy-badiiy yechimni beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida tadqiqot uchun tanlangan hududdagi umumiy ovqatlanish binolari arxitekturasini tartibga solish va ulardagi muammolarni bartaraf etish uchun mavjud va kelajakda loyihalanayotgan umumiy ovqatlanish binolari uchun uch turdagi umumiy ovqatlanish binolarini shakllantirish tamoyillarini ishlab chiqdik. Ushbu tamoyillarni ishlab chiqishda ishlab chiqishda umumiy ovqatlanish binolarida milliylik va zamonaviylik an’analarini qo‘llashga ko‘proq e’tibor qaratdik

Adabiyotlar

1. Ubaydullayev N.M , Inog‘omova M.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari - Toshkent: Voris nashriyoti, 2009
2. Uralov A.S, Kushmanov T.F. Binolar tipologiyasi - Toshkent:2012
3. Nasirov. B Umumiy ovqatlanish tizimidagi o‘zgarishlar va muammolar (XIX asr oxiri-XX asr o‘rtalarida) mavzusidagi ilmiy maqola.
4. Talipov M.A, Baymetova Z.B. XX asrning birinchi yarmida Toshkentda barpo etilgan noyob me’moriy binolarning turizmdagi ahamiyati mavzusidagi ilmiy maqola.
5. https://www.wallpaper.com/gallery/architecture/bold-architectural-pavilions-and-temporary-structures

UDK.711

SHAHAR TASHQARISIDAGI DAM OLISH MASKANLARINI SHAKLLANTIRISHDA CHET EL TAJRIBASI

Talipov Maxirdjan Agzamovich, Irismetov Murodjon Bayotjon o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori va magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada dam olish maskanlarini shakllantirishda chet el tajribasi Ozarbayjon misolida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Dam olish maskanlari, kompleks, rekreatsiya, kurort, turizm, arxitekturaviy loyihalash, modernizatsiya, shahar tashqarisi

FOREIGN EXPERIENCE IN FORMING RECREATION AREA AND COUNTRY RESORTS

Annotation. This article examines foreign experience in the formation of recreation areas on the example of Azerbaijan.

Keywords. Resorts, complex, recreation, resort, tourism, architectural design, modernization, out-of-town

Kirish. Dunyoda globallashuv jarayonining ta’siri turli mamlakatlar shaharlari atrofidagi dam olish maskanlarining shakllanishiga hamda faoliyat ko‘rsatishiga kuchli ta’sir o‘tqazmoqda. Insonlarda bo‘sh vaqtning paydo bo‘lishi, oila byudjetining yaxshilanishi va insonlarning dunyo kezishga qiziqishiga ortishi shahar tashqarisidagi dam olish maskanlariga bo‘lgan talabning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababdan bu kabi maskanlarni yanada qulay qilish maqsadida qayta shakllantirish, zamon talablari asosida ko‘plab yangi bino va inshootlarning barpo etilishiga bo‘lgan intilishni davr talabi qilib qo‘ymoqda. Yurtimizda olib borilyotgan bunday islohotlar tashqi va ichki turizmni rivojlantirishga turtki bo‘lmoqda. O‘zbekiston hududida ko‘plab dam olish maskanlari barpo etilgan va hozirgi kunda jahon standartlari darajasida xizmat ko‘rsatuvchi ob’yektlar ham yo‘q emas. Ammo bu sohada amalga oshirlishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘lami keng. Buning uchun esa, bu soha rivojiga hissa qo‘shuvchi chet ellik va mahalliy investorlarni jalb etish, dam olish uylari, turli yosh toifasidagi aholiga mo‘ljallangan oromgohlarni, sanatoriy va kurortlarni bunyod etish juda muhimdir. Shuningdek, chet mamlakatlarning tajribasini o‘rganish hamda qo‘llash dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda.

1-rasm. Lankaran dam olish maskani

Asosiy qism. Mamlakat aholisning dam olish kunlarini maroqli o‘tqazishi, oila va do‘stlar davrasida hordiq chiqarishi, chet ellik sayohlarning ham O‘zbekistonning oromgohlari haqidagi yaxshi tassavurlar bilan yurtiga qaytishi juda muhimdir. Bizda go‘zal tabiat manzaralari, ma’danli suvlarning mavjudligi, tog‘li landshaftning serjiloligi insonlarda ko‘tarinki kayfiyatni uyg‘otmoqda.

Shahar tashqarisdagi dam olish maskanlariga tashrif buyuruvchilar ularga ko‘rsatilyotgan xizmatlardan, yaratilgan sharoitlardan rozi bo‘lib ketishi muhim masala hisoblanadi. Shunday ekan mavjud dam olish maskanlarini rekonstruksiya qilish va yangilarini kompleks ravishda barpo etish lozim bo‘ladi. Toshkent viloyati hududining ko‘plab dam olish maskanlarida aynan shunday bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Lekin barcha hududlarda ham ishlar ko‘ngildagidek deb bo‘lmaydi. Ko‘p holatlarda dam olish maskanlarida yo‘llanma asosida bir necha kun davomida tinch hordiq chiqarishda kelgan aholi vakillari bilan bir kunlik hordiqqa kelgan tashrif buyuruvchilarning bir-biriga halaqit berishining guvohi bo‘lamiz. Bizningcha, nisbatan uzoq muddatga tashrif buyurgan dam oluvchilar uchun alohida, kunlik tashrifchilar uchun alohida dam olish hududlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bolgariya, Vengriya, Latviya, Gruziya va boshqa ko‘pgina mamlakatlar tajribasini o‘rganish foydadan holi bo‘lmaydi. Yuqorida nomi zikr etilgan mamlakatlarning shahar tashqarisidagi dam olish maskanlari tog‘ yon bag‘irlarida yoki dengiz va ko‘llar bo‘yida joylashgan bo‘lib, ularda har bir dam olish maskanining kompleks ravishda barpo etilganini ko‘ramiz. Bizda esa komplekslikni, ya’ni, turar-joy korpusi, ovqatlanish, savdo, maishiy xizmat, madaniyat va ma’rifat ob’yektlarini, sport, tashqi transport hududi va boshqalarning yonma-yon joylashganini kamdan-kam holatlarda kuzatamiz.

2-rasm. Ozarbayjon Qabala Kanat majmuasi

Ko‘pincha dam olish maskanlariga shahardan olib boruvchi yo‘llarning sifatsizligi, ularda xizmat ko‘rsatuvchi ob’yektlarning yetarli emasligi kishi dilini xira qiladi.

Ko‘pgina turizm rivojlangan mamlakatlarda turistik qishloqlarning barpo etilganining guvohi bo‘lamiz. Agar bizning tog‘li hududlarimizda bunday qishloqlar tashkil etilsa, o‘ylaymizki, ularga bo‘lgan talab yuqori bo‘ladi. Turistik qishloqqa tashrif buyurgan dam oluvchilar u yerdagi xonadonlardan birida yashashi, tabiiy mahsulotlardan va shifobaxsh giyohlardan iste’mol qiladilar, tog‘ning musaffo havosidan nafas oladilar. Shuningdek, tog‘li xalqning mehmondo‘stligiga guvoh bo‘ladilar. Ular tog‘li aholining to‘y va boshqa bayramona tadbirlarida, xalq sayllarida ishtrok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ishonamizki, bunday dam olish insonlarga esda qolarli darajada taassurotlarni hadya etadi. Turistik qishloqlarda dam olgan kishi ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lib oila davrasiga qaytadi. Dam olish maskani sog‘liqni saqlash, davolash, kasalliklarning oldini olish va tibbiy reabilitatsiya qilish maqsadida foydalaniladigan, tabiiy shifobaxsh resurslar bilan faol ishlaydigan inshootlarga ega bo‘lgan alohida muhofaza qilinadigan hudud hisoblanadi [2]. Rekreatsion hududlarda joylashgan kurort va dam olish maskanlari mahorat bilan rejalashtirish orqali mukammal yechimga erishish hamda dam olish maskanlarini kompleks tashkil etish mumkin bo‘ladi [3].

Dam olish maskanlarining me’moriy yechimiga alohida talablar mavjud bo‘ladi. Me’moriy yechimning asosiy maqsadi inson salomatligining psixofizik xususiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, kurortda qolish uchun yetarlicha qulay sharoitlarni ta’minlashdan iboratdir. 1920-yillarning boshlarida shu davr me’morlari tomonidan burjuaziya va zodagonlarning qasrlarini, ustunlar, ayvonlar va keng terassalar bilan bezatilgan sobiq mulklarni rekonstruksiya qilish va ular uchun sanatoriy-kurort muassasalarining yangi funksional yechimini taklif etish maqsad qilib olindi. Shuningdek, dam olish maskanlarining loyihaviy yechimini tubdan isloh qilinishi pansionatlar, dam olish uylari, sanatoriy binolari, odamlarning doimiy yashash joyi bo‘lgan umumiy kurort binolari oyna va beton mahsulotlari bilan boyishiga olib keldi [4].

Bugungi kunda tog‘li hududlardagi qadimiy manzilgohlar o‘rnida o‘z qiyofasini yo‘qotmagan holda kurort muassasalarini shakllantirish va ularga tutash hududni zamonaviy talablarga javob beradigan darajada obodonlashtirish yangi me’moriy yechim bo‘lib xizmat qilmoqda. Shimoliy Yevropa mamlakatlari kurort majmualarini jadal qurishda maksimal samaradorlik, zamonaviylik va qulaylik ko‘rsatkichlariga erishishga intilmoqdalar. Kurort zonalarini rivojlantirishda an’anaviy me’morchilik tamoyillari va tabiiy landshaftni uyg‘un ravishda tashkil etishga erishish uchun harakat qilinmoqda.

Ozarbayjonda turizmni rivojlantirish sohasiga berilayotgan katta e’tibor tufayli e’tiborga loyiq dam olish maskanlari, kurortlar kompleksini shakllantirishga muvaffaq bo‘linmoqda. Mamlakat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida zamonaviy mehmonxona va turizm infratuzilmasi yaratildi. Shu bilan bir qatorda, Ozarbayjon bo‘ylab ko‘plab sayyohlik marshrutlari ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tgan, eng go‘zal va unumdor hududlardagi dam olish maskanlari kompleksidan iborat bo‘lib, katta qismi shahar tashqarisida joylashgan. Ozarbayjon Respublikasining geografik joylashuvi qulay bo‘lib, Yevropa va Osiyo chegarasida joylashgan Kavkazortining butun sharqiy qismini egallaydi. Respublika Janubiy Kavkazning mintaqaviy yetakchisi hisoblanadi, chunki u xalqaro maydondagi eng yirik, iqtisodiy rivojlangan va siyosiy ahamiyatga ega davlatdir.

Bugungi kunda Ozarbayjon o‘zining neft va gaz resurslari bilan dunyoga mashhur. Shu bilan birga, mamlakat sayyohlik yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun juda katta turizm salohiyatiga ega. Ozarbayjonda turizm so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biridir. Sayyoramizning mavjud 11 iqlim zonasidan 9 tasi Ozarbayjon hududida joylashgan. Ozarbayjon turistik resurslarining tabiati va infratuzilma holatini hisobga olgan holda, turizm tizimini rivojlantirish uchun quyidagi turlar alohida qiziqish uyg‘otishi mumkin: madaniy, ma’rifiy, biznes, shuningdek, ixtisoslashgan turizm (plyaj, tadbir, ekologik, qishloq, ov va baliq ovlash, sport, sog‘liqni saqlash, etnik, ta’lim, chang‘i, ilmiy va boshqalar) [5].

Plyaj turizmi dam olishning eng mashhur turlaridan biridir: ko‘pchilik mahalliy (ichki) sayyohlar dengiz bo‘yida dam olishni afzal ko‘radilar. Bu yo‘nalish Absheron yarim orolida va mamlakat shimolidagi Nabran sayyohlik hududida faol rivojlanmoqda.

3-rasm. Ozarbayjon Xinaliq dam olish maskani manzarasi

So‘nggi yillarda chang‘i sport-sog‘lomlashtirish maskanlari juda mashhur va talabgir bo‘lib bormoqda. Shu munosabat bilan Ozarbayjonning Gusar viloyatida “Shahdag” loyihasi amalga oshirilib, uning yakuniga ko‘ra mehmonxonalar va ekologik toza muhandislik-transport infratuzilmasiga ega zamonaviy tog‘-chang‘i kompleksini foydalanishga topshirildi [6]. Bu esa, nafaqat mamlakat aholisini balki, xorijlik sayyohlarni mamlakatga jalb qildi. Dam olish maskanlari kompleksini shakllantirish orqali turizmni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi tamoyillarga asosan amalga oshirildi:

• sohaga doir munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish;

• dam olish maskanlariga jalb qilishni ichki va jahon turizm bozorlarida ilgari surishga ko‘maklashish;

• dam oluvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta’minlash;

• sanatoriy-kurortlarni tashkillashtirishda soha bo‘yicha litsenziyalash, standartlashtirish kabi hujjatlarni takomillashtirish;

• mamlakat hududidagi dam olish maskanlarini qurish bo‘yicha uslubiy va tizimli takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

• hudud ixtisosligidan kelib chiqib, dam olishning turlariga moslashtirish, bunda tabiiy rekreatsion zonalar landshaftiga sezilarli ta’sir etmaslikni eng birinchi maqsad qilib qo‘yish;

• dam olish maskanlari hududiga eltuvchi va komplekslashgan dam olish maskanlari transport tizimini shakllantirish va shu kabi tamoyillar asos bo‘ldi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida yuqorida keltirilgan chet el mamlakatlari, xususan Ozarbayjon mamlakatining dam olish maskanlarini rivojlantirish uchun ishlab chiqqan tamoyillari, O‘zbekistonning shahar tashqarisida joylashgan dam olish maskanlarini kompleks tashkil etish uchun andoza sifatida foydalanib, milliy tamoyillar jamlanmasini ishlab chiqish orqali mamlakatimiz rekreatsion hududlaridagi dam olish maskanlari kompleksini shakllantirishga erishish mumkin. Bu esa, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish va resurslardan unumli foydalanishga yordam beribgina qolmay, O‘zbekistonning iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. К.И.Самойлов, К.Р.Омаров «Мировой опыт развития курортных зон», статьи по специальности «Строительство и архитектура», УДК 712.23: 626.814(574), 96 стр.

2. Курорты. Энциклопедический словарь / Гл. ред. Е.И. Чазов. М.: Сов. энциклопедия, 1983. 592 стр.

3. Фоминых И.Л. Основы проектирования туристских, гостиничных и ресторанных комплексов // Учебное пособие – ВГУЭС: Владивосток, 2007. 104 стр.

4. Морозова Н.В. Принципы и приемы архитектурного формирования прибрежных рекреационных комплексов в горных ландшафтах (на примере горного Алтая). Барнаул, 2012. 228 стр.

5. Алиев Х.М. «Перспективы развития туризма в азербайджанской республике», статьи по специальности «Туристика», УДК 338.48(479.24), 45-46 стр.

6. Гасанов Ш.М. Курортные богатства Азербайджана. Баку: Азер-Медиа, 2013. 204 с.

SAMARQAND VILOYATIDA QISHLOQLAR JOYLASHISH TURLARI

TYPES OF LOCATION OF VILLAGES IN SAMARKAND REGION

Kuysinova Farangiz
Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering, teacher

Annotatsiya: Mazkur Maqolada Samarqand viloyati qishloq aholi punktlarining joylashuv tizimi, aholining zichligi,shahar va qishloqlarning uzviy bog‘liqligi va tabbiiy iqlim sharoitlarni o‘rganib,aholiga madaniy- maishiy xizmat qilish tizimini tashkil qilish uchun viloyat tumanlari zonalarga bo‘lib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq, aholi**,** joylashuv,punkit, hudud, zona, hudud,punkt,markaz,element.

Samarqand viloyatida qishloq aholi punktlarining joylashish va hududiy mujassamligining o‘ziga xos jihatlari, ularda istiqomat qiluvchi aholining zichligi qishloq hududlardagi aholi joylashuvi bo‘yicha alohida turlar ajratilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi: voha va tog‘ oldi vodiylardagi zich joylashuv (tog‘-vodiy joylashuvi); yaylov chorvachiligi hamda dehqonchilik rivojlangan hududlardagi joylashuv; asosan yaylov

chorvachiligi rivojlangan hududlardagi joylashuv va tog‘li hududlardagi joylashuv.

Umuman olganda, qishloq aholisining ushbu joylashuv turlari bugungi kunda ham saqlanib qolgan, lekin ularning har birida sezilarli sifatiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, shahar va qishloq aholi punktlarining o‘zaro bog‘liqlikdagi rivojlanishi va joylashuvning integrallashgan tizimlarining shakllanish jarayoni tezroq kechmoqda, cho‘lli hududlarda esa yondosh yerlarni o‘zlashtirish asnosida joylashuvning mahalliy o‘choqlari yaratilishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Sug‘oriladigan yerlardagi dehqonchilik hududlarida joylashuvning o‘ziga xos turi shakllangan. Bu yerlarda tumanlar bo‘yicha ishlab chiqilgan rejalashtirish sxemalari asosida “tep-tekis joylarda” ierarxiya darajasi turlicha bo‘lgan posyolkalar qurilgan bo‘lib, u joylardagi aholi va aholi punktlarining zichligi, eski o‘zlashtirilgan hududlardan farqli o‘laroq, aytarli yuqori emas. Shu bilan bir qatorda, tog‘ oldi hududlarida uzumchilik, bog‘dorchilik va lalmikor dehqonchilik uchun o‘zlashtirish ishlari ham olib borildi. Shuning uchun ham bu hududlarda aholi zichligiga, muvofiq tarzda, qishloq aholi punktlaridagi aholi gavjumligi ma'lum darajada ortib bordi.

Samarqand viloyatining qishloq joylaridagi aholi joylashuvining har-xil turlari shakllandi. Biroq, qishloq aholisi sonining o‘sishi va uning migrasiyaga moyilligining past darajasi, garchi qishloq joylardagi xo‘jalikning ko‘p mehnat talab qiluvchi tarmoqlarini rivojlantirish uchun ayrim dastlabki shartlarni yaratib bersada, baribir, qishloqdagi urbanizatsion jarayonlar kuchayishiga va joylashuvning hududiy tuzilmalari takomillashtirilishiga yetarlicha ta'sir ko‘rsatmaydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Samarqand viloyatida qishloq xo‘jalik hududlaridagi aholi joylashuvi shakllanishidagi o‘ziga xos jihatlar aholi punktlarining kelgusida turli tip hamda ierarxiya darajasiga ega joylashuv tizimlarini shakllanishiga qaratilgan rivojlanishida mavjud bo‘lgan real tendensiyalarni inobatga olish zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu jarayon negizida qishloqdagi ishlab chiqarish kuchlarining hududiy jihatdan oqilona tashkil etilishi, shahar va qishloq aholi punktlarini o‘zaro bog‘liq ravishda rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib beruvchi ijtimoiy va transport ifratuzilmalarini rivojlantirishga asoslangan aholi punktlarining integrasion potensialini oshirish kabi vazifalar yotishi lozim. Bu, o‘z navbatida, joylashtirish asoslarini va uning shaharsozlik potensialini kuchaytirish, shuningdek Samarqand viloyatining qishloq hududlaridagi joylashuv areallarida turmush kechirish makonlarini istiqbolli tashkil etilishi uchun asoslarni shakllantirib beruvchi eng muhim elementlarni aniqlash imkoniyatini yaratib beradi.

Qishloq hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash zaruriyatini hisobga olib turib, qishloq aholi punktlarini nafaqat Samarqanda joylashuv tuzilmasidagi eng ommaviy vakillari, balki yirik shaharlar aholisi va qishloq aholisi o‘rtasidagi bog‘lovchi elementlar sifatida qabul qilib, ularni imkon qadar jadalroq rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. biroq, aholi punktlarining ushbu toifasi uchun ijtimoiy-iqtisodiy potensialni shunchaki oshirishga asoslangan yo‘nalish muammolarni to‘liq hal qilinishini ta'minlab bermaydi. Ob'ektiv voqelik joylashuvning ikki – shahar va qishloqqa xos bo‘lgan shakllari o‘rtasida uzviy bog‘lanish va ularning rivojlanishida ma'lum izchillik mavjud ekanidan dalolat beradi. Buning natijasida shahar va qishloq aholi punktlarining funksiyalari o‘zaro boyitiladi va to‘ldiriladi hamda joylashuvning tizimli ko‘rinishlari shakllanadi. Shuning uchun, qishloq aholi punktlari rivojlanishidagi asosiy yo‘nalishi, bu o‘zaro bog‘liq aholi punktlari guruhlarining funksional-tuzilmaviy elementlari orqali shakllanishidan iborat deb qaralmoqda. Bunda qishloq aholi punktlari asosiy, ya'ni agrar-sanoat ishlab chiqarish, hordiq chiqarish, turizm, davolash kabi funksiyalari hisobiga o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini kuchaytirish hamda guruhli joylashuv markazlari bo‘lgan shaharlarning etakchi funksiyalarini to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

“SNIIEP grajdanselstroy” instituning ilmiy izlanishlari asosida ,QMQ 2 08. 01- 94,O‘zbekiston Respublikasi qurilish klematik zonasi kartasi,TashZNIIP me'morchilik iqlimsunoslik institutiga ishlab chiqilgan hududlardagi tabiiy- iqlim sharoitlarga asoslanib, UzNIIP gradostroitelstva va SamGASI dosenti R.T.Toshtemirovning xo‘jalik turar joylariga ta'sir qiluvchi omillarini o‘rganib chiqqan ilmiy izlanishlari asosida respublikamiz hududlari quyidagi joylashuv zonalari bo‘lingan(1-rasm). [2].



1– rasm. O‘zbekiston respublikasi qurilish – iqlimiy zonalarining kartasi [2].

Umuman olganda, aholi punktlari (ham shahar, ham qishloq aholi punktlari) joylashuvining shakllanishi va o‘rnining o‘ziga xos jihatlaribilan ajralib turadi. Quyida Samarqand viloyati qishloq aholi joylashuvining zonalarga bo‘linganligini ko‘rib chiqamiz.

1.Bir teksda yoyilib joylashtirilgan zona. Bu zonaga iqlimi mu'tadail bo‘lgan viloyat shaharlari tumanlari kiradi. Bular Samarqand, viloyatlarining ba'zi shahar va tumanlarixususan Bu zona respublikamiz hududlari va Samarqand viloyatida ham keng tarqalgan bo‘lib tekis rivojlangan dehqonchilik va chorvachilikning turli xillari bilan xaraterlanadi.Aholi punktlari orasidagi masofalar 10-15 km (chetki qishloqlardan to tuman markazigacha bo‘lgan masofa 30-60 km) tashkil etadi.Yo‘l tarmoqlari ham zich tashkil qilingan.Zonada manzilgohlar tuzilishi o‘rtacha aholiligi bilan xarakterlanadi.Qishloq manzilgohlarida aholining o‘rtacha soni 300-500 kishi atrofida, markaziy qishloqlarda 700-800 kishi. Tumanlar o‘rtacha 15-16 xo‘jalikdan iborat bo‘ladi.Markaziy qishloqlar bilan bir qatorda birdan uchtagacha ishlab chiqarish va chorva fermalari qishloqlari ham bo‘ladi.Tumanda yashovchi

qishloq aholisining soni 15-25 ming kishigacha,shahar aholisi 30-40 ming kishigacha. Tumandagi shaharlarning soni bir- ikkta bo‘lishi mumkin (Bulung‘ur, Bulung‘ur shahri,Urgut Urgut shahri,Pastdarg‘om,Juma shahri, Kattaqo‘rg‘on, Kattaqo‘rg‘on shahri).

2.Mozaykali joylashuv. Bu yerda qadimdan o‘zlashtirilgan hududlar(Ishtixon,Urgut,Payariq,Dahbet)kiradi.Aholisi zich hududlar, aholisi siyraklashgan hududlar bilan almashinib turadi.Ishlov berililadigan erlarninig tarqoqligi,ko‘p hollarda aholisi kam bo‘lgan joylashuv shakllarini paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu zonada manzilgohlarning tarkibini xususyatlari sochilganligi va aholisi kamligiga qaramay yaxshi rivojlangan transport arteryalari mavjudligi va tumanlarninig ixchamligidir.Markaziy qishloqlarda o‘rtacha aholi soni juda kam 200-400 kishi.Tumanlarda markaziy qishloqlarda 2-6 ming kishi. Tuman markazlarida- shaharlarda hajmi kengroq.Xo‘jalikning markaziy qishlog‘ida ma'muriy bo‘ysinuvchi manzilgohlarning joylashish radusi 5- 8 km eng chetga joylashgan aholi manzilgohi bilan tuman markazigacha masofa 30 km atrofida tumanlarda ho‘jaliklar soni 15-17 gacha. Xo‘jaliklarda 2-3 ta kichik fermer xo‘jaliklar bo‘lib har bittasida 2-10 tagacha oddiy qishloqlar bo‘ladi.

3.Tekis uzluksiz joylashgan model zonasi. Bu zonaga iliq iqlim sharoiti dehqonchilikninig tekis, tezkor, turli profildagi yo‘nalishlari, yirik chorvachilik majmualari shahardan tashqarigi hududlarning uzluksiz haydalgan erlari bo‘lgan regionlar kiradi.Bular Samarqand, viloyatiningba'zi tumanlaridir. (Jomboy, Oqdaryo, Pastdarg‘om, Ishtixon, Payariq, Tayloq,Narpay). Bu zonaga ko‘p hollarda ko‘p klometrli uzluksiz zanjirlarni tashkil qiluvchi yirik qishloq xo‘jalik manzilgohlari kiradi.Tumanlarda 18-20 ta xo‘jalik bo‘ladi va ularga ishlab chiqarish bo‘limining 1-2 ta qishloqlar kiradi.Ular mavsumiy qizg‘in dala poliz ishlari davrida to‘ldiriladi.

Hududlarning ixchamligi xo‘jaliklarnig birlashuvini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.Markaz sifatida ko‘pincha tuman hududlarida joylashgan kichik shaharlar va shahar tipidagi qishoqlar ishtirok etadi. Fermer xo‘jaliklaridagi qishloqlarning aholisi 500-800 kishi, markaziy qishloqlarning aholisi 1-2 ming, tuman markazlarining- shaharlarining aholisi 30- 60 ming. Eng chetdagi aholi turar joylaridan tuman markazlarigacha bo‘lgan masofa 20-25 km.

4.Bir joyga yig‘ib joylashtirilgan model zonasi. Bu murakkablashgan konfegurasiyali zona hisoblanadi zonaga Samarqand viloyatlarining tog‘ oldi va cho‘l yarim cho‘l (Nurabot,Urgut,Nurota,Qo‘shrabot Samarqand tumani Ohaglik) hududlari kiradi.Manzilgohlar tarkibining xususyati amalda xo‘jalikning barcha aholisini bitta joyga aholisi 3-5 ming, ba'zida 10 minggacha bo‘lishi mumkin bo‘lgan qishloq markazlariga yig‘iladi.Yozgi dala ishlari paytida qishloq markazlari mavsumiy joylar (uzoqdagi keng dalalar) yoki chetki joylashgan (yaylovlarda) fermer xo‘jaliklar qoshidagi qishloqlar bilan to‘ldiriladi.Manzilgohlar tarmoqlari mozaikali va teks uzluksiz joylashgan modellarga nisbatan siyraklashgan aholi turar joylari orasidagi masofa bu zonada 6-9 km ni tashkil etadi yuqorida ko‘rsatilgan modellarga nisbatan 2-3 barabar katta.Hududdagi mahalliy joylashuv tizimining va xo‘jalik ichidgi bo‘g‘inlarning masshtabi ham katta markaziy qishloqning ta'sir doirasi 12-15 km,tuman markazigacha 70 km. Ba'zi tumanlarda yo‘l- transport tarmoqlari bir biridan keskin farq qiladi.

Mamlakatimizda landshaft dizaynining rivojlanishiga Vazirlar Mahkamasining 13 avgust 2013 yildagi 223-sonli "O'zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturi» asos bo'ldi[8]. Oxirgi 5-7 yilda hududlar landshaftini tashkil etish sohasida nafaqat poytaxtda, balki respublikaning boshqa regionlarida ham sezilarli muvaffaqiyatga erishilganini ko'rish mumkin. Bugungi kunda ko'kalamzorlashtirish madaniyati mamlakat qishloqlariga ham etib bordi. Bu namunali posyoloklar, rekreatsiya va sog'lomlashtirish ob'ektlari, tashkilot va muassasalar, agrosanoat ob'ektlariga tegishli territoriyalar, shaxsiy uy-joylar va dacha uchastkalarining loyihalarida o'z ifodasini topgan.

Biz ochiq muhitlar landshaft dizayni sohasidagi yutuqlarimizni sanab o'tyapmiz, ammo o'simlikларn jamoat binolari va inshootlari intererida qo'llash masalasi, afsuski ochiq qolayotganini ham e'tirof etishimiz lozim. Yopiq muhitlarda fitodizayn, mef-

dizayni, akvadizaynning rivojlanishi nihoyatda sekin kechyapti.

Buni quyidagicha izohlash mumkin: vizual ma'lumotning etishmasligi, buyurmachining qiziqmasligi, sun'iy landshaftni loyihalash va yaratish jarayonining mablag' bilan ta'minlanmaganligi. Mablag'ning cheklanganligi va kerakli amaliy bilimning yetishmasligi zamonaviy jamoat binolari intererining oddiy yechimlariga olib keladi.

Yuqorida tilga olingan Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturi»da O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan shaxsan davlatimiz tarixchi olimlari, biologlari va o'simlikshunoslik tadqiqot sektori, arxitektor-landshaftchilariga quyidagilarni ishlab chiqish topshirig'i berilgan:

- ijtimoiy ob'ektlar muhiti va boshqa infrastrukturalarda qo'llash mumkin bo'lgan, allergik va boshqa zararli ta'sirga ega bo'lmagan o'simliklar turi haqidagi maxsus hujjatlarni;

- loyiha ishlarining optimal yechimini ta'minlovchi, loyihaviy muhitlarni "sog'lomlashtirish" va mo'tadil muhitni saqlash bo'yicha "tabiat" va "arxitektura ob'ektlari"ni keskin cheklovlarsiz qo'llash me'yor va qoidalarini[7].

Yuqoridagi dasturda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish natijasida, oxirgi yillarda tadqiqotchi olimlar tomonidan o'simliklarning qator foydali va foydasiz xususiyatlari o'rganilgan, jumladan intererlarni ko'kalamzorlashtirishga tavsiya etilgan o'nlab o'simlik navlari ichida fitonsidligi faol o'simliklar ham ko'rsatilgan. Patogen stafilokokkni samarali yo'qotuvchi qator o'simliklar aniqlangan, inson salomatligi uchun muhim bo'lgan mikroblarga qarshi xususiyatga ega bo'lgan o'simliklarning katalogi tuzilgan, *fitonsidlarning fitodizayn nazariyasi bilan ajralmas aloqasini ishlab chiqish zarurati ta'kidlangan.*

Kelajakda mazkur ishlanmalarning natijalari landshaft loyihachilari uchun kerakli bo'lgan «IT platformasi»ni yaratish uchun ma'lumotlar bazasini to'ldirishi mumkinki, bu o'simliklarni funksional vazifasiga ko'ra avtomatik ravishda tanlash, hamda boshqa loyiha-dizaynerlik ishlar bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkoniyatlarini beradi.

Adabiyotlar

1. Asmann. P. Zamonaviy floristika / P. Asmann. – M.: 2005 y.

2. Bixovets, L. I. Xona va bog 'o'simliklari / L. I. Bixovets, V. M. Goncharuk. – Minsk: Xarvest, Kultura i traditsii, 2004 y.

3. Bobur-noma: Bobur bitiklari / M.A.Sale tomonidan tarjima qilingan. S.A.Azimdjanova tahririyati. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti — 2-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. — Toshkent: Ensiklopediyaning bosh nashri, 1993 yil. - 464 b.

4. Klavixo, Rui Gonsales de. Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura (1403-1406) / / Per. so staroispanskogo, predisl. i komment. I. S. Mirokovoy; Otv. redaktori G. G. Beradze, K. K. Kutsiya. Institut vostokovedeniya AN SSSR. — M.: Nauka, Glavnaya redaksiya vostochnoy literaturi, 1990 g. — 216 s.

5. K.D.Raximov, Bog'-parklarning zamonaviy yo'nalishlari. O'quv qo'llanma. "Mashxur-press". Toshkent, 2017 yil.

6. K.D.Raximov, Landshaft rejalashtirish. O'quv qo'llanma. «Barkamol fayz media», Toshkent, 2018 yil.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining za № 223 ot 2013 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish Dasturini tasdiqlash to'g'risidagi" 223-son Qarori. –T., 2013 yil

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrda chiqarilgan 322-sonli "2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash" to'g'risidagi Qarori. –T., 2010 yil.

9. Ландшафтная архитектура и формирование комфортной городской среды. Материалы XVI региональной научно-практической конференции. Нижний Новгород 2020 г.

SAMARQAND MAYDONLARINING UMUMIY TAVSIFI VA HOZIRGI HOLATI, MAYDONLARNING TOIFALARI VA TURLARI

GENERAL DESCRIPTION AND CURRENT STATE OF SAMARKAND SQUARES, CATEGORIES AND TYPES OF SQUARES

Ilmiy rahbar: arxitektura fanlari nomzodi, texnika fanlari doktori
professor **Rahimov K.D.**
Mustaqil izlanuvchi: **Islamova D.G**
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlatarxitektura-qurilish universiteti.

Scientific supervisor: candidate of architectural sciences, doctor of technical sciences professor **Rahimov K.D.**
Independent researcher: **Islamova D.G**
Samarkand State University of Architecture and Construction named after Mirzo Ulugbek.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqandning tarixiy maydonlarining umumiy tavsifi va hozirgi holati, shahardagi maydonlarning me'moriy, tarixiy va funksional roli ko'rsatilgan. Samarqand tumanlarining funksional tipi va hududlarni

ko‘chalar bilan bog‘lash, zamonaviy muhit bilan kompozitsion uyg‘unlikni ta’minlash, shuningdek, asosiy ta’mirlash usullarini amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqilmoqda.

Аннотация: В данной статье дано общее описание и современное состояние исторических площадей Самарканда, архитектурная, историческая и функциональная роль площадей в городе. Рассмотрены вопросы функционального типа Самаркандских районов и соединения территорий с улицами, обеспечения композиционной гармонии с современной средой, а также реализации основных методов ремонта.

Abstract: This article shows the general description and current state of the historical squares of Samarkand, the architectural, historical and functional role of the squares in the city. Issues of functional type of Samarkand districts and connecting areas with streets, ensuring compositional harmony with the modern environment, as well as implementation of basic repair methods are being considered.

Kalit so'zlar: Maydon, arxitektura, shaharsozlik, madrasa, markaziy maydon, zamonaviy shaharsozlik, funksional markaz, tarixiy shaharlar, kompozitsion uyg'unlik, ma'muriy binolar, jamoat binolari, ko'cha, bosh maydon.

Key words: Square, architecture, urban planning, madrasah, central square, modern urban planning, functional center, historical cities, compositional harmony, administrative buildings, public buildings, street, main square.

Ключевые слова: Площадь, архитектура, градостроительство, медресе, центральная площадь, современное градостроительство, функциональный центр, исторические города, композиционная гармония, административные здания, общественные здания, улица, главная площадь.

Kirish. Maydonlar shaharsozlikning tarkibiy qismiga bo`lib, shaharning asosiy funktsional markazi maydon va uning oldida bozorlar joylashgan. U nafaqat turli xil savdo yoki xizmat jarayonlarini amalga oshirgan, balki ba'zi hunarmandlar o'z mahsulotlarini ishlab chiqargan. Masalan, temirchilar bolta ishlab chiqargan va bozorda sotgan.[1]

Qadim Samarqand shahrining rasmiy markazi - Registon maydonidir. Qadimiy Samarqand shahrining rasmiy markazi Registon maydoni bo‘lib, bu yerda uchta madrasa qad ko‘targan: Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari. Registon bu qadimiy ilm, ta’lim muassasalari joylashgan joy bo‘lib, sharqdagi shahar qurilishi san’atining eng ko‘zga ko‘rinarli namunalaridan biri hisoblanadi. 2001-yilda bu uch madrasa UNESCOning butun dunyo yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.(1-rasm)

1-rasm. Registon maydoni

Samarqandning barcha hududlarini funktsional turlari va maqsadi, hozirgi holatiga ko'ra tasniflash amalga oshirildi. Shundan kelib chiqib, har bir tipologik guruhdagi maydonlar muhofaza qilish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlangan.

Materiallar va usullar. Maydon bu ochiq, me’moriy jihatdan tartibga keltirilgan, atrofi bino, inshootlar yoki daraxtlar bilan to‘silgan keng satq bo`lib, o‘tmishda Ossuriya, Bobil, qadamiy Misrdagi saroy va ibodatxonalar majmuasi tarkibida dabdabali hovli maydonlar bo‘lgan. Ularning me’moriy an’analarini yunonlar -agara va qadimimiy rimliklar-form dab nomlan. XII-XIV-asrlarla Yevropa shaharlaridagi savdo-sotiq qilinadigan maydonlar bosh maydon hisoblangan. O`yg`onish davrida maydonlar shahar hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, maydonga yigilgan xalqqa e’lon va farmoyishlar o‘qilgan.

O‘rta Osiyo shaharlarida XIV-XVI-asrlarda savdo-sotiq qilinadigan gavjum joylardagi maydonlar Registon. Chorsu shaharsozlikning noyob namunasi sifatida diqqatga sazovordir. Maydonlar ko’chalar bilan bog’liq bo’lib, asosiy kirish ko’chasining o’qi markaziy maydonning o’rtasidagi binoga, haykalga qaratilgan bo’lib, shu yerda tugagan. Boshqa ko’chalarning bir tomoni maydonga tegib o’tadi. Ko’chalar markaziy maydon bilan bog’langanda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

1. Maydon bilan ko’chalarni bog’lashda, ko’chalarni loyihalash tizimi hisobga olinadi.
2. Maydonga chiqadigan ko’chalar soni 3-5 tadan oshmasin;
3. Maydonga chiqqan ko’chalarning jami eni, maydon perimetrining yarmisidan kam bo’lishi kerak.
4. Maydondan o’tib ketadigan ko’chalar maydon chetiga tegib o’tadi va undan ko’rinib turadi.
5. Ko’chalar maydondan o’tganda, uni bo’lmasligi kerak.
6. Markaziy kirish ko’chasi o’qi, maydondagi asosiy bino, haykal, monument o’qiga to’g’ri kelishi kerak.
7. Ko’chalar, maydondan o’tganda, uning transportlar yuradigan qismi aniq ko’rsatiladi.

Maydonlar shakli joyning relyefiga, quriladigan obyektlarning shakliga va ko’chalar bilan bog’lanishiga qarab har-xil bo’lishi mumkin. Maydonning eni uzunligiga nisbatan 1:1, 1:2, 1:3 bo’lib, ulardan eng yaxshisi 1:1,6 hisoblanadi.

Maydonning hamma tomonidan binolar, inshootlar qurilgan bo’lsa yopiq, agar bir tomoni ko’l, hovuz,

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Maydon

landshaftli joylarga qaratilgan bo'lsa, ochiq maydon deyiladi. Markaziy maydonga shu joyning talabiga javob beradigan inshootlar-klub, ma'muriy bino, savdo markazi, oshxona, choyxona kabi binolar quriladi.

Markaziy maydonga inshootlar joylashtirilganda, uning me'moriy kompozitsiyasiga ahamiyat beriladi. Maydonga joylashtirilgan binolar, inshootlar va boshqa elementlar bir-biri bilan uyg'unlashib, bir-birini to'ldirib, o'ziga xos me'moriy ansamblni tashkil qiladi. Markaziy maydonni tashkil qilishda me'moriy kompozitsiya usullaridan to'liq foydalaniladi.

Natijalar. Shaharlarning markaziy maydoni ularning visit kartochkalari bo'lib, shaharning eng asosiy joylari hisoblanadi. Shaharsozlik nuqtai nazaridan qaraganda, bu shaharning o'zagi sanaladi. Ijtimoiy nuqtai nazardan qaraganda, mahalliy aholi singari ko'p sonli odamlar va sayyohlarni o'ziga tortadi. Bu yerda albatta muhim tadbirlar va bayramlar o'tadi. Shahar maydoni shahar muhitini loyihalashda alohida e'tibor qaratiladigan muhim obyekt bo'lishi kerak. Eng muhimi asosiy binolar uchun tabiiy joy, ommaviy yig'inlar, tantanalar va tadbirlar o'tkaziladigan joy bo`lishi kerak.

Maydonlar shakllanishiga qarab bir necha turlarga bo'linadi.

Keng maydon. Maydon ustida ko'tarilgan bino uni ifodalovchi joyga mos o'lchamlarga ega bo'lishi kerak. Bunda, maydon binoga hukmronlik qiladi, uning uzunligi binoning balandligidan ancha katta bo'ladi.

Yadroviy maydon. Bo'shliq markaz atrofida hosil bo'ladi.

Guruhlangan maydon. Fazoviy birliklar kattaroq kompozitsiyalarga birlashtiriladi.[3]

Maydonlar ularning maqsadlariga qarab bir necha turlarga bo'linadi.

Asosiy maydonlar. Bu yerda shahardagi festivallar va odamlar uchrashadi va dam oladi. Transport va piyodalar oqimi yuqori bo'ladi. Qoidaga ko'ra bunday maydonlar asosiy ko'chalarga tutashgan yoki ularning chorrasida joylashgan bo'ladi. Shaharning bosh maydonida va uning atrofida shahar ahamiyatiga ega bo'lgan jamoat va tadbirkorlik infratuzilmasi obyektlari-madaniyat va dam olish uylari, konsert zallari, muzeylar va boshqalar joylashgan bo'ladi. Bosh maydonning perimetri, qoida tariqasida, jamoat va tadbirkorlik infratuzilmasi obyektini hamda bosh shahar va tuman ahamiyatiga molik ikkinchi darajali ko'chalarni tashkil qiladi. Maydonda transport va piyodalar oqimining intensivligi yuqori bo'ladi va avtoturargoh odatda tashkillashtirilmaydi, chunki bu piyodalar va transport vositalarining harakatiga to'sqinlik qiladi.

Transport maydoni-yondashgan ko'chalarga transport oqimlari taqsimlanadi. Transport maydonida avtoturargoh va piyodalar oqimining intensivligi yuqori bo'ladi. Transport hududida savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari o'rnatilgan xonalar, pavilyonlar, kioskalar mavjud bo'ladi. Maydon chegaralarida avtoturargohlar va jamoat transporti bekatlari mavjud bo'ladi. Transport maydonlari qoida tariqasida, asosiy transport uzellari temir yo'l yoki avtovokzallarga tutash bo'lib, qo'shni shaharlar bilan aloqani ta'minlaydi. Ularning chegaralarida avtoturargohlar va jamoat transporti bekatlari mavjud. Ushbu maydonlarning o'lchamlari transportning intensivligi va maydonni kesib o'tadigan ko'chalar soni bilan belgilanadi [4]. Maydonda harakatlanishni tashkil qilish estetik sabablarga ko'ra yo'qotilmasligi kerak.

Vokzal oldi maydoni-tashqi transport inshootlariga, avtomobil to'xtash joylariga, yo'lovchi transportlari bekatlariga kirish hamda transport va piyodalar oqimlarini tashkil etish va ajratish uchun. Vokzal oldi maydoni temir yo'l va shaharlararo transport o'rtasida yo'lovchilarni xavfsiz, tez va ayni paytda qulay tashish uchun foydalaniladi. Shuning uchun bu stansiya binosi yagona transport tizimidir. Temir yo'l aloqasi shaharlararo shahar atrofiga bo'linadi. Shahar aloqasida jamoat transporti va individual transport hisobga olinishi kerak.Vokzal maydoni shaharning asosiy kirish maydoni vazifasini bajaradi. Mintaqaning arxitektura-rejalashtirish yechimi odamlarni tashqi transportdan shahar transportiga ko'chirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Ikki zonaga bo'linadi: stansiya zonasi va shaharga qaragan va arxitektura fazoviy vazifani bajaradigan shahar maydonidir. Maydonning me'moriy rejalashtirish yechimi odamlarni tashqi transportdan shahar transportiga o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

2-rasm.Sanvarqand vokzal oldi maydoni.

300-400 ming aholi istiqomat qiladigan shaharlarda avtobuslardan tashqari, vokzal maydoniga faqat vokzal hududigacha boradigan tramvay xizmat ko'rsatadi. Aholisi 300-400 ming aholi istiqomat qiladigan shaharlarda avtobuslardan tashqari trolleybuslar ham ishlatiladi. Shu bilan birga, vokzal oldi maydonlari odatda kvadrat yoki to'rtburchaklar shaklida bo'ladi. Vokzal oldi maydonlari temir yo'l, dengiz, daryo va avtomobil stansiyalarida, aeroportlarda tashkil etiladi. Vokzal oldi maydonlari shaharga kirish uchun o'ziga xos "darvoza" bo'lib xizmat qiladi. Ular transport vositalari va piyodalar uchun ularni kesib o'tmasdan murakkab o'tish joylarini , shuningdek, avtomobillar, trolleybuslar, tramvaylar va avtobuslar uchun to'xtash joylarini chegaralashni talab qiladi.

Maydonlarning taxminiy o'lchamlari katta shaharlar uchun 2-4 gektar, o'rtacha shaharlarlar 1-2 gektar; kichik shaharcha uchun 0.75-1 ga teng (2-rasm).

Bozor maydoni. Bozor maydoni bozor otkaziladigan savdo uchun mo'ljallangan maydondir. Bu dunyodagi ko'plab shaharlarning muhim xususiyatidir. Bozor maydoni-bu ochiq maydon bo'lib, u yerda savdo do'konlari an'anaviy ravishda savdo qilish uchun o'rnatiladi, odatda haftaning ma'lum bir kuni , bozor kuni deb nomlanadi. Bozor maydoni kvadrat yoki to'rtburchakdan yoki yoki ba'zan faqat asosiy ko'chaning kengaytmasidan iborat. U odatda shahar markazida joylashgan bo'lib, shahar hokimiyati, muhim do'konlar va mehmonxonalar, pochta bo'limi, kichik do'konlar va savdo binolari kabi yirik binolar bilan o'ralgan bo'ladi [3].

Teatr maydoni. Yashil teatr maydonlari tomoshabinlarni qabul qilish va evakuatsiya qilish uchun mo'ljallangan arxitektura jihatdan tashkil etilgan maydon; dam olish, funksional aloqalar uchun bayramona, qulay muhit yaratish uchun mo'ljallangan joylar.

Stadion oldi maydonlar. Stadion oldi maydonlari tashrif buyuruvchilarni tarqatish uchun yetarlicha katta maydonga ega stadionlar oldida joylashtiriladi.

Ko'p funksiyali maydon-maydonning shahar tarxida o'rni va uning bajaradigan ishi bosh tarxda aniqlanadi. Maydonni loyihalashda transport va piyodalar harakatini tashkil etish sxemasini tuzish lozim.

Ko'cha, maydon-shaharning ko'cha-yo'l tarmog'ining qizil chiziqlari bilan chegaralangan umumiy foydalanish hududlari [4].

Maydonning yana bir turi-shahar ichidagi transport uchun tushirish maydoni. Eski shaharlarda turli burchaklarda kesishgan ko'chalar ko'pincha chorrahalarda tezyurar avtotransport uchun noqulayliklar yaratadi va bu chorrahalarda dinamik tip deb ataladigan maxsus turdagi maydonni yaratishni talab qiladi.

Zamonaviy shahardagi uchinchi turdagi maydonlar bolalar to'planib, soatlarini ochiq havoda o'yinlarda o'tkazishlari mumkin bo'lgan maydonlar bo'lishi kerak, bu yerda ko'chalarni kesib o'tishda ular bolalarga xavf tug'dirmasligi kerak. Bulvarlar bir xil rol o'ynashi mumkin.

Muhokama. Arxitektura-kompozitsiyaviy tashkil etish va rivojlantirish usullariga ko'ra maydon yopiq, yarim yopiq va ochiq maydonlarga bo'linadi. Yopiq maydonlarda atrofidagi binolar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Yarim yopiq maydonlarda bir tomonda katta jamoat binolari tashkil etgan bo'ladi. Ochiq maydonlarda kompozitsiyada ko'proq park va bog'lar, suv inshootlari muhim rol o'ynaydi [3].

Registon – «Samarqand forumi» deb bugungi kunda nomlanuvchi maydon, umumjahoniy poytaxt hayoti ritmiga javob berib, keng qamrovli masalalarni yangicha talqin etishni tasdiqladi. Registon binolari shahar markazini tashkil etib, arxitekturaviy g'oya yaxlitligi hajmiy mutanosiblikni har qanday ko'rish nuqtasida ham ta'minlab turibdi .

O'zbekiston shaharlaridagi ma'muriy - jamoa markazlari tarkibiga viloyat, shahar hokimliklari binolari, xo'jalik binolari, g'aznachilik va boshqa boshqarmalarning binolari joylashgan. Bundan tashqari, shahar markazida madaniy-tarbiyaviy ahamiyatdagi binolar (teatrlar, kino zallari, bibliotekalar, klublar, muzeylar) va savdo majmualari joylashtirilishi mumkin. Katta bo'lmagan aholi yashash punktlarida esa umumshahar ma'muriy markazi sifatida, shahar maydonlaridan biri tanlanishi mumkin.

Xulosa. Shahar muhitining ochiq me'moriy maydonlari zamonaviy shaharlarning eng muhim tarkibiy elementlari hisoblanadi. Shaharning individual estetik qiyofasini ochib berish uchun tarixiy va zamonaviy noyob jamoat, turar-joy va sanoat binolariga ega bo'lishi yetarli emas. Ko'cha va maydonlar shahar hayotining haqiqiy sahnasi bo'lib, u yerda turli tadbirlar o'tkaziladi. Shahar qurilishi jarayonida tarixiy maydonlar bilan bir qatorda zamonaviy maydonlar ham paydo bo'di. Ular turli funksional maqsadlarga ega va juda tez-tez bir nechta funksiyalarni birlashtiradi biznes, chakana savdo, dam olish, me'morial va boshqalar. Har qanday maydon makonning barcha kosmik rejalashtirish komponentlari o'rtasida hissiy va estetik munosabatlarni o'rnatadigan va insonga ta'sir qiluvchi ma'lum bir kompozitsion tuzilishga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Архитектурная концепция комплексного благоустройства и перспективного развития площадей. Пояснительная записка к выпускной квалификационной работе ЮУрГУ - 07.04.03.2018.669.ПЗ КП
2. D.U.Isamuhamedova "Shaharsozlik asoslari " I qism. 2009 y.
3. Современные общественные пространства как инструмент развития городской среды. Материалы межрегиональной научно-практической конференции . Санкт-Петербург 2018
4. Б.И.Муталова, К.Д.Абдуллаева. Учебное пособие "Реконструкция города и развитие" ТАСИ 2020
5. http://guide.beeline.uz/uz/site/view?id=93
6. https://ru.wikipedia.org/wiki /(площадь)

МЕТОДЫ СОЗДАНИЯ БАЗЫ ДАННЫХ ПО ПАМЯТНИКАМ АРХИТЕКТУРЫ БУХАРЫ (НА ПРИМЕРЕ МЕДРЕСЕ АБДУЛАЗИЗХАНА)

Салимов О.М. – профессор, док.арх.наук
Ташкентский архитектурно строительный университет
Файзуллаева З.Н. – ассистент кафедры
Бухарский инженерно-технологический институт

Аннотация: В статье указаны методы паспортизации и условного взятия на учет памятника архитектуры медресе Абдулазизхана II в городе Бухара.

Annotatsiya: maqolada Buxoro shahridagi Abdulazizxon II madrasasining arxitektura yodgorligini pasportlashtirish va shartli ravishda ro'yxatga olish usullari ko'rsatilgan.

Abstract: The article describes the methods of certification and conditional registration of the architectural monument of the madrasah of Abdulazizkhan II in the city of Bukhara.

***Ключевые слова*:** архитекрутные памятники, сохранение и защита памятников, медресе Абдулазиз-хана – II.

Kalit so'zlar: me'moriy yodgorliklar, yodgorliklarni saqlash va himoya qilish, Abdulaziz xon-II madrasasi.

Keywords: architectural monuments, preservation and protection of monuments, madrasah Abdulaziz Khan II.

Известно, что в настоящее время ощущается сложность получения определенного объема информации о многих архитектурных памятниках. Потому что для посетителя или туриста нашей страны до сих пор не был создан специальный информационный сайт о культурных памятниках, которые существуют в Узбекистане.

Сегодня мы много говорим об архитектурных сооружениях, о множестве архитектурных памятников, возведенных в разные века. Мы ищем способы сохранить их, защитить, передать будущим поколениям. Так или иначе, каждый из сохранившихся до наших дней исторических и архитектурных памятников связан с каким-то периодом богатой истории нашей страны, проявляя в себе развитие культуры далекого прошлого народа. Поэтому важно, чтобы мы досконально изучили историю этих зданий, которые существуют сейчас, дополнили информацию об исторических городах, проанализировали их конструктивное состояние в наши дни.

Это означает, что это будет то же самое, что создать информационный сайт, содержащий конкретную информацию о каждом историческом памятнике. Он будет содержать информацию обо всех объектах культурного наследия на территории нашей республики. Такая учетно-оценочная информация в совокупности составляет общую информацию об объектах культурного наследия, представленную в алфавитно-цифровой (текст, таблицы, ведомости) и линейной (планы, схемы, разрезы и размеры) формах. В нем указано точное название памятника архитектуры, сведения о географическом расположении, типологической принадлежности, дате. Приводится информация об истории возведения памятника, его конструкции, ремонтных работах, проводившихся в разные годы, их времени, назначении. Кроме того, приводится внешний вид памятника на сегодняшний день, его архитектурное описание, состояние его конструкции и существующих декораций, то есть его техническое состояние. Среди графических рисунков памятника желательно указать его генеральный план и границы охраны.

С целью создать информационный сайт, мы хотим рассмотреть на примере медресе Абдулазизхана в городе Бухара.

Медресе Абдулазиз-хана – II по сведениям, имеющимися в источниках, построено в XVII в. (1652г.) и расположено в центральной части древнего Шахристана Бухары.

К периоду строительства медресе на территории Мавераннахра предшествовали бурные исторические события. Во второй половине XVI века под напором казаков начинается движение племен, населявших нижнюю Волгу, известных под названием Аштарханидов или Джанидов по имени родоначальника Джанибека, которые захватили Бухарское ханство со столицей в Бухаре.

Отсутствие сильных наследственных приемников на ханский престол в государстве Шейбанидов привело к его полному раздроблению на мелкие удельные владения.

Но и при новой династии внутриродоплеменные распри продолжали раздирать страну, отдельные районы которой подвергались уничтожению людей, грабежом. При одном из набегов на Ходжент бухарский хан Нодир Мухаммад (1642-1645гг.) послал против них войско под начальством своего сына Абдулазизхана.

Во время похода Абдулазиз был провозглашен ханом в Ходженте. Нодир, бывший в то время на охоте в Каршинской степи, узнав об этом, поспешно отправился в Балх, а Абдулазиз – в Бухару, где его избрание ханом было окончательно санкционировано знатью.

Рисунок 1. Медресе Абдулазихана II. Бухара

Местоположение медресе Абдулазизхана II хорошо известно, оно расположено в центральной части древнего шахристана Бухары, напротив медресе Улугбека. Однако, различие во временах их строительства, составляющее более 220 лет не только ставит вопросы в историческом плане, но и позволяет отметить ряд особенностей в части взаиморасположения обоих сооружений.

Во-первых, возникает вопрос: существовало ли какое-либо сооружение на месте медресе Абдулазизхана II до его постройки, составляя с медресе Улугбека принцип «кош»?

Известно, также, что до постройки торгового купола Таки-Заргарон, расположенный к Востоку от медресе, примерно у юго-западного угла от медресе Улугбек находился Чор-Су. В тоже время, главный фасад медресе Улугбека по своему направлению запад-восток, был ориентирован по прямой идущей к главному порталу Мечети Калон. С таким расчётом, видимо, и ставилось медресе Улугбека. С постановкой медресе Мир-Араб, а затем и купола Заргарон – эта градостроительная идея была нарушена.

Постановка же медресе Абдулазизхана была подчинена оси улицы, учитывающий уже проход через Токи-Заргарон. В результате, видимо, был срезан угол предпортального дворика пред медресе Улугбека и поэтому фасады обоих медресе не параллельны. Это положение зафиксировано аэрофотосъёмкой.

Ко времени правления Абдулазизхана – II (1645-1660 гг.) кроме одноименного медресе относятся ещё четыре известных над медресе: медресе Миракон (1655г.) находившийся у ворот Шейхжаляль, медресе Хиябан (1655г.), располагавшиеся примерно на середине проспекта Хиябан с западной его стороны, медресе Бозори Гусфанд (1655г.), располагавшееся на северной стороне Регистана и Джуйбари Калон (1671г.) – на южной оконечности проспекта Хиябан. Сравнивая эти сооружения с медресе Абдулазизхана, следует отметить, что он гораздо беднее по своим архитектурно-художественным достоинством и, видимо, являются постройками различных сановников хана. Медресе же Абдулазизхана несомненно является "царским" сооружением, к которому во время его строительства предъявлялись "хозяином" различные претензии по качеству, декора и другим показателям. Несмотря на то, что строительство медресе явно было не завершено, тем не меннее на нём сохранились надписи с упоминанием имён мастеров, каллиграфов, керамистов, которые принимали участи в его строительстве.

Так, в Мукимхановской истории сообщается, что надписи в нём и внутри него написал почерком сульс Маулона Муаммед Амин, который несмотря на слабость зрения был опорой учителей каллиграфии. В тимпане восточной ниши мечети сохранилось имя расписавшегося зал художника: "Роспись усто Нажот Кули казвини". По левую сторону – надпись, заключавшая имя мастера, который оформлял купол и свод: "Работа придворного раба (слуги) Мухаммад салох меъмора" и т.д.

Рисунок 2. Фасад медресе Абдулазизхана II. г.Бухара.

В декорировки медресе: в росписях, в отделке майоликой и мозаикой, в качестве работ, в подборе цветов отчетливо просматривается хороший вкус и высокое мастерство исполнителей. Учитывая, что в монументальной росписи с применением кизил-кисака с позолотой медресе Абдулазизхана носило ещё одно название – "Заргарон", т.е. "ювелиров".

Результаты исследований подтверждают недостроенность медресе. Но именно это объстятельство вызывает удивление, так как оно находилось в процессе строительства почти 28 лет. И объём незавершенных работ составляет почти 40% от общего объёма.

Рисунок 3. Входной портал медресе.

Левая и правая стороны внутренних фронтонов прямоугольного строения очень величественны и изящны. Наблюдая за двором, можно заметить, что левая сторона здания украшена узорами, а правая -

простой глиняной штукатуркой. Отмечается, что Абдулазиз хан, начав работы по украшению медресе, потратил огромную сумму денег.

После того, как он отправился в хадж в 1681 году, ремонт медресе застопорился. После смерти Абдулазизхана, другие правители не продолжили работу по украшению стен здания. Мраморные камни на фундаменте здания тоже очень рельефные и элегантные. В центре двора находился 16-метровый колодец, задача которого заключалась в постоянном обеспечении медресе водой.

Описание памятника:

Медресе Абдулазизхана в г. Бухаре, построенный в XVII в. расположено напротив медресе Улугбека, образуя тип сооружений «Кош». Это традиционное медресе того периода времени. В центре образующим является двор, вокруг которого сгруппированы худжры, зимняя и летняя мечеть, дарсхона и др. помещения.

Главный северный фасад имеет высокий портал, к которому примыкают с восточной и с западной сторон двухэтажные арочные галереи. Весь фасад украшен декоративными облицовками. Остальные фасады решены более скромно. Кладка всего сооружения возведена из жженого квадратного кирпича (26х26х5,5см) на глиняном растворе.



Рисунок 4. Зал мечети в внутри медресе.

Рисунок 5. Внутренний двор медресе.

Этот памятник архитектуры по праву считается наивысшим достижением в зодчестве Бухары XVI-XVII вв. Развернутый фасад оформлен традиционным высоким порталом и фланкирован башнями, между которыми расположены двухярусные лоджи ниши. На его оси лежит трехкупольный вестибюль. Средний купол представляет собой соединение четырех пересекающихся арок с заполнением промежутков ребрами. Здесь с успехом применена система подобно мечети Калон и медресе Мири-Араб. В углах располагаются половинки сомкнутых сводников из облицованного кирпича с контурным рисунком из синих поливных кирпичиков.

Нише портала придана граненная форма: в трехгранях устроены стрельчатые ниши в два этажа. Большую нишу перекрывает один из лучших сталактитовых полукуполов с резьбой и росписью. Портал облицован резной мозайкой и росписной майоликой с цветным орнаментом. Двор окружает аркада в два этажа, за которой расположены сводчатые комнатки-худжры с богатой внутренней отделкой. С четырех сторон двора устроены большие айваны, причем южный превращен в открытую летнюю мечеть с пышно отделанным интерьером. Декоративный купол представляет сочетание сталактитовых элементов со сложным сетчато-звездчатым сводом на щитовых парусах. Этот же приём в ещё

более развитом виде применен в куполе зимней мечети (северо-западный угол). Главный купол, паруса, карниз и все четыре ниши оформлены сталактитами самых разнообразных систем. Все элементы расписаны живописью по рельефу золоченному фону. Интерьер аудитории (северо-восточный угол) оформлен сталактитами других систем. Дворовые фасады отделаны всеми видами облицовок, в том числе прекрасными мраморными панелями с резными колонками.

Слева и справа от входа, по традиции – дарсхона и мечеть, притом мечеть в своих внутренних контурах повернута слегка в направлении оси на юг, что нисколько не нарушает целостность плана.

Отдельные элементы не видны в отличии уже от существовавших медресе в г. Бухаре мы наблюдаем в Абдулазизхане. Площадь двора сокращена, и всемерно развиты глубокие айваны и лежащие за ними внутренние помещения. В западной части медресе в композицию плана вписан восьмигранный внутренний дворик, крытый куполом со световым фонарем – явление новое и оригинальное в архитектуре Бухары. Дворик – этот, квадратный в плане, со скошенными углами, окруженный в два этажа галереями и худжрами, очень напоминает в интерьере купол Токи-Заргарон: и здесь и там щитовидные паруса сводят квадрат со срезанными углами к шестиграннику, несущему низкий барабан, прорезанный стрельчатыми арками, и купол.

В северной части двора, позади айвана, комплекс помещений с узкими ответвляющими от главного ствола проходами. Они ведут в ряд небольших помещений, расположенных в два этажа и сообщающихся внутренними лестницами. Такие же ответвляющиеся проходы устроены и в двух других углах медресе. Здесь явны попытки создания многоквартирного здания, попытки, как считают исследователи, неудачные, ибо зодчий не решился отступить от общей традиционной формы медресе и вынужден был прибегнуть к устройству темных узких ходов, расположенных в массиве стен здания. В майолике, покрывающий порталы, характерные для архитектуры второй половины XVI в. тона: лиловые, синий, мутный светло-зелёный и белый. В растительном орнаменте много дробных элементов, зеленый и белый. В растительном орнаменте со спиралевидными побегами растений. Плоскости стен большой арки портала украшены мозаикой из поливных не глазурованных кирпичей разнообразного геометрического рисунка.

Некоторая несоразмерность частей здания и особенно запутанность его внутренних помещений говорят об утере архитектурной этой эпохи ясности и простоты здесь жить и развиваться. Поиски нового терпят подчас неудачу, но в отдельных решениях (своды над вестибюлем и крытый дворик, усложнение плана для устройства служебных помещений) прогрессивные тенденции движут архитектуру вперёд. Заслуживают внимания двери медресе Абдулазизхана – они выполены в сложной технике набора мелких деревянных частей, с прекрасной резьбой геометрического рисунка и заполнением промежутков растительным узором.

Литература:

1. Шавкат Бобожонов. Шариф шахар ёдгорликлари. “Бухоро” нашриёти. 2017й.
2. А.М.Салимов. Сохранение и использование памятников архитектуры Узбекистана.Изд. “ФАН”, Ташкент, 2009.
3. *Лавров В. А.* Градостроительная культура Средней Азии. — М. : Гос. изд-во Архитектуры и градостроительства, 1950. — 178 с.
4. *Нильсен В. А.* Архитектурный декор памятников Узбекистана / Манакова В. Н.. — Л. : Стройиздат, 1974. — 272 р.
5. *Мухамеджанов А. А.* Бухара — город двадцати пяти веков // Общественные науки в Узбекистане. — 1997. — № 9-10-11.
6. *Сухарёва О. А.* Квартальная община позднефеодального города Бухары. — М. : Наука, 1976. — 366 р.
7. *Пугаченкова Г. А.* Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана / Ремпель Л. И.. — Т. : Гос. изд-во Художественной архитектуры УзССР, 1958. — 292 с.
8. *Пугаченкова Г. А.* По древним памятникам Самарканда и Бухары. — М. : Искусство, 1968. — 205 с.
9. *Пугаченкова Г. А. Ремпель Л. И.* Очерки искусства Средней Азии. — М.: "Искусство", 1980. — 287 р.

УДК 515.1

RELATIONSHIP OF PEDAGOGY WITH OTHER SCIENCES AND SYSTEM OF PEDAGOGICAL SCIENCES

Makhmudova Sabohat Abdusattorovna
Samarkand State University of Architecture and Construction

ANNOTATION: This article describes the relationship between pedagogy and other disciplines and the system of educational sciences.

KEYWORDS: Didactics, Didaskal, training, knowledge transfer,

Teachers and students who are citizens of each country must know the history of their homeland and be patriots. It is impossible to become a teacher without knowing the history of education and the history of pedagogy.

The teacher has a systematic influence on the students in order to give them knowledge, to educate them. It is based on psychological and social factors. That is, in order to know the effect of the influence, he determines the plan of influence based on knowing how the student's intuition, perception, imagination, attention

and thinking, thinking process is going. In particular, it is necessary for a teacher to have deep knowledge of the psychology of youth.

A teacher who knows this well approaches the child taking into account the age and individual characteristics of each child and can effectively influence him. In a certain sense, psychological sciences that serve teachers can also be included in the system of pedagogic sciences. Philosophy serves as a methodological basis for the science of pedagogy.

Philosophy equips pedagogy with scientific methods and becomes a source for development of objective laws and regulations of education and upbringing. The science of ethics and aesthetics provides information on the department of educational theory of pedagogy.

This science is related to the science of pedagogy in terms of defining and determining the standards of the student's behavior and manners, as well as explaining beauty in the true sense of the word, directly stimulating the attractive and elegant aspects of life in the student's mind.

Ways of teaching subjects are related to didactics, because the method of teaching any subject serves to master the content and system of this subject by students.

Therefore, the science of pedagogy has a strong relationship with such disciplines as children's anatomy, physiology, children's hygiene and pediatrics, these sciences are closely related to each other.

Pedagogical branches of theoretical and practical aspects of teaching and educating students in various fields

illuminates.

Modern pedagogy should solve the important issues of raising people working in the spheres of social life to become educated, perfect people who can withstand competition in the conditions of the market economy, are highly conscious, can think independently, and become an example to others with their behavior. If we can form healthy beliefs and a high worldview in our youth from childhood, they will grow up to be spiritually rich, independent-minded and noble individuals.

Ideological worldview and national ideas are formed on the basis of such beliefs. In instilling the idea of national independence into the minds and hearts of young people, the role of our national customs and traditions, families and neighborhoods, especially educational institutions, is very important, and this is also a great task for the science of pedagogy. puts Pedagogy determines the methods, means and ways of managing the educational process.

Another important concept of pedagogy is the word "Didactics". In ancient Greece, a person who taught a slave's child at school was called "Didaskal". "Didactic" is derived from the Greek word "didaktikos" and means "to teach", "to teach", "to impart knowledge".

Now, the scope and content of these concepts has become much richer and expanded, and it includes not only the activity of the teacher, but also the activity of the student. The main categories of pedagogy are education, training, information, development, pedagogical activity, pedagogical process, knowledge, consists of educational methods, principles, etc. We call them pedagogical concepts.

Education is the systematic influence of the educator on the mentality of the students in order to instill the desired qualities into their minds. Due to the fact that the term "education" is evaluated as a comprehensive concept in world pedagogy, there are different theories about its essence.

Understanding education as a process of influencing children by adults (teachers, coaches and parents) is the most common tendency. In this place, the ideals, goals that adults consider correct,

it is expected to influence in accordance with tasks, norms and requirements, of course. This understanding of education is closer to the truth, but it has a completely subjective nature and reflects only a certain part of this process.

In this definition of education, the child is considered only as an object directed to the influence of adults. If pedagogy also refers to the training of initiative and independent individuals, the role of an active subject in the pedagogical process is given to the student.

Literature:

1. Bakhromovna, K. Z., & Ibraimovna, M. F. (2022). Use of Modern Industrial Technologies in Architecture.
2. Hidirov, M. M., Eshatov, I. Q., &Mahmudova, F. (2021, June). ARCHITECTURAL AND PLANNING ORGANIZATION OF AGGLOMERATIONAL TRADE AND SERVICE COMPLEXES IN THE UZBEKISTAN. In E-Conference Globe (pp. 60-64).
3. FiruzaIbraimovna, M. (2023). Scientific and Natural Study of the Architecture of the Khiva Garden-Palaces, Development of Recommendations for their Use for Modern Tourism Purposes. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(3), 10-13.
4. Ibraimovna, M. F. (2023). Analysis of Various Roofs and Roofs. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 2(3), 33-39.

SAMARQAND USTA RESTAVRATORLARI
SAMARKAND MASTER RESTORERS

J.Rahmanov
Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining madaniy meros obyektlari bo'yicha maslahatchisi

A.Botirov
Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Loyiha faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi

J.Rakhmanov
Minister of construction and housing and communal services cultural heritage facilities consultant

A.Baturov
Ministry of construction and housing and communal services Chief Specialist of the Coordination Department of project activities

Annotatsiya. Maqola Samarqandda yashab faoliyat ko'rsatgan usta restovratorlar ijodiga bag'ishlangan. Muallif har bir restavrator ustaning faoliyatidagi yorqin ijog namunalariga alohida to'xtalib o'tgan. Bundan tashqari kulol va koshin ustalari ham aytib o'tilgan. Ularning amaliy ishlari haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan.
Kalit so'zlar. Samarqand ustalari, restavrator, Shohi-Zinda, Registon, Go'ri-Amir.

Annotation. The article is devoted to the work of Master restorers who lived and worked in Samarkand. The author specifically touched on the bright ijog patterns in the activities of each restaurateur master. In addition, Potters and tin masters are mentioned. A brief overview of their practical work is given.
Keywords. Samarkand Masters, restorer, King-Zinda, Registan, Gouri-Amir.

Samarqand kulol va restavratorlari. Markaziy Osiyo me'moriy yodgorliklari bo'yicha yetakchi mutaxassis, me'mor B.N.Zasipkin o'z asarida ta'kidlaganidek, restavratsiyani amalga oshirgan jamoa tarkibida Moskvadan kelgan me'morlar bilan bir qatorda xalq ustasi Abduqodir Boqiyev va o'sha paytdagi vaqf komissiyasi raisi Abdusaidov ham bor edi. 1922-1925 yillarda Samarqand kulolchilik ustaxonasiga tajriba ustasi sifatida eng keksa usta Usto Abduqodir Boqiyev taklif qilingan.

1.*Usto Abduqodir Boqiyev* (1860-1933) Samarqandning obidalarini tiklashga munosib hissa qo'shgan. U 1924-1926 yillarda Sherdor madrasasi bosh peshtoqining qattiq deformatsiyagalangan, ichki uzilishlarga uchragan va qisman qulab tusha boshlagan ulkan gumbazini qayta tiklashda faol ishtirok etgan.

B.N.Zasipkin rahbarligida Usto Boqiyevdan tashqari uning shogirdlari - hozirgi mashhur ustalar Usto Akram va Usto Shamsutdinlar ham ishlagan. Usto Abduqodir Sherdordagi g'ishtlarni qayta tiklayotganda toshlarni alebastr qorishma yordamida terish taklifini bildirgan, chunki uning fikricha bunday qorishma toshni cho'kishdan himoya qiladi.

Usto Abduqodir Boqiyev Samarqand arxitekturasiga organik ravishda kiritilgan bir qancha yirik binolarni qurdi. U Samarqanddagi Ulug'bek madrasasining shimoli-sharqiy minorasini to'g'rilashda, Buxorodagi Kalon minorasini tiklashda qatnashgan. Usto Boqiev, merosxo'r usta (usto-zoda), uning otasi usto Boqi, o'z vaqtida mashhur "me'mor" va restavrator bo'lgan, uning san'atidan Go'ri-Amir maqbarasi panjaralarini tiklashni ham foydalanilgan.

O'rta Osiyo qadimiy yodgorliklarining taniqli tadqiqotchisi B.N.Zasipkin shunday yozadi: "...Ustoz Abduqodir Boqiyevning so'zlariga ko'ra, ruslar Samarqandga kelishidan besh yil avval (Tilla-qori madrasasi) tashqi bezaklari yo'q edi (1868 y.) otasi (usto Boqi) ta'mirlash ishlarida ishtirok etgan edi, u darvoqe, arkning janubiy tomonini gipsli suvoq qilgan.

Usto Abduqodir keksa yoshida ham Registon va Shohi-Zinda maqbaralari guruhida restavratsiya ishlarini davom ettirib, hozirda shu sohada mehnat qilayotgan mutaxassilarga saboq bergan.

2.O'zbekistonning eng zo'r kulol ustalaridan biri kulol *Usto Usmon Umarov* (1900) mashhur G'ijduvonlik usta Usto Muhammad Sodiqovdan tahsil olgan.

U 1929 yilgacha G'ijduvonlik va kattaqo'rg'onlik mashhur ustalar Usto Muitdin, Usto Hidoyat, Usto Tursun va Usto Tosh bilan hamkorlikda G'ijduvon uslubida an'anaviy badiiy va maishiy idishlar tayyorladi.

1929-1934 yillarda Samarqand kulolchilik ustaxonasida restavratsiyada qo'llanadigan sirlangan sopol buyumlar ustasi bo'lib ishlagan.

U o'z ishining birinchi yilini sopol massalarni shakllantirish, sirlash uchun materiallar tanlash, mahalliy sopol bo'yoqlar, angobalar va boshqalar bo'yicha ko'plab tajribalarga bag'ishladi. 30-yillar sharoitida hunarmandchilik uskunalari bilan jihozlangan ustaxonada tajriba ishlari natijasida, u birinchi marta restavratsiya qilish uchun (terakota va sirlangan plitkalar) qoplamali keramika ishlab chiqarishga erishdi.

1930-1932 yillarda qayta tiklash ishlari hajmi ortib, Usto Usmon Samarqandlik kulollar Usto Nurmuhammad, Usto Tursun va Usto Azimmurodlarni hamda yosh shogirdlar G'ofurov Nasim, Qambarov Meli va Toshmuqim Qurbonovlarni yordamchi sifatida taklif etadi.

O'zSSR Vazirlar Kengashi huzuridagi Moddiy madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish boshqarmasi

topshirig‘iga ko‘ra 1958 yilda Buxoroda Abdullaxon madrasasida kulolchilik ustaxonasi tashkil etilib, unga Usto Usmon Umarov rahbarlikka taklif qilingan.

Buxoro ustaxonasida ko‘k va och ko‘k rangda terakota va qisman sirlangan koshinlar ishlab chiqarildi. 1960-yilda ustaxona tugatilib, Usmon Umarov ona shahri G‘ijduvonga ko‘chib o‘tadi va yana badiiy va maishiy kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi.

3.Ustalar avlodidan bo‘lgan usta-kulol *Azimmurod Xo‘jayev* 1909 yilda Samarqandda tug‘ilgan. Azimmurodning bobosi va otasi kulol bo‘lgan. U 12 yoshida otasidan ayrilgan va kulolchilikni o‘zlashtirish uchun mashhur kulol ustasi Usto G‘ulomga shogird bo‘lgan. Azimmurod bu ustaning yonida o‘n ikki yil ishlab, maishiy sopol buyumlar ishlab chiqardi. Samarqandga ishlash uchun ko‘chib kelgan g‘ijduvonlik usta Usto G‘ulom yuksak badiiy mahoratga ega bo‘yalgan buyumlar ishlab chiqarishda katta mutaxassis edi.

Uning iste’dodli shogirdi Azimmurod ham bu san’atni mukammal egallagan. Ustozi vafotidan keyin Azimmurod Xo‘jayev 1931-1933 yillarda marhum ustozining ustaxonasida mustaqil ishladi. 1934 yilda u Samkomstarisning keramika ustaxonasiga o'qishga kirdi va terakota va sirlangan qoplamali keramika ishlab chiqarish bo'yicha tajriba ishlarini boshladi. Bu sohada olti oy ishlagan davrida, u yodgorliklarni restavratsiya qilishni qadimiy namunalar bilan o‘xshashliklarga ega bo‘lgan qoplama materiallari bilan boyitib, katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

1936-yildan boshlab Azimmurod rahbarligidagi ustaxonada me’moriy yodgorliklarni restavratsiya qilishda qo‘llaniladigan pardoz qoplamali kulolchilik buyumlari muntazam ishlab chiqarila boshlandi. 1938-1939 yillarda Tillaqori madrasasining burchak minoralari uchun sirlangan stalaktit karnizlar (sharafa) yasaydi. Uning rahbarligida Go‘ri-Amir maqbarasi gumbazini qoplash uchun moviy, firuza va sariq ranglardan 84 mingga yaqin koshinlar yasalgan.

Uning san’ati namunalari mozaikani o‘rniga qo‘yish va ushbu gumbazning qadimiy shaklini tiklash ishlariga tegishli bo‘lib, u Akram Umarov, Muhammad Yunusov, Quli Jalilov, Shamsutdin G‘ofurovlar bilan birgalikda amalga oshirgan. Usta Buxoroning Ko‘kaldosh, Abdulazizxon va Mir Arab yodgorliklarini, shuningdek, Turkistondagi Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasini restavratsiya qilish uchun sirlangan va sirlanmagan koshinlar yasagan. Uning eng katta xizmati barcha barcha restavratsiya ishlarini tegishli keramik material bilan to'liq ta'minlashdir.

4.Ustoz Azimmurod Xo‘jayevning eng zo‘r shogirdlaridan biri kulollar avlodidan bo’lgan usto G’apporning o’g’li usto *Nasim G‘ofurov*dir (1924), u Samarqand kulolchilik ustaxonasida usta bo‘lib ishlagan, dastlab 1937 yilda u yerga shogird bo‘lib kelgan.

Uch yillik o‘qish davomida pardozbop kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarishning murakkab texnologiyasini o‘zlashtirib, so‘ngra usta kulol bo‘lib ishlaydi. Uning bevosita ishtirokida Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Turkiston, Qo‘qon me’moriy yodgorliklarini tiklash uchun kulolchilik buyumlari yasalgan.

5.Usto Toshmuqim Qurbonov (1928) – koshinpaz kulolchilik ustasi, bevosita Samarqand kulolchilik ustaxonasida sirlangan sopol buyumlar ishlab chiqarishda amaliy ko‘nikmalarni egallagan.

U, asosan, rang-barang sirlar tayyorlash, koshin va mayolikani sirlash, mahsulotlarni o‘choqqa o‘rnatish va pishirishga ixtisoslashgan.

6.Usto Meli Qurbonov (1930) Samarqand ustaxonasiga 1946 yilda shogird sifatida o‘qishga kirib, ikki yil ichida mahsulot tarkibini tayyorlash, koshin va plitkalarni qoliplash, sirli sopol buyumlarni angobe bo‘yoqlari va rangli sir bilan bo‘yash texnologiyasini o‘zlashtirdi.

Usto Meli kulolchilik buyumlarini tayyorlash texnologiyasidan tashqari, bu mahsulotlarni pishirishni ham chuqur o‘rgangan.

Samarqand koshinpaz ustalari. Samarqandlik usta restavratorlar (koshinpaz)lar orasida Usto *Akram Umarov* (1899-1956) sharafli o‘rin egallagan. Otasi Usto Umar, shuningdek, Usto Abduqodir Boqiyevdan tahsil olgan ustazoda usta yangi binolar qurishda ko‘p mehnat qilgan, ko‘plab restavratsiya ishlarida faol ishtirok etgan. U 1921 yildan to umrining so‘nggi kunlarigacha Samarqand me’moriy yodgorliklarini ta’mirlashga, portal yig’indisini qayta terish va Sherdor madrasasi devorlarini pardozlashda , Ulug‘bek madrasasi minorasini to‘g‘rilashda, Tillaqori va Ulug‘bek madrasalari devorlarini pardozlash ishlariga bag‘ishladi.

U Shohi-Zinda ansamblidagi XV asrga oid (Qozizoda Rumiy) maqbara gumbazi va nog‘orasini qayta tiklashda sirlangan koshinli g‘ishtlarni to‘liq qayta yotqizgan. Go’ri-Amir maqbarasi gumbazi va nog‘orasini ta’mirlashda ham xuddi shunday muhim ishlarni bajargan. Usto Akram samarqandlik usta restavratorlar jamoasi tarkibida Buxoro va Shahrisabzga ishga ketdi. U umrining oxirigacha restavratsiya ishlarini tark etmay, ko‘plab shogirdlar tayyorladi, ular orasida Usto Shofiy, Usto Muxtor, Usto Turdilar alohida ajralib turadi.

Ҳозирги вақтда меъморий обидаларнинг техник ҳолатини ўрганишга қаратилган изланишлар натижалари ва уларнинг эксплуатацияси даврида тўпланган архив маълумотлари шуни кўрсатадики, Республикамиздаги кўпчилик меъморий обидаларнинг техник ҳолати бирмунча ёмонлашган, яъни уларнинг айрим қисмларида нотекис чўкишлар юзага келган [2,3,4]. Натижада тарихий меъморий обидалар деворларида ёриқлар пайдо бўлган, баланд миноораларининг вертикалдан сезиларли оғишлари ва нотекис чўкишлари ҳам кузатилмокда.

Ўзбекистонда энг кўп шикастланган обидаларнинг техник ҳолатини ўрганиш борасида ўтказилган кузатувлар қуйидагиларни таъкидлаш имконини беради:

- пойдеворлар замини грунтлари намлигининг ортиши сабабли кўпгина меъморий обидаларни

сақлаб қолиш жиддий муаммо даражасига етиб қолган;

- кўпгина обидалар деворларининг пастки қисмига намликни юқорига ўтказмаслик мақсадида тўшалган қамишли бўйралар чириб битган (кўпроқ термитлар таъсиридан);

- замин грунтларидаги сувнинг капиллярлик кўтарилиши натижасида деворлардаги намлик юқорига кўтарилган;

- кўпгина деворларнинг сиртларидаги сувоқлар намлик таъсирида шўрланган, нураган, пардоз плиткалари эса тушиб кетмокда;

- девор ва устунларининг намланиши натижасида, уларни термитлар емириши учун шароит вужудга келган.

Замин ва пойдеворларни чекли мувозанат ҳолатининг икки гуруҳи асосида ҳисоблаш қабул қилинган [5]. Замин-бино системасининг чекли мувозанат ҳолати шартлари ва ифодаларидаги катталиклар детерминант ҳисобда, тасодифий бўлмаган миқдорлар деб қаралиши маълум, лекин бу катталикларнинг кўпчилиги вақт моъбайнида ўзгарувчандир. Шунинг учун чекли ҳолатлар услубида ҳисобланган пойдеворлар грунтли заминлари мустаҳкамлигининг қандай даражада етарли эканлигини аниқ билиб бўлмайди. Натижада чекли ҳолатлар ҳисоблари бўйича мустаҳкамлиги етарли деб ҳисобланган пойдеворлар грунтли заминлари мустаҳкамлигининг тезда камайиши ҳоллари кузатилаяпти. Шу сабабли, бу иншоотлар заминларининг ишончлилик даражасини баҳолаш учун ишончлилик назарияси ечимларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир [1].

Ишончлилик назариясида эса юқорида таъкидланган чекли мувозанат ҳолати шартларидаги миқдорлар тасодифий статистик-эҳтимолий характерга эга эканлиги ва кўп тасодифий ўзгарувчи аргументлар функцияси бўлишлиги ҳисобга олинади. Бино ва иншоотлар замин ва пойдеворларининг ишончлилик даражаси ҳисобларига доир илмий ишлар билан Н.Н.Ермолаев ва В.В.Михеевлар шуғулланишган [1]. Қозикли пойдеворларни берилган ишончлилик даражасига мос қилиб ҳисоблаш ва лойиҳалаш услубиятини З.Сирожиддинов ишлаб чиққан [8]. Тарихий обидалар замин ва пойдеворларининг эҳтимолий ҳисобига эса ҳозиргача сезиларли даражада эътибор берилмаган.

Замин ва пойдеворларни лойиҳалашда ҚМҚ 2.02.01-98 тавсия этаётган иккала гуруҳ чегаравий ҳолатлари бўйича бажариладиган ҳисоблардан ташқари, замин грунтининг деформацияси ва юк кўтариш қобилиятлари буйича ишончлилик даражасини аниқлаш заруриятини, керак бўлган ҳолларда замин ва пойдеворларни кучайтириш зарурлигини кўрсатиб бериш мақсадида Республикамиздаги бир қатор меъморий обидалар тадқиқот доирасида танлаб олиниб, бу объектлар мисолида қуйидаги ишлар амалга оширилди:

- асосий юк кўтарувчи конструкцияларни визуал кўздан кечириш ва техник ҳолатини баҳолаш;

- пойдеворлар материалларини, қўйилиш чуқурликларини, товонининг кенгликларини аниқлаш;

-иншоотлар конструкцияларининг геометрик ўлчамлари бўйича пойдеворлар юқори сатҳига таъсир этувчи ҳисобий юкларни аниқлаш;

-замин грунтларининг ҳақиқий физик-механик кўрсаткичларини аниқлаш;

-пойдеворларнинг товони сатҳларидаги ўртача ҳақиқий босимларни ва замин грунтларининг ҳисобий қаршиликларини аниқлаб, уларни таққослаш;

-замин грунтларининг деформация ва юк кўтара олиш қобилиятлари бўйича ишончлилик даражалари ҳисобларини бажариш;

-таъкидланган вазифаларнинг бажарилиш якуни сифатида танлаб олинган обидалар замин ва пойдеворларининг ишончлилик даражасини баҳолаш ва зарур бўлган ҳолларда уларни етарлича ошириш йўлларини кўрсатиш;

Бажарилган илмий тадқиқот ишларида [6] таъкидланганидек, Амир Тўра мадрасаси замини грунтлари 4,5-5,0 м қалинликдаги қумоқ грунтлар ва ундан пастда ўрта зичликдаги майда бархан қумларидан иборат. Ҳозирги вақтда Амир-Тўра мадрасаси деворларининг айрим кесимларида бўйлама вертикал ёриқлар, ораёпмаларда кўндаланг ёриқлар пайдо бўлиб, техник ҳолати қониқарсиз ҳолатда турибди (1-расм). Шунинг ўзи ҳам обидада қўшимча тадқиқотлар ўтказилиши, рухсат этилмайдиган деформациялар ҳосил бўлганининг сабабларини таҳлил қилишни, бу обиданинг замин ва пойдеворлари кучайтирилиши зарурлигини тақазо қилади.

“Амир-Тўра” мадрасаси пойдеворларининг деформация бўйича ҳисобларида I-I ва II-II (2,3-расмлар) кесимларда пойдевор товони остидаги ўртача босим замин грунтининг ҳисобий қаршилигидан ошмаслик кераклиги ($P_{ўрт} \le R$) шарти бажарилиши билан [6], мустаҳкамликнинг заҳираси жуда кичик, яъни пойдевор товони сатҳидаги ўртача босим ва грунтнинг ҳисобий қаршилиги бир-бирига жуда яқин қийматларга эга. Иккинчи томондан мадраса девори пойдевори ва гульдаста пойдевори остидаги грунтга узатилаётган босим назарий жиҳатдан бир-бирига яқин интенсивликка эга бўлиши зарур.

I-I кесимда ўртача босим $P_{ўрт}$ =177,12 КПа, II-II кесимда эса $P_{ўрт}$ = 217,44 КПа. Босимлар фарқи анча катта, демак вақт ўтиши билан девор ва гулдаста туташ жойлари кесимларидаги кучланишлар концентрацияси ошиб, ёриқлар юзага келиши эҳтимоли катта. Бу ерда мадраса девори пойдевори ва гулдаста пойдевори товони остидаги босимлар турлича. Демак, мадрасанинг ҳозирги техник ҳолати сўзсиз равишда унинг замини ва пойдеворларини мустаҳкамлашни тақазо этади.

Тадқиқот объектлари замин ва пойдеворлари мисолида бажарилган ҳисоблардан кўринадики [7], замин грунтларининг мустаҳкамлиги чекли ҳолатлар гуруҳлари ҳисоблари талаблари бўйича етарли ҳисобланса ҳам, ўзгарувчан омилларнинг таъсири туфайли айрим характерли кесимларида замин грунтларининг ишончлилик даражаси етарли эмаслиги кўринди. Демак, бундай ҳолларда иншоотнинг деформацияси ошмасдан аввал унинг заминини мустаҳкамлашни ёки пойдеворларини кучайтиришни тақазо этади.

1-расм. Амир-Тўра мадрасаси шимолий-ғарбий бурчидаги девор ёриқлари



2-расм. Мадраса шимолий-ғарбий қисми режаси фрагменти.



3-расм. I-I -қирқим.

Масалан “Амир Тўра” мадрасаси пойдеворининг амалдаги ўлчамлари асосидаги заминининг деформация бўйича ҳисобий ишончлилик даражаси $H_х$=0,991, ишончлилик даражасининг меъёрий қиймати бўлган $H_м$=0,9975 дан кичик. Демак, замин грунти мустаҳкамланиши ёки пойдевор товони кенгайтирилиши зарур. Пойдевор товонининг ўлчамлари b=2,5м гача кенгайтирилганида замин грунтининг деформация бўйича ҳисобий ишончлилик даражаси $H_х$=0,9995 бўлаяпди; яъни, ишончлилик даражасининг меъёрий қиймати $H_м$=0,9975 дан катта, демак пойдевор товони кенгайтирилган ҳолда заминнинг ишончлилик даражаси таъминланаяпди.

“Тўрт Шоввоз” мажмуаси минори пойдеворининг амалдаги ўлчамлари (D=4,53м) асосида деформация бўйича заминининг ишончлилик даражаси $H_х$=0,995, меъёрий ишончлилик даражаси $H_м$=0,9975 дан кичик. Кўриниб турганидек пойдевор заминининг деформация бўйича ишончлилик даражаси етарли эмас. Пойдевор товонининг диаметри D=5,5м гача оширилганида эса $H_х$=0,9995>$H_м$=0,9975 бўлаяпди, яъни, замин грунтининг ишончлилилк даражаси таъминланяпди.

Тадқиқот объектларидан бўлмиш Рухобод мақбараси пойдевори заминининг ҳисобий кесимидаги [7], амалдаги ўлчамлари асосидаги деформация бўйича ҳисобий ишончлилик даражаси $H_х$=0,9599, меъёрий ишончлилик даражаси $H_м$=0,9975 дан кичик. Худди шундай “Тўрт Шоввоз” мажмуаси минори пойдеворининг деформация бўйича ҳисобий ишончлилик даражаси $H_х$=0,995, меъёрий ишончлилик даражаси $H_м$=0,9975 дан кичик бўлаяпди. Ваҳоланки, чекли ҳолатлар усулининг деформация ҳисоблари бўйича замин грунтининг мустаҳкамлиги етарли ҳисобланади [6]. Демак, бу иккала обидада ҳам пойдеворлари заминининг ишончлилик даражалари таъминланмаяпди, уларни мустаҳкамлаш ёки пойдеворларини кучайтириш зарурати бор.

Маълумки, меъморий обидалар замин ва пойдеворларининг техник ҳолатини, мониторинг маълумотлари асосида баҳолаш ишларининг асосий мақсади, қуйидаги саволларга жавоб бериш ҳисобланади:

– мавжуд пойдеворлар бинонинг эксплуатациясини давом эттириш имконини берадими ёки уларни кучайтириш ёки қайта қуриш зарурми;

– замин грунтлари ёки пойдеворларнинг ўзлари реконструкция жараёнида қанчалик даражада қўшимча юкларни қабул қила олади;

– грунтдаги пол устига ёки пойдевор ёни грунти юзасига юкни қандай даражада ошириш мумкин;

– эксплуатация қилинаётган бинонинг ёнига янги бино қуриш мумкинми, қандай қилиб янги бинонинг мавжуд бинога таъсирини камайтириш мумкин;

– юзага келган деформацияларни қандай тўхтатиш мумкин;

– қайси конструкциялар сақланиши мумкин, қайсилар олиб ташланади ёки кучайтирилади;

– ер ости иншоатларида ёки ер тўлаларда биринчи қават деворларида намликни йўқотиш учун қандай чора-тадбирлар зарур.

Зарур мухандислик геологик маълумотлар мавжуд бўлмаган ҳолларда пойдеворлар ёнидан

шурфлар ёки скважиналар қазиб, улардан монолитлар олинган ҳолда, замин грунтлари мукаммал ўрганилади. Яъни, лаборатория ёки дала шароитларида замин грунтларининг физик, мустаҳкамлик ва деформацион кўрсаткичлари аниқланади.

Меъморий обидаларнинг пастки қаватларида, ёки пойдевор устки қисми деворларида намликнинг кўтарилиши сабабини ўрганиш учун асосий эътиборни гидроизоляцияга қаратиш зарур. Бунда ер ости сувлари режими ҳам ўрганилади. Чунки ер ости сувлари режимининг ўзгариши карст ва суффозия бўшлиқларининг юзага келишига, қўшимча чўкишларнинг ривожланишига сабаб бўлиши мумкин. Кўп сонли қадимий тарихий биноларнинг, айниқса меъморий обидаларнинг тадқиқида шу нарса аниқланганки, пойдевор устки қисмида жойлашган деворнинг пастки қисмлари катта намланган. Бунинг асосий сабаби йўллар ва тротуарлар сатҳларининг ҳамда ҳовли майдонлари юзаларининг асфальтланиши натижасида, улар сатҳларининг кўтарилиши ва ҳоказолардир. Бундан ташқари грунтдаги ва девордаги намликнинг мавсумий музлаши ва эриши хам юк кўтарувчи деворларнинг бузилишига ёки мустаҳкамлигининг камайишига олиб келади. Демак, замин ва пойдеворларни, умуман бино ва иншоатларни тадқиқ қилишга асос бўлган сабаблар, тадқиқ ишларининг ҳажмини белгилайди.

Бажарилган тадқиқотлар натижалари асосида шуни таъкидлаш мумкинки, меъморий обидалар замин ва пойдеворларининг техник ҳолати бўйича мониторинг маълумотларини йиғиш қуйидагича тартибда амалга оширилиши мақсадга мувофиқ:

-юқори конструкциялар визуал кўздан кечирилиб, тадқиқ қилинади;

-меъморий обидалар конструкцияларининг геометрик ўлчамлари аниқланади (зарур бўлганда геодезик усуллардан фойдаланилади);

-пойдеворнинг ҳарактерли кесимлари бўйича шурфлар қазилиб, пойдеворларнинг материали, ўлчамлари (қўйилиш чуқурлиги, товонининг кенглиги) аниқланади;

-шурфлардан ҳарактерли чуқурликлардан замин грунти намуналари (монолитлар) олинади;

-лаборатория ёки дала шароитларида замин грунтларининг физик ва механик кўрсаткичлари аниқланади;

-меъморий обидаларнинг ҳарактерли кесимларида конструкцияларининг геометрик ўлчамлари бўйича, пойдеворларга узатилаётган ҳисобий юклар аниқланади;

-замин грунтларининг реал ҳисобий қаршилиги аниқланиб, пойдевор товони остидаги ўртача босим билан таққосланади;

-замин грунтининг деформация ва юк кўтариш қобилиятлари бўйича ишончлилик даражаси ҳисоблари бажарилади;

Мустаҳкамлик даражаси етарли бўлмаган замин ва пойдеворларга келсак, ҳозирги вақтда уларни кучайтиришнинг ва мустаҳкамлашнинг турли усуллари мавжуд. Пойдеворлар конструкцияларини консервациялаш ва мустаҳкамлаш масалалари махсус адабиётларда етарлича ёритилган. Уларнинг кўпчилигини амалиётга қўллаш ва техник жиҳатдан амалга ошириш мумкин.

Замин грунтларини химиявий ва термик усулларда мустаҳкамлаш тавсияларига қуйидаги мулоҳазаларга кўра бироз эҳтиётқорлик билан ёндошишимиз зарур:

-грунтларни силикатлаш намлик жараёни билан боғлиқ бўлгани учун, босим остида турган ўта чўкувчан грунтларда бу усулни қўллаш мақсадга мувофиқ эмас. Одатда кўпчилик бино ва иншоотларнинг деформациялари структураси тургун бўлмаган ўта чўкувчан грунтли заминларнинг қўшимча намланиши натижасида рўй беради;

-сувга тўйинган грунтларда химиявий мустаҳкамлаш усули эса, маълумки кам самара беради;

-грунтларни химиявий мустаҳкамлашда ишлатиладиган химиявий реагентлар (масалан, суюлтирилган шиша) ўта қиммат ва улар бизнинг республикамизда ҳозирча ишлаб чикарилмайди;

-замин грунтларини химиявий йўл билан мустаҳкамлашда грунтга босим билан юборилаётган химиявий суюқликни ҳисобий йуналиш бўйича бошқариш мушкул иш, шунинг учун уларнинг керакли микдорини аниқ билиб бўлмайди ва ўз навбатида замин грунтларининг кучланганлик деформацияланганлик ҳолатини аниқ баҳолаш имкони йўқ.

Юкорида қайд қилинган ноаниқликлар ва камчиликлар грунтларни термик мустаҳкамлаш усулига хам таалуқлидир.Бундан ташқари эксплуатациядаги меъморий обидалар замин ва пойдеворларини бургуланган қудуқларда барпо қилинадиган қозиклар ёрдамида мустаҳкамлаш ҳамма вақт ҳам мақсадга мувофиқ эмас. Чунки, бир томондан ер сатҳидан катта бўлмаган чуқурликларда мустаҳкам жинслар (қатлам) бўлмаган ҳолларда, уларнинг юк кўтариш қобилияти ўта кичик бўлади, чунки учки қисмида ётадиган гилли грунтларнинг ҳисобий қаршилиги катта эмас; иккинчидан, уларни ростверксиз ишлатиб бўлмайди, сабаби меъморий обидаларнинг ганч ёки лойли қоришмаларда терилган пойдевор ва ер устки қисми конструкцияларининг кучланишларни тарқатиш қобилияти юқори даражада эмас.

Кейинги йилларда замин ва пойдеворларни мустаҳкамлашда бург-инъекцион қозикли, разряд-импулсьли технологияларда барпо қилинадиган қозиклар билан кучайтириш усуллари ҳам кенг қўлланилаяпди. Аммо, бу усулларни қўллашдан олдин, уларни регионал грунт шароитларидаги тажрибавий текширишлари талаб қилинади.

Тадқиқотлар доирасида қаралаётган меъморий обидалар замин ва пойдеворларини кучайтиришнинг, улар пойдеворлари заминларининг грунт шароитларини ва цокол кисмлари конструкцияларининг ўзига хос жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда қўллаш мумкин бўлган усулларидан:

- пойдевор товонини кенгайтириш (метод подводки) ва пойдеворларни босим билан киритиладиган қозиклар ёрдамида кучайтириш усулларини қабул қилиш мақсадга мувофиқроқдир.

Пойдеворнинг қўйилиш чуқурлигини ошириб, унинг таг юзаси сатҳини катталаштириш усули мутахассисларга маълум ва у илмий адабиётларда кенг ёритилган. Бу усулда замин ва пойдеворларни кучайти-

ришда, меъморий обидаларнинг кўшимча деформациясини бартараф қилиш мақсадида, замин грунтларини олдиндан зичлаштириб, кейин кучайтириш тавсия этилади.

Тадқиқотлар доирасида бажарилган изланишлар қуйидаги хулосаларни чиқариш имконини беради:

1) Эксплуатацияда бўлган меъморий обидалар пойдеворлари заминларининг деформациялари ва юк кўтариш қобилиятлари, чекли ҳолатлар ҳисоблари асосида рухсат этиладиган чегаравий миқдорларда бўлса ҳам, улар заминларининг ишончлилик даражаси етарли таъминланмаган бўлиши мумкин экан;

2) Меъморий обидалар заминлари грунтларининг физик-механик кўрсаткичларида ва ер ости сувларининг сатҳларида бўладиган ўзгаришлар даврий равишда аниқланиб турилиши зарур;

3) Эксплуатацияда бўлган меъморий обидалар пойдеворлари заминларининг деформациялари ва юк кўтариш кобилиятлари бўйича ишончлилик даражалари мониторинг маълумотлари асосида системали равишда баҳоланиб борилиши зарур;

4) Эксплуатацияда бўлган, пойдеворлари замини грунтининг ишончлилик даражаси етарли бўлмаган меъморий обидаларнинг замин грунтлари етарли ишончлилик даражасига мос этиб мустаҳкамланиши ёки пойдеворлари кучайтирилиши лозим.

Адабиётлар

1. Ермолаев Н.Н., Михеев В.В. Надежность оснований сооружений. –Л.: Стройиздат, 1976.
2. Заключение об инженерно-геологических условиях территории медресе Кутлуг-Мурод Инак в.г. Хиве Хорезмской области «УзНИПИ реставрации», Ташкент, 1985.
3. Инженерно-геологичекое заключение о грунтах основания и фундаментах юго-восточной части медресе Кутлуг-Мурод Инак. «СНРП Мастерская»Ташкент, 1972.
4. Оценка надёжности оснований и фундаментов исторических памятников г. Самарканда. Заключительный отчет по ГНТРП Р.Уз.3.7.1.18-Самарканд, СамГАСИ, 2002.
5. ҚМҚ 2.02.01-98. Бино ва иншоотлар, замини ва пойдеворлари. - Тошкент., 1999.
6. Меъморий обидалар замин ва пойдеворларининг мониторингини ташкил этиш ва ишончлилик даражасини таъминлаш усулларини ишлаб чиқиш. ОТ-А14-07 рақамли илмий тадқиқот ишининг оралиқ ҳисоботи: Самарқанд, Сам ДАҚИ, 2017.
7. Меъморий обидалар замин ва пойдеворларининг мониторингини ташкил этиш ва ишончлилик даражасини таъминлаш усулларини ишлаб чиқиш. ОТ-А14-07 рақамли илмий тадқиқот ишининг якуний ҳисоботи: Самарқанд, Сам ДАҚИ, 2018.
8. Сирожиддинов З.С. Расчет и проектирование свайных фундаментов на основе теории надежности. Дисс. докт. тех. наук,-М.: МГСУ,1993.

CALCULATION OF THE TEMPERATURE FIELD OF EXTERNAL ENCLOSING STRUCTURES USING THE FINITE DIFFERENCE METHOD.

Khaitov Maruf Bolikulovich, teacher
Matyokubov Bobur Po'latovich, teacher
Samarkand State Architecture and Construction University named after Mirzo Ulugbek (SamSACU).

Abstract: The article studies the temperature regime of the junction of window blocks to the outer walls of buildings. The studies were carried out under natural conditions and theoretical calculations were performed. Proposals have been developed to improve the temperature regime at the junctions of window blocks with external walls using extruded polystyrene foam.

Keywords: temperature, buildings, window blocks, temperature field.

Аннотация: В статье изучен температурный режим узла примыкания оконных блоков к наружным стенам зданий. Исследования проведены в натурных условиях, выполнены теоретические расчёты по ним. Разработаны предложения по улучшению температурного режима в узлах примыкания оконных блоков к наружным стенам с помощью экструдированного пенополистирола.

Ключевые слова: температура, здания, оконные блоки, температурное поле.

Одним из основных направлений государственной политики Республики Узбекистан в области рационального использования энергии являются:

стабилизация производства и потребления энергии, необходимой для интенсивного развития экономики;

стимулирование производства энергоэффективного и энергосберегающего оборудования и продукции с минимальной энергоемкостью;

стимулирование развития энергоэффективных, энергосберегающих и экологически безопасных технологий и производств.

Наряду с ростом спроса на высоко-комфортабельное жилье, осведомленность об ограниченных мировых запасах минерального топлива, воды и других ресурсов принесла новый импульс интереса к концепции энергоэффективного дома и к инновационным целостным решениям, пригодным как для холодного, так и для жаркого и влажного климата.

Подход, при котором используют глобально пригодные и применимые технологии, материалы и системы для модернизации, энергоэффективности зданий предоставляет возможность не только создавать конструкции с невероятной быстротой проектирования, но также незамедлительно обеспечить невиданный во многих местах планеты комфорт и рациональность использования ресурсов в зданиях.

В строительной теплофизике прогнозирование температурного и влажностного режимов ограждающих конструкций выполняется на основании решения дифференциальных уравнений тепло- и массопереноса. Теоретические основы методов расчета

температурного и влажностного режимов заложены трудами Богословского В.Н., Власова О.Е., Гагарина В.Г., Лыкова А.В., Мачинского В.Д., Одельского Э.Х., Перехоженцева А.Г., Ушкова Ф.В., Фокина К.Ф., Франчука А.У., Шкловера А.М. и других ученых. Основной методикой, используемой для решения задач строительной теплофизики, служит их численное решение в конечных разностях. Обусловлено это прежде всего простотой аппроксимации производных в дифференциальных уравнениях.

При разности температур воздуха с одной и с другой стороны ограждения температурная линия непрерывно понижается. Графически изменения температуры при прохождении теплового потока через плоскую однородную стенку показано на рис 1.



Рис 1. Изменение температуры в однородной стене

Воздух с внутренней стороны стены имеет температуру $t_в$, а с наружной стороны $t_н$, причем $t_в > t_н$. Температурная линия показывает, что падение температуры происходит не только в толще стены, но и у ее поверхностей, так как температура внутренней поверхности стены $\tau_в < t_в$ и температура наружной поверхности $\tau_н > t_н$. Так как падение температуры при прохождении теплового потока вызывается термическими сопротивлениями, то из температурной кривой видно, что сопротивление теплопередаче ограждения состоит из трёх отдельных сопротивлений:

1) сопротивления при переходе тепла от внутреннего воздуха к внутренней поверхности ограждения;

2) сопротивление при прохождении тепла через толщу самого ограждения;

3) сопротивления при переходе тепла от наружной поверхности к наружному воздуху;

Таким образом, сопротивление теплопередаче ограждения может быть выражено как сумма этих сопротивлений:

$$R_0 = R_в + R + R_н \qquad (1)$$

Если сопротивления теплоотдачи зависят главным образом от внешних факторов и лишь в незначительной степени от материала поверхности ограждения, то термическое сопротивление ограждения R зависит исключительно от теплопроводности материалов, составляющих ограждение, а также от структуры самого ограждения. Для определения R необходимо знать коэффициенты теплопроводности λ материалов, составляющих ограждение, их расположение, а также размеры отдельных элементов ограждения.

Если ограждение по толщине состоит из нескольких последовательно размещённых однородных слоев различных материалов, расположенных перпендикулярно направлению теплового потока, то термическое сопротивление ограждения будет равно сумме термических сопротивлений всех его слоев. Следовательно, для многослойного ограждения термическое сопротивление его определяется по формуле

$$R = R_1 + R_2 + R_3 + \cdots + R_n = \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{\delta_3}{\lambda_3} + \cdots + \frac{\delta_n}{\lambda_n}. \qquad (2)$$

где $R_1, R_2 \ldots$ - термические сопротивления отдельных слоёв; $\delta_1, \delta_2 \ldots$ - толщины отдельных слоев в *м*; $\lambda_1, \lambda_2 \ldots$ - коэффициенты теплопроводности материалов отдельных слоёв; n – число слоёв, составляющих ограждение.

При пользовании этой формулой необходимо помнить, что толщины слоёв δ должны быть взяты в метрах.

Формула (2) показывает, что термическое сопротивление слоя ограждения прямо пропорционально его толщине и обратно пропорционально коэффициенту теплопроводности его материала; термическое сопротивление ограждения не зависит от порядка расположения слоёв. Однако другие теплотехнические показатели ограждения, как, например, теплоустойчивость, распределение температуры в ограждении и его влажностный режим, зависят от порядка расположения слоёв. Поэтому для облегчения расчётов теплоустойчивости и влажностного режима ограждений нумерация слоёв ведется последовательно от внутренней поверхности ограждения к наружной.

Пользуясь формулой (2) можно определять либо термическое сопротивление данного ограждения, либо толщину одного из его слоёв, при которой ограждение будет иметь заданную величину R или R_o. В последнем последнем случае неизвестной величиной в формуле (2) будет толщина δ одного из слоёв, который служит утепляющим слоем ограждения.

Многослойные конструкции представляют наиболее распространенный в строительстве тип ограждения.

Приведенное сопротивление теплопередаче R_0 учитывает наличие в ограждении неоднородных по площади ограждения теплопроводных включений и определяется следующим образом.

Если конструкция однослойная или состоит из **n** однородных слоёв, то величина R_0 определяется по формуле:

$$R_0 = \frac{1}{\alpha_в} + \sum_{i=1}^{n} R_i + \frac{1}{\alpha_н}, \qquad (3)$$

где: $\boldsymbol{\alpha_в}$, $\boldsymbol{\alpha_в}$ – коэффициенты теплоотдачи внутренней и наружной поверхностей ограждающей конструкции, Вт/(м^2·°С);

$\mathbf{R_i}$ – термическое сопротивление каждого из слоёв конструкции, м^2·°С/Вт.

Если в многослойной ограждающей конструкции имеется слой (слои), состоящий из участков различных материалов, то её приведённое сопротивление определяют в следующей последовательности:

а) Для каждого неоднородного слоя находят средневзвешенное по площади условное значение коэффициента теплопроводности, Вт/(м·ºС) по формуле:

$$\lambda_{i.y} = f_1 \cdot \lambda_1 + f_2 \cdot \lambda_2 + \cdots + f_к \cdot \lambda_к, \quad (4)$$

где $\boldsymbol{\lambda_1}$, $\boldsymbol{\lambda_2}$, …, $\boldsymbol{\lambda_к}$ – коэффициенты теплопроводности различных участков в выделенном слое, Вт/(м·ºС);

$\mathbf{f_1}$, $\mathbf{f_2}$, …, $\mathbf{f_к}$ – доля площади слоя, занимаемая материалом, имеющим соответствующую теплопроводность,

и вычисляют условное термическое сопротивление неоднородного слоя:

$$R_{i.y} = \frac{\delta_i}{\lambda_{i.y}} \quad (5)$$

Существующие на данный момент компьютерные программы Therm или Temper-3d, с помощью которых выполняют расчет, имеют сопровождающую техническую документацию и обеспечивают возможность расчета двухмерного (плоского) или трехмерного (пространственного) температурного поля, тепловых потоков в заданной области ограждающих конструкций при стационарных условиях теплопередачи.

Ввод исходных данных проводиться либо в графическом виде (с экрана монитора, сканера, графического или конструкторского файла), либо в виде табличных данных и обеспечивать возможность задания требуемых характеристик материалов и граничных условий рассчитываемой конструкции в заданной области.

Представление результатов расчета обеспечивают возможности визуализации температурного поля, определение температуры в любой точке рассчитываемой области, определение суммарных входящих и выходящих тепловых потоков через заданные поверхности.

Недостатком программы Therm является представление результатов в собственном формате, что позволяет выполнять анализ результатов только во встроенном постпроцессоре программы. Программа Temper-3d, позволяет выполнять расчеты 2- и 3-мерного температурных полей ограждающих конструкций. Для работы Temper-3d требует определенную конфигурацию оборудования компьютера, что ограничивает запуск программы на ряде вычислительных систем. Кроме того, программа является платной, что не всегда приемлемо для научных исследований. Однако основным недостатком обеих программ является закрытость исходного кода, что не позволяет модифицировать их и тем самым подстраивать под конкретные специфические задачи.

Для расчёта температурного поля узлов примыкания (монтажных швов) оконных блоков к стене пользовались прямоугольной сеткой (рис 2). Располагая нити сетки более густо в области поля, в которой нас наиболее интересует распределение температуры, например в местах теплопроводных включений, и более редко в остальной области поля, удалось значительно сократить число узлов сетки, а следовательно, и число расчётных уравнений. При прямоугольной сетке коэффициенты теплопередачи между узлами определялись с учётом площади, по которой передаётся тепло [13]; размер поля в направлении оси z принимали равным 1*м*. При этом, если узлы сетки лежали в области одного материала, имеющего коэффициент теплопроводности λ (однородное поле), то по рис 2. получили следующие значения величин коэффициентов теплопередачи между узлом с температурой τ_x и соседними узлами:

к узлу 1 – площадь теплопередачи будет: $F_1 = \frac{\Delta_{y_1}+\Delta_{y_2}}{2}$; коэффициент теплопередачи $k_{x-1} = \frac{\lambda}{\Delta_{x_1}} F_1$;

к узлу 2 - $F_2 = \frac{\Delta_{x_1}+\Delta_{x_2}}{2}$; $k_{x-2} = \frac{\lambda}{\Delta_{y_2}} F_2$;

к узлу 3 - $F_3 = F_1$; $k_{x-3} = \frac{\lambda}{\Delta_{x_2}} F_3$;

к узлу 4 - $F_4 = F_2$; $k_{x-4} = \frac{\lambda}{\Delta_{y_4}} F_4$;



Рис 2. Схема для расчёта плоского температурного поля при наложении прямоугольной неравномерной сетки.

Если поле неоднородно, то коэффициенты теплопередачи между узлами сетки определялись так же, как и при квадратной сетке, но с умножением их на соответствующие площади теплопередачи F в $м^2$.

Расчёты температурного поля делались методом интеграции следующим образом. Предварительно задавались некоторыми произвольными значениями температур во всех узлах сетки. Затем по формуле (6) последовательно вычисляли значения температур во всех узлах, заменяя полученными значениями температур предыдущие до тех пор, пока в каждом узле сетки поля температура не стала удовлетворять соответствующим уравнениям при заданных температурах воздуха с одной и с другой стороны ограждения.

$$\tau_{x,y} = \frac{k_{x-\Delta}\tau_{x-\Delta,y} + k_{y+\Delta}\tau_{x,y+\Delta} + k_{x+\Delta}\tau_{x+\Delta,y} + k_{y-\Delta}\tau_{x,y-\Delta}}{k_{x-\Delta} + k_{y+\Delta} + k_{x+\Delta} + k_{y-\Delta}}. \quad (6)$$

Процесс расчёта можно было считать законченным только тогда, когда в пределах заданной точности температуры оставались постоянными во всех узлах сетки. Продолжительность расчётов зависело от того, насколько правильно были заданы начальные температуры.

Температурное поле, полученное для данных значений температур внутреннего и наружного воздуха, легко пересчитывалось и для других значений этих температур на основании того, что разность

температур любой точки поля и внутреннего или наружного воздуха изменялось пропорционально изменению разности температур внутреннего и наружного воздуха.

Для прямоугольников, в которые входит только один материал, $k=\lambda/\Delta$, где λ – коэффициент теплопроводности материала, Δ - расстояние между узлами сетки в *м*. Если узел с температурой $\tau_{x,y}$ лежит в плоскости, граничащей с воздушной средой, то коэффициент теплопередачи к воздуху будет равен соответствующей величине коэффициента тепловосприятия $\alpha_в$ или теплоотдачи $\alpha_н$. В этом случае величины *k* к соседним узлам, лежащим в этой плоскости, берутся с коэффициентом 0,5 на основании того, что в направлении к этим узлам передача тепла по материалу будет происходить только по площади, равной половине прямоугольной сетки, а по воздуху, в котором окажется вторая половина прямоугольника, передачи тепла не будет.

Вывод На основании анализа методов расчёта температуры в толще ограждающих конструкций можно сделать следующие выводы:

1) В дали от места примыкания оконного блока, т.е. на расстоянии 1-1,5 метра от этого места для расчёта температуры по толщине стены можно пользоваться формулами приведёнными в КМК 2.01.04-97*.

Для расчёта температуры в узле примыкания оконного блока к наружной стене следует использовать метод расчёта температурного поля, основанный на методе конечных разностей. При этом рекомендуется располагать нити сетки более густо в области поля узла примыкания, и более редко в остальной области поля, значительно сокращая число узлов сетки, а следовательно, и число расчётных уравнений.

Использованная литература:

1. Закон Республики Узбекистан «О рациональном использовании энергии» № 412-I от 25 апреля 1997 года.
2. QMQ 2.01.04-97* “Qurilish issiqlik texnikasi”, Тошкент 2011.
3. Зенкевич О. Конечные элементы и аппроксимация / О. Зенкевич, К. Морган; Перевод с английского под ред. Н.С. Бахвалова. - М.: Мир, 1986. - 318 с.
4. Кривошеин А.Д. К вопросу о расчете приведенного сопротивления теплопередаче ограждающих конструкций / А.Д. Кривошеин, С.В. Федоров / / Инженерно-строительный журнал.-2010. - №8. - С.21-27.
5. Лутц М. Программирование на Python / М. Лутц; Перевод с английского, под ред. М. Деркачева. - Санкт-Петербург: Символ-Плюс, 2002.-1136 с.
6. По материалам доклада док. Гельмута Хоенштайна (Dr. Helmut Hohenstein), на GLASS PERFORMANCE DAYS 2007, Тампере, Финляндия
7. Bolikulovich, K. M., & Pulatovich, M. B. (2022). HEAT-SHIELDING QUALITIES AND METHODS FOR ASSESSING THE HEAT-SHIELDING QUALITIES OF WINDOW BLOCKS AND THEIR JUNCTION NODE WITH WALLS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(11), 829-840.
8. Khayitov, M. B. (2021). THERMAL INSULATION MATERIALS: ADVANTAGES AND PRODUCTION. *Theoretical & Applied Science*, (1), 375-378.
9. DB, R., MB, K., & Fazilov, F. X. (2024). Basics Of Studying The Temperature Field In Structures Under The Climate Conditions Of Uzbekistan. *The Peerian Journal*, *27*, 94-99.
10. Mamadaliyev, X. E., & Fazilov, F. X. (2024). Prospects for the Use of Coal Ash in the Construction Industry. *International Journal of Scientific Trends*, *3*(2), 45-48.
11. Bolikulovich, K. M., & Bakhodirovna, R. D. (2023). Methodology for Calculation of the Temperature Field in the External Fencing Structures of Buildings.
12. Bolikulovich, K. M. (2023). STUDY OF THE THERMAL CONDITIONS OF CONNECTIONS OF WINDOW BLOCKS TO A WALL. *Gospodarka i Innowacje.*, *33*, 323-327.
13. Matyokubov, B. P., & Rustamova, D. B. PERSPECTIVE CONSTRUCTIVE SOLUTIONS OF MODERN COMPOSITE EXTERNAL WALLS OF SANDWICH TYPE. *International Journal For Innovative Engineering and Management Research*.
14. Bolikulovich, K. M., & Bakhodirovna, R. D. Modern Journal of Social Sciences and Humanities.
15. Turakulovna, E. M. U., Baxodirovna, R. D., & Pulatovich, M. B. (2024). CLIMATE AND BUILDING ENERGY EFFICIENCY. *Научный Фокус*, *1*(11), 386-389.
16. Turakulovna, E. M. U., & Pulatovich, M. B. (2023). DEVORLARNING ISSIQLIKKA CHIDAMLILIGINI OSHIRUVCHI MATERIALLARNING XUSUSIYATLARI. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 765-768.
17. Turakulovna, E. M. U., & Pulatovich, M. B. (2024). Characteristics of Materials that Increase the Heat Resistance of Walls. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X)*, *2*(2), 36-39.
18. Salomovich, T. E., Samariddinovich, S. U., & Pulatovich, M. B. (2023). Improving the Heat Preservation Properties of the Exterior Walls of Brick Buildings. *International Journal of Culture and Modernity*, *28*, 15-20.
19. Inatillayevich, G. O., & Pulatovich, M. B. Analysis of Underground Projects of Energy Efficient Low-Rise Residential Buildings Built on Highly Flooded Soilshttps. *doi. org/10.31149/ijie. v4i9*, *2156*.

ЗАМОНАВИЙ МЕЪМОРЧИЛИКДА КУРСИ КОНСТРУКЦИЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИШЛАНМАЛАРИ

Уралов Акбарали, мустақил тадқиқотчи
Самарқанд давлат архитектура –курилиш университети (Ўзбекистон)

SPECIFICDEVELOPMENTS OF PINTERAL STRUCTURES IN MODERN ARCHITECTURE

UralovAkbarali, independent researcher
Samarkand State University of Architecture and Construction (Uzbekistan)

Аннотация: Тадқиқотнинг мақсади замонавий меъморчиликда курси конструкцияларининг ўзига хос ишланмаларини аниқлаб, уларни лойиҳалаш амалиётида қўллашга тавсия беришдир. Тадқиқотда **объектлар билан натурада танишиш**, мавзуга доир адабиётларни ўрганиш, ҳулосалар чи-қариш, курси шаклларини амалиётга жорий қилиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш каби усуллар қўлланилган. Мақолада замонавий меъморчилик амалиётида қўлланиладиган курсиларнинг архитектурадаги роли ва ўрни, курси конструкцияларининг турлари ва қурилиш ашёлари аниқланган. Меъморчиликда курси биноларни лойиҳалашда энг муҳим композициявий меъморий-бадиий воситалар тарзида қаралиши зарур, зеро бу шакллар иморатларнинг ажралмас асосий таркибий қисмларини ташкил этади.

Калит сўзлар: Замонавий архитектура, курсиларнинг турлари, кон-струкциялари, қурилиш материаллари ва ашёлари.

Кириш. Меъморчилик назарияси ва тарихи ва, умуман, архитектура-шунослик фанида шу чоққача курси композицияларининг шаклланиши, уларнинг меъморий типологияси ва яратилишидаги тартиб-қоидалар назарий жиҳатдан яхлит бир илмий-тадқиқот тарзида ишлаб чиқилмаган. Шунинг учун ҳам ўтмиш ва замонавий меъморларнинг ушбу масалага муносабати қандай ва улар ўзлари қурган биноларда курси композициялар ва конструк-тив қурилмаларда ишлаган, бу соҳада қандай илғор анъаналар шаклланган деган саволларга жавоб топиш ва бу меросий қадриятлардан бугунги кун меъморчилигида самарали фойдаланиш имкониятларини тадқиқ қилиш қизиқарли ва фойдали ишдир. Бугунги кунда жаҳон мамлакатлари архи-тектурасининг хозирги ҳолати ва келажакдаги тарраққиётига, давр талаб-ларига мос ва хос энергия эффектив бинолар қурилишига, уларлда экалогик тозза ва қулай-муҳитлар яратилишига эътибор бериш, бинолар эстетик дизайнини замонавайлаштириш вазифалари долзарф ҳисобланмоқда. Меъ-морлар олдидаги ана шундай вазифалардан бири иморатларнинг курси композицияларини ўрганиш ва уларни замонавийлик билан бойитиб, амалиётга тадбиқ қилишдир.

Жахон миқёсида архитектура назарияси ва амалиётига боғишланган хорижий илмий тадқиқотларда асосий эътибор замонавий архитектуранинг илғор ижодий йўналишларини аниқлаш, бинолар образи ва бадиий дизайни, экстерьери ва интерьерларининг стилистик ҳамоҳонглиги, меъморий шакл-лар гармонияси, биноларнинг конструктив тектоникаси, қурилиш ва пардоз материаллари каби масалалар мухим аҳамият касб этмоқда[3].

Мустақилликнинг кейинги йилларида республикамизда лойиҳаланаёт-ган аксари бинолар иморатларнинг курсиси, шаклларига эътибор берилиб қурилмоқда. Бироқ, буни ўта тажрибали, етук ва юқори савияли меъмор-ларгина амалга оширмоқдалар. Архитекторларнинг асосий таркиби орасида эса бу шаклларнинг амалий бадиий моҳияти, афсуски, тўлиқ англанилмаган, чунки уларнинг мазмуни ва аҳами-яти архитектура фани ва назариясида ҳам ўрганилмай келинмоқда. Оқибатда меъморий амалиётда айрим ҳолларда бадиий савияси паст, композициявий заиф бўлган бино ва иншоотлар ҳам пайдо бўлмоқдаки, буни замонавий архитектурамиз учун кечирарли ҳол деб бўлмайди. Бунинг асосий сабабини биз маълум маънода замонавий архитектура амалиёти, назарияси ва таълим тизимида шу чоққача курси шаклларининг мазмун-моҳияти тўлиқ очиб берилмаганлигида, деб тушу-намиз.

Ҳукуматимиз томонидан республикамизда Учинчи Ренессансни шакл-лантиришнинг асосий йўналишларидан бири архитектура ва қурилиш соҳа-сини янада такомиллаштириш ҳисобланиб, бу соҳада яқин йиллар ичида кес-кин сифат даражасига эришиш вазифаси қўйилган[1]. Шунинг учун ҳам мазкур масала замонавий меъморчилик соҳасининг илму-фани ва амали-ётининг долзарб муаммоларидан бирига айланиб улгурган.

Тадқиқот методи ва услублари. Тадқиқот объектлари билан натурада танишиш, уларнинг ҳозирги ҳолати мониторингини ўтказиш, таснифлаш ва тизимлаш, мавзуга доир адабиётларни ўрганиб чиқиш, фотофиксакция, йи-ғилган материалларни таҳлил қилиш ва илмий умумлаштириш, ҳулосалар чиқариш, курси шаклларини амалиётга жорий қилиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш каби усуллар қўлланилган.

Натижалар. Замонавий меъморчиликда таккурсининг энг кенг тар-қалган тури курсидир. Курсиларнинг бир неча хиллари мавжуд. Уларнинг биринчисида курси бинонинг қурилмавий қисмига кирмайди. У деворнинг пастки қисмини пардозлаш ва уни девор текислигидан қисман олдинга чикариш йўли билан ҳосил қилинади. Иккинчи хилида эса курси бинонинг қурилмавий қисмини ташкил қилиб, девор курси устига терилган ва унинг сатҳидан бироз олдинга чиқиб туради, яъни бу биринчи хилнинг тескариси ҳисобланади[2].

Таккурсининг амалий вазифасини эътиборга олиб, уни одатда девор-дан кўра қаттиқроқ ва мустаҳкамроқ материалдан ишланади. Чунончи, ғишт деворларнинг таккурсиси табиий тошдан, пардозланган деворларники гра-нитдан ишланади.

Курсиларга безак бериш мақсадида турли хил декаратив материал-лардан фойдаланилади. Курсиларни пардозлаш учун курси уланишлари мавжуд, курси уланишлари панель кўринишда бўлади. Бундан ташқари, фи-броцемент панелларидан фойдаланиб курсиларни пардозлаш мумкин, фиб-роцемент панеллари юқори мустаҳкамликга эга, музлашга чидамли, ҳаро-ратни кескин ўзгаришига чидамлидир[2] (1-расм).

Курсиларни пардозлашда ишлатиладиган энг кўп тарқалган материал винилли панеллардир. Улар турли хил рангларда таёрланиб ёлтироқ рангдаги қўшимча материаллардан тузилган ҳолда мустахкамлиги ва устиворликка эга хисобланади. Уларни камчилиги шундан иборатки, ҳароратнинг кескин ўзга-риши таъсирида мустаҳкамлигини йўқотиши мумкин. Бундай панеллардан қишда ўта совуқ

иқлимларда фойдаланиш тавсия этилмайди (2-3-расмлар).



1-расм. Замонавий биноларнинг курсиси нам ўтказмаслик хусусиятига эга бўлган ва пойдевор конструкциясининг кейинги қатламларига ишлов берилган курси конструкциясининг ечими.



2-расм. Замонавий биноларнинг курсиси нам ўтказмаслик хусусиятига эга бўлган ва пойдевор конструкциясини арматура деталлари билан кучайтирилган курсининг ечими.



3-расм. Замонавий биноларнинг курсиси нам ўтказмаслик хусусиятига эга бўлган ва пойдевор конструкциясини намлигини қочириш учунн дренаж усулида қурилган курсининг конструктив ечими.

4-расм. Замонавий биноларнинг пойдевор қисмида нам ўтказмаслик хусусиятига эга бўлган қўшимча изолияцион конструкцияли курси.

Курсиларнинг турли хил композициялари ва шакллари, уларнинг бино вужуди массасига нисбатан пропорциялари ўта ўзгарувчанки, уларнинг тузу-лишига хос умумий бир қонуният топиш кийин. Шундай бўлсада,бизнинг куза-тувларимиз курсилар композициясига хос қуйидаги йўналишларни аниқлаш имконни берди[3] (4-расм).

Курси бинони ер билан муқим боғлаб турувчи, бинога салобат баги-шловчи бино қисми ҳисобланиб, у ҳамма вақт горизонтал йўналишдаги кўринишга эга бўлади;

Катта (айниқса, кўп қаватли) бинолар курсисининг баландлиги кичик ёки бир қаватли биноларникига нисбатан аксарият ҳолларда катта иш-ланади;

Курсилар асосан тарихий, мумтоз меъморий, кенг таркалган анъана-ларимиз асосида қурилган бино ва иншоотларда бинонинг пойдевори устига тикланган муҳим қисми ҳисобланади. Бироқ, улар замонавий архитектура объектларида ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган[5] (5-расм).

Меъморчиликда курси композицияларининг илғор анъаналарини излаб топиш, уларнинг архитектурадаги ўрни ва моҳиятини тўғри тушуниш, уларни бадиий шакллантириш ва архитектурани яратишда биноларнинг ушбу қисм-ларини меъморий композициянинг энг муҳим бадиий таркибий воситалари тарзида қариш, ҳисоблаш ва эътироф этиш бирдан юзага келмаган (6-расм).



5-расм. Биноларнинг пойдевор конструкциясилари билан жихозланган ва ер ости сувларини қочириш учун дренаж трубаларидан фойдаланилган курси ечими.

6-расм. Биноларнинг нам ўтказмаслик хусусиятига эга бўлган ва пойдевор конструкциясиларига қўшимча иссиқлик изоляцияси билан жихозланган курсиси.

Бу масалалар асрлар давомида аста-секинлик билан тўғри тушинилиб, эътироф этилиб, уларнинг илғор, ижобий ва муваққат анъаналари шаклланти-рилиб келинмоқда (7-расм).

Замонавий архитектурада курсининг турли хил ноанъанавий кўри-нишларини учратамиз. Масалан, курсининг девор текислигидан олдинга чиққани эмас, балки орқага силжиган кўринишидаги шакли ёки перрон типидаги подиум кўриниши ва ҳоказо[3].



7-расм. Биноларнинг курсисига ва пойдевор конструкциясиларига қўшимча ишлов берилган қурилиш материали билан безатилган курси ечими.

Айрим замонавий биноларда пастки биринчи қават буткул йўқ ёки қисман мавжудки, унинг ўрнига бино яхлит устунларга ёки синч қозиқларга таянган. Бундай ҳолатларда табиийки, курсига эҳтиёж йўқолади (8-расм).

8-расм. Бино курсиси девор қалинлигидан бўртиб чиққан, пойдевор конструкциясиларига мос бўлган замонавий қурилиш материалларидан фойдаланилган плиткалар билан безатилган куриси.

Бироқ, бинони кўтариб турган ўша устунлар ва синч қозиқлар ҳам ердан ўсиб чиқмайди ва устунлар қўйилади. Демак, улар ҳам маълум маънода ўз курсисига эгадир[4] (9-расм).

9-расм. Биноларнинг табиий тошлардан ишланган курсиси.

Мавзуга доир тадқиқот объектларини ўрганиш, улардаги курси, компо-зицияларини тадқиқ қилиш, таққослаш,ўрта асрлар меъморчилигида курси композициясининг шаклланиши, курси композициясининг ўрта асрлар меъ-морчилигидаги роли ва ўрни, қадимги дунё ва ўрта асрлар меъморчилигида курси композицияларининг турларини тадқиқ қилишдан иборатдир (10-11-12-13-расмлар).

10-расм. Бино пойдеворининг конструкциясилари мрамир плиткалари билан пардозланган курсиси.

11-расм. Бинонинг таббий тошлардан бажарилган қурилиш материаллари ечимига эга курсиси.

12-расм. Биноларнинг пойдевор конструкциясилари тош плиталаридан терилган курси.

13-расм. Биноларнинг курсиси оддий ғиштдан терилган ечим.

Акрилли панеллар бу мебель сифатидаги рангда таёрланган холда

ишлатиладиган материал бўлиб ҳисобланади. Унинг афзаллик томони шундан иборатки, бундай пардоз материал ёрдамида иссиқ иқлимда қуриладиган биноларнинг курсисини пардозаш мақсадга мувоффиқдир,

чунки акрилли панеллар юқори иссиқликка чидамли, Ўрта Осиё иқлимига мос келади (14-расм).

14-расм. Биноларнинг курсиси акрилли панеллардан ишланган ечими.

Хулоса

1. Меморчиликда курси шаклларига ҳозирги даврда ва келажакда ҳам бирдай, нафақат функциявий ва қурилмавий, балки композициявий бадиий меъморий восита тарзида қаралган ва қаралиб келмоқда.

2. Бино курсисининг баландлиги бинонинг неча қаватлилиги ва уму-мий баландлигига мутаносиб тарзда белгиланган. Агар бино кам қаватли бўлса унинг курсиси 0,5 метрдан ошмаслиги, агар бино 5-7 қаватдан ошса, унинг курсиси 1-қават баландлигини ҳам қамраб олиши, агар у 9-12 қават ва ундан юқори бўлса бино курсисининг баландлиги икки қават ҳажмида ҳам бўлишлиги мақсадга мувофиқ.

3. Конструктив жиҳатдан иморатнинг курсиси мустаҳкам, устиворликка эга бўлиши ва зилзилабордошлиги жиҳатдан мукаммал барча табият инжиқлигига чидамли бўлиши керак. Курси бинони салобатли кўринишига

эга конструкция ҳисобланади ҳамда курси устига қурилган бино салобатли ва гўзал, мустаҳкам кўринишга эга бўлади.

4.Архитекторлар ўзлари лойиҳалаётган бино ва иншоотлар курсиси-нинг элементлари ва конструктив ечимларига алоҳида эътибор беришлари зарур, зеро бу, меъморчиликда ўзига хос тарбиявий ва бадиий - эстетик аҳа-миятга эга. Архитектуранинг юксак санъат тарзида ифодаланишида курсиси-нинг ҳам аҳамияти ва ўрни ҳам улкандир.

Мунозара. Қадимги ва илк ўрта асрларда қурилган биноларнинг курсилари сезиларли даражада баланд, айрим ҳолларда яхлит стилобат (платформа) кўринишларини олган. Бундай усул биноларга ер юзидан кўтарилган, фазовий маҳоботли кўриниш берган. Биноларни суфа ва плат-форма устига қуриш усули ўрта асрларда ҳам давом эттирилган. Қадимги даврларда ҳам кам қаватли ёки заллик биноларнинг курсилари деярли баланд бўлмасада ташқи деворларга нисбатан рельефли ёки контр-рельефли шаклларда, кўп қаватли биноларда эса курси ер тўла қаватли ёки биринчи қават баландлигида алоҳида бўрттирилиб қурилган. Мустақил-лик йилларида қурилган биноларнинг курсилари ҳам ана шундай кў-ринишларга эга;

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 ноябрдаги ПФ-5577 сонли "Қурилиш соҳасини давлат томонидан тартибга солишни такомиллаштириш қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони.- Тошкент, 2018.

2. Uralov Akbarali.National Traditions of Interior Architecture of Buildings of Wedding Houses. Article history: Received 10-Jan-2023 Received in revised form 15 Jan Accepted 16-Feb-2023 Available online 6-Mar-2023. pp.76-80

. 3.Уралов А., Каримов Э. Бинолар қурилишида курси композиция-сининг роли. // Ишлаб чиқаришнинг техник, муҳандислик ва технологик муаммо-лари ва инноватсион ечимлари. // Ҳалқаро миқёсидаги илмий-техник анжуман материаллари.-Жиззах ПИ. 29-30 октябр 2021й. 1-қисм 843-846 бетлар.

4. Uralov Akbarali, independent researcher ARCHITECTURAL SOLUTIONS OF MODERN BUILDINGS. Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595) Vol.1. Issue 1 page 35.

5. Льюис П., М.Тсурумаки, М., Льюис Д. Manvae of sectioni.- 2008.

NANOTEXNOLOGIYALARNING ARXITEKTURA VA QURILISH SOXASIDAGI O'RNI VA SAMARALILIGI.

THE ROLE AND EFFECTIVENESS OF NANOTECHNOLOGIES IN THE FIELD OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION

Achilova M. F. SamDAQU tayanch doktoranti (PhD)

Saburov K. U. UrDU "Qurilish" kafedrasi o'qituvchisi

Sharipov A. E. "TIKXMMI" MTU BuxTRBI "Gidrotexnik inshootlar va nasos stansiyalari" kafedrasi dotsenti g.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya: Bugungi kunda nanotexnologiyalar innovatsianing so'nggi avlodi sifatida sanoatning turli tarmoqlarida va yo'nalishlarda innovatsion tadqiqot sohasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Nanotexnologidan arxitektura - qurilish soxalarida foydalanilishi ekologik barqarorlik, estetik dizayn, restavratsiya, energiya sarfini kamaytirish, tabiiy resurslardan unumli foydalanish va qurilish materiallarining ish faoliyatini yaxshilash kabi imkoniyatlarni berdi. Ushbu maqolada aynan nanomateriallar va ularning turlaridan memorchilik sohasida foydalanishni joriy etish va uning samaradorligini yoritishga etibor qaratilgan. Tasviriy tahliliy usullardan foydalangan holda olib borilgan tadqiqot nanomaterial va nanotexnologiyalar xar qanday infratuzilmani yaratishda foydali va ekologik barqarorlikni ta'minlashda samarali ekanligini aniqlandi.

Kalit so'zlar: nanotexnologiya, estetika, memoriy muxit, nanozarra, nanomaxsulot, samaradorlik, energiya tejamkorlik

Аннотация: Сегодня нанотехнологии, как новейшее поколение инноваций, предстают как инновационная область исследований в различных отраслях и направлениях. Использование нанотехнологий в области архитектуры и строительства открыло такие возможности, как экологическая устойчивость, эстетичный дизайн, реставрация, снижение энергопотребления, эффективное использование природных ресурсов и улучшение характеристик строительных материалов. Эта статья посвящена ознакомлению с использованием наноматериалов и их типов в области памяти и освещению ее эффективности. Исследования, проведенные с использованием описательных аналитических методов, показали, что наноматериалы и нанотехнологии полезны при создании любой инфраструктуры и эффективны в обеспечении экологической устойчивости.

Ключевые слова: нанотехнологии, эстетика, среда памяти, наночастица, нанопродукт, эффективность, энергосбережение.

Kirish. Nanotexnologiya fanning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda arxitektura va qurilish sohasi ham nanotexnologiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Nano - bu o‘lcham, bir butunning milliarddan bir qismi. SHunga ko‘ra, nanometr - bu metrning milliarddan bir qismi, ko‘zga ko‘rinmas miqdor. Har qanday material, agar shunday mayda zarrachalarga bo‘linsa, uning xususiyatlarini tubdan o‘zgartirishi mumkin (masalan, plastmassa o‘tkazgichga, suv esa elimga aylanadi). Zamonaviy arxitekturada xozirda nano-uylarning soni ko‘p bo‘lmasada, lekin ularda bazi g‘ayritabiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan(yong‘inga chidamli, suv o‘tkazmidigan, engil, ekologik toza, o‘z-o‘zini tozalaydigan) konstruktiv elementlarni boshqarish imkonini beradigan nanotexnologiyalar mavjud.

Nanomateriallarni yaratish tamoyili erishib bo‘lmaydigan xususiyatlarni shakllantirish imkonini beradi.Ta’kidlash joizki, nanotexnologiyalarning paydo bo‘lishi va ularni qo‘llash memorchilik sohasida energiyani tejash muammosini hal qiladi, shuningdek, nanotexnologiyalardan foydalanish yangi ekologik toza maxsulotlarni joriy etish hamda katta iqtisodiy foyda keltirishi mumkin bo‘lgan noyob xususiyatlarga ega qurilish materiallarini yaratish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda arxitektura loyihalarida energiyani tejash, resurslardan unumli foydalanish, eng muhimi atrof-muhitga zarar etkazishni minimallashtirish muhim masalalardan biridir. Bu o‘rinda ekologik toza, barqaror va tejamkor, ammo xizmat qilish muddati cheksiz bo‘lgan nanomateriallaridan foydalanish yuqoridagi masalalarning echimlaridan biri hisoblanadi[1-4]. Albatta, har qanday bino vaqt o‘tishi bilan eskiradi va o‘zining ekspluatatsion xususiyatlarini yo‘qotadi (inshootning qulashi, shikaslanishi va b).

Ushbu vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li - kapital ta’mirlashdir. Nanotexnologiyalardan foydalangan holda binoning tamirlash muddatini 30 yilga oshirish mumkin va bunday ta’mirlash natijasi energiya tejash samaradorligini beradi va kam material sarflanadi.

SHiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda arxitektura-qurilish sohasida keng turdagi materiallar mavjudligi sababli juda katta raqobatbardosh bozorga ega. Atrof-muhitga eng kam tasir ko‘rsatadigan mahsulotlarga e’tibor berish qurilish sanoati uchun sifatli materiallarni tanlashda hal qiluvchi masala bo‘lsada, me’morchilik nuqtai nazaridan go‘zallik, sifat, ta’mirlash, texnik xizmat ko‘rsatish qobiliyati, qulay foydalanish va oqilona xarajatlar kabi boshqa jihatlarni ham hisobga olish kerak.

Usullar. Ushbu tadqiqot nanotexnologiyaning arxitektura va qurilish sanoatida amaliy qo‘llanilishini taqdim etish uchun bir qator kutubxona tadqiqotlari va keyinchalik qiyosiy-amaliy usullarni ko‘rib chiqish orqali tavsifiy-tahliliy yondashuvlarga asoslangan. SHu maqsadda, birinchi navbatda, nanotexnologiyaga oid asosiy tushunchalar baholandi va aniqlandi.

Ushbu texnologiyaning ahamiyati va ilmiy jamiyatdagi o‘rni haqida gapirar ekanmiz, biz nanoning arxitektura soxasidagi rolini ko‘rib chiqdik. Bundan tashqari, oldingi tadqiqotlar va mutaxassislarning g‘oyalari asosida nanomateriallaridan qurilishda foydalanish samarasi va ularni nanotexnologiyalar bilan qamrab olish imkoniyatlarini tahlil qildik.

Tadqiqot natijalari. Arxitektura soxasi atrof-muhit bilan bog‘liq masalalarda nanomateriallarning ishlashi, inson salomatligi va xavfsizligiga, xom ashyo va ularning xususiyatlariga zararli tasiri kabi keng ko‘lamli muammolarga duch kelmoqda. Nanotexnologiyadagi so‘nggi ishlanmalar ushbu muammolarning ko‘pchiligiga qarshi turish uchun istiqbolli yondashuvga ega ekanligini ko‘rsatdi. Qurilish sanoatida nanotexnologiyani qo‘llash sement zarrachalarining gidratsiyasi tushunchasini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. SHuningdek, u alyuminy va kremniy oksidi va boshqa yangi nanozarrachalar kabi nano o‘lchamdagi materiallardan foydalanish uchun asos yaratadi, ular qurilish materiallarining xarakteristikalari va hayotiy sifatlarini, ayniqsa qarshilik, chidamlilik, engillik va boshqalarni yaxshilaydi. Quyidagi jadvalda asosiy qurilish materiallarida nanozarralarning qo‘llanilishi ko‘rsatilgan.

Material	Nanozarralar turi	Natijalar
Beton	Silikat nanozarralari Titan dioksidi nanozarralari Uglerod nanotubalari	• Mexanik mustahkamlikni mustahkamlovchi • O‘z-o‘zini tozalash • Tez namlanish •Mexanik chidamlilikni oshirish • YOrilishning oldini olish
Beton	Temir oksidi nanozarralari	Olovga chidamli • Payvandlash qobiliyati • Bosim kuchini oshirish
Asfalt-beton yog‘och	Alyuminiy oksidi nanozarrachalari	• Xizmat ko‘rsatish qobiliyatini oshirish, tashqi tasirlarga chidamlilik(chang, mikroblar)
G‘ishtli ohak	Loy nanozarralari	•Siqilish kuchini oshirish

		• YUza oshirish
Temir	Mis nanozarralari	• Payvandlash imkoniyati • Korroziyaga chidamlilik
SHisha	Titan dioksidi nanozarralari Kremniy dioksidi	• o‘z-o‘zini tozalash • YOng‘inga qarshi • CHang va tumanga qarshi
Bo‘yoq	Kumush nanozarrachalar (AgNPs) Titan dioksidi (TiO2)	• o‘z-o‘zini tozalash • Antibakterial • CHizishga chidamli

Bundan tashqari, memoriy obektni tizimli xolatini nanozarrachalar bilan kuzatish sensorlari dolzarb muammolarni xal etishda muxim rol o‘ynaydi. Qoplamali yangi materiallardan energiyani saqlash, o‘z-o‘zini ta’mirlash, o‘z-o‘zini tozalash, korroziyaga qarshi qobiliyat va binoning sog‘lom muxitini saqlash va t’minlash uchun ishlatiladigan asosiy komponentlarni yaxshilash kabi yangi funktsiyalarni kutish mumkin, SHuningdek, deraza oynalaridagi yong‘inga chidamlilik va antibakterial xususiyat, betonning yorilishni kamaytirish qobiliyati, yuqori karbidli past uglerodli nanozarrachalar va boshqa tegishli funktsiyalar qurilish sanoati uchun muhim natijalarga olib keladi (1-rasm).



1-rasm. Tarkibida nanozarralar mavjud bo‘lgan maxsulotlar:

1 - o‘z-o‘zini tozalash oynasi (shisha); 2 - o‘z-o‘zini tozalash va dekorativ tom yopish plitalari; 3 - yong‘inga chidamli izolyasiya; 4 - regenerativ energiya ta’minoti uchun quyosh batareyalarini bo‘yash; 5 - quyosh batareyalari uchun aks ettiruvchi qoplamalar; 6 – aqlli derazalar orqali yorug‘lik va issiqlik oqimini boshqarish; 7– tuproqqa chidamli pol panellari; 8 - yong‘inga chidamli eshiklar, derazalar va kabellar; 9–qurilish xizmatlari uchun yonilg‘i xujayralari; 10–qurilish konstruksiyalari uchun optimallashtirilgan beton xususiyatlari; 11 – armatura va mebel uchun barmoq izlariga qarshi va bakteriyaga qarshi xususiyatlar; 12 - devor qoplamasi sifatida keramik plyonkalar; 13 - yuqori samarali fasad izolyasiyasi; 14 – ifloslanishga qarshi yoki o‘zini o‘zi tozalaydigan jabhalar.

Aqlli shisha

Aqlli oynalarda nanotexnologiyani qo‘llash orqali ushbu oynalardagi yorug‘lik yutilish miqdorini o‘zgartirish mumkin. Aqlli oynalar - yorug‘lik va issiqlikni birgalikda boshqarishi mumkin bo‘lgan shisha va suyuq kristalli oynalarda namoyon bo‘ladi. Ushbu shisha bir tomondan yupqa qatlam bilan qoplanganligi sababli oddiy oynaga qaraganda ancha past issiqlik o‘tkazuvchanligibilan ajralib turadi. Aqlli energiya nazorati oynasida nanotexnologiya bilan shisha energiya sarfini kamaytirish, binoning yorqinligi va ko‘rinishini, jabhaning go‘zalligini oshirish uchun foydali elementga aylanadi. Aqlli shisha binoning atrofida katta derazalar, kuchli yorug‘lik va go‘zallik bilan qurilish g‘oyalarini amalga oshiradi. Ushbu deraza oynalari rang va oqim miqdorini to‘g‘ridan-to‘g‘ri va qulay tarzda sozlashi mumkin. Boshqa turdagi aqlli energiya nazorat qiluvchi oynada, birinchi navbatda, binoning ichki bo‘shliqlarida elektr ajratuvchi sifatida ishlatiladi, oynalar o‘rtasida suyuq kristallning yupqa qatlami qo‘llaniladi, bu plyonka orqali elektr energiyasini o‘tkazish natijasida shaffof xolatda bo‘ladi. SHunday qilib, ushbu tizim yordamida xonani isitish, sovutish va yoritish uchun juda katta iqtisodiy summani tejash mumkin.[13] (2-rasm).

a b c

2-rasm - aqlli oynalarning turli ko‘rinishi

a - suyuq kristall qatlam; b – aqlli oyna (maxfiylik); c - energiyaga asoslangan aqlli oyna

4 YOng‘inga chidamli oynalar.

YOng‘indan himoya oynasi shisha sanoatida nanotexnologiyaning yana bir yutug‘idir. YOng‘in bilan kurashish uchun shishada har doim bazi salbiy nuqtalar mavjud, masalan, yong‘in paytida shisha erishi tufayli mo‘rtlik, olov va tutun chiqishi. SHuning uchun nanozarrachalar issiqlik ta'sirida qoplama hosil qiluvchi va shishaning sinishiga yo‘l qo‘ymaydigan yong‘inga chidamli shisha ishlab chiqarish imkonini beradi. Ushbu oynalar oldingi modellarga qaraganda deyarli 50% engilroq va ularning yong‘inga qarshi ta’siri ikki baravar ko‘p(3-rasm).



a b c

3-rasm – nanozarrachalar bilan qoplangan oyna turlari:

a - aks ettiruvchi shisha; b - o‘z-o‘zini tozalash oynasi; c - yong‘inga chidamli shisha

Nanotexnologiyaning rangtasvirda qo‘llanilishi.

Nano bo‘yoqlar - rekonstruksiya sanoatida innovatsion bo‘yoq turi bo‘lib, u moddiy rivojlanish va ijodkorlikka yangi konsepsiya berdi. Memorchilikda ichki va tashqi jabhalar, eshiklar, derazalar, oynalar, pollar qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan turli xil nanoqoplamli bo‘yoqlar mavjud. Ushbu bo‘yoqlar shikastlangan qismni qayta tiklash, keyingi shikastlanishni oldini olish hamda atrof-muxit muhofazasida bugungi kundagi dolzarb mummolarni bartaraf etishda muhim innovatsion texnologiya ekanligi aniqla

O‘z-o‘zini tozalaydigan bo‘yoqlar.

O‘z-o‘zini tozalaydigan boo‘yoqlar - bu chidamlilikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqartirishga katta e’tibor berilgan himoya nanoqoplamalar guruhidir. Ushbu bo‘yoqlarga o‘z-o‘zini tozalash qobiliyatiga ega bo‘lgan har xil turdagi nanozarralarni qo‘shish orqali erishish mumkin. O‘z-o‘zini tozalaydigan nanobo‘yoqlar sirt ko‘rinishini o‘zgartirmaydi, butunlay shaffof bo‘lib, binoning ichki va tashqi yuzalarida qo‘llanilishi mumkin. Ushbu bo‘yoqlarda ifloslantiruvchi moddalar yoki boshqa materiallar bo‘yoq yuzasiga deyarli yopishmaydi, shuning uchun ular tabiiy vositalar (shamol va yomg‘ir) yoki sirtni tozalash orqali osongina bartaraf etiladi.

Antibakterial bo‘yoqlar

Antibakterial qoplamalar sirtda bakteriyalar, suv o‘tlari va mikroblarning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi va ayniqsa jamoat binolarini mog‘or va zambrug‘lardan himoya qiladi. Nanotexnologiya va antibakterial qoplamalardan foydalanish yuvish vositalari bilan olib tashlanmaydigan sirtlarda o‘ziga xos antibakterial xususiyatlar yaratadi. O‘zini o‘zi tozalaydigan bo‘yoq titan dioksidining nanozarralarini o‘z ichiga oladi. Bo‘yoq qoplamasi quyosh yoki boshqa ultrabinafsha nurlar manbasiga tasir qilganda, sirtdagi har qanday organik moddalar bo‘yoq qoplamasining oksidlanish xususiyatlari bilan parchalanadi.

CHizishga chidamli bo‘yoqlar

YOg‘och, metallar, plastmassalar, polimerlar va shisha kabi materiallardagi tirnalishlar ko‘p hollarda ulardan foydalanishni cheklaydi, ularni almashtirish uchun ko‘p energiya va pul talab qiladigan ko‘plab mahsulotlarning ishlash muddatini qisqartirishi mumkin. Nano-skretch qoplamalari shaffof, yuqori sifatga ega va shaffof qatlamlar bilan shaklli rangdagi sirtlarda qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa. Nanotexnologiya turli ilmiy va sanoat sohalarida, jumladan, arxitektura-qurilish sohasiida sezilarli yutuqlarni vada qilmoqda. Ushbu texnologiya arxitektura va qurilishda raqobatini kuchaytirish uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etdi, masalan, yuqori samaradorlik, ishonchlilik, estetik dizayn, iqtisodiy samaradorlik va barqarorlik. Qurilish sanoatida nanotexnologiyadan foydalanish yuqori samaradorlik va qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan ko‘p funksiyali qurilish materiallarini ishlab chiqarish imkoniyatini berdi, shu bilan birga qurilish materiallarining sifati, dizayni va mustahkamligini yaxshilash hamda energiya samaradorligini taminlash kabi yangi xususiyatlarni namoyon etdi. Bundan tashqari, ushbu texnologiya mavjud texnologiyalarni optimallashtirish va samaradorligini oshirish hamda nanotexnologiyalar paydo bo‘lishidan oldin mavjud bo‘lmagan yangi yondashuvlar va funktsiyalarni joriy qilish uchun foydali bo‘ldi. SHu sababli, nanotexnologiya arxitektura va qurilish sanoatiga amaliy yangilik va innovatsion yondashuv bo‘lib, material sifati, energiya tejash va iqtisodiy samaradorlik kabi samaradorliklarni olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Leydecker S. H. Kroto, M. Veith. Nano materials in architecture, interior and design / 2008. P. 11-12.
2. Khandve V.P. Nanotechnology for Building Material / V.P. Khandve // International Journal of Basic and Applied Research 2013. No 4. – P. 146-151.
3. Mauro J.C., A.J. Ellison, L.D. Pe // Glass: The Nanotechnology Connection / International Journal of Applied Glass Science 2013. No 4. – P. 64-75.
4. Minko N.I., V.M. Nartsev // Nanotechnology in glass materials (review) / Glass and Ceramics 2008. No 65. P. 148–153.
5. Teizer J. Venugopal M. Nanotechnology and its impact on construction: bridging the gap between researchers and industry professionals / W. et al. // Construction Engineering Managanagement. 2011. No 138. – 594–604.
6. Bhushan B. Springer Handbook of Nanotechnology / Berlin Heidelberg, 2010. P. 1-2.
7. Olar R. Nanomaterials and Nanotechnologies for Civil Engineering // 2011. No 4. – P. 109-118.
8. Serrano E. J. G. Martínez Nanotechnology for sustainable energy/ // Renewable and Sustainable Energy Reviews 2009. No 13. – P. 2373-2384.

METALL SAYDINGLAR VA ULARNI ZAMONAVIY QURILISHLARDA QO`LLANILISHI. METAL SIDINGS AND THEIR APPLICATION IN MODERN BUILDINGS.

Bo`ronov Raxmiddin Yozilovich.
BuxMTI, katta o`qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy binolar qurilishida tobora keng miqyosda qo`lanilayotgan, eng samarali va qulay qoplama materiali hisoblangan metall saydinglarni turlari,tuzilishi, o`lchamlari, qo`llanilish sohasi,texnik xususiyatlari, afzallik va kamchilik tomonlari to`g`risidagi asosiy ma`lumotlar yoritib berilgan.

Abstract. In this article, the main information about the types, structure, dimensions, field of application, technical characteristics, advantages and disadvantages of metal sidings, which are used more and more widely in the construction of modern buildings and are considered the most effective and convenient covering material. explained.

Kalit so`zlar. Sayding, vinil va akril saydinglar,sovuq prokatlangan, galvanizlangan, gruntovkalangan, qulfli moslama, korablsimon,yevrobrus, blok xaus.

Binolarning tashqi devor yuzalarini oxirgi pardozlash ishlarini bajarishda qo'llaniladigan ashyolarning turlari juda xilma-xil bo'lib, ular turlicha kimyoviy, fizikaviy va mexanik xususiyatlarga egadir. Pardozlash ishlarini bajarishda, qurilish joyining texnik sharoitlarini hisobga olgan holda pardoz ashyolarini to'g'ri tanlash texnik va iqtisodiy jihatdan juda muhimdir. Chunki ekspluatatsiya davrida tashqi devorlarga o'zgaruvchan haroratlar, yuqori namlik, yog'ingarchilik suvlari, quyoshdan tushadigan nurlanishlar, mexanik va shamol kuchlari ta'sir qilib turadi.Qabul qilingan pardozlash ashyolari esa yuqoridagi barcha ta'sir kuchlariga chidamli bo'lishi zarur.Shu bilan birga ularning uzoq muddatga chidamlilik muddati yuqori, massasi yengil, narxi arzon, qurilish muddati qisqa va mukammal texnologiyaga ega, oson ta'mirlanadigan, tovush va issiqlik o'tkazmaydigan, yonishga chidamli, ishlarni bajarish nomavsumiy hamda yuqori darajadagi estetik ko'rinishni namoyon qilishi lozim. Ayniqsa O'zbekistonning issiq va quruq iqlim sharoitiga mos bo'lishi kerak.

Ana shunday tashqi pardoz-qoplama ashyolaridan biri – "sading"dir Sayding (ing. «SIDING») — amerikanizm bo'lib (19-asrda birinchi bo`lib shimoliy Amerikada ishlab chiqilgan), binolarning devorlarini qoplash texnologiyasi ma`nosini bildiradi. U quyidagi ikki funktsiyani bajaradi: utilitar (binoni yomg'ir, shamol, qor, quyosh kabi tashqi ta'sirlardan himoya qilish) va bino fasadiga estetik (uyning fasadini bezash) korinish beradi. Ushbu konstruksiyaning narxi ba`zi boshqa qoplamalarga qaraganda arzonroq hisoblanib, bir qator afzalliklarga ega, jumladan: yengil vaznli; yaxshi himoya xususiyatlariga ega; murakkab parvarish talab etilmaydi; chidamliligi yuqori, o'rnatish juda oddiy va qulay hamda uzoq muddatga (50 yilgacha) xizmat qiladi.

Saydinglar qanday ashyolardan tayyorlanganligiga va tuzilishiga ko`ra bir necha turlarga bo`linadi. Shulardan hozirgi kunda eng mashhurlari va ko`p qo`llaniladiganlari –yog`och, metall, vinil va akril saydinglar hisoblanadi. Bino fasadlarini qoplashda qanday saydinglarni tanlash, binoning vazifasiga, xususiyatlariga, qurilish hududining iqlim sharoitlariga va boshqa texnik iqtisodiy ko`rsatkichlariga asosan amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasining bugungi issiq va quruq iqlimli hududlarida joylashgan binolarning tashqi devorlarini qoplamali pardozlash uchun eng qulay va mos bo`lgan sayding, bu-metall sayding hisoblanadi.

Metall sayding ishlab chiqarish uchun issiq galvanizli, polimer qoplamali sovuq prokatlangan po'lat listlar qo'llaniladi. Panellarda mahkamlagichlar uchun maxsus teshiklar va bir biriga mahkamlash uchun qulfli moslamasi mavjud.(1-rasm).

Metall sayding kompozitsion materialdir. Po'lat panellar (varaqlar) galvanizlangan, gruntovkalangan, bo'yalgan va fosfat plyonkasi bilan qoplangan holda ishlab chiqiladi.Barcha qoplamalar panelning old va orqa tomoniga yotqiziladi. Tashqi tomondan kerakli rangdagi polimer qoplama qo'llaniladi. Orqa tomoni bo'yoq yoki himoya lak bilan qoplanadi.

Metall saydingning himoya qoplamasining sifati qoplamaning xizmat qilish muddatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda tashqi metall qoplamaning bir nechta turlari qo'llaniladi. Ularning har biri materialga turli xil xususiyatlarni beradi va qoplama materialining narxiga sezilarli ta'sir qiladi.

1-rasm. Korablsimon kesimli metall sayding panelining tuzilishi.

Tashqi metall qoplamalarining turlari.

Poliuretan - poliuretan qoplamasi yuqori haroratga juda chidamli. Janubiy hududlarda ko`proq qo`llaniladi.Panelning issiqbardoshligini oshiradi. Ushbu qoplamali metall saydingning xizmat qilish muddati 30 yildan ortiq.

Pural - poliuretan va poliamiddan iborat, pural xiralashishga va mexanik shikastlanishga chidamli. +120^0 C gacha bo'lgan haroratga bardosh beradi. Korroziyaga qarshi xususiyatlarga ega.

Plastizol - qattiq iqlim sharoiti bo'lgan hududlarda qo'llaniladigan yuqori quvvatli qoplama. Plastizol metallni korroziyadan himoya qiluvchi korroziyaga bardoshli materialdir. Uning yuzasi dekorativ elementlarni- bo'rttirma, to'qimalar va shtamplangan dizaynlarni qo'llash uchun mos keladi.

Polyester -mexanik shikastlanishga juda chidamli emas (ehtiyotsizlik bilan ishlov berilsa, tirnalish holati sodir bo'lishi mumkin). Ammo u ob-havo ta`sirlariga va korroziyaga chidamli. Qulay narx, rangning barqarorligi, ranglarning keng assortimenti, panellarni xizmat muddatini 20 yilgacha uzaytiradidi.

1-jadval. Qoplamaning fizik tavsifi.

Qoplamalar	Polyester	Poliuretan	Plastizol	Pural	PVDF
Yuzasi	silliq	silliq	Bo`rttirma	silliq	silliq
Qoplama qalinligi, mkm	25	35	200	50	27
Gruntovka qalinligi, mkm	5-8	5-8	5-8	5-8	5-8
Himoya lakining qalinligi,(orqa tomoni) mkm	12-15	12-15	12-15	12-15	12-15
Maksimal ish harorati	+120° C	+120° C	+60-80° C	+120 ° C	+120 ° C
Ishlov berishning minimal harorati	-10° C	-10° C	-10° C	-15° C	-10° C

Poliviniliden ftorid -polivinilxlorid va akrilni o'z ichiga olgan eng bardoshli materialdir. Maksimal xizmat muddati 50 yildan ortiq. Yuqori haroratga, mexanik shikastlanishga, korroziyaga va atmosfera ta'siriga mutlaqo chidamli.

Metall sayding o'zgaruvchan ekologik sharoitlarda foydalanish uchun tayyorlangan po'latdan yasalgan. U ultrabinafsha nurlanishiga, haroratning o'zgarishiga, yog'ingarchilikka va mexanik stressga o`z sifatini yo'qotmasdan bardosh berishi kerak. Ishlov berilmagan po'lat panellar havo va namlik bilan aloqa qilganda zanglaydi, shuning uchun profilli mahsulotlar uchun varaqning tuzilishi ko'p qatlamli:

• *Sovuq prokatlangan po'lat* sayding asosi hisoblanadi. Sayding ishlab chiqarish uchun ko'pincha qalinligi 0,4 - 0,5 mm bo'lgan po'lat varaqlar ishlatiladi.

• *Rux qatlami*. Sink, po`lat varaqni va kesilgan qirrasini qirilish va korroziyadan himoya qilish xususiyatiga ega; Po'lat har ikki tomondan galvanizlangan.

• *Passivlangan qatlam* - ikki tomondan galvanizli qatlamni qoplaydigan oksidli plyonka. Passivatsiya turli oksidlovchi moddalar yordamida amalga oshiriladi, natijada metall tashqi reagentlar bilan faol ta'sir o'tkazish qobiliyatini yo'qotadi, bu esa korroziyadan qo'shimcha himoya qiladi.

• *Gruntovka.* 5-8 mikron qalinlikdagi gruntovka qatlami metall qatlamni polimer qoplamasiga eng yaxshi yopishish uchun tayyorlaydi.

• *Polimer qoplama*. Polimer qoplamasi bir vaqtning o'zida bir nechta muhim funktsiyalarni bajaradi: metallni tashqi ta'sirlardan himoya qiladi va unga estetik ko'rinish beradi. Polimer qoplamalarining rang-barangligi va to'qimalarining xilma-xilligi tufayli bizda metall saydingning keng assortimenti mavjud. Ishlab chiqarishda ko'pincha poliester, yaxshilangan poliester va poliuretan asosidagi qoplamalar qo'llaniladi. Qoplamaning qalinligi - 25 dan 55 mikrongacha bo`lishi mumkin.

• *Himoya lak qatlami*. Qo'shimcha lak qoplamasi polimer qoplamani yeyilishdan va tashqi ta'sirlardan himoya qiladi. Bunday qoplamaning qalinligi 12-15 mikron bo'lishi mumkin.

Metall saydinglar ko`ndalang kesimining shakli bo`yicha quyidagi turlarga bo`linadi: (2 -rasm).



a)



b)

v)

g)

2-rasm. Metall saydinglarni ko`ndalang kesimlari bo`yicha turlari.

Bu yerda: *a-tekis yuzali yevrobrus sayding paneli (devor yuzasini qoplash uchun);*

b-segmentsimon kesimli (blok xaus) sayding paneli (devor yuzasini qoplash uchun);

v-korablsimon kesimli sayding paneli (devor yuzasini qoplash uchun);

g-archasimon kesimli sayding paneli (devor yuzasini qoplash uchun);

a) b)



3-rasm. Tekis sirtli devor sayding panellari. (Vertikal holatda o`rnatiladi)

Bu yerda: ***a****-gofrali va chziqli saydinglar;* ***b****-trapetsiyasimon va tekis sirtli sayding panellari.*



4-rasm. Sofit saydinglarni tuzilishi.

Soffit saydinglar - tom karniz qismining ostki gorizontal yuzasini qoplash uchun ishlatiladi.

Metall sidingning o'rtacha parametrlari:

- ➠ Qalinligi: 5 – 13 mm
- ➠ Kengligi: 190 – 210 mm
- ➠ Foydalanish mumkin bo'lgan kenglik: 170 – 190 mm
- ➠ Uzunligi: 0,5 dan 6 m gacha
- ➠ Maydoni: 0,25 dan 3 kv. M; Og`irligi 2,5-3 kg/m^2.

Izoh: metall saydinglarni uzunligi standart o`lchamga ega emas, ya`ni buyurtmachining talabiga asosan istalgan uzunlikda kesib tayyorlash mumkin.

Tsokol saydinglari. Binoning tsokol qismini qoplash uchun alohida tsokol saydinglari qo`llaniladi (5-rasm).



5-rasm. G`isht va tosh terimi shaklidagi tsokol saydinglarining tuzilishi.

6-rasm. Tashqi devorlari sayding qoplamalari bilan to`liq qoplangan bino ko`rinishi.

Yuqoridagi barcha sayding panellarini devor yuzasiga o`rnatish uchun avval qoplama osti karkaslari devor yuzasiga o`rnatiladi va saydinglar ana shu karkaslarga burama mixlar (shuruflar) yordamida mahkamlanadi.Devor va sokol panellaridan tashqari, bino fasadini to`liq qoplama qilish uchun, qo`shimcha sayding buyumlari ham ishlatiladi (6-rasm).

Har bir qo`shimcha sayding panel va profillari binoning alohida bir qismini qoplash uchun xizmat qiladi va binoga ciroyli bir ko`rinish beradi.Ular yordamida tashqi devorlar yuzasidagi notekisliklarni yashirib, devorlarni turli iqlimiy ta`sirlardan himoya qilibgina qolmasdan, devor yuzasida eheriya samarador devor qatlamini ham barpo qilish mumkin. (7-rasm). Bunday konstruksiya, qoplama ichiga issiqlik izolyatsiyasi qavatini o`rnatish orqali amalga oshiriladi. Natijada bino tashqi devorining issiqlik izolyatsiya sifati va iqtisodiy ko`rsatkichlari yaxshilanadi.Chunki qalinligi 650 mm li g`ishtli devor bilan, mineral tolali issiqlik izolyatsiya qavatining issiqlik o`tkazuvchanlik ko'ffitsiyenti bir xil.Demak mineral tolali qavat hisobiga g`ishtli devor qalinligini kamaytirish mumkin.



6-rasm. Metall saydinglarni qo`shimcha qismlari.

Metall sayding qoplamasining afzalligi:

oddiy va oson o'rnatiladi; har qanday o'lcham bo'yicha ishlab chiqarish – chiqin dilarni kamligi; past haroratlarga turg`unligi; mukammal mustahkamlik xususiyatlari; xizmat muddatining uzoqligi (50 yilgacha); materialning eskirishga qarshiligi; texnik xizmat ko'rsatish qulayligi; har qanday iqlim hududlarida o'rnatish imkoniyati; ta'mirlash imkoniyati kengligi; biologik tasirlarga turg`unlik; yong'in xavfsizligi yuqoriligi; o'lchamlarning universalligi; rang sxemalarining xilma-xilligi; ekologik tozaligi; yoqimsiz hidning yo'qligi.



7-rasm. Sayding qoplamali issiqlantirilgan devor konstruksiyasi.

Kamchiliklari: mexanik mustahkamligi past; issiqlik o`tkazish koeffitsiyenti yuqori; narxi yuqori; bug` o`tkazuvchanligi juda past bo`lganligi sababli, sayding qoplamasi ostki yuzasida kondensatsiya suv tomchilari paydo bo`lib, metallda zanglash holatlari kuzatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.А.Савельев. Сайдинг, особенности и установки. М. Аделант, 2008г.
2.А.Савельев. Работы с сайдингом. М.2010 г.
3.Е.В.Симонов. Сайдинг наружная отделка своими руками. М.2018 г.
4.R.Yo. Bo`ronov. Sayding buyumlar texnologiyasi. Buxoro 2024 y.
5.Ю.Н.Казаков, А.М.Мороз. Технология монтажа индивидуальных жилых домов из быстровозводимых конструкции. Л.2021 г.
6.https:// alfa-profil.ua -енергоэффективность и теплопроводность утепления с отделкой сайдинга.

HAVO HARORATI VA NAMLIGINING O‘ZGARUVCHAN SHAROITIDA OCHIQ OMBORLARDA SAQLANAYOTGAN ARRALANGAN YOG‘OCH MATERIALLARINING DEFORMATSIYASI

Usmonov Farxod Bafoevich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Bino va inshootlar qurilishi kafedrasi professori, t.f.n.
Qaxxorov Hamid Axrorovich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Bino va inshootlar qurilishi kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Yaxshiev Yoqub G‘afforovich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Bino va inshootlar qurilishi kafedrasi assistenti.

DEFORMATION OF SAWN WOOD MATERIALS STORED IN OPEN WAREHOUSES UNDER CHANGING CONDITIONS OF AIR TEMPERATURE AND HUMIDITY

Usmanov Farkhod Bafoevich,
Bukhara institute of engineering and technology, Professor of the Department of Building and Design Construction, Ph.D. Gmail:
Kakhkhorov Hamid Akhrorovich,
Bukhara institute of engineering and technology, senior lecturer of the Department of construction of buildings and structures.
Yakhshiev Yokub Gafforovich,
Bukhara institute of engineering and technology, assistant of the Department of construction of buildings and structures.

Annotatsiya. Maqolada ochiq maydonlarda uzoq muddatlarda saqlanayotgan arralangan yog‘och materiallarining o‘zgaruvchan havo harorati va nisbiy namlik sharoitida qurib qisqarish va namlanib shishish natijasida deformatsiyalanish ko‘rsatkichlari yil davomida o‘rganilgan.
Kalit so‘zlar. Arralangan yog‘och materiali, nisbiy namlik, yog‘och namligi, qurib qisqarish, namlanib shishish, deformatsiya ko‘rsatkichlari.

Ma’lumki, arralangan yog‘och materiallari ochiq osmon ostida uzoq muddat saqlanganda, boshqarib bo‘lmaydigan sharoitlar ostida bo‘ladi. Havo haroratining oshishi va nisbiy namlikning pasayishi arralangan yog‘och materiallarining qurib deformatsiyalanishi va ko‘ndalang kesim o‘lchamlarining kichrayishiga olib keladi.

Turli xil boshlang‘ich namlikka ega bo‘lgan arralangan yog‘och materialining qurishi tufayli ular hajmining o‘zgarish tendensiyasini kuzatish va miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlash yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazildi. Yil davomida qishdan yozga tomon o‘tishda havoning nisbiy namligi 10% gacha pasayib boradi, havo harorati esa 40...45 ^{0}C ga yetadi, o‘z navbatida yozdan uzoqlashib qishga borgan sari havo harorati pasayib 0 ^{0}C dan pastga tushishi, nisbiy namlikning 100% gacha ko‘tarilishi kuzatiladi. Bunday sharoit gigroskopiklik xususiyatiga ega bo‘lgan arralangan yog‘och materiallariga ta’sir qilmay qolmaydi. Bunday o‘zgaruvchan iqlim sharoitida saqlanayotgan taxta ko‘rinishidagi yog‘och materiallari yil davomida bir necha marta namlanib shishadi, qurish ko‘ndalang kesim o‘lchamlari kichrayadi.

Ma’lumki, arralangan yog‘och materialining deformatsiya holatlari uning namlik holatiga bog‘liq bo‘ladi, o‘z navbatida, uning namligi havoning nisbiy namligiga bog‘liqdir. Kogon shahrida Buxoro mintaqaviy temir yo‘lar unitar korxonasi xo‘jaligining ochiq maydonlarida saqlanayotgan arralangan yog‘och materiallari misolida (1-rasm) Kogon shahri bo‘yicha 2021 yil uchun kuzatilgan harorat va nisbiy namlik ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda, shuningdek, GOST-6782.1-75 me’yoriy hujjatida keltirilgan ma’lumotlar va ko‘rsatmalarni inobatga olib, 150x50 *mm* li yog‘och taxtani qurib, uning ko‘ndalang kesimi o‘lchamlarini o‘zgarishini *mm* da aniqlandi. Arralangan yog‘och materiallarining dastlabki namlikdan va tayinlangan namlikkacha qurishi baravarida ular hajmining kamayishi o‘rganildi, hisoblashlar amalga oshirildi. Hisoblashlar yilning har oyi 3 ta dekadasi uchun havo harorati va nisbiy namligining o‘rtacha qiymatlari, yog‘och materialining dastlabki namlikdan va tayinlangan namlikkacha qurishi sharoitlarini inobatga olib bajarildi. Hisoblashlar natijalari asosida dastlabki namlik miqdori asosida yil davomida yog‘och hajmining qurib yoki namlanib shishish natijasida o‘zgarish diagrammalari havo harorati va nisbiy namligining o‘zgarishiga bog‘liq ravishda qurildi.

1-rasm. Turli dastlabki namlikka ega bo‘lgan, ochiq maydonlarda saqlanayotgan arralangan yog‘och materiallarida yil davomida kuzatiladigan hajmiy o‘zgarish deformatsiya ko‘rsatkichlari : a-boshlang‘ich namlik-

35%; b- xuddi shunday, 20%; 1-havoning kunlik o‘rtacha harorati; 2-havoning kunlik o‘rtacha nisbiy namligi; 3-arralangan yog‘ochning namligi; 4- qurib qisqarish va namlanib shishish natijasida 1m^3 yog‘och hajmining o‘zgarishi.

a)

b)

1-rasm. Buxoro mintaqaviy temir yo‘llar unitar korxonasi xo‘jaligi ochiq maydonlarida saqlanayotgan arralangan yog‘och materiallari holat (a) va taxtalarning ko‘ndalang kesim o‘lchamlari, namligin o‘lchash jarayoni (b).

Dastlabki namligi 35% va 20% bo‘lgan arralangan yog‘och materiallarining (1 m^3 yog‘och materiali hisobida) ochiq maydonda bir yil saqlanishi davomida o‘z hajmini o‘zgartirishi hisoblandi va natijalar asosida quyida keltirilgan grafiklar qurildi (2-rasm).

a)



b)



Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dastlabki namligi 35% bo‘lgan arralangan yog‘och materiallari yilning issiq davrida qurib o‘z hajmini 8% gacha, dastlabki namligi 20% bo‘lgan arralangan yog‘och materiallari esa o‘z hajmini 6% gacha kamaytirishi aniqlandi. Yilning sovuq davriga yaqinlashish baravarida arralangan yog‘och materialining hajmi uning namlanib shishishi tufayli yana dastlabki hajm tomon oshib boradi, o‘z hajmini 4-5% gacha oshiradi. Lekin havo namligining yuqori qiymatlari kuzatiladigan dekabr va yanvar oylarida ham arralangan yog‘och materiali namlanib, shishish bilan dastlabki hajmini egallay olmaydi. Qurish natijasida yog‘och materiali o‘z hajmini 6-8% ga qisqartib, namlanib shishish tufayli 4-6% gacha o‘z hajmini oshirishi aniqlandi. O‘rtacha 1 m^3 hajmdagi yog‘och materiali qurib qisqarishi natijasida 0,94-0,92 m^3 gacha o‘zgaradi, shu materialning o‘zi qish davriga borib, namlanib shishishi natijasida 0,98-0,97 m^3 hajmni tashkil etishi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. ГОСТ 6782.1-75 Пилопродукция из древесины хвойных пород. Величина усушки. Межгосударственный стандарт. Москва. ИПК. Издательство стандартов.

2. ГОСТ 6564-84. Межгосударственный стандарт. Пиломатериалы и заготовки. Правила приемки, методы контроля, маркировка и транспортирование. Издание официальное. Москва Стандартинформ 2007.

3. В.П. Болдырев. Сушка древесины. Издательство «ПРОФ ИКС» Санкт-Петербург 2002.

4. Mamatkulov T. Yog‘och va plastmassa konstruksiyalari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2019. 130 b.

5. А.В. Пачковский , Н.В. Мозговой. Физические процессы сушки древесины. Вестник Воронежского государственного университета. 2010., С.5-7.

6. Рассев А.И. Сушка древесины. М.: Лесная промышленность, 1990- 224с.

OCHIQ MAYDONLARDA SAQLANADIGAN ARRALANGAN YOG‘OCH MATERIALINING QURIB YOKI SHISHIB DEFORMATSIYALANISH KO‘RSATKICHLARINI HAVO HARORATI VA NISBIY NAMLIGINING O‘ZGARISHIGA BOG‘LIQLIKDA O‘RGANISH

Usmonov Farxod Bafoevich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Bino va inshootlar qurilishi kafedrasi professori, t.f.n. *Gmail:*
Qaxxorov Hamid Axrorovich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Bino va inshootlar qurilishi kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Yaxshiev Yoqub G‘afforovich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Bino va inshootlar qurilishi kafedrasi assistenti.

INCREASING INDICATORS OF SHRINKAGE OR SWELLING DEFORMATION OF SAWN WOOD MATERIAL STORED IN OPEN AREAS DEPENDING ON DECREASE IN AIR TEMPERATURE AND RELATIVE HUMIDITY

Usmanov Farkhod Bafoevich,
Bukhara institute of engineering and technology, Professor of the Department of Building and Design Construction, Ph.D. Gmail: farkhod_usmonov2022@mal.ru
Kakhkhorov Hamid Akhrorovich,
Bukhara institute of engineering and technology, senior lecturer of the Department of construction of buildings and structures.
Yakhshiev Yokub Gafforovich,
Bukhara institute of engineering and technology, assistant of the Department of construction of buildings and structures.

Annotatsiya: Maqolada yillar davomida uzoq muddat ochiq maydonlarda saqlanadigan arralangan yog‘och materiallarining qurish va namlanib shishishi natijasida o‘lchamlarining o‘zgarishini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: havo harorati, nisbiy namlik, gigrometrik muvozanat, gigroskopiklik, arralangan yog‘och materiali, yog‘och tolalarining to‘yinishi.

Davlatlararo standart- GOST 6782.1-75- “Arralangan yog‘och materiallar” me’yoriy hujjatida [1, 2] toza arralangan yog‘och materiallari namligining 38% dan 5% gacha bir martalik kamayib borishi bilan ular o‘lchamlarining kichrayishi ko‘rsatkichlari berilgan. Bunday deformatsiyalarning miqdoriy ko‘rsatkichlari yog‘ochlar turlari bo‘yicha alohida keltirib o‘tilgan. Ochiq maydonlarda, uzoq muddatlar davomida (fasllar osha) saqlanib kelinayotgan, yil davomida, umuman saqlanish muddati davomida shunday qurib kichrayish, namlanib shishish kabi deformatsiyalanish holatlarini bir nechtasini boshidan kechiradi. Bunday takror-takror qurib kichrayish va namlanib shishish sharoitlarida deformatsiyalanish ko‘rsatkichlari o‘rganilmagan. O‘rganilayotgan masala harakatdagi barcha me’yoriy hujjatlarda yoritilmagan.

Ma’lumki, yog‘ochning chiziqli o‘lchamlari va hajmini undagi bog‘langan namlikning pasayishi bilan kamayish xususiyati qisqarish deb ataladi. Yog‘ochdan uning g‘ovaklaridagi erkin suvning yo‘qotilishi uning qurishiga sabab bo‘lmaydi. Namlik yog‘och tolalarning to‘yinganlik nuqtasidan o‘tganidan keyin qurish boshlanadi, ya’ni qurish yog‘och namligining 28-30% dan pastga tushishi bilan boshlanadi. Yog‘och butunlay quruq holatga kelganda qisqarish to‘xtaydi [3, 4].

Amalda, taxta va bruslarning qurishi ular o‘rtacha namligining 25-30% ni tashkil etganda boshlanadi, chunki ularning tashqi qatlamlari ichki qatlamlarni quritish boshlanishidan ancha oldin tolalar bilan to‘yinganlik nuqtasi namligidan past bo‘ladi. Siqilish miqdori asl o‘lchamga nisbatan foiz hisobida ifodalanadi. Yog‘och, shuningdek, qisqarishning qaramaqarshi xususiyatiga - shishish qobiliyatiga ega. Yog‘och namligi 0 dan 30% gacha ko‘tarilganda shishish ro‘y beradi.

Yog‘och strukturasining bir xil emasligi bois uning qisqarishi va shishishi turli yo‘nalishlarda turlicha bo‘ladi. Eng katta qiymat tangensial yo‘nalishda bo‘ladi. Barcha namlik yo‘qotilganda qurish (o‘lchamlarning qisqarishi) 8-12% ga yetadi. Misol uchun, 100 mm kenglikdagi yon tomondan kesib tayyorlangan taxta mutloq quruq holatga qadar quritilganda, uning kengligi 88-92 mm gacha kamayadi. Radial kesim yo‘nalishida qisqarish 5-8% ni tashkil qiladi, bo‘ylama –yog‘och tolalari yo‘nalishi bo‘yicha 0,1% ni tashkil etadi. Taxtaning bo‘ylama yo‘nalishdagi qisqarishi hech qachon hisobga olinmaydi.

Yog‘och kapillyar-g‘ovak material sifatida o‘z gigroskopikligini namoyon etadi, atrof-muhit (havo) namligini qabul qilib oladi. Yog‘och uzoq muddatda havoning bir xil harorati va namlik sharoitida bo‘lsa gigrometrik muvozanat holati ro‘y beradi. Bunday muvozanat holati havodagi va yog‘och materiali kapillyarlaridagi suv bug‘ining elastik holati bir xil bo‘ladi. Yog‘och materialining gigrometrik muvozanat namligi va havoning mos ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabat grafiklar ko‘rinishida 1-rasmda keltirilgan [5, 6].



1-rasm. Yog‘och gigrometrik muvozanat namligining havo harorati va nisbiy namligiga bog‘liqligi diagrammasi.

Yog‘och tolasi to‘yinish darajasigacha namlanganda uning hajmi va chiziqli o‘lchamlari ortadi, ya’ni uning shishishi kuzatiladi. Yog‘och tomonidan tolasining to‘yinish darajasigacha suvni shimishi kuzatilsa, undan keyingi namlikning oshishi yog‘ochni shishira olmaydi, yog‘och boshqa shishib o‘lchamlari kattalashmaydi. Nam yog‘och tolasining to‘yinish nuqtasidan qurishni boshlasa, bug‘lanadigan namlik miqdori qanchalik ko‘p bo‘lsa qisqarish deformatsiyasi shunchalik katta bo‘ladi.

Amaliyotda qurib kichrayish deformatsiyasi ko‘rsatkichlari GOST 6782.1-75 – Пилопродукция из древесины хвойных пород (Davlatlararo standart) nomli me’yoriy hujjat asosida aniqlanadi. Me’yoriy hujjatda keltirilgan me’yorlar arralangan yog‘och materialining

bir marta 38% namlikdan 5% namlikkacha qurishi natijasida ko‘ndalang kesim o‘lchamlarining qisqarishini aniqlash uchun me’yoriy ko‘rsatkichlar keltirilgan. Mazkur me’yoriy qiymatlar takror va takror qurish va namlanib shishish bilan bog‘liq deformatsiya ko‘rsatkichlarini baholash uchun yetarlimikin.

Buxoro hududiy temir yo‘llari unitar korxonasining ochiq omborlarida qishda yomg‘irli va qorli, shuningdek, yozda quyosh nurlari ta’sirida uzoq yillar davomida saqlanayotgan arralangan yog‘och materialining (2-rasm) ko‘ndalang kesim o‘lchamlari 2021-yil bo‘yi, har oyda o‘lchandi va baholandi. Oy kunlari davomida yog‘och hajmining o‘zgarishi (qisqarish yoki shishish) havoning harorati va nisbiy namlikning ko‘rsatkichlariga bog‘liqlikda o‘zgarishi kuzatildi.

2-rasm. Buxoro hududiy temir yo‘llar unitar korxonasi ochiq omborida saqlanayotgan arralangan yog‘och materiallari

Quyida, 3, 4-rasmlarda arralangan yog‘och materiallarining deformatsiya ko‘rsatkichlari (qisqarish va shishish) ning havoning harorat va nisbiy namlik ko‘rsatkichlariga bog‘liq ravishdagi o‘zgarish grafiklari yilning sovuq (dekabr) va issiq (iyun) oylari uchun keltirilgan. Arralangan yog‘och materiallarining deformatsiya ko‘rsatkichlari ular saqlanayotgan sharoit, havoning nisbiy namligiga bog‘liq ravishda uning yuqori qiymatlarida shishish, kichik qiymatlarida qurish jarayonlari bilan kechishi taqdim qilingan grafiklarda yaqqol ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, dekabr oyi (3-rasm) havo haroratining +15 ^{0}C dan -3^{0}C gacha o‘zgargan sharoitida havoning nisbiy namligi 30% dan 90% gacha o‘zgargan. Shu sharoitda, ochiq maydonda saqlangan arralangan yog‘och materialining namligi 4% dan 24% gacha o‘zgargan. O‘z navbatida bunday o‘zgarish arralangan yog‘och materiali hajmining 5% (-2% dan +3% gacha) gacha o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Iyun oyi uchun keltirilgan natijalar (4-rasm) o‘rtacha kunlik havo haroratining 30-35^{0}C atrofida, havo nisbiy namligining o‘rtacha kunlik qiymatining 15-20% chegarasida o‘zgarganligini, shu sharoitda ochiq maydonda saqlanayotgan arralangan yog‘och materiali namligining 3-4% ni tashkil etganligini (oy davomida deyarli bir xil saqlangan) ko‘rsatadi. Havoning bunday haroratiy va namlik sharoitida arralangan yog‘och materiali qurib 2,3 % atrofida qisqarishni namoyon etgan.



3-rasm. Havo harorati va nisbiy namligi, arralangan yog‘och materialining namligi, hajmining qurish va namlanib shishish natijasida o‘zgarish grafiklari: 2021 yil dekabr oyi uchun: 1-havo haroratining kunlik o‘rtacha qiymati; 2-havo nisbiy namligining kunlik o‘rtacha qiymati; 3-arralangan yog‘och materialining namligi; 4-1 m3 arralangan yog‘och materiali hajmining qurish yoki shishish natijasida o‘zgarishi.



4-rasm. Havo harorati va nisbiy namligi, arralangan yog‘och materialining namligi, hajmining qurish va namlanib shishish natijasida o‘zgarish grafiklari: 2021 yil iyun oyi uchun: 1-havo haroratining kunlik o‘rtacha qiymati; 2-havo nisbiy namligining kunlik o‘rtacha qiymati; 3-arralangan yog‘och materialining namligi; 4 - 1 m3 arralangan yog‘och materiali hajmining qurish yoki shishish natijasida o‘zgarishi.

Tadqiqotlar, yil davomida havo harorati va nisbiy namligining o‘zgarishi baravarida ochiq maydonlarda saqlanadigan arralangan yog‘och materiallari namligining ham o‘zgarib turishi, uning natijasida yog‘och materiallarida qurib, hajman qisqarish yoki namlanib shishish deformatsiyalari takror va takror ro‘y berishini ko‘rsatdi. Bunday deformatsiya holatlari uzoq muddat ochiq maydonlarda, o‘zgaruvchan havo ko‘rsatkichlari sharoitida saqlanayotgan yog‘och materiallarining, ayniqsa foydalanish darajasida arralanib tayyorlangan

yog‘och materiallarining mustahkamlik va yaroqlilik ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir qiladi, bu esa uzoq muddatlarda ochiq maydonlarda saqlanadigan arralangan yog‘och materiallarining sifat, mustahkamlik va yaroqlilik masalalarini chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

Adabiyotlar

1. ГОСТ 6782.1-75 Пилопродукция из древесины хвойных пород. Величина усушки. Межгосударственный стандарт. Москва. ИПК. Издательство стандартов.

2. ГОСТ 6564-84. Межгосударственный стандарт. Пиломатериалы и заготовки. Правила приемки, методы контроля, маркировка и транспортирование. Издание официальное. Москва Стандартинформ 2007.

3. В.П. Болдырев. Сушка древесины. Издательство «ПРОФ ИКС» Санкт-Петербург 2002.

4. Mamatkulov T. Yog‘och va plastmassa konstruksiyalari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2019. 130 b.

5. А.В. Пачковский , Н.В. Мозговой. Физические процессы сушки древесины. Вестник Воронежского государственного университета. 2010., С.5-7. 6. Рассев А.И. Сушка древесины. М.: Лесная промышленность, 1990- 224с.

BASICS OF TECHNOLOGY OF MATERIALS AND PRODUCTS BASED ON MINERAL BINDERS

Buriboyev Shavkat Abduvoitovich
Associate professor (SamSACU),
Maxammatov Muzaffar Safarovich
Lecturer (SamSACU),

Аннотация Zavodda qurilgan uy-joy qurilishida pardozlash uchun eng samarali materiallar mineral bog'lovchilarga asoslangan dekorativ beton va ohakdir. Ular asosiy material - konstruktiv beton kabi o'xshash fizik-mexanik xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Tugatishda ko'pincha strukturaviy betonga dekorativ xususiyatlarni berish uchun maxsus usullar qo'llaniladi, bu uning yuzasini har xil matritsalar va xarakterli tuzilishga ega materiallardan foydalangan holda qoliplash orqali erishiladi. Yuqori sifatli sirtlarni tsement iste'moli ko'paygan plastik betondan foydalanganda taxta qoliplari, qamish poyalari, rezina matritsalarga qoliplash orqali olish mumkin.

Kalit so’zlar: mineral bog`lovchilar, bezak xossalari, ishlab chiqarilishi, pardozlash materiallari, xossalari, mahalliy xomashyo, qo`shimchalar, texnologiyasi, tuzilishi, barqarorligi, materiallar holati.

Аннотация Декоративные бетоны и растворы на основе минеральных вяжущих наиболее эффективные материалы для отделки в условиях заводского домостроения. Они характеризуются такими близкими физико-механическими свойствами, как и основной материал - конструкционный бетон. При отделке часто используют специальные приемы для придания декоративных свойств конструкционному бетону, что достигается формованием его поверхности с помощью различных матриц и материалов, обладающих характерной текстурой. Высококачественные поверхности можно получить при формовании изделий на дощатой опалубке, стеблях камыша, резиновых матрицах при использовании пластичных бетонов с повышенным расходом цемента.

Ключивые слова: минеральные вяжущие, декоративность, производства, отделочные материалы, свойства, местные сырье, добавки, технология, структура, стабильность, состояние материалов.

Annotation Decorative concretes and mortars based on mineral binders are the most effective materials for finishing in factory-built housing construction. They are characterized by similar physical and mechanical properties as the main material - structural concrete. When finishing, special techniques are often used to impart decorative properties to structural concrete, which is achieved by molding its surface using various matrices and materials with a characteristic texture. High-quality surfaces can be obtained by molding products on plank formwork, reed stems, rubber matrices when using plastic concrete with increased cement consumption.

Key words: mineral binders, decorative properties, production, finishing materials, properties, local raw materials, additives, technology, structure, stability, condition of materials.

При отделке зданий и сооружений часто используют сухие товарные смеси на основе минеральных вяжущих для изготовлення декоративных бетонов и растворов.

Технология получения сухих товарных бетонных смесей заключается в следующем. Сухие компоненты (белый или цветной цемент, декоративный песок, щебень) загружают в барабан бетоно смесителя гравитационного перемешивания, установленного на автомобиле. Вода, отдозированная на заводе в количестве, необхо димом на замес, заливается в бак на этом же автомобиле. Во время транспортирования смеси вода самотеком или с помощью насоса подается в барабан бетоносмесителя, компоненты смешиваются, а полученная бетонная смесь выгружается на месте потребления. При таком производстве декоративных бетонов из сухих товарных смесей расслоение при транспортировании исключается [1].

Сухие декоративные товарные растворные смеси приготавливают перемешиванием 3-5 частей песка и одной части цемента с добавкой пигмента. Для приготовления используют белый или обычный портландцемент и просушенный песок. Пигментами служат нетоксичные минеральные краски, стойкие к действию света и щелочей (охра, сурик, мумия, оксид хрома и пр.). Количество пигмента в смеси составляет 3-10%. Полученная пигментированная су-

хая смесь наносится на свежеотформованную поверхность слоем 2-3 см. Затвердевает такая смесь вследствие адсорбции воды с поверхностного слоя свежеотформованного изделия. К сухим пигментированным растворным смесям относятся терразитовые штукатурки.

По способу нанесения штукатурка бывает «сухой» и «мокрой». Сухая штукатурка представляет собой заранее заготовленные на заводе тонкие плиты, прикрепляемые к основной конструкции. Мокрую штукатурку наносят несколькими слоями на специально подготовленную поверхность. Первый слой называется обрызгом, второй - грунтом, третий - накрывкой. Обрызг наносится на поверхность с целью заполнения неровностей, а также для лучшего сцепления последующих слоев с основанием. Грунт служит для создания ровной поверхности. Обычная его толщина - 5-7 мм. Накрывка - слой, толщиной не более 3 мм, предназначенный для покрытия всех углублений и создания чистой и гладкой поверхности.

Штукатурки подразделяются на высококачественные, улучшенные и простые. Для временных и малоответственных сооружений применяют простую штукатурку в два слоя, без накрывки. Тип штукатурного раствора выбирается в зависимости от материала основания и назначения. Прочность каждого последующего слоя штукатурного раствора должна быть ниже прочности предыдущего, иначе нижележащий слой раствора при твердении верхних слоен может отстать и разрушиться [2].

Штукатурные работы - один из сложных и трудоемких строительных процессов. Поэтому, согласно СНиП III-21-73, штукатурные покрытия могут применяться только в порядке исключения при отделке помещений в местах, где применение индустриальных видов отделки затруднено или недопустимо, а также если необходимо обеспечить в помещениях санитарно-гигиенические требования, противопожарные меры защиты конструкций, температурно-влажностный режим, необходимую воздухонепроницаемость стен и защиту конструкций от влияния агрессивных сред. Толщина штукатурного слоя обычно 5-6 мм, но может достигать 10 мм.

Современными видами рассматриваемой отделки являются штукатурки с каменной крошкой, терразитовая, из коллоидно-цементного раствора.

Декоративная штукатурка с каменной крошкой может быть выполнена двумя способами: введением в состав раствора мелкой каменной крошки либо посыпкой каменной крошки на свежий штукатурный грунт. Первый способ проще и не требует от рабочих специальных навыков, второй-обеспечивает более высокое качество фактуры. Цвет отделки зависит от сочетания цветов дробленого камня и декоративного раствора, в связи с чем для приготовлення раствора используют цветные цементы и пигменты.

Терразитовая штукатурка отличается от других тем, что, обладая невысокой прочностью, способна самообновляться под действнем атмосферных условий (сбрасывает поверхностные мелкодисперсные частицы вместе с загрязняющей фасад пылью). В результате такого процесса фасад, оштукатуренный терразитом, всегда имеет свежий вид [3].

Таблица 1.

Примерные цветные терразитовые составы, % по массе

Цвет	Белый цемент	Пигмент: наименование	Пигмент: количество
Белый	27,4	Ультрамарин	0,2
Палевый	24,6	Охра	2
		Мумия	1
Терракотовый	25,5	Охра	0,7
		Сурик железный	1,4
Голубовато-светло серый	26	Ультрамарин	0,7
		Охра	0,3
		Жженая кость	0,7
Зеленый	24,8	Окись хрома	2,8
Бирюзовый	26	Окись хрома	1,3
		Ультрамарин	0,3
Голубой	26,6	Ультрамарин	1,4
Желтвй	22,4	Охра	5,2
Розовый	27,2	Сурик железный	0,4

Использование мелких песков в составе растворов позволяет наносить их слоем до 2 мм и применять не штукатурные, а малярные методы. Терразитовые составы (табл. 1) наносят на подготовленные поверхности при помощи кистей или распылением через форсунки. Они представляют собой разновидность цементно-песчаных и известково-штукатурных растворов, содержащих пигменты, слюду (для блеска) и песок. Все заполнители перед дозированием и смешением должны быть тщательно промыты и высушены.

Штукатурка на основе коллоидно-цементного клея позволяет применять индустриальные методы работ. По физико-механическим свойствам она превосходит все остальные, однако характеризуется меньшей декоративностью. Этот представляет собой продукт совместного вибро помола декоративного цемента и кварцевого песка, взятых в соотношении 7:3 по массе. Удельная поверхность после помола составляет 500 м²/кг.

Примечание. Для всех составов борется: извести-пушонки 7,4 % песка 60% слюды- 5 %.

Штукатурные растворы получают смешением клея с водой и песком. Если нужно получить раствор повышенной водостойкости, то в его состав вводят гидрофобизаторы.Раствор наносится на выровненную поверхность соплом с помощью нагнетательного бачка, а раствор, приготовленный с крупностью зерен до 3 мм, с помощью растворомета.

Поверхности выравнивают полимерцементным раствором, нанеся его слоем до 10 мм. Раствор готовят из цементно-песчаной смеси с добавлением воды и 0,5-1% поливинилацетатной дисперсии.

Albatta ko'rsatmalilik samarali natijalar berishi uchun uning boshqa tomonlarini ham e'tiborga olish kerak. Birinchidan, ishlatiladigan ko'rsatmali qurollar u yoki talabalarining yoshi va o'ziga xos xarakter xususiyatlari, umumiy tayyorgarlikka-saviyasiga mos keladigan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, foydalaniladigan ko'rsatmali qurollar o'tilayotgan dars mavzusining mazmunini ochib berishiga yordam beradigan materiallar bo'lishini hisobga olmoq, demak, uning to'g'ri tanlanishiga e'tibor bermoq lozim. Uchinchidan, dars jarayonida foydalanish uchun belgilangan ko'rsatmali materiallardan unumli foydalanmoq uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari to'g'ri tanlangan bo'lishi lozim. Umuman olganda, ta'limni ko'rsatmali bo'lishini ta'minlash ustida hozirda ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va ko'rsatmalilikni samaradorligini oshirishda fan-texnikaning keyingi yillar ichida erishgan yutuqlaridan foydalanish masalasi ishlab chiqilmoqda.

Bilimlarni puxta va tizimli o'zlashtirib olish tamoyili Ta'lim jarayonida biz talabalarni bilimlarni mustahkam esda saqlanib qolishini ta'minlash zaruriy talablardan biridir. O'quv materiallarini mustahkam esda saqlab qolish, ayni dars jarayonida bayon qilinayotgan o'quv materiallarini tizimli va ongli o'zlashtirishga bog'liq. Avvalgi mashg'ulotlarda hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalar ancha murakkabroq materialni o'zlashtirib olish uchun pillapoya, baza bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham bilimlar bazasining puxta bo'lmasligi keyingi o'rganiladigan yangi bilimlarni ham zaif bo'lishiga olib keladi. Yaxshi o'zlashtirilgan, mustahkamlangan bilimlarda esa keyingi yangi bilimlarni o'rganishda va mustahkamlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ularning puxta anglab olinganligini tekshirish, ba'zi tushunmovchiliklarni yo'qotish, mustahkamlashga e'tiborni qaratish didaktikaning asosiy masalalaridan biridir. Ta'lim jarayonida takrorlashni uyushtirish bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Takrorlashning ahamiyati shundaki, takrorlash faqat oldindan o'zlashtirilgan o'quv materialinigina esga tushirmay, balki shu o'quv materiallariga bog'liq bo'lgan yangi-yangi ma'lumotlar ham beriladi, o'zlashtirilgan bilimlarning noaniq tuman bo'lib qolgan tomonlari oydinlashtiriladi va to'ldiriladi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni uzluksiz va ma'lum tizim asosida olib borilishi ta'lim samarasini oshiradi. Bilimlarni doimiy ravishda tekshirib borish, takrorlash tizimli va uzluksiz ravishda to'ldirib borish muhim didaktik talabdir. Ta'lim jarayonida shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish tamoyili Har bir talaba o'ziga yarasha qiziqishlari va shu bilan bir qatorda miqdori mavjud. Har bir talabaning o'ziga xos bo'lgan yutuqlari va shu bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Agar pedagoglar o'quv jarayonida ana shu individual xususiyatlarni hisobga olmasalar har qancha unumli metodlardan foydalanmasinlar o'quv jarayonida yaxshi natijalarga erisha olmaydilar. Chunki ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabani umumiy rivojini ta'minlash. Lekin talabaning haqiqiy rivoji faqat uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Talabalarning real o'quv imkoniyatlarini, ularning rivojlanish jihatlarini o'rganish hozirgi vaqtda shunchaki xohish emas, balki majburiy talabdir. Busiz o'quv jarayonini muqobillashtirish, uni boyitish aqlga sig'maydi. Albatta shaxsiy xususiyatlar juda xilma-xil va ularni o'rganish ma'lum vaqt talab etadi. Kuzatish jarayonida talabaning kuchli va ojiz tomonlarini, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, hayoliga mos bo'lgan xususiyatlarini bilib olish mumkin. Talaba shaxsining muammolari va qiyinchiliklarini tahlil qilish hamda shu muammolarning sabablarini aniqlash keyingi pedagogik chora-tadbirlarni rejalashtirishda juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa o'zlashtirishi bir oz pastroq bo'lgan talabalar bilan yakka holda ishlash jarayonida pedagog o'zi uchun talabaning yangi qirralarini kashf etishi e'tiborli. Keyingi davrlarda "differensiallashgan ta'lim" degan tushunchani keng tarqalishining asosiy sababi ham shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati, qiziqishlari, iqtidori kabilarni hisobga olgan holda talabalarni guruhlarga ajratishni va shu guruhlar uchun alohida dasturlar ishlab chiqishga qaratilgan. Guruhlar

uchun tuzilgan dasturlar, qo'llaniladigan metodlar talabalarning shaxsiy xususiyatlari hisobga olgan holda tanlanadi.

Didaktika bu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va bu ta'limning samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ta'limda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili Ma'lum gurux uchun belgilangan o'quv materiallarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu sinf talabalarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. O'rganilayotgan bilimlar, xosil qilinayotgan malaka va ko'nikmalar talabalarni xaddan ziyod toliqtirib qo'ymasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda, o'quv jarayoni talabalarning sog'ligi, psixik holatiga salbiy ta'sir etishini oldini olish lozim. Buning uchun har bir yosh xususiyatlarini chuqurroq o'rganib imkoniyatlar darajasini belgilab olish kerak. Ta'limning mazmuni shaxslarning kuch-quvvatiga mos bo'lishiga erishish lozim. Ta'limni haddan ziyod "yengillashtirish", "osonlashtirish" ham maqsadga muvofiq emas, chunki bunday ta'lim rivojlantiruvchi bo'la olmaydi. Demak har bir yosh davrida talabalarning imkoniyatlarini o'rganish va imkoniyatlarga mos ravishda ta'limni tashkil etish, o'rganiladigan bilimlar hajmini belgilashda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish juda muhim bo'lib bu yo'nalishda ham tegishli ilmiy-tekshirish ishlari olib borilmoqda. Hozirda O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash, mukammallashtirish borasida bir talay ishlar olib borilmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, o'quv tarbiya jarayonining hamma bosqichlarini mukammallashtirish, har tomonlama yetuk barkamol avlodni yetishtirish uchun shart-sharoit yaratish masalalari ko'rib chiqilgan. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) belgilangan. Bular ta'limning ustivorligi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shartsharoitlar yaratish kabilardir. Ko'rib turganimizdek uzluksiz ta'limni rivojlantirish tamoyillari didaktik tamoyillar bilan hamoxang bo'lib, ana shu didaktik tamoyillarni yanada mukammallashuviga turtki bo'lib xizmat qilmokda.

Adabiyotlar ruyxati.

1. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Toshkent. 2003 y.
2. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. – T.: Moliya-iqtisod, 2008.
3. Xakimova M.F. Kasb pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2007.
4. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi pedagogikasi fanidan o'quv-uslubiy majmua. – T.: TDPU, 2011 y. 17. Xoshimova M.K. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" fanidanma'ruzalar matni.Toshkent. 2012 y.
5. Xoshimova M.K. "Kasb ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar" fanidanma'ruzalar matni.Toshkent. 2012 y.
6. L.V. Golish, D.M. Fayzullayeva "Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish" Toshkent. "Iqtisodiёt" 2009 y.
7. www.google.ru
8. www.ziyonet.uz

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ БАРЧА ЖАБҲАЛАРИНИНГ АСОСИ СИФАТИДА.

Аляминов Хайрулла Исламович.
Архитектура кафедраси мудири, педагогика фанлари номзоди, доцент.
Қорақалпоқ Давлат университети, Нукус шаҳри.

INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP IS THE BASIS OF ALL ASPECTS OF BUSINESS ACTIVITY.

Alyamov Khairulla Islamovich.
Head of the Department of Architecture, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor.
Karakalpak State University, Nukus.

Аннотация: Мақоланинг мақсади талабаларга тадбиркорлик соҳасида муваффақиётларга эришишларининг йўлларини, тадбиркорлик ғоясини излашдан бошлаб, ташкилотнинг истеъмолчилар учун зарур маҳсулот ишлаб чиқаришга имкон берадиган аниқ лойиҳани амалга ошириш занжирини очиб беришдан иборат. Тадқиқот методи мазкур мавзуга оид адабиётларни ўрганиш, таҳлил қилиш усулларига асосланган. Мақола хулосасида олий таълим муассасаларида талабаларнинг инновацион тадбиркорлик фаолиятига тайёргарликнинг тўртта мотивацион, конгнитив, фаолиятли, инновацион жиҳатини ажратиб ўтилган. Мақолада шунингдек, мазкур компонентлар ичидаги энг муҳими фаолиятли компонент ҳисобланиб, улар: иқтисодий ҳаётга бевосита иштироки, талабаларнинг таълим жараёнидаги инновацион тадбиркорликга оид билимларни ўзлаштириш даражаси, инновацион тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишда зарур бўлган кўникма ва малакаларга эгалиги ҳисобланиши баён этилган.

Калит сўзлар: тадбиркорлик, инновацион тадбиркорлик, янги ғоя, бизнес-режа, ресурс излаш, мотивацион, конгнитив, фаолиятли, инновацион.

Кириш. Мамлакатимизнинг ОТМларида инновацион тадбиркорлик фаолиятини шакллантириш ва уни ишлаб чиқариш корхоналари билан корпоратив бирга ишлаш йўлларини аниқлашда ўзига хос

имкониятлар эшигини очиши аниқ, бу икки томонларнинг яъний иш берувчи корхона билан бўлажак ишчи талабалик давридан бошлаб корхона буюртмасини бажаришга қаратилиб икки томон манфаатларини ҳисобга олиш механизмларини ишлаб чиқиш куннинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб келмоқда.

Иқтисодий эркинлик ҳар бир ОТМнинг ривожланишида ва инновацион тадбиркорликни ривожлантириш орқали ОТМ битирувчиларининг келажакда рақобатдош кадрларни мамлакатимизга тайёрлаш ва тарбиялашда бозор иқтисодиёти даврида янги иш ўринларини яратишда тезкорликда бозор эҳтиёжларига мослашишни талаб этмоқда. ОТМ даги тайёрланаётган йўналишларни бозор талабларига мослигини таъминлайди.

Тадқиқот методи муаммога доир илмий ва махсус адабиётлар, лойиҳаларни таҳлил қилиш. Талабаларнинг тадбиркорлик фаолиятини инновацион ривожланиш йўналишларини шакллантиришга Каратилган таклиф ва тавсиялар беришдан иборат.

Тадқиқот натижаси. Тадбиркорликни – капитални йўналтиришнинг янги соҳаларини излаш, мавжуд маҳсулотлар ишлаб чиқаришни такомиллаштириш ва янгиларини яратиш, шахсий устуворликни ривожлантириш, даромад олиш учун турли имкониятлардан самарали фойдаланиш деб таърифлаш мумкин. Шу билан бирга тадбиркорлик бозор учун янги маҳсулот ишлаб чиқариш, фаолият соҳасининг ўзгартирилиши ёки янгиси корхона ёки тармоқ барпо этилишида мажбурий фойдаланиш деб тавсифланади. Тадбиркорлик моҳиятини идрок этишда тадбиркорларнинг ўзаро боғлиқ тўрт фаолиятини алоҳида кўрсатган америкалик иқтисодчилар Р.Мак Коннелл ва С.Ю. Брюларнинг қуйидаги нуқтаи назарлари алоҳида аҳамият касб этади:

– тадбиркор ер, маблағ ва меҳнат ресурсларини маҳсулот ишлаб чиқариш ҳамда хизмат жараёнига бирлаштириш ташаббусини ўз зиммасига олади;

– тадбиркор бизнесни олиб бориш жараёнида асосий қарорларни ишлаб чиқиш ва қабул қилишни, яъни бизнесни ривожлантириш йўналишлари, корхона фаолияти йўналишини белгиловчи операцияларни ўз зиммасига олади;

– тадбиркор янги маҳсулот (хизмат)ларни ишлаб чиқаришга интилувчи, янги ишлаб чиқариш технологияларини ишлаб чиқарувчи ёки бизнесни ташкил қилишни ва ривожланишнинг янги шаклларини олиб кирувчи ташаббускор шахсдир;

– тадбиркор тадбиркорлик фаолиятида юзага келадиган хавфни ўз зиммасига олади, зеро, тадбиркор учун даромад олиш кафолатланмаган, сарф этилган вақт, ҳаракат ва қобилиятлардан даромад олиш баробарида зарар кўриш ҳам мумкин.

Бундай ҳолларда тадбиркор нафақат ўзининг ўз вақти, меҳнати ва ишбилармонлик обрўси билан, балки сарф этилган маблағ билан ҳам таваккал қилади. Шундай қилиб, ижодкорлик тадбиркорлик вазифаларидан бири бўлиб, тадбиркорлик фаолиятида доим мавжуд бўлиши шартдир. Дарҳақиқат, янги ғояларни излаш ва уларни татбиқ этиш тадбиркорликнинг энг муҳим ва шу билан бирга энг мураккаб вазифасидир, чунки, бу ҳолда тадбиркордан нафақат ижодий фикрлаш ва янги ечимларни топиш, балки истиқболли фикрлаш, келажакдаги жамиятнинг эҳтиёжларини кўра олиш хусусиятини ҳам талаб этади. Инновациялар – тадбиркорликнинг махсус қуроли бўлиб, бунда инновациялар ўз ҳолича эмас, балки янгиликларни йўналтирилган ташкилий излаш, уларга тадбиркорлик таркибларининг мунтазам қаратилганлигидир. Тадбиркорлар фикрлашнинг инновацион турини фарқлайди, инновацион фаолият эса ўзида тадбиркорликнинг алоҳида қуролини акс эттиради.

Инновацион тадбиркорлик – тадбиркорлик фаолияти барча жабҳаларининг асоси сифатида қараш мақсадга мувофиқдир. Чунки, инновацион тадбиркорлик – бир пайтнинг ўзида ҳам иқтисодий ҳолат, ҳам жараёндир. Иқтисодий ҳолат сифатида тадбиркорлик истеъмолчиларга маълум тавсифларни (иш хизмат), зарур натижани олиш бўйича ишлаб чиқариш ва сотиш, ишлаб чиқариш муносабатларининг шакли сифатида намоён бўлса, иқтисодий ҳолат сифатида эса, товар (иш, хизмат) сотиш жараёнида истеъмолчилар[1] билан, маҳсулот етказиб берувчилар ва бошқа хўжалик юритувчи субъектлар, ёлланган ишчилар ва ниҳоят, давлат ва бошқа бошқарув ташкилотлари билан ўзаро муомалада юзага келадиган муносабатларнинг барча тизимини ўзида акс эттиради.

Тадбиркорлик жараён сифатида ҳаракатларнинг – тадбиркорлик ғоясини излаш (туғилиши)дан бошлаб, ташкилотнинг истеъмолчилар учун зарур маҳсулот ишлаб чиқаришга имкон берадиган аниқ лойиҳасига айланишига қадар мураккаб занжирни ўзида акс эттиради. Ушбу жараён фойданинг маълум ҳажмини қўлга киритиш билан ниҳояланади. Шунга кўра тадбиркорлик жараён сифатида тўрт асосий босқични ўз ичига олади:

– янги ғоялар излаш ва уларни баҳолаш;

– батафсил бизнес-режа тузиш;

– зарур ресурсларни излаш;

– яратилган корхонани бошқариш.

Дарҳақиқат, бизнес-режани ишлаб чиқиш билан бирга ғоялар танланади ва баҳоланади, шу вақтнинг ўзида яратилаётган инновацион ташкилот давлат рўйхатидан ўтказилиши ва патент олиш учун талабнома берилиши мумкин. Инновацион тадбиркорлик учун янги ғояларни излаш ва яратилаётган интеллектуал маҳсулотни ҳимоя қилиш каби босқичлари айнан муҳим аҳамият касб этади.

Инновацион тадбиркорлик – ғоя ва ихтиролардан амалий фойдаланиш орқали янги товар ва технологиялар яратиш жараёни ҳисобланади. Шундай қилиб, тадбиркор-новаторнинг вазифаси – ихтироларни татбиқ этиш билан бирга ишлаб чиқаришни ислоҳ қилишдир, янада кенгроқ маънода янги технологик имкониятларни қўллаш орқали янги маҳсулотларни ишлаб чиқариш ёки тайёр маҳсулот бозори очилиши ёки янги манбанинг очилиши эвазига эски маҳсулотларни янги услубда ишлаб чиқаришдан иборат[2].

Инновацион тадбиркорлик – янгилик яратишнинг алоҳида ижодкорлик жараёнидир, хўжалик жараёни, унинг замирида мунтазам янги имкониятларни излаш, инновацияларга йўналтирилганлик

ётади. Бу мавжуд лойиҳани такомиллаштириш ёки янгисини амалга оширишдаги таваккалчиликни, шунингдек, бу жараёнда юзага келадиган молиявий, маънавий ва ижтимоий жавобгарликни тадбиркор ўз зиммасига олишга тайёрлиги билан боғлиқ. Инновацион тадбиркорлик жараёнида ўз хусусиятларига кўра инновациялар орқали янгилик киритиш амалий фойдаланиш орқали (маҳсулот ва хизматлар, олий маҳсулотлар) ва технологиялар воситасида ишлаб чиқарилади. Инновация ёки янгилик киритиш янги жараён, янги воситани маҳсулот жараёнини (техник, иқтисодий, ташкилий, маданий ва б.) яратиш ва фойдаланиш. Фаолият воситалари маҳсулот ва услубларини такомиллаштирувчи радикал янгилик ва янгиликларни ажратади.

Мунозара. Мамлакатимизда тадбиркорлик фаолиятига кенг имкониятлар, шароитлар, имтиёз ва афзалликлар берилаётгани, хўжалик юритувчи субъектлар сонининг кўпаяётгани, бунда эркин рақобат муносабатларининг ривожланиши ҳамда иқтисодиётнинг хизмат кўрсатиш йўналишига бўлаётган талабнинг ошиб бориши билан асосланади. Иқтисодий тараққиётнинг устувор йўналиши бўлиб фақат ишлаб чиқариш омиллари ва инвестициялар асосида иқтисодий ривожлантириш эмас, балки улар билан бирга кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини инновацион ривожланиш йўналишларини шакллантириш асосида келажакда инновацион иқтисодиёт моделига ўтиш лозимдир. Биз ўз тадқиқотимиз давомида олий таълим муассасаларида талабаларнинг инновацион тадбиркорлик фаолиятига тайёргарликнинг тўртта жиҳатини ажратиб ўтишга ҳаракат қилдик:

- Мотивацион. Бунда мотивацион жиҳати сифатида: сабаб, эҳтиёж, мақсад сари ҳаракат қилиш ва қадриятлар йиғиндисини назарда тутилди;
- Конгнитив. Талабаларнинг иқтисодий ва инновацион тадбиркорлик фаолият тўғрисидаги билимлар йиғиндиси;
- Фаолиятли. Талабалардаги инновацион тадбиркорлик фаолиятининг ҳар хил турлари асосида шакллантириладиган кўникмалар ва малакалар;
- Инновацион. Ҳар бир талабанинг функционал вазифаси сифатидаги ижтимоий- психологик сифатлари.

Мазкур компонентлар ичидаги энг муҳими фаолиятли компонент ҳисобланиб, улар: иқтисодий ҳаётга бевосита иштироки, талабаларнинг таълим жараёнидаги инновацион тадбиркорликга оид билимларни ўзлаштириш даражаси, инновацион тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишда зарур бўлган кўникма ва малакаларга эгалиги ҳисобланади.

ОТМларда талабаларнинг инновацион тадбиркорлик фаолиятига тайёргарлигиниг конгнитив компонентлик моҳияти:

- тадбиркорликни ривожлантириш;
- талабаларнинг тадбиркорлик билан шуғулланувчи шахслар фаолияти ҳақидаги билимлар;
- Ҳар хил турдаги товарларни ишлаб чиқариш технологияларини билиши ҳисобланади.

Фикримизча, мамлакатимизда ОТМларда талабаларнинг тадбиркорлик фаолиятини инновацион ривожланиш йўналишларини шакллантиришда қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

- тадбиркорлик субъектларининг инновацияларга максимал даражада таъсирчанлигини таъминлайдиган шароитларни яратиш;
- илғор технологияларни тижоратлаштириш соҳасидаги мавжуд вазиятни тубдан ўзгартириш заруриятини шакллантиришга таъсир кўрсатувчи инновацион инфратузилмалар фаолиятини шакллантириш;
- таълим жараёнида талабаларни фанларнинг амалий машғулотларида Startap лойиҳаларига ишланмаларни тайёрлашга жалб этиш;
- талабалар томонидан яратилган тадбиркорликга оид янги ғоя ва маҳсулотларни бозор шароитида реализация этиш учун маркетинг ёрдамчи бўлимларни ташкил этиш.

Адабиётлар рўйхати

1. Х.Аляминов. Подготовка студентов к инновационному предпринимательству в университетах. Журнал текущих исследований по педагогике, 4(11), 56-60. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-10
2. Болтаев Ш.Ш, Рахматов А.А. Тадбиркорликни инновацион ривожлантиришнинг айрим жиҳатлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2019 йил “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. №2, апрель, 2021 йил. ISSN: 2181-10163.
3. Жўраев Т.Т, Каландаров Р.А. Кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш орқали иқтисодиётнинг реал секторини инновацион тараққиётини таъминлаш. Илмий-оммабоп рисола.- Т., 2019 йил., 52 б
4. Кирьяков А.Г, Максимов В.А. Основы инновационного предпринимательства. – М.: Феникс, 2002. – С. 160.
5. Аляминов. Х. И. (2023). Инновацион тадбиркорлик-шахс шаклланишида муҳим фактор сифатида. Quality of teacher education under modern challenges, 1(1), 77-81.
6. Alyaminov, X. I. (2023). Innovative entrepreneurship in students as a factor of socialeconomic development of society. Zibaldone Estudios Italianos, 10(2), 393-399.

"TO‘G‘RI CHIZIQ KESMASINI TAHLILI" MAVZUSINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH

DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPATIAL IMAGINATION IN THE PROCESS OF TEACHING THE SUBJECT "ANALYSIS OF A STRAIGHT LINE INTERSECTION"

Xo‘janiyozov Shokir Rustamovich
Urganch davlat universiteti "Arxitektura" kafedrasi dotsenti
Khojaniozov Shokir Rustamovich
Urganch State University "Architecture" associate professor of the department

Sobirov Azamat Sa'dullaevich
Urganch davlat universiteti "Arxitektura" kafedrasi o‘qituvchisi
Sobirov Azamat Sadullaevich
Urganch State University "Architecture" teacher of the department

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda fazodan tekis chizma, fazodagi turli geometrik yasashlarni ko‘z oldiga keltira olish darajasini oshirish maqsadida pozitsion masalalarni bosqichli algoritm orqali tushuntirish masalalari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar:
Chizma geometriya, tekislik, fazo, geometrik shakl, masala, to'g'ri chiziq, tasavvur, pozitsion masala.

Аннотация: В данной статье с целью повышения умения учащихся визуализировать плоский рисунок из пространства, различные геометрические конструкции в пространстве были рассмотрены задачи объяснения позиционных задач посредством пошагового алгоритма.

Ключевые слова: Геомертия чертежаб плоскость, пространство, геометрическая фигура, задача, прямая, воображение, позиционная задача.

Annatiation: In this state, with the goal of improving the skill of flying, visualizing a flat drawing from space, different geometric constructions and space, explaining the task of positional tasks by means of a step-by-step algorithm.

Key words: Drawing geometry, plane, space, geometric shape, problem, straight line, imagination, positional problem.

Chizma geometriya fanidan talabalarning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishda boshqa fanlarga nisbatan ma'lum ma'noda ustunlikka ega. Chunki bu fanda uch o‘lchamli fazoda joylashgan geometrik shakllarning ikki o‘lchamli tekislik yoki sirt ustidagi tasvirini yasash usullari tadqiq qilinadi. Bundan tashqari bu fanlardagi qoidalar orqali geometrik shaklning tekislikda tasvirlangan chizmasi orqali uning fazoviy holati, shakli-shamoyilini tiklash mumkin. Bu yerda fazodan tekislikka, va aksincha, tekislikdan fazoga "ko‘chish"ni anglash, tushunish uchun kishidan kuchli fazoviy tasavvur va tafakkur talab qilinadi. Tasavvur va tafakkurlar psixologiyada bilish faoliyatiga oid operatsiyalar hisoblanadi.

Tasavvur qilmoq – falsafa va psixologiyaga oid termin sifatida idrok qilingan, his etilgan narsa yoki hodisaning kishi onggida aks etishi, gavdalanishi.

Tasavvur – hayol uchun asosiy qurilish materialidir. Aslini olganda, hayol- tasavvurning qayta o‘zgartirilishidan iboratdir, ya'ni ularni fikran qismlarga ajratish, birlashtirish, transformatsiya qilish va hokazo. Odamning faoliyatida hal qiluvchi rolni erkin hayol ya'ni faoliyatning maqsadga yo‘naltirilgan erkin hayoli o‘ynaydi. Bular fanda qabul qilingan terminlar bo‘lib, turmush va texnikadagi barcha detallar, buyumlar va hattoki tabiatdagi obyektlar ham nuqta, chiziq va tekisliklarning o‘zaro kombinatsiyasidan hosil bo‘ladi. [1]

Hozirgi kunda chizma geometriya va chizmachilik fanlaridan bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash davomida ularda tasavvur va tafakkurni rivojlanish darajasi qoniqarli holatda emas. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun pedagog olimlar, chizmakashlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bizning ilmiy maqolamizda ham mazkur muammoni bartaraf etishga qaratilgan fikrlarimiz bayon qilinadi. Biz bir qator pozitsion masalalarni yechish va uni o‘qitish jarayoniga o‘z metodik qarashlarimizni taklif qilamiz. Bizning tadqiqotimizda bitta pozitsion masala namuna sifatida keltirilgan bo‘lib, uni o‘qitish jarayonida talabaning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Avvalo pozitsion masala ta'rifi bilan tanishaylik: "Ikki geometrik shaklning o‘zaro vaziyatidan hosil bo‘lgan uchinchi geometrik shaklni aniqlashga qaratilgan masalalarga pozitsion masala deyiladi". Masalan, ikki tekislikning kesishishi, to‘g‘ri chiziqni tekislik bilan kesishishi, ikki sirtning kesishishi, o‘zaro parallel va perpendikular tekisliklar o‘tkazish va boshqalar. [2]

To‘g‘ri chiziqning ikki nuqta bilan chegaralangan qismi to‘g‘ri chiziq kesmasi deyiladi. To‘g‘ri chiziq eng oddiy geometrik shakl hisoblanadi. Bir-biridan farqli ikki nuqta orqali faqat bitta to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkin. Agar fazodagi bir-biridan farqli ikkita A va B nuqtalarni o‘zaro tutashtirib, uni ikki qarama-qarshi

tomonga cheksiz davom ettirilsa, a to‘g‘ri chiziq hosil bo‘ladi.

Berilgan *a* to‘g‘ri chiziqning ortogonal proyeksiyalarini yasash uchun bu chiziqqa tegishli ikki *A* va *B* nuqtalarning ortogonal *A1*, *A2* va *B1*, *B2* proyeksiyalari yasaladi. Bu ikki nuqtaning bir nomli proyeksiyalarini tutashtiruvchi *A* va *B* chiziqlar fazoda berilgan to‘g‘ri chiziqning gorizontal va frontal proyeksiyalari bo‘ladi.

Proyeksiya tekisliklari bilan bir xil burchak tashkil qilgan to‘g‘ri chiziqlar. Agar biror to‘g‘ri chiziq fazoda H, V va W lar bilan bir xil burchak hosil qilib joylashgan bo‘lsa, uning *AB* kesmasining uchala proyeksiyalari o‘zaro teng, ya’ni *AB^H=AB^V=AB^W* bo‘lsa, *A1B1=A2B2=A3B3* bo‘ladi. Shu bilan birga *A3B3//A2B2* bo‘lib, *Δx=Δy=Δz* bo‘ladi. [1]



Chizmada kesmaning berilgan proyeksiyalari orqali uning haqiqiy uzunligi va proyeksiyalar tekisliklari bilan hosil qilgan burchaklarini aniqlash uchun yuqoridagi fazoviy model asosida to‘g‘ri burchakli uchburchaklar yasaladi. Shuning uchun bu usulni to‘g‘ri burchakli uchburchak usuli deb yuritiladi.



Masalan, *AB* kesmaning *A1B1, A2B2 va A3B3* proyeksiyalarga asosan uning haqiqiy o‘lchami va H bilan hosil qilgan α burchagini aniqlash uchun to‘g‘ri burchakli $A1B2B_0$ uchburchak yasaladi. Bu uchburchakning bir kateti kesmaning gorizontal proyeksiyasiga, ikkinchi kateti esa kesmaning *A* va *B* uchlarining applikatalari ayirmasi Δz ga teng bo‘ladi. Bu uchburchakning $A1A_0$ gipotenuzasi *AB* kesmaning haqiqiy o‘lchami, $A1B_0=AB$ bo‘lib, AB^H=∠$B1A1B_0$=α bo‘ladi.

Kesmaning V tekislik bilan hosil qilgan β burchagini aniqlash uchun to‘g‘ri burchakli $\triangle A2B2A_0$ ni yasaladi. Bu uchburchakning bir kateti kesmaning frontal *A2B2* proyeksiyasiga, ikkinchi kateti esa *AB* kesma uchlari ordinatalari ayirmasi *Δy* ga teng bo‘ladi. Hosil bo‘lgan $B2A_0=AB$ bo‘lib, *AB^V=*∠$A2B2A_0$=β bo‘ladi.

AB kesmaning W tekislik bilan hosil etgan burchagini aniqlash uchun esa to‘g‘ri burchakli $\triangle A3B3B_0$ ni yasaymiz. Bu uchburchakning bir kateti kesmaning profil *A3B3* proyeksiyasi, ikkinchi kateti kesma uchlarning W tekislikdan uzoqliklarning absissalar ayirmasi □x bo‘ladi. Hosil bo‘lgan $B'''A_0 = AB$ bo‘lib, AB^W=∠$A3B3B_0$ =γ teng bo‘ladi. [1]

To‘g‘ri chiziq kesmasini berilgan nisbatda bo‘lish quyidagicha amalga oshiriladi parallel proyeksiyalashning xossasiga asosan biror nuqta fazodagi to‘g‘ri chiziq kesmasini qanday nisbatda bo‘lsa, uning bir nomli proyeksiyalari to‘g‘ri chiziq kesmasining proyeksiyalarini ham shunday nisbatlarga bo‘ladi.

Quyida berilgan chizmaga asosan nuqta *AB* kesmani deb qabul qilinsin va proyeksiyalari *A1C2=A2B2.*

To‘g‘ri chiziqqa tegishli nuqtaning bunday xususiyatidan foydalanib, har qanday to‘g‘ri chiziq kesmasini ixtiyoriy nisbatda proporsional bo‘laklarga bo‘lish mumkin. Masalan berilgan *AB(A1B1, A2B2)* to‘g‘ri chiziq kesmasini teng 5 bo‘lakka bo‘lish uchun kesmaning ixtiyoriy, masalan, gorizontal proyeksiyasining *A1* uchidan ixtiyoriy burchakda yordamchi *C* to‘g‘ri chiziq o‘tkaziladi. Bu to‘g‘ri chiziqqa ixtiyoriy o‘lchamli teng kesmalar besh marta qo‘yib chiqiladi. So‘ngra *5* va *B1* nuqtalarni o‘zaro tutashtirilib, *4, 3, 2* va *1* nuqtalardan *5 B1* chiziqqa parallel chiziqlar o‘tkaziladi.



Natijada, *A1B1* kesma *5* ta teng bo‘lakka bo‘linadi. To‘g‘ri chiziq kesmasining gorizontal *A1B1* proyeksiyasidagi bu nuqtalardan foydalanib kesmaning *A2B2* frontal proyeksiyasini proyeksion bog‘lanish chiziqlari yordamida teng 5 bo‘lakka bo‘lish qiyin emas. [1]

To‘g‘ri chiziqning izlari. Ta’rif. To‘g‘ri chiziqning proyeksiyalar tekisliklari bilan kesishish nuqtalari to‘g‘ri chiziqning izlari deyiladi.

Umumiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziq hamma proyeksiyalar tekisliklarini kesib o‘tadi. Biror a to‘g‘ri chiziqning gorizontal proyeksiyalar tekisligi bilan kesishgan nuqtasi uning gorizontal izi, frontal proyeksiyalar tekisligi bilan kesishgan nuqtasi frontal izi deyiladi. Shuningdek, to‘g‘ri chiziqning profil proyeksiyalar tekisligi bilan kesishgan nuqtasi uning profil izi deyiladi:



Masalan to‘g‘ri chiziq izlarini yasashning fazoviy modeli ko‘rsatilgan. To‘g‘ri chiziqning gorizontal izini proyeksiyalarini chizmada aniqlash uchun quyidagi yasash algoritmlari bajariladi. To‘g‘ri chiziqni frontal *A2* proyeksiyasining *Ox* o‘qi bilan kesishish nuqtasi $A2_H = A2 \cap Ox$ topiladi;

$A2_H$ nuqtadan *Ox* o‘qiga perpendikulyar o‘tkaziladi;

To‘g‘ri chiziqni frontal *A2* proyeksiyasining *Ox* o‘qi bilan kesishish nuqtasi $A2_H = A2 \cap Ox$ topiladi;

$A2_H$ nuqtadan *Ox* o‘qiga perpendikulyar o‘tkaziladi;

To‘g‘ri chiziqning gorizontal proyeksiyasi *A1* bilan perpendikulyarning kesishish nuqtasi to‘g‘ri chiziqning gorizontal izining gorizontal proyeksiyasi $A1_H \equiv a_H$ bo‘ladi.

To‘g‘ri chiziqning profil izini yasash uchun:

Uning frontal proyeksiyasini *Oz* o‘qi bilan kesishguncha davom ettiriladi.

Hosil bo‘lgan a_W nuqtadan *Oz* ga perpendikulyar chiqariladi.

To‘g‘ri chiziqning profil proyeksiyasi bu perpendikulyar bilan kesishguncha davom ettiriladi va $A_W \equiv A3_W$ aniqlanadi yoki to‘g‘ri chiziqning *A1* gorizontal proyeksiyasi *Oy* o‘qi bilan kesishguncha davom ettiriladi.

Hosil bo‘lgan nuqtadan y o‘qiga perpendikulyar chiqariladi. Uni $A2_V$ dan Oz ga chiqarilgan perpendikulyar bilan kesishish nuqtasi *A* to‘g‘ri chiziqning profil izining profil proyeksiyasi bo‘ladi. To‘g‘ri chiziqning gorizontal va frontal proyeksiyalariga asosan uning profil proyeksiyasini ham yasash mumkin. Buning uchun uning yuqorida tanlab olingan *A* va *B* nuqtalarning profil proyeksiyalari yasaladi va ular o‘zaro tutashtiriladi. [3]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Murodov, L. Xakimov, A. Xolmurzayev, M. Jumayev, A. To‘xtayev Chizma geometriya. –Toshkent.: “Iqtisod-moliya” 2006-y.

2. I.Davletov, M.Nurmetov, Sh.Xo‘janiyozov “Muhandislik grafikasi” –Buxoro.: “Bukhara hamd print” 2022-y.

3. S.S.Saydaliyev, M.M.Xamroqulova MUHANDISLIK GRAFIKASI (Qurilish chizmachilik) o‘quv qo‘llanma Toshkent, 2017 yil.

4. L.O'.Rasul-Zade, Dj.X.Mirhamidov. Chizma geometriya (Perspektiva va soyalar). Toshkent. TAQI, 2015.

5. S.S Saydaliyev, M.M Xamrakulova. Qurilish chizmachilik. TDPU nashriyoti. 2017 y.

MUNDARIJA - TABLE OF CONTENTS

1-Sho'ba. Arxitektura, shaharsozlik, dizayn soxalarida tarix, bugun va kelajak istiqbollari; 1st Section. History, today and future prospects in architecture, urban planning, design;	**Bet Page**
ON THE PROBLEM OF THE TYPOLOGY OF MONUMENTAL BUILDINGS IN AZERBAIJAN. COFFEE SHOPS *Райха Аменздде*	4
HYDRAULIC STRUCTURES OF MEDIEVAL AZERBAIJAN *Rayha Amenzadeh, Gafarova Gunel Anvar*	6
STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE CITY OF NUKUS *Aimbetov Islam Saparimbet uli*	9
EVOLUTION OF SAMARKAND CITY GENERAL PLANS *A.B. Balgaev, Sh.A.Balgaeva, Sh.B. Toshkulov*	11
TRADITIONS OF LOCAL RESIDENTIAL CONSTRUCTION IN THE KHORAZM OASIS *Karieva Nazokat Jumanazarovna*	15
THE MEANING OF PARKS AND THE CREATION OF COMFORTABLE ENVIRONMENT IN MODERN URBAN ARCHITECTURE *Kurbanova Maxsuda Karshiyevna*	18
COMPARATIVE ANALYSIS OF WOODEN STRUCTURES USED IN HISTORICAL MOSQUES IN SAMARKAND CITY *Jurayeva Elvira Elmuradovna, Zubaydullayev Ulug'bek Ziyadullayevich, Mardonova Manzura, Murodova Zebiniso*	20
SOCIAL MISSION UNIVERSITY IN CONSTRUCTION OF A COMFORTABLE HOUSE IN CITIES WITH HISTORICAL HERITAGE *Tojiboyev U.I.*	25
PRINCIPLES OF URBAN ENVIRONMENT DESIGN AND THE METHODS OF THEIR RESEARCH *Suyunova Nilufar Abdumajitovna, Dzhumakulov Fozil Uzokovich*	27
ESTABLISHMENT OF THE CENTRAL AREAS OF RESIDENTIAL HOUSES IN THE POPULATION PUKS *Beknazarov Murod Boynazarovich, A'zamov J.G'., Boynazarov M.M.*	31
PRINCIPLES OF FORMATION OF RURAL COMMUNITY CENTERS *D.U. Sultanov; K.I.Rakhimov*	35
PROBLEMS OF CREATING A COMFORTABLE MICROCLIMATE IN RESIDENTIAL BUILDINGS *Yusufov Sardorbek Azimboy ugli; Matkarimov Alisher Ismoilovich; Karieva Nazokat Jumanazarovna*	36
INNOVATIVE PROCESSES IN THE DEVELOPMENT OF TRADITIONAL SETTLEMENTS IN KHIVA URGANCH STYLE *Atamuratov Adilbek Ataboevich, Bekturdiev Izzat Maqsudovich*	38
METHODS FOR PRESERVING HISTORICAL NEIGHBORHOODS8 OF THE CITY OF BUKHARA *Babaeva Madina Shamsiddinovna*	40
RENOVATION IN ARCHITECTURE AND METHODS OF ECOLOGICAL DEVELOPMENT OF RESIDENTIAL AREAS IN MODERN URBAN CONDITIONS, CONDITIONS AND CRITERIA OF CREATING AN ECOLOGICALLY FRIENDLY LIVING ENVIRONMENT *Manoyev Bahron Manoyev Said Bahronovich*	44
FEATURES, BASIC PRINCIPLES AND TASKS OF CITY GREENING IN THE HOT-DRY CLIMATE OF UZBEKISTAN *A.S. Uralov*	48
FOREIGN EXPERIENCE AND INNOVATIVE PROPOSALS FOR GREENING TERRITORIES WITH EXTREME CLIMATIC CONDITIONS *S. Pirniyazov, A.S. Uralov*	52
THE LEADING TRADITIONS SPECIFIC TO THE ARCHITECTURE AND CITY OF KHURASON IN THE NAVO PERIOD *А.С. Уралов , Д.З. Камолова , Х.Н. Холдоров*	56
FREE INDUSTRIAL ZONES AND THE HISTORY OF THEIR FORMATION *Malikov Ulug'bek Erkinovich*	61
LIGHT AND COLOR *Mukhamadiyev Esan*	63
IN TOURIST COMPLEXES AND HOTELS THE PRINCIPLES OF CREATING A BARRIERS-FREE ENVIRONMENT *Sharipova Y.O. Yusupova.A.I.*	65
TRANSPARENT FORMS IN MODERN ARCHITECTURE	70

O.N. Babakandov., A.M. Xakberdiyev., B.R. Toshtemirov.	
BASIC PRINCIPLES OF ENSURING ARCHITECTURAL OBJECTS ACCESSIBILITY FOR DISABLED PEOPLE AT DIFFERENT STAGES OF THE LIFE CYCLE OF BUILDINGS AND STRUCTURES. *Isakova Muqaddas Badirovna*	73
FORMATION OF COMMUNITY CENTERS OF RURAL POPULATION AREAS AND ORGANIZATION OF A NETWORK OF SERVICE INSTITUTIONS *M. Khudoyarova, O'. Mamatkulov, J. Annakulov, A. Takhirov*	76
CULTURAL - HOUSEHOLD SERVICE IN RURAL AREAS GENERAL DEVELOPMENT OF THE SHOW *Assoc. M. Khudoyarova, O'. Mamatkulov, J. Annakulov, A. Takhirov*	78
METHODS OF USING HISTORICAL MONUMENTS FOR MODERN PURPOSES *Raximov Laziz, Kamilova Marjona, Berdiyev Malik, Mahmudova Feruza*	79
DEVELOPMENT OF THE PRINCIPLES OF PEDESTRIAN SPACES AND IMPROVEMENT OF INFRASTRUCTURE IN THE HISTORICAL EUROPEAN PART OF THE CITY OF SAMARKAND *Rizakhanov Jahongir, Kamilova Marjona, Sa'dullayeva Nigora*	82
POSSIBILITY OF USING RENEWABLE AND ALTERNATIVE TYPES OF ENERGY IN ARCHITECTURE *Janizaqov Abduvahob Esirgapovich, Polatov Azizulla Zafarjan oglu*	85
PERSPECTIVES OF UNDERSTANDING AND IMPLEMENTATION OF INFORMATION MODELLING TECHNOLOGIES IN THE CONTEXT OF RESTORATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS *D. Kamalova*	87
TO BE ABLE TO CHOOSE THE RIGHT METHODS OF LANDSCAPING SCHOOL AND PRESCHOOL AREAS *Tashmatova Xosiyat Sidikovna*	90
METHODS OF APPLYING DIGITAL TECHNOLOGIES UNDER DESIGN PROCESS *Bozorboy Salomovich Makhamov, Berdiyev Malik Xoliqulovich*	91
DEVELOPMENT OF URBAN AND RESIDENTIAL CENTERS *Mirzaolimov Azizbek Abduxokim o'g'li*	93
THE FORMATION OF IRRIGATION SYSTEMS OF THE CITY OF SAMARKAND AND THEIR IMPORTANCE IN CREATING MICROCLIMATE CONDITIONS FOR TOURIST ROUTES *Sultanov Damir Utkurovich*	96
THE FORMATION OF RURAL NEIGHBORHOOD CITIZENS' ASSEMBLY OF OUR REPUBLIC AND THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD INSTITUTE *Sereeva Guljazira Adilbaevna*	100
STUDY OF THE MODERN BASICS OF ARCHITECTURAL DESIGN OF BUILDINGS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS *Tashmatova Xosiyat Sidikovna, Sultonov Ilhom Ziyayevich*	103
AN IMPROVED COMPLEX APPROACH TO IMPROVING THE ENERGY SAVING EFFICIENCY OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Aymatov Anvarbek Abdixoliqovich, Xalimov Xabibullo Baxtiyorjon o'g'li*	105
GRAPHIC RECONSTRUCTION OF THE TOP CLOSED SHOPPING STREET –"TIM" OF AMIR TEMUR IN SAMARKAND, WHICH HAS NOT BEEN PRESERVED BEFORE US. *Б.Ҳ. Элмуродов , А.С.Уралов , К.Д.Рахимов*	108
METHODS OF APPLYING NATIONAL TRADITIONS IN THE INTERIORS OF BUILDINGS BUILT DURING TSARIST RUSSIA IN UZBEKISTAN. *Khudoyarova .M.B. Chekaeva R.U. Masaridinova N.A.*	114
THE IMPORTANCE OF DAIMYO GARDENS IN THE DEVELOPMENT OF TRADITIONAL JAPANESE GARDEN ART *Boboyeva Fotima Sobirjonovna*	119
HARMONY OF ARCHITECTURAL ENVIRONMENTS OF CULTURAL HERITAGE WITH OLD AND NEW FUNCTION *SH.M.ABDURAIMOV*	123
MODERN PROBLEMS OF SAMARKAND MUSEUMS PRESENT AND FUTURE *Yuldasheva Munavar.K., Soliev Faridun., Aliyev Saadin*	126
TRADITIONAL CRAFTS OF UZBEKISTAN IN INTERIOR DESIGN *Suyunova N.A., Bakhridinova K.F.*	129
FOLK ARCHITECTURE AND MODERNITY, BETWEEN CONSERVATIVE AND INTERPRETATIVE PRINCIPLES *Suyunova N.A.,Dzhuraeva G.N.*	133
INTERIOR LIGHTING DESIGN. *Abdukarimov Begali Abdalievich.*	136

THE ROLE OF MODERN INDUSTRIAL DESIGN IN PRODUCTION *Pirmatova Durdona Sherzod kizi*	137
METHODS OF USING GREEN FENCES, CURBES, BASKETS AND ARBORETUMS IN LANDSCAPE ARCHITECTURE AND ITS ROLE IN MODERN ARCHITECTURE *MakhmatkulovTurdimurod, Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich*	139
SOVIET MODERNISM IN THE FORMATION OF TASHKENT THEATERS: IN THE EXAMPLE OF ILHOM THEATER STUDIO AND BUILDING. *Sultanova. M.F*	142
ABOUT THE LION IMAGE PROBLEM *Razikberdiyev Murtazo Ismaildjanovich*	144
THE EMERGENCE OF THE FIRST RESTAURANTS AND THE DEVELOPMENT OF INTERIOR DESIGN. IN THE NAME OF KAMOLIDDIN BEHZOD *Mannopova Nilufar Ravshanovna*	146
SOME SUGGESTIONS ON THE USE OF KALAJIK CASTLE IN TOURIST DIRECTIONS *Setmamatov Maksud Bekturdievich, Rakhimov Elbek Rakhimovich, Matvapaeva Shahsanam Shokirjon's daughter*	149
JOINT ACTIVITIES OF ARCHITECTURE AND ECOLOGY IN MODERN URBAN PLANNING *Ulugbek Zubaydullayev, Khakimov Dilshod, Umarova Mahbuba*	154
RESEARCH OF THE MICROCLIMATE OF THE TASHKENT METROPOLITAN *Y. M. MANSUROV*	156
FOREIGN EXPERIENCE IN THE DESIGN AND CONSTRUCTION OF INNOVATIVE ARCHITECTURE OF MUSEUMS OF THE WORLD *Yuldasheva M.K., Rakhmanova M.B.*	160
PUBLIC HAMMAMS OF THE XIXth AND EARLY XXth CENTURIES IN SAMARKAND. FORMATION, TRADITIONS AND FEATURES OF ARCHITECTURE *Lolita Zalotdinova Ramilevna*	163
HISTORY AND METHODS OF RENOVATION OF KHOJA SAFOI WALI MEMORIAL-RELIGIOUS COMPLEX IN SAMARKAND *Akmal Rayimkulov Axmatovich*	166
FORMATION OF THE LANDSCAPE SOLUTION OF THE RAILWAY AREA AND THE SURROUNDINGS ON THE BASIS OF LOCAL AND FOREIGN EXPERIENCES *Elvira Jurayeva, Odilova Fayoza, Nurmuradova Yulduz*	169
PRINCIPLES OF FORMATION OF MULTI-FUNCTIONAL MODERN SKYSCRAPERS AND COMPLEXES *Yorkulov F.I.*	173
FORMATION AND CLASSIFICATION OF WATER ENTERTAINMENT HEALTH CENTERS *Najib Ibragimov*	175
INNOVATIONS IN RESTORATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS Narkulov O.O.	177
FUNCTIONAL PURPOSE AND TYPES OF HOTELS *Asadov Sherbek*	180
STAGES OF FORMATION OF TRADITIONAL RESIDENTIAL BUILDINGS IN UZBEKISTAN *Dostonov A.S., Fozilova Z.Q.*	183
PREREQUISITES AND MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF RURAL SETTLEMENTS OF UZBEKISTAN *Aliyev Saadin*	185
MODERNIZING DESIGN OF BUILDINGS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS IN URBAN AREAS AND ORGANIZING AN ARCHITECTURAL ENVIRONMENT *Tashmatova Khosiyat Sidikovna Rakhimov Komil Iskandarovich*	187
PAST AND PRESENT OF RESIDENTIAL BUILDINGS *Chorshanbaev Fayzulla Ziyatovich, Melieva Chinngul Otaqulovna, Ziyatova Aziza*	189
ARCHITECTURE OF PROTECTIVE WALLS. *Yunusov Alisher Shukhratovich*	191
SIGNIFICANCE OF WATER AND IRRIGATION SYSTEM IN ANCIENT KHORAZM ARCHITECTURE. *Yunusov A.SH.*	193
ORGANIZATION OF A MULTIFUNCTIONAL GARDEN *Khamidova Dildora Abdukhakimovna, Abdullayeva Firuza Timurovna*	194
ZIYORAT TURIZMI VA DUNYO DINLARIDA ZIYORATNING O‘RNI *Fayzullayeva Nodira Nayimovna, Shodiyeva Sitora*	196

NAMANGAN FLOWERS-THE FORMATION OF LANDSCAPE ARCHITECTURE IN THE CITY. *A.Abduroxmonov, R.Abduraximov*	198
ARCHITECTURAL FORMATION OF RECREATION CENTERS AND POPULATION POINTS IN THE MOUNTAIN REGIONS OF UZBEKISTAN *Xalikov Sanjar Ravshanovich*	201
METHODS OF GEOMETRIC MODELING OF ARCHITECTURAL OBJECTS IN COM-PUTER GRAPHICS *Kulnazarov Bakhram, Tojiboyev Ulug'bek*	204
THE ENVIRONMENT OF THE HISTORICAL CITY PRESERVATION IN MODERN UR-BAN PLANNING *Marupova N.S. Kamilova M.E.*	206
INTERIOR OF THE OLD JOYLANGAR MOSQUE, AND THE DECORATIONS USED IN IT *Urokov Olimjon Xayitboyevich., Bozorboyeva Dilshoda*	209
IMPROVING ADAPTATION OF "SMART HOUSES" TO THE NATURAL CLIMATIC CONDITIONS OF NAVOI REGION *Aymatov Anvarbek Abduxoliqovich, Kuysinova Farangiz Ziyodulloyevna, Shakarova Laylo Odilovna, Shukurova Mehrangiz Sherali qizi.*	210
PRINCIPLES OF FORMATION OF PUBLIC CATERING BUILDINGS IN NATIONAL AND MODERN STYLES *Aymatov Anvarbek Abduxoliqovich, Alijanova Matlubaxon Shakirjon qizi*	214
FOREIGN EXPERIENCE IN FORMING RECREATION AREA AND COUNTRY RESORTS *Talipov Maxirdjan Agzamovich, Irismetov Murodjon Bayotjon o'g'li*	216
TYPES OF LOCATION OF VILLAGES IN SAMARKAND REGION *Kuysinova Farangiz*	218
SCIENTIFIC PERSPECTIVE ON THE PROBLEMS OF URBAN ENVIRONMENT FOR-MATION (polemical judgments) *Усманов Мурадхан*	221
LANDSCAPE AND ARCHITECTURAL ENVIRONMENT OF CHILDREN'S MULTIDISCI-PLINARY REHABILITATION CENTERS *Агамян С.Ю*	223
SIGNIFICANCE OF WATER AND IRRIGATION SYSTEM IN ANCIENT KHORAZM ARCHITECTURE *Yunusov A.Sh.*	225
ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ЗОНЫ *Салимов Орифжон Муслимович, Файзуллаева Нодира Найимовна*	227
HISTORY OF FORMATION AND DEVELOPMENT PRINCIPLES OF MODERN PHY-TODESIGN *Raximov Kamol Djalolovich, Safarova Inobat Achilovna*	229
GENERAL DESCRIPTION AND CURRENT STATE OF SAMARKAND SQUARES, CATEGORIES AND TYPES OF SQUARES *Raximov Kamol Djalolovich, Islamova D.G.*	232
МЕТОДЫ СОЗДАНИЯ БАЗЫ ДАННЫХ ПО ПАМЯТНИКАМ АРХИТЕКТУРЫ БУ-ХАРЫ (НА ПРИМЕРЕ МЕДРЕСЕ АБДУЛАЗИЗХАНА) *Салимов О.М., Файзуллаева З.Н.*	236
RELATIONSHIP OF PEDAGOGY WITH OTHER SCIENCES AND SYSTEM OF PEDA-GOGICAL SCIENCES *Makhmudova Sabohat Abdusattorovna*	239
SAMARQAND USTA RESTAVRATORLARI *Rahmanov J., Botirov A.*	241
2-SHO''BA. QURILISHNING BARCHA JABHALARI, QURILISH ASHYOLARI, MU-HANDISLIK KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSIYALAR; **2ND SECTION. MODERN TRENDS AND INNOVATIONS IN ALL ASPECTS OF CON-STRUCTION, BUILDING MATERIALS, ENGINEERING COMMUNICATION SYSTEMS;**	244
INFLUENCE OF THE SHAPE OF THE TOP GIRDER ROD SHAPE OF OVER-SPAN TRUSSES ON ITS WEIGHT *A.S. Asliev, M.A. Balgaeva*	244
CHARACTERISTICS OF MATERIALS THAT INCREASE THE HEAT RESISTANCE OF EXTERNAL BARRIER WALLS. *Egamova Marg'uba Turakulovna, Razzokov Nurmuhammadxon Sayidmaxsud o'g'li*	247
COMPUTER MODELLING AND NUMERICAL STUDIES OF NODAL CONNECTIONS OF STRUCTURAL STRUCTURES *Makhmatkulov Turdimurod, Ibragimov Nizom Khusenovich*	249

COMPUTER MODELING STUDY OF THE STRESS-STRAIN STATEOF CONTINUOUS ROOFING SANDWICH PANELS *Rakhimov Akram Khaxarovich, Ibragimov Nizom Khusenovich* *Mukaramov Shakhboz Raufovich*	251
ISSUES OF ENSURING THE RELIABILITY OF BASES AND FOUNDATIONS OF OPERATING MONUMENTS OF ARCHITECTURE *Абдирахим Мадатов, Abdirakhim Madatov*	254
CALCULATION OF THE TEMPERATURE FIELD OF EXTERNAL ENCLOSING STRUCTURES USING THE FINITE DIFFERENCE METHOD. *Khaitov Maruf Bolikulovich, Matyokubov Bobur Po'latovich*	259
SPECIFICDEVELOPMENTS OF PINTERAL STRUCTURES IN MODERN ARCHITECTURE *Uralov Akbarali*	261
THE ROLE AND EFFECTIVENESS OF NANOTECHNOLOGIES IN THE FIELD OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION *Achilova M. F., Saburov K. U. Sharipov A. E.*	265
METAL SIDINGS AND THEIR APPLICATION IN MODERN BUILDINGS. *Bo`ronov Raxmiddin Yozilovich., Boronov Rakhmiddin Yozilovich*	268
DEFORMATION OF SAWN WOOD MATERIALS STORED IN OPEN WAREHOUSES UNDER CHANGING CONDITIONS OF AIR TEMPERATURE AND HUMIDITY *Usmanov Farkhod Bafoevich[1],Kakhkhorov Hamid Akhrorovich,* *Yakhshiev Yokub Gafforovich*	271
INCREASING INDICATORS OF SHRINKAGE OR SWELLING DEFORMATION OF SAWN WOOD MATERIAL STORED IN OPEN AREAS DEPENDING ON DECREASE IN AIR TEMPERATURE AND RELATIVE HUMIDITY *Usmanov Farkhod Bafoevich[1],Kakhkhorov Hamid Akhrorovich,* *Yakhshiev Yokub Gafforovich*	274
BASICS OF TECHNOLOGY OF MATERIALS AND PRODUCTS BASED ON MINERAL BINDERS *Buriboyev Shavkat Abduvoitovich , Maxammatov Muzaffar Safarovich*	277
ELECTRON MICROSCOPIC ANALYSIS OF DRY PLASTER MIXTURES *Fayzillaev Zahid Bakhodirovich, Makhammatov Muzaffar Safarovich, Babayev Sultonbek Sunnat o'gli*	280
IMPROVEMENT OF THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM IN CONSTRUCTION Suyunov A.S.б Suyunova N.A.	282
ALL ABOUT FEATURES OF BUSINESS IN THE INVESTMENT AND CONSTRUCTION COMPLEX Tabibov Abduvaris Latipovich	284
I ERECTED A MONUMENT TO MYSELF, NOT MAN-MADE, THE PEOPLE'S PATH TO IT WILL NOT BE OVERGROWN, HE ASCENDED HIGHER WITH THE HEAD OF THE REBELLIOUS PILLAR OF ALEXANDRIA. *Turobova Komila Nazhmiddinovna*	286
DISPERSED REINFORCEMENT OF FINE-GRAINED HEAVY CONCRETE WITH GLASS FIBER *Kuldashev Xoljigit ., Mannatov Botir Farxodovich*	288
INCREASING THE EFFICIENCY OF VERMICULITE CONCRETE BASED ON CEMENT WITH LOW WATER DEMAND. *Yusupov Xamid Vahobovich., Karimov Gofur Umirkulovich., Saidmurodova Sarvara Muzaffarovna*	289
SOME DESIGN ISSUES IN THE FEATURES OF CONTOUR STRUCTURES *Abdumonnonov Mahsud, Suvonov Obidjon ., Saparov Hazratkul.*	293
3-SHO''BA. XORIJIY DAVLATLARDA ZAMONAVIY ARXITEKTURA VA QURILISH SOHALARIDA ERISHILGAN ILG'OR TAJRIBALAR VA YUTUQLAR; **3RD SECTION. ADVANCED EXPERIENCES AND ACHIEVEMENTS IN THE FIELDS OF MODERN ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION IN FOREIGN COUNTRIES;**	296
RATIONALISM IN LATE 19 TH-CENTURY US ARCHITECTURE (CHICAGO SCHOOL). *Khalikov Sindorkul Ravshanovich*	296
4-SHO''BA. ARXITEKTURA VA QURILISH TA'LIMI SOXASIDA ILG'OR PEDAGOGIK G'OYALAR **4TH SECTION. ADVANCED PEDAGOGICAL IDEAS IN THE SPHERE OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION EDUCATION**	300
MECHANISMS FOR INCREASING THE EDUCATIONAL EFFECTIVENESS OF SPECIALIST PERSONNEL TRAINING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS *Quldoshev Asliddin Tursunovich*	300

TALABALARNING UMUMMADANIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA *Yakubova Feruza Yusufovna*	302
ADVANCED PEDAGOGICAL IDEAS IN THE FIELD OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION EDUCATION *Abbosova Mehribon*	305
O'QUV JARAYONIDA O'QITISH METODIKASINI O'RGANISH VA ISHLASH TAMOYILLARI N.N.To'rayeva, I.Yu.Egamov	307
INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP IS THE BASIS OF ALL ASPECTS OF BUSINESS ACTIVITY Alyamov Khairulla Islamovich	308
"TO'G'RI CHIZIQ KESMASINI TAHLILI" MAVZUSINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH *Xo'janiyozov Shokir Rustamovich, Khojaniozov Shokir Rustamovich*	311



Sketch muallifi: Babakandov Otabek

2091-5004